


67.YOY
90
TDIU

SH.SH.SHODMONOV,
B.D.XAJIYEV,
R.A.YUSUPOV

IQTISODIY TARAQQIYOT JADALLASHUVI



63.404.1

8198

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SH.SH.SHODMONOV, B.D.XAJIYEV, R.A.YUSUPOV

**IQTISODIY TARAQQIYOT
JADALLASHUVI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

TOSHKENT – 2021

UO'K: 338:33M (575.1)

KBK 67.404.1

SH 98

Sh.Sh.Shodmonov, B.D.Xajiyev, R.A.Yusupov. Iqtisodiy taraqqiyot jadallahushi. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 –336 b.

ISBN 978-9943-7395-1-2

Ushbu o'quv qo'llanmada "Iqtisodiy taraqqiyot jadallahushi" fanining predmeti va vazifalari, jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti jadallahushi konsepsiyalari shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va yo'nalishlari, jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti jadallahushi muammolarimingga ogibatlari va ularni hal etish yo'llari, iqtisodiy taraqqiyot jadallahushi va xalqaro savdoning rivojlanish tendensiylari, global, mintaqaviy va milliy moliyaviy bozorlar, jahon iqtisodiy taraqqiyoti jadallahushi sharoitida ishechi kuchi bozori va migratsiyasi muammolari, iqtisodiy taraqqiyoti jadallahushi sharoitida transmilliy korporatsiyalarning roli, jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti jadallahushi sharoitida iqtisodiy xavfsizlik va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlash muammolari qamrab olingan.

This study guide discusses the topics and objectives of the subject "Accelerating economic development", the formation of concepts for accelerating world economic development, stages and directions of development, the consequences of globalization and ways to solve them, accelerating economic development and international development. trade development trends, global, regional and national financial markets, labor market and migration issues in the context of accelerated global economic development, the role of transnational corporations in the context of accelerated economic development, economic security and competitiveness of the national economy in the context of accelerated global economic development.

UO'K: 338:33M (575.1)

KBK 67.404.1

Taqrizchilar:

O.F. Aliqoriyev – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi bo'lim boshlig'i, i.f.n., dotsent;

M.K. Abdullayeva – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Fundamental iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

ISBN 978-9943-7395-1-2

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021.

KIRISH

XXI asr jahon iqtisodiyoti o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tishi bilan tavsiflanadi, bu yangi bosqich oldingi rivojlanish bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Jahon mamlakatlarining o‘zarob bog‘liqligi, ularning rivojlanish darajasi, madaniyati, tarixiy an‘analari-dagi barcha farqlarga qaramay, shunday bosqichga o‘tdiki, bu bosqich hozirgi kunda iqtisodiy taraqqiyot jadallahuvi bosqichi, deb atalmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag‘i PF-4947-sonli Farmoni mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot jadallahuvi uchun muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyot organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, ularni mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish “lokomotiviga” aylantirish, iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish maqsadida, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga asosan belgilangan vazifalarga muvofiq:

- makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish va iqtisodiyotning real sektori holati, tashqi bozorlari kon‘yunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq holda iqtisodiyot asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

- xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik mulitini yaxshilash va “xusyona” iqtisodiyot ulushini qisqartirish uchun qulay sharoit yaratish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni;

- ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish asosida mamlakat sanoatini rivojlantirish strategiyalarini (modellarini) ishlab chiqish;

- innovatsiya ishlannmalari va texnologiyalarini joriy qilish, mehnat unumdarligini oshirish, ishlov berish tarmoqlarini jadallivojan-

tirish va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish asosida tovar bozorlari muvozanatini ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalgalashirish;

- eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan sanoat siyosatini amalgalashirish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish asosida uning importga qaramiligini kamaytirish orqali milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqish, urbanizatsiya sohasida davlat siyosatini kuchaytirish;

- ishlab chiqarishlarni oqilona joylashtirish, turar joylarni muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma bilan birlashtirishda qurishni hisobga olgan holda urbanizatsiya jarayonlarini davlat tomonidan samarali tartibga solishni ta'minlash;

- yer uchastkalariga oid zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalg qilish sohalari va tarmoqlarini aniqlash orqali mamlakatning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalgalashirishda ishtiroy etish;

- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy resurslari va omillaridan biri sifatida inson kapitalining darajasi va sifatini oshirish;

- iqtisodiyot organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishini ta'minlash, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalgalashirishda ko'maklashish tizimini tashkil qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasining o'rta muddatli investitsiya siyosati strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Konsepsiysi, hududlar va tarmoqlarni

rivojlantirish konsepsiyalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlangan dastur va qarorlar asosida shakllantirilishi zarur bo'lgan muhim vazifalar kiritilgan.

O'quv qo'llanmada fanning sillabusiga asosan, mavzular yoritilgan, fan mavzulari bo'yicha oxirgi yangiliklar, test savollari, glossariylar bayon etilgan.

O'quv qo'llanmadan talabalar va magistrantlar, ilmiy izlanuvchilar va shu fanga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Mualliflar o'quv qo'llanmaning tuzulishi, mazmuni, muammolarni bayon qilinish tartibi va uslubi bo'yicha bildirilgan har qanday taklif va mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi hamda keyingi ilmiy faoliyat jarayonida hisobga oladi.

1-MAVZU. JADAL IQTISODIY TARAQQIYOTNING PREDMET VA METODLARI

Reja:

1. Ko‘p tuzilmali zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma;
2. Rivojlanganayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar tasnifi;
3. Rivojlanish mamlakatlar uchun makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holati;
4. Asosiy xalqaro institutlar, ularning maqsadlari, tuzilishi va faoliyati.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Vinod Thomas, Namrata Chindarkar. Economic Evaluation of Sustainable Development, 2019. <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6389-4>;
2. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
3. B.Xodihev, Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik–T.: “Barkamol fayz media”, 2017.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Oecd, United Nations: Economic Commission for Latin America and the Caribbean, Caf Development Bank of Latin America. Latin American Economic Outlook 2019 Development in Transition, Latin American Economic Outlook, 2019;
2. Абдулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. –Т.: Ilmiy–texnika axboroti-press nashriyoti, 2016;
3. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko‘rgazmali va tarqatma materiallar. -T.:“Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;
3. www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko‘rsatkichlar.

1.1 Ko‘p tuzilmali zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma

Har bir davrda va makonda amal qiluvchi iqtisodiy munosabatlar majmuasi – iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo‘jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birqalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi.

Ko‘pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog‘lab turkumlashga harakat qilinadi. Shu asosda dunyodagi rivojlangan mamlakatlар iqtisodiy tizimining uchta nusxasiga kiritiladi: an’anaviy iqtisodiyot, ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlari.

An’anaviy iqtisodiyot – deyarli hamma mamlakatlар bosib o‘tgan tarixiy tizim. U hozirgi davrda ham ko‘plab iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo‘lib, ularda urf-odatlar, udumlarga, an’analarga asoslangan iqtisodiy jarayonlarga amal qiladi. Ularda natural yoki mayda tovar xo‘jaligi hukmron bo‘ladi. Bu yerda ishlab chiqarish, ayirboshlash, daromadlarni taqsimlash vaqtı-vaqtı bilan o‘rnataladigan urf-odatlarga asoslanadi. Merosxo‘rlik va sulola (tabaqa) shaxslarning iqtisodiy rolida hukmronlik qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy turg‘unlik aniq ifodalanadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklarni joriy qilish keskin cheklangan, chunki ular an’analar bilan ziddiyatli hisoblanadi va ijtimoiy tuzum barqarorligiga xavf tug‘diradi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan diniy va madaniy tartiblar birlamchi hisoblanadi.

Bu yerda shuni ta’kidlash lozimki, iqtisod muammosini hal qilishning bir xil va umum tan olingen yechimi mavjud emas. Har xil madaniyat va tarixiy o‘tmish, har xil urf-odat va an’analar, qarama-qarshimafkuraiyi qarashlarga ega bo‘lgan turli jamiyatlar aniq iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun turli xil tartiblardan foydalanadi.

Bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti hisoblanadi. Bu tizim amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy, davlat mulkchiligi hukmronligi va ma’muriy organlar tomonidan iqtisodiy qarolarning markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan sarakterlanadi. Foydalanadigan resurslarning hajmi, mahsulotning turibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabilarga tegishli barcha muhim qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi.

Iqtisodiy taraqqiyotda muhim bosqich hisoblangan tizim **bozor iqtisodiyoti tizimi**.

Bozor iqtisodiyoti tizimi asosan, ikki bosqichga egadir. Birinchisi, erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti bo‘lib, ba’zi adabiyotlarda uni sof kapitalizm deb ham yuritiladi. Ikkinchisi esa hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti bo‘lib, uni aralash iqtisodiyot tizimi deb ham yuritiladi.

Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlarni tartiblashda va uyg‘unlashtirishda bozor mexanizmidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bunday tizimda uning har bir qatnashchisining xulq-atvori shaxsiy manfaatiga asoslanadi, har bir iqtisodiy birlik, alohida qabul qilingan qarorlar asosida, o‘zlarining daromadlarini eng yuqori darajada yetkazishga intiladi. Bozor tizimi yordamida alohida qabul qilingan qarorlar uyg‘unlashtiriladi. Raqobat sharoitida tovarlar (xizmatlarning) ishlab chiqarilishi, resurslarning taklif qilinishi shuni bildiradiki, har bir mahsulot va resurslarning ko‘plab mustaqil harakat qiluvchi xaridor va sotuvchilari mavjud bo‘ladi. Bu yerda iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi cheklangan tavsifga ega bo‘ladi. Shu sababli davlatning roli, xususiy mulkni himoya qilish va erkin bozorning amal qilinishi yengillashtiruvchi ishonchli huquqiy tartiblar o‘rnatishdan iboratdir.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Hozirgi davrda real hayotda bozor iqtisodiyoti sof bozor mexanizmi va rejali iqtisodiyot unsurlarini mujassamlashtiradi. Mulkchilikning har xil shakllari, tadbirkorlikning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘ladi, unda rejalashtirish, prognozlash, aholini sotsial himoyalash kuchayadi. Masalan, AQSh iqtisodiyoti hozirgi davrda oldingi erkin bozor iqtisodiyotdan sezilarli farq qiladi. Bu farqlar quyidagilarda ko‘rinadi:

Birinchidan, mulkning bir qismi davlat qo‘lida bo‘lib, u iqtisodiyotda faol rol o‘ynaydi. Bu iqtisodiyotning barqarorligi va o‘sishi uchun sharoit yaratishda, bozor tizimi yetarli darajada ishlab chiqarmaydigan yoki umuman yetkazib bermaydigan ayrim tovarlar va xizmatlar bilan ta’minlashda, daromadlar taqsimlanishini o‘zgartirishda va shu kabilarda namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, sof kapitalizmdan farq qilib AQSh iqtisodiyotiga yirik korporatsiyalar va kuchli kasaba uyushmalari shaklidagi qudratli iqtisodiy tashkilotlar mavjud.

Bu yerda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, xususiy mulkchilik va bozor tizimiga suyanish, ijtimoiy mulkchilik va markazdan rejalashtirish har doim ham bir vaqtida mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, sobiq millatchi Germaniya iqtisodiyoti avtoritar kapitalizm deb atalgan, chunki mulkchilik xususiy bo'lib qolsa-da, mamlakat iqtisodiyoti qattiq nazorat ostiga olingen va markazdan boshqarilgan. Buning teskarisi, bozor sotsializmi deb atalgan sobiq sotsialistik Yugoslaviya iqtisodiyotida resurslarga ijtimoiy mulkchilik xos bo'lgan va bir vaqtida iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va boshqarishda erkin bozor asosida olib borilgan. Shvetsiya iqtisodiyotida ham 90% dan ortiq xo'jalik faoliyati xususiy firmalarda to'plangan bo'lsa-da, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va daromadlarni qayta taqsimlashda faol qatnashadi. Hozirgi vaqtida Xitoy Xalq Respublikasida davlatning markazlashgan holda iqtisodiyotga aralashuvni va rejalashtirish tizimi saqlanib qolgan holda bozor mexanizmlari muvaffaqiyatlari qo'llanilib, barqaror va tez sur'atlar bilan iqtisodiy o'sishga erishmoqda.¹

Iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi iqtisodiyot tarmoqlarini texnik jihatdan yangilash va qayta qurollantirishni taqozo qiladi. Ushbu jarayonda amalga oshirilayotgan ishlar ijtimoiy hayotimizning deyarli barcha jabhalarida tadbiq etilib, qamrab olinish ko'lamlari esa muntazam va bosqichma-bosqich kengaytirib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash, uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish, siyosiy va iqtisodiy o'zparishlar, jahon bozori kon'yunturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan chidamliligi, mustaqil rivojlnana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyotdagagi tub islohotlar natijalariga bog'liq. Shuning bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlariga ham chambarchas bog'liq. Ya'ni barcha soha va jabhalari o'rtaida jadal olib borilayotgan modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish davomida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlash zarur. Shundagina ko'zlangan maqsad kutilgan samarani beradi. Eng avvalo, mamlakatimizda har bir soha bo'yicha davlat darajasidagi dasturlar qabul qilinib, uning ijrosiga katta ahamiyat qaratilayotganligidir. Jum-

¹ Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T.: «Fan va o'moniyligim» nashriyoti, 2005, 105-107-b.

ladan, modernizatsiyalash natijalari o'laroq, zamonaviy va takomil-lashtirilgan texnika-texnologiyalar yordamida sifatli hamda eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishilmoqda.

O'zbekiston uchun jahon bozoriga yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida inqiroz davom etib turgan yillarga mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning shu yillarda quyidagi eng muhim yo'nalişlari belgilab berildi:

- tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikasiatsiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbar-doshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiy taraqqiyotga erishishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish.

- korxonalarni texnik qayta qurollantirish – alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash-tirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha choratadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Texnik modernizatsiya masalasini XX asr o'rtalari namunaviy industrializatsiyasi bilan ayniqlashtirish noto'g'ri. Bu masalaga har qanday, hatto yuqori industriallashgan mamlakat ham duch kelishi mumkin. Modernizatsiya strategiyasining muvaffaqiyatli tajribasi quyidagi to'rtta bosqich ketma-ketligidan iborat bo'ladi:

- 1) importning o'mini bosish bosqichi (asosiy tarmoqlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash, yuqori tariflar);
- 2) eksportga yo'naltirilgan o'sishni ta'minlash bosqichi (eksportni va yirik korxonalarni qo'llab-quvvatlash, texnologiyalarni qarzga olish);

3) jadal o'sishni rag'batlantirish bosqichi (innovatsiyalarga e'tibor beriladi, tariflarni pasaytirish, antimonopol tartibga solish, kichik va o'rta korxonalarни qo'llab-quvvatlash);

4) rivojlangan bozor bosqichi.

Bu evolyutsiyaning xususiyatlari import o'rnini bosishdan eksportga yo'naltirilganlikka, o'rganishdan innovatsiyalarga, yirik firmalarni tashkil etishdan kichik va o'rta firmalarni qo'llab-quvvatlashga o'tishdan iborat. Rivojlanish bosqichiga mos modernizatsiya siyosatini tanlay olish va bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishda uni o'zgartira olish muhimdir.

Bu vazifani amalga oshirish oson bo'lmay, bunda eng asosiy jihat o'zgartirishlar uchun kerakli paytni tanlay bilish hisoblanadi. Aks holda, ikkita katta xatodan biriga yo'l qo'yilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Birinchisi, inertsiya bo'ylab harakat qilish, ya'ni o'tmishda muvafaqqiyatli bo'lgan siyosatdan u mos kelmaydigan yangi bosqichda foydalanish. Ikkinchisi, hukumat kechroq qo'llanishi kerak bo'lgan usul va dastaklardan vaqtidan oldin foydalanishni boshlashi. Ikkala xato ham davlatning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha xarakatlarini chippakka chiqarishi mumkin.

O'zbekiston hozirda modernizatsiyaning birinchi bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tish pallasida. Birinchi bosqich uchun iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlar va davlatning yetakchi tarmoqlardagi aktiv investitsion faoliyati bilan ajralib turadi. Inqiroz ikkinchi bosqichiga o'tishning tezlashishiga sabab bo'ldi. Bunda iqtisodiyotning real sektori keng ko'lamli texnik modernizatsiya evaziga mustahkam rivojlanadi.

Shu bilan birga, ilmiy bilimlarni yangi mahsulot va texnologiyalarga kirituvchi tarmoqlarning iqtisodiy rivojlanishini uzoq muddatli shakllanishi eng muhim strategik masaladir. Maqsad – mamlakat raqobatbardoshligini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda yuksaltirishdir. Juhon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan modernizatsiyalashgan, texnologik jihatdan yangilangan, yangi bozorlarni egallashga qodir iqtisodiyot bilan chiqish uchun o'z ichiga 42,5 mlrd. dollarlik 852 ta loyihani oluvchi, 2009-2014-yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantrish Dasturi qabul qilindi.

Mazkur dastur iqtisodiyotning real sektorida mamlakatning eksport salohiyatini tashkil etuvchi, yuqori qo'shimcha qiyamatli mah-

sulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan, tayyor mahsulotga bo'lgan ichki talabni qondiruvchi va mahalliy lashtirilayotgan ishlab chiqarishlarda qayta ishlanishi uchun yarimfabrikatlarni yetkazib beruvchi yirik loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, Dastur ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, milliy texnologik bazani yangilashni rag'batlantiruvchi turli iqtisodiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Xususan, asbob-uskunalarga bojxona bojlarini pasaytirish, texnologik jihatdan yangilanib qayta foydalanishga kiritilgan mulkni soliqqa tortishdan ozod qilish.

Tijorat banklarining hozirgi foiz stavkalarida biznes soliqlarni to'lab, bank bilan hisob-kitob qilishi uchun shunday loyihalarni amalga oshirishi kerakki, ular yillik 25-30% foyda keltirishi kerak.

Modernizatsiyani o'tkazish bilan ma'naviy eskirgan xorij texnologiyasiga bog'lanib qolish xavfi tug'iladi. Shunga ko'ra, mazkur masalaning yechimi sifatida quyidagilarni tavsiya etish mumkin: birinchi dan, milliy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarib, joriy qilish; ikkinchi variant – transmilliy korporatsiyalar tizimiga kirish, bunda texnologiyalar oqib o'tishi litsenziyalarni notijorat shartlarda korporatsiya ichidagi almashinuv kabi tabiiy yo'l bilan amalga oshadi.

Har ikkala variantni amalga oshirish uchun institutsional shartsharoitlar va moddiy bazani yaratish uchun vaqt, yetarli kuch va moliyaviy qo'yilmalar kerak bo'ladi. Yaqin kelajakda O'zbekiston uchun kerakli sharoitlarni yaratish qiyin bo'ladi. Shu sababdan bugungi kunda va yaqin istiqbolda sanoatni texnik jihatdan modernizatsiya qilishning asosiy kanali – xorij texnologiyasidan keng ko'lamda foydalanishdir. 2000-yildan boshlab xorijdan keltirilayotgan tovarlarning ko'pi ishlab chiqarish-texnik ahamiyatidagi mahsulotlar.

Texnologik uskunalarni va liniyalarni sotib olish, moslashish, modernizatsiya qilish, rivojlantirish bazasini yaratishni taqozo etadi. Buni amalga oshirish uchun aniq texnologiyalar majmuasini tanlash, uni joriy etish strategiyasini aniqlash va yaratilayotgan ishlab chiqarishda ishlashi uchun personalni tayyorlash kerak.

Yangi texnologiyalarni joriy etish bilan kechadigan modernizatsiya jiddiy tayyorgarlikni talab etadi – ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, turli kategoriyadagi personalni, malakasini oshirish va qayta tayyorlash. Tadqiqotlar va ishlanmalar sektori, yetakchi texnika

oliygohlari – buning uchun tabiiy asosdir. Amaliy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini amalga oshirishni rag‘batlantirish uchun qator iqtisodiy mexanizmlar ko‘zda tutiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagagi «Innovatsion loyihamalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga asosan:

Xo‘jalik subyektlari bilan tuzilgan amaliy ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini bajarish qismi bo‘yicha ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasa va tashkilotlari uch yilgacha daromad solig‘i, yagona soliq to‘lovi, qo‘silgan qiymat solig‘i va davlat maqsadli fondlariga majburiy to‘lovlardan (yagona ijtimoiy to‘lovdan tashqari) ozod qilingan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda yirik korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalarida texnologik asbob-uskunalar va texnologiyalarning texnik auditini o‘tkazish, korxonalarga zamonaviy va jahon miqyosda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan texnologiyalarni jadal joriy etish orqali mamlakatimizning sanoat salohiyatini yanada mustahkmalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 15-martdagagi “Yirik korxonalar va ishlab chiqarishlarda texnologik asbob-uskunalar va texnologiyalarning texnik auditini o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 72-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, yirik korxona va ishlab chiqarish birlashmalarida texnik audit o‘tkazish bo‘yicha maxsus dastur tasdiqlanib, unga asosan, iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyatni amalga oshiradigan yirik korxona va ishlab chiqarish birlashmalarida 2011-yilda texnik audit o‘tkazish bo‘yicha tarmoq ishchi guruhlari tashkil qilindi. Ishchi guruhlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining zamonaviy talablarga muvoqiligini xatlovdan o‘tkazish va shu asosda foydalanishdan bosqichma-bosqich chiqarilishi kerak bo‘lgan eskirgan va energiyani ko‘p talab qiladigan texnologik asbob-uskunalar, ma’naviy eskirgan texnologiyalarning aniq ro‘yxatini belgilash;

- soydalanadigan texnologik asbob-uskunalarning normativ-texnik hujjatlarini, tarmoqni rivojlantirishning uzoq muddatli konsepsiyasini hisobga olgan holda, zamonaviy raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati bo‘yicha o‘rganish;

- tarmoq ishchi guruhlariga ekspertiza o'tkazish va eng maqbul qarorlar ishlab chiqish uchun korxona va xo'jalik birlashmalar mablag'lari hisobidan ixtisoslashtirilgan loyiha institutlari, injiniring va konsalting kompaniyalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar, jihozlar va vositalar ishlab chiqaradigan zavodlarning mutaxassis va ekspertlarini jalb etish.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ko'lami tobora kengayib borayotgan ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi jarayoniga bugun ilmiy-texnologik yangiliklarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan barcha tuzilmalar – O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, korxonalarning texnologik va konstrukturlik bo'limlari jalb etilmoqda. Xo'jalik yurituvchilar va olimlar o'rtasidagi bevosita aloqa mexanizmi, ularni tarmoqlar va korxonalar ehtiyojlari, mavjud istiqbolli yangiliklar haqidagi zarur axborot bilan ta'minlash yil sayin takomillaшиб borayotir. Endi ular bu boradagi yo'lga qo'yilgan aloqalar tufayli yil davomida o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatiga ega. Bu esa, o'z navbatida, shartnomalarni yanada sinchkovlik bilan qayta ishlab chiqish, ularni amalga oshirish uchun zarur resurslarni oldindan ajratish imkonini beradi.¹

Iqtisodiyotning tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga ko'maklashadigan davlat dasturlari asosan, quyidagi yo'naliishlarda amalga oshirilmoqda²:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari va xo'jaliklararo yo'llar qurilishi, ta'mirlanishi va qayta jihozlanishi;
- temir yo'llar qurilishi va elektrlashtirilishi;
- elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish, yuqori voltli elektr uzatish tarmoqlarini qurish va ta'mirlash;
- gaz uzatish tizimi va gaz taqsimlash liniyalarini qurish va kapital ta'mirlash;

¹ <http://tashkent.uz>,<http://anons.uzsaytlari.ma>'lumotlari.

² Salimov A. Hududlarda sanoatni rivojlantirishning asosiy omillari, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va modernizatsiya qilish, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishini kengaytirishda mahalliy hokimliklarni vazifalari // Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlarining mintaqaviy seminari. –T., 2010.

- xom ashyo komponentlarini ishlab chiqarish maqsadida yirik sanoat korxonalari qurilishini moliyalashtirish;
- mahalliy butlovchi qismlar ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag‘batlantirish;
- yangi texnologiyalar rivojlantirilishiga ko‘maklashish va ilm-fan va sanoat o‘rtasida o‘zaro aloqalarni ta‘minlash;
- logistika markazlarini rivojlantirish.

Iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish hamda ko‘lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish bo‘yicha islohotlar bevosita davlatimiz tomonidan, milliy korporatsiyalar, kompaniyalar, korxonalarning o‘z mablag‘lari va AQShning “Jeneral Motors”, “Tek-sako”, Germaniyaning “MAN”, “Daymler Bens”, “Klaas”, Buyuk Britaniyaning “BAT”, Ispaniyaning “Maksam”, Yaponiyaning “Isuzu”, “Itochu”, Malayziyaning “Petronas”, Koreyaning “Korean eyr”, “CNOC”, “LG”, Xitoyning “CNPC”, Rossiyaning “Lukoil”, “Gazprom” kabi jahondagi eng yirik va mashhur kompaniyalar, Osiyo taraqqiyot banki, Juhon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xal-qaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator arab davlatlari investitsiya banklari hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportdag‘ ulushini kengaytirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tartibga soladigan 50 dan ortiq huquqiy hujjat qabul qilindi, jumladan, “Konsessiyalar to‘g‘risida”gi, “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi, “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralar to‘g‘risida”gi, “Investitsiya faoliyat to‘g‘risida”gi, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar ayni shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq bu boradagi jiddiy muammo –

mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1.2. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tasnifi

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan ko'p sonli iqtisodiy, sotsiologik va ijtimoiy-madaniy nazariyalar mavjud. Bu nazariyalarga quyidagi nazariyalarini kiritish mumkin:

- iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyalar;
- yagona industrial va yangi industrial jamiyat nazariyasi;
- postindustrial jamiyat nazariyalar;
- yagona sivilizatsiya va sivilizatsiyalar to'qnashuvi nazariyalar;
- sivilizatsiyalar to'qnashuvi nazariyasi.

Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyalar. AQSh iqtisodchisi, sotsiologi va tarixchisi Uolt Rostou (Uolt Uitmen Rostou (ingl. Walt Whitman Rostow, 1916-yil 7-oktabr, Nyu-York, AQSh – 2003-yil 13-fevral, Ostin, Texas shtati, AQSh) – AQSh iqtisodchi olimi va siyosiy mutafakkiri, Massachusetts texnologiya instituti professori, “Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi” muallifi, 1966-1969-yillarda AQSh prezidentining milliy xavfsizlik bo'yicha maslahatchisi) 1960-yilda “Iqtisodiy o'sish bosqichlari: nokommunistik manifest” deb nomlangan kitobida iqtisodiy o'sish bosqichlari nazariyasini yaratdi. Unda iqtisodiy o'sishning quyidagi besh bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

- an'anaviy jamiyat;
- o'sish uchun shart-sharoitlarni yaratish bosqichi;
- o'sish (siljish, ko'tarilish);
- yetuklikka intilish bosqichi;
- yuqori ommaviy iste'mol davri.

Iqtisodiy o'sish bosqichlarini ajratishda odatda, quyidagi mezonlardan foydalanildi: texnikaning rivojlanish darajasi, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, jamg'armaning milliy daromaddagi ulushi, iste'mol tarkibi va h.k.

An'anaviy jamiyatda (feodalizm davrigacha) aholining 75% dan ortig'i oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan band bo'ladi. Ikkinchi bosqich ko'tarilish davriga o'tish bosqichi hisoblanadi: qishloq xo'jaligi, transport va tashqi savdo kabi sanoat tarmog'i hisoblanmagan sohalarda

sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Uchinchi bosqich – ko'tarilish bosqichi hisoblanib, ikki yildan bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga oladi (sanoat to'ntarishi). Ushbu davrda investitsiyalar hajmi oshadi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori ortadi va yangi texnika, texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezda joriy etish boshlanadi.

U.Rostou yetuklikka qarab harakatlanish davrini (industrial jamiyat) texnik taraqqiyotning uzoq davom etadigan bosqichi sifatida tavsiflaydi. Urbanizatsiya jarayoni chuqurlashadi, malakali mehnat ulushi oshadi, sanoatdag'i rahbarlik malakali boshqaruvchi menejerlar qo'lida to'planadi. Beshinchi bosqichda (yuqori ommaviy iste'mol) taklifdan talabga, ishlab chiqarishdan tovar va xizmatlarni ommaviy iste'mol etishga qarab siljish ro'y beradi. U.Rostou "Siyosat va o'sish bosqichlari" (1971) asarida iqtisodiy o'sishning oltinchi bosqichini ham ko'rsatadi. Unga muvofiq insonning ma'naviy rivojlanishi birinchi o'ringa qo'yiladi va ushbu bosqich hayot sifatiga erishish bosqichi deb ataladi.

Yagona industrial va yangi industrial jamiyat nazariyaları. Yagona industrial jamiyat nazariyasi fransuz sotsiolog R.Aron (**Raymon Klod Ferdinand Aron** (fr. **Raymond Claude Ferdinand Aron**; 1905-yil 14-mart, Ramberviller, Frantsiya – 1983-yil 17-oktabr, Parij, Frantsiya) – fransuz faylasufi, siyosatchisi, sotsiolog va publitsisti. Tarixning tanqidiy falsafasi asoschilaridan biri (tarix falsafasida gnoseologik tendensiyalar, tarixning pozitivistik talqiniga qarshi qarashlar). U sanoat jamiyatining nazariyasini qo'llab-quvvatlovchi fanni va globallashuvning deideologizatsiyasini himoya qilgan. Frantsiyada qabul qilingan nemis sotsiologiyasini, ayniqsa, Maks Veberning g'oyalarini qo'llab-quvvatladi. 30 dan ortiq kitoblar muallifi. "Figaro" gazetasining siyosiy sharhlovchisi, liberal. U davlatning fuqarolarga erkinlik, plyuralizm va teng huquqni ta'minlaydigan qonunlarni yaratish va ularni amalga oshirishni ta'minlashi zarur, deb hisoblagan. Aleksis Tokvil insonparvarlik mukofoti sovrindori (1979). Rotterdam Erasmus mukofoti sovrindori (1983) nomi bilan bog'liq bo'lib, turli mamlakatlarda industrlashish jamiyatning shakllanishiga olib keladi, degan fikrga asoslanadi. Bu nazariyaga muvofiq texnik taraqqiyot nafaqat iqtisodiy qonunlarning amalda qo'llanilishi, balki qonunlarning mohiyatini ham

modifikatsiyalaydi: mulkchilikning yetakchilik roli bekor qilinadi, iqtisodiy hokimiyat yirik korporatsiyalar qo‘liga o‘tadi, davlatning yordami bilan boylik va kambag‘allik o‘rtasidagi farq yo‘qotiladi.

Yangi industrial jamiyat nazariyasi AQSh iqtisodchisi Dj.Gelbreyt (Djon Kénnet Gelbreyt (ingl. John Kenneth Galbraith; 1908-yil 15-oktabr, Ayon-Steyshn, Kanada – 200yl 29-aprel) – AQSh iqtisodchisi, XX asrning mashhur nazariy iqtisodchilaridan biri bo‘lgan sobiq (Veblenskiy) institutsional va keynschilik oqimlarining vakili. U Kaliforniya, Garvard va Princeton universitetlarida dars bergan. 1972-yilda Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi prezidenti. Frank Seidman mukofoti laureati (1975), Veblen-Commons (1976), V.Leontev (2000). Sobiq SSSR fanlar akademiyasining xorijiy a’zosi (1988)) tomonidan yaratilgan. U murakkab va takomillashgan texnikani amaliyotda qo‘llash kapitalizmnинг qayta ichki rivojlanishiga, ichki bozorni iste’mol bozorlari bilan to’ldirish, yaxshi tashkil etilgan xizmatlar tizimiga erishish va avvalgi ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish imkonini beradi, degan g‘oyani isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hozirgi kapitalizm iqtisodiy tizimi turlicha ikki sektor – “rejali tizim” va “bozor tizimi”ning majmuasidan iborat.

Postindustrial jamiyat nazariyasi. AQSh sotsiologi Daniel Bell (Daniel (Deniel) Bell (1919-yil 10-may, Nyu-York, AQSh – 2011-yil 25-yanvar, Kembrij, Massachusetts, AQSh) - AQSh sotsiologi va publisisti, postindustrial (axborot) jamiyati nazariyasi asoschisi, Garvard universiteti professori. O‘zini “iqtisodiy sotsialist, siyosatda liberal va madaniyatda konservativ” deb ta’riflagan) fikriga ko‘ra, postindustrial jamiyat quyidagi beshta belgi orqali tavsiflanadi:

- tovarlar ishlab chiqarish tarmoqlaridan xizmatlar ko‘rsatishga o‘tish;

- bandlar o‘rtasida mamlakali mutaxassislar ulushining ortib borishi;

- nazariy bilimlarning yetakchiligi;

- texnik-iqtisodiy muhitning texnologiyalar ustidan nazorat o‘rnatishga yo‘naltirilishi;

- yangi “intellektual texnologiyalar” bilan bog‘liq qarorlar qabul qilish jarayonining ta’minlanishi.

D.Bell “industrializm” inqirozidan chiqish yo‘lini “postindustrial tendentsiyalarni” rivojlantirish hamda madaniyat va din o‘rtasidagi uzilgan aloqalarни tiklash orqali erishish mumkin, deb hisoblaydi.

Postindustrial jamiyat haqidagi g‘oyalarning boqa varantini AQSh sotsiologи va futurologи A.Tofflerning (Elvin Tóffler (ingl. Alvin Toffler; 1928-yil 4-oktyabr, Nyu-York, AQSH – 2016-yil 27-iyun, Los-Andjeles, AQSh)) – AQSh faylasufи, sotsiologи va futurologи, postindustrial jamiyat tushunchasi mualiflaridan biri.

Uning asosiy ishlarida insoniyat yangi texnologik taraqqiyotga (super sanoat), ya’ni bиринчи то‘лqin (agrар jamiyat) va ikkinchi (sanoat jamiyati) о‘rnini bosuvchi yangi yoki yangi ma’lumotni yoki sanoatdan keyingi jamiyatni yaratishga olib boradi. Alvin Toffler XX va XXI asrlarda uchrashadigan yangi qiyinchiliklar, ijtimoiy ziddiyatlar va global muammolar haqida ogohlantiradi.

U mashhur “Fortune” jurnalining muharriri bo‘lib, uning ilk kitobi texnologiyaning rivojlanishiga va ularning jamiyatga ta’siriga bag‘ishlangan edi. Keyin u jamiyatning bu hodisaga bo‘lgan munosabatini va jamiyatda yuz beradigan o‘zgarishlarni batafsil o‘rganib chiqdi. Alvin Tofflerning so‘nggi ishlarining mazmuni XXI asrda harbiy texnologiyalar, quroл-yaroq, taktik va strategik rejalashtirish va kapitalizmning kuchayishi bilan bog‘liq superindustrializm nazariyasida ko‘rish mumkin. U zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan, murakkab va turli xil o‘zgarishlar jarayonlarini industrializmning falokati va “yangi sivilizatsiya”ning dunyoga kelishi bilan bog‘liq, deb hisoblaydi. Bunday “o‘tish davri”ni u tarixiy rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan “o‘zgarishlar to‘lqini” nazariyasi bilan tushuntiradi.

Yagona sivilizatsiya haqidagi ijtimoiy-madaniy nazariyaning asosida barcha mamlakatlarning yagona siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizim, ya’ni liberal demokratiyaga qarab asta-sekinlik bilan harakatlanish g‘oyasi yotadi. Ushbu nazariyaning zamonaviy tarafdorları bunday tizimga liberallashuv natijasida G‘arb erishgan, boshqa mamlakatlar ham bunga erishadi va butun dunyo yagona jamiyatga aylanadi, deb ta’kidlashadi.

Yagona sivilizatsiya nazariyasi. Yagona sivilizatsiya nazariyasi jahon mamlakatlarini yagona jamiyatga birlashtiruvchi, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirib chegaralarni yo‘qotuvchi, tobora kuchayib borayotgan kuchga e’tibor qaratadi. Ushbu kuch

iqtisodiyotlarni integratsiyalash bo‘lib, globallashuvga aylanadi va uning transmilliyashuvi hamda integratsiyalashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Bu modernizatsiyalashuv tufayli G‘arbda dastlab vujudga kelgan hozirgi zamon industrial va postindustrial jamiyatlar uchun xos belgilar jahoning boshqa mamlakatlari uchun ham xos bo‘ladi.

Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi nazariyasi AQSh professori S.Xantingtonga (**Semyuel Fillips Xántington** (ingl. **Samuel Phillips Huntington**; 1927-yil 18-aprel, Nyu-York, AQSh – 2008-yil 24-dekabr, Martas-Vin’yard, Massachusetts, AQSh) – 1993-yilda “Foreign Forces” jurnali tomonidan chop etilgan “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” maqolasida chop etilgan va bundan keyin 1996-yilda “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nomli kitobida chop etilgan “Amerika madaniyati va madaniyatining ajralmasligi” tushunchasi muallifi, AQSh sotsiologи siyosatshunosi) tegishli bo‘lib, unga muvofiq siyosiy va madaniy dunyo qiyofasi “sovuq urush”dan keyin yanada ko‘p qutbli bo‘ladi va quyidagi sakkiz asosiy sivilizatsiyalardan tashkil topadi: G‘arb, islam, induizm, itoy, yapon, pravoslav, Afrika va Lotin amerikasi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, oxirgi vaqtarda jahon iqtisodiyotida G‘arbning roli pasayib, Osiyo sivilizatsiyalarining o‘rni esa sezilarli darajada ortib boradi. Sivilizatsiyalar o‘rtasida avvalo, sivilizatsiyalar ichidagi aloqalar sivilizatsiya markazi hisoblangan mamlakatlarga tomon tortilib, kuchayib boradi. Natijada istiqbolda dunyo yagona sivilizatsiyadan emas, balki turli sivilizatsiyalar yig‘indisidan iborat bo‘ladi hamda ular o‘rtasida o‘xhash va farqli jihatlar mavjud bo‘ladi.

Jahonda 193 ta mustaqil davlat, 61 ta hudud va 6 ta nizoli hudud mavjud. Xalqaro statistikada “davlat” tushunchasi emas, balki “mamlakat” tushunchasi qo‘llaniladi. Chunki mamlakat, albatta, siyosiy mustaqillikka ega bo‘lishi majburiy emas. Siyosiy-geografik ma’noda mamlakat – bu muayyan chegaralarga ega, davlat suverenitetidan foydalanuvchi hududdir. Jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni miqdoriy jihatdan aks ettiruvchi xalqaro statistika nuqtai nazaridan esa “mamlakat” tushunchasi iqtisodiy ma’noda qo‘llanilishi va “iqtisodiyot” tushunchasi bilan mos keladi. Ushbu tushuncha davlatning muayyan hududini, masalan, Xitoy tarkibiga kiruvchi Tayvan va Gonkongni alohida iqtisodiy hudud sifatida ifoda etishi mumkin.

Dunyo mamlakatlari, bir tomondan, biri-biridan iqtisodiyotining hajmi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, institutsional va madaniy xususiyatlari bilan farq qilsa, ikkinchi tomondan, ular muayyan o'xhashliklarga ham ega. Ushbu holat dunyo mamlakatlarini tahliliy va statistik maqsadlarda guruhlarga ajratish, jahon iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini o'rganish maqsadida muayyan mezonlar bo'yicha tasniflash imkonini beradi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kompleks va umum-lashtiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM, YaMM;
- iqtisodiyotning tarmoq tarkibi;
- aholi jon boshiga mahsulotlarning asosiy turlarini ishlab chiqarish (alohida tarmoqlarning rivojlanish darajasi);
- aholi turmush darajasi va sifati;
- iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi.

Iqtisodiy adabiyotda, ommaviy axborot vositalarida mamlakatlarni guruhlashning "standart tasnifi" nomini olgan yondoshuv keng tarqalgan. Yaqin vaqtлага qadar ushbu yondoshuv Xalqaro valyuta fondi (XVF) tomonidan "Jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari" (World Economic Outlook) deb nomlanuvchi yillik hisobotlarida qo'llanilgan. Standart klassifikatsiyada mamlakatlar uch guruhga ajratiladi: rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari. Ular jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etadi va jahon aholisi, yalpi ichki mahsuloti va jahon savdosidagi ulushini tavsiflaydi. Standart tasnifi biron-bir qat'iy miqdoriy mezonga ega emas. U mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy jihatlari, xo'jalik faoliyatining tashkiliy tamoyillari, institutsional va madaniy xususiyatlari hamda joriy iqtisodiy muammolarini hisobga oladi.

Ushbu tasnifi rivojlangan mamlakatlarga 29 ta xususiy mulkchilikka va rivojlangan industrial sektorga asoslangan bozor iqtisodiyoti ga ega mamlakatlar kiradi. Jumladan, 2002-yilda rivojlangan mamlakatlarda dunyo aholisining 15,4% i, ya'ni "oltin milliard" deb ataluvchi 1 mld. kishi yashagan va ular hissasiga jahon yalpi mahsulotining 55,7% i hamda jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 74,8% i to'g'ri kelgan.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari 28 ta davlatni o'z ichiga oladi. Ushbu mamlakatlar rivojlangan industrial bazaga ega va rejali ma'mu-

riy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq holda chuqr iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan mamlakatlardir. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari (15);
- Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) va Mongoliya (13).

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi eng ko‘p sonli hisoblanadi va ushbu guruhga 125 ta mamlakat kiradi. Ushbu guruhga kiruvchi mamlakatlarni iqtisodiyoti qishloq xo‘jalik va qazib chiqarish sanoatiga asoslanganligi birlashtiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta ishslash sanoati sust rivojlangan va og‘ir mashinasozlikka asoslangan mustaqil industrial baza aksariyat mamlakatlarda mavjud emas. Ushbu mamlakatlarda fond bilan qurollanganlik darajasining pastligi oqibatida mehnat unumdorligi ham pastligicha qolmoqda. Bu borada shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida Xitoy, Kambodja, Vietnam va qator Afrika davlatlari o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari singari bozor islohotlarini amalga oshirishmoqda. Ammo ular hozirgacha o‘z mustaqil industrial bazasini shakllantirganlaricha yo‘q. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti chuqr diversifikatsiyalashmagan va tor sohaga ixtisoslashgan. Ushbu ixtisoslashuv biron-bir mahsulotni ishlab chiqarishga va uni eksport qilishga bog‘liq.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) metodikasi. XVF 2004-yildan boshlab dunyo mamlakatlarini tasniflashdagi yondoshuviga o‘zgartirish kiritdi. Endilikda dunyo mamlakatlari ikki guruhga – “Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar” (advanced economics) va “Boshqa bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar” ga (other emerging market and developing countries) bo‘linadi. Ushbu tasnif biron-bir qat’iy iqtisodiy mezonlarni talab etmaydi va XVF yordamida tarixiy shakllangan yondoshuvlar asosida tahlillarni yengillashtirishni ko‘zda tutadi.

XVF tasnifiga faqat tashkilotga a‘zo mamlakatlarnigina kiritadi.

Misol uchun, Kuba va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi ushbu tasnifga kiritilmaydi va ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti XVF tomonidan monitoring qilinmaydi. San-Marino bo‘yicha ma’lumotlar bazasi to‘liq ishlab chiqilmaganligi bois ushbu mamlakat rivojlangan mamlakatlar guruhiga kiritilmaydi. Xuddi shu sabablarga ko‘ra, Marshall Orollari, Mikroneziya Federativ Shtatlari, Palau, Somali va

Tuvalu bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar hamda rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiritilmaydi.

XVF tasnifiga muvofiq, 2010-yilda rivojlangan mamlakatlar guruhiga 34 ta mamlakat kiritilgan. Ushbu mamlakatlarda dunyo aholisining 15,0% i yashaydi, jahon YalMning 52,1% i ishlab chiqariladi, jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 63,6% i ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya va Kanada “Katta ettilik” - asosiy rivojlangan mamlakatlar guruhini tashkil etishadi va ushbu guruh hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 39,3% i jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 34,9% i to‘g‘ri keladi (1-jadval).

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar guruhi ichida Yevro zonasasi va Osiyoning yangi industrial mamlakatlari hamda boshqa rivojlangan mamlakatlar guruhlari ham ajratiladi. 2010-yildan boshlab ushbu guruhga Estoniya qo‘shilgan.

1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarning guruhlanishi

Asosiy valyutalar zonasasi	Yevro zonasasi		Osiyoning yangi industrial mamlakatlari	“Katta ettilik” mamlakatlari	Boshqa rivojlangan mamlakatlar	
AQSh	Avstriya	Lyuksemburg	Gonkong	Germaniya	Avstraliya	Singapur
Yevro zonasasi	Belgiya	Malta	Koreya	Italiya	Gonkong	Tayvan
Yaponiya	Germaniya	Niderlandiya	Singapur	Kanada	Daniya	Chexiya
	Gretsiya	Portugaliya	Tayvan	Buyuk Britaniya	Isroil	Shvetsiya
	Irlandiya	Slovakiya		AQSh	Islandiya	Shveytsariya
	Ispaniya	Sloveniya		Fransiya	Yangi Zelandiya	Janubiy Koreya
	Italiya	Finlyandiya		Yaponiya	Norvegiya	
	Kipi	Frantsiya				
	Estoniya					

“Boshqa bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar” ga rivojlangan mamlakatlardan tashqari barcha mamlakatlar kiradi. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar geografik jihatdan

Markaziy va Sharqiy Yevropa, MDH, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari hamda Afrikaning Sahroi Kabir janubdagi mamlakatlarga bo‘linadi. Ushbu guruh hissasiga dunyo aholisining 85,0% i, jahon YaIMning 47,9%, jahon tovarlar va xizmatlar eksporti)ning 36,3% i to‘g‘ri keladi (2-jadval).

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar tahliliy mezonlar bo‘yicha ham guruhlarga ajratiladi. Tahliliy mezonlar mamlakatning eksport daromadlari tarkibi va boshqa tashqi daromadlarni ifoda etadi. Mamlakatlar o‘rtasidagi farq sof kreditor va sof debitor mamlakatlar sifatida ham tahlil etiladi. Bundan tashqari, sof debitor mamlakatlar tashqi moliyalashtirish manbai va qarzlarga xizmat ko‘rsatish holati kabi moliyaviy mezonlar bilan ham o‘rganiladi.

Eksport daromadlarining manbalari bo‘yicha mezon “Yoqilg‘i” (Xalqaro standart savdo tasnifi (XSST 3) va “Tovarlar” (yoqilg‘idan tashqari) kategoriyalariiga bo‘linadi. “Tovarlar” (yoqilg‘idan tashqari) kategoriyasida “Birlamchi mahsulotlar” (yoqilg‘idan tashqari) guruhni ham ajratiladi (XSST 0, 1, 2, 4 va 68). Ushbu guruhga eksport daromadlarining asosiy manbai hisoblangan tovarlar 2004–2008-yillarda jami eksportining 50% idan oshgan mamlakatlar kiradi.

2-jadval

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar eksport daromadlarining asosiy manbalari bo‘yicha guruhlanishi

Mamlakatlar guruhni	Yoqilg‘i	Birlamchi mahsulotlar (yoqilg‘idan tashqari)
MDH	Ozarbayjon, Qozog‘iston, Rossiya, Turkmaniston	Mongoliya, O‘zbekiston
Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari	Bruney-Darussalam, Timor-Leshte	Papua-Yangi Gvineya, Solomon orollari
Lotin Amerikasi va Shimoliy Afrika	Venesuela, Trinidad va Tobago, Ekvador	Gayana, Peru, Surinam, Chili
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	Jazoir, Baxrayn, Iroq, Eron, Yaman, Qatar, Quvayt, Liviya, BAA, Oman, Saudiya Arabiston, Sudan	Mavritaniya
Afrikaning Sahroi Kabirdan janubdagi mamlakatlari	Angola, Gabon, Nigерия, Kongo Respublikasi, Chad, Ekvatorial Gvineya	Burkina-Faso, Burundi, Gvineya, Gvineya-Bisau, Zambiya, Zimbabvc, Kongo Demokratik Respublikasi, Malavi, Mali, Mozambik, S’erra-Leone

XVF va Jahon banki baholariga ko‘ra, yuqori darajada qarzdorlikka ega kambag‘al mamlakatlar guruhiга tashqi qarz hajmini qisqa muddat ichida “iqtisodiy maqbul” darajaga yetkazish majburiyatini olgan mamlakatlar kiradi. Ko‘pchilik mamlakatlar qarz yukini yengillashtirish imkoniyatidan foydalanishdi va ushbu qarzdorlar ro‘yxatidan chiqib ketishdi.

Jahon banki metodikasi. Jahon banki operatsion va tahliliy maqsadlar uchun dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra turli guruhlarga ajratadi. Ushbu tasnif asosida aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromad ko‘rsatkichi yotadi va mamlakatlar quyidagi uch guruhga ajratiladi:

- past daromadli mamlakatlar (low-income countries);
- o‘rta daromadli mamlakatlar (middle-income countries);
- yuqori daromadli mamlakatlar (high-income countries).

Bundan tashqari, o‘rta daromadli mamlakatlar guruhida yana o‘rta quyi (lower-middle-income countries) va o‘rta yuqori daromadli (upper-middle income countries) mamlakatlar guruhlari ajratiladi.

Jahon banki tasnifida asosiy tahliliy kategoriyalarga past, o‘rta va yuqori daromadlar taalluqlidir. Ular Jahon bankingin kredit operatsiyalari uchun mezon sifatida qo‘llaniladi. Ushbu operatsion mezonlar bundan 30 yil oldin kambag‘al mamlakatlarga nisbatan manfaatli kreditlash shartlarini belgilash uchun ishlab chiqilgan. Bunda asosiy mezon – aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi milliy daromad hajmi xizmat qiladi. Chunki ushbu ko‘rsatkich mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini boshqa ko‘rsatkichlarga nisbatan yaxshiroq tavsiflaydi. Shu bilan birga ushbu ko‘rsatkichning minimal darajasini belgilashda aholi turimush farovonligining kambag‘allik darajasi, bolalar o‘limni kabi ko‘rsatkichlari bilan Atlas usuliga ko‘ra hisoblangan iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro barqaror bog‘liqlik ham e’tiborga olinadi. Jahon banki qayd etib o‘tilgan o‘zaro bog‘liqliknini va bank resurslarini hisobga olgan holda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadning chegara ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

Har yili ushbu ko‘rsatkichlar xalqaro infliyatsyaning ta’sirini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqiladi, ammo chegaraviy ko‘rsatkichlarning real ahamiyati o‘zgarmasdan qoladi.

Jahon banki tasnifi 214 mamlakatni qamrab oladi. Ularning 186 tasi Jahon bankiga a’zo mamlakatlar va boshqalari 30 mingdan ortiq

aholiga ega mamlakatlardir. Daromadlar darajasiga ko'ra guruhlash mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra o'xshash jihatlarini taqozo etmaydi.

Past va o'rta daromadli mamlakatlar ba'zan rivojlanayotgan mamlakatlar sifatida, yuqori daromadli mamlakatlar esa rivojlangan mamlakatlar sifatida qaraladi. Jahon banki tasnifida yuqori daromadli mamlakatlar guruhida neft eksport qiluvchi - Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Bruney, Quvayt kabi XVF tasnifi bo'yicha rivojlanayotgan Jahon banki mamlakatlarni tashqi qarz holati bo'yicha ham guruhlarga ajratadi: tashqi qarzi yuqori kambag'al mamlakatlar; tashqi qarzi normal darajadagi mamlakatlar; tashqi qarzi katta bo'lma-gan mamlakatlar; tashqi qarzi bo'yicha guruhlanmagan mamlakatlar.

Tashqi qarz darajasini aniqlash uchun Jahon banki hisobot tizimi bo'yicha muntazam makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni berib boruvchi mamlakatlarga nisbatan turli usullar qo'llaniladi. Ushbu tizimga muvofiq tashqi qarzi yuqori mamlakatlarga tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning joriy qiymati yalpi milliy daromadning 89% i yoki eksportning 220% idan oshadigan mamlakatlar kiradi. Tashqi qarzi normal darajadagi mamlakatlarga esa ushbu ko'rsatkich 60% dan oshmaydigan; ammo kritik darajaga yetmagan mamlakatlar kiritiladi.

Jahon bankiga hisobot bermaydigan mamlakatlarga nisbatan quyidagi chegaraviy mezonlar belgilangan:

- tashqi qarzning yalpi milliy daromadga nisbati - 50%;
- tashqi qarzning eksportga nisbati - 275%;
- tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning eksportga nisbati - 30%;
- qarz bo'yicha foizning eksportga nisbati - 20%.

Bundan tashqari, Jahon banki ham boshqa xalqaro tashkilotlar singari rivojlanayotgan mamlakatlarni geografik mezon bo'yicha guruhlashtiradi va ushbu guruhga past, o'rtadan quyi va o'rtadan yuqori daromaddi mamlakatlar kiradi:

- Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududi mamlakatlari - 24;
- Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari - 22;
- Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari – 30;
- Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari – 13;
- Janubiy Afrika mamlakatlari – 8;
- Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlari-47.

Yuqori daromadli mamlakatlar esa IHTTga a'zo (3G ta mamlakat) va IHTTga a'zo bo'lмаган (40 ta mamlakat) mamlakatlarga bo'linadi.

BMTga 191 ta mamlakat a'zo. BMT o'z hujjatlari va nashrlarida Juhon banki hamda boshqa turli mezonlarga asoslanadigan tasniflardan keng foydalanadi.

BMT dunyo mamlakatlarini uch guruhga - rivojlangan (more developed regions), rivojlanayotgan (less developed regions) va qoloq (least developed countries) mamlakatlarga ajratadi. Birinchi guruhga Yevropaning barcha mamlakatlari, Shimoliy Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Yaponiya kiradi, ikkinchi guruhga Afrika, Osiyoning (Yaponiyadan tashqari) barcha mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Karib havzasi hududi mamlakatlari hamda Melaneziya, Mikroneziya va Polineziya kiradi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi ichida qoloq mamlakatlar guruhi alohida ajratib ko'rsatiladi.

Dunyo mamlakatlarning inson taraqqiyoti darajasi bo'yicha guruhlanishi. BMT Taraqqiyot Dasturi har yili Inson taraqqiyotni to'g'risida ma'ruza nashr etadi va unda dunyo mamlakatlari YUNESKOning Statistika instituti tomonidan maxsus ishlab chiqilgan Inson taraqqiyoti indeksi asosida guruhlarga ajratiladi. Ushbu tasnifga muvosiq mamlakatlar inson salohiyatining rivojlanish darajasiga ko'ra yuqori, o'rta va past ko'rsatkichga ega mamlakatlarga bo'lingan. 2009-yildan boshlab esa mamlakatlar inson salohiyatining rivojlanish darajasiga ko'ra juda yuqori (42 ta mamlakat), yuqori (43 ta mamlakat), o'rta (42 ta mamlakat) va past (42 ta mamlakat) ko'rsatkichga ega mamlakatlarga bo'linadi.

BMTning Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruzasida mamlakatlar asosiy agregat ko'rsatkichlar va geografik joylashuvi bo'yicha quyidagi uch guruhga ajratiladi¹:

- rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar (IHTT) (28) va IHTTga a'zo bo'lмаган mamlakatlar (16);

- rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan, Arab davlatlari (16), Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani hududi mamlakatlari (24), Yevropa va

¹ World Development Report 2011. World Bank. P. 305. Доклад о развитии человека 2010. Репортаж богатство народов.

Markaziy Osiyo mamlakatlari (23), Lotin Amerikasi va Karib havzasi (32). Janubiy Osiyo mamlakatlari (8), Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlar (45);

- qoloq mamlakatlar (23).

IHTT 1961-yilda AQSh va Kanadadan Marshall rejasiga (1947) doirasida Yevropa iqtisodiyotini tiklash uchun ajratilayotgan boshqarish va tiklash dasturlarini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Yevropa iqtisodiy kooperatsiyasi tashkiloti asosida shakllantirilgan.

Hozirgi vaqtida IHTTga a'zo mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni muhokama etish va rivojlantirish ichki va tashqi siyosatni muvofiqlashtirish forumi hisoblanadi. Natijada a'zo mamlakatlar o'rta-sidagi o'zaro munosabatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan huquqiy hujjatlar va bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan "yumshoq qonunlar" yuzaga keladi.

Qoloq mamlakatlar. BMT 1971-yildan boshlab rasmiy jihatdan qoloq mamlakatlar guruhini ajratadi. Ushbu guruhga dastlab 24 ta mamlakat kirgan bo'lsa, hozirda ularning soni 49 tani tashkil etidi va mamlakatlar ro'yxati har uch yilda BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi EKOSOS tomonidan qayta ko'rib chiqiladi. Qoloq mamlakatlarni aniqlashda quyidagi uchta mezondan foydalilanadi:

- daromadlarning past darajasi - aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot hajmining uch yildagi o'rtacha darajasi sifatida baholanadi (750 dollargacha ro'yxatga kiritish uchun, 900 dollardan yuqori ro'yxatdan chiqarish uchun);

- inson resurslarining holati - ovqatlanish, sog'liq, ta'lim va katta yoshdagagi aholining savodxonligini hisobga oluvchi inson aktivlari indeksi (composite human index - HAT) asosida aniqlanadi;

- iqtisodiy bog'liqlik - (composite economic vulnerability index - EM) asosida hisoblanadi va quyidagi ko'rsatkichlardan tashkil topadi:

- qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining beqarorligi;

- tovarlar va xizmatlar eksportining beqarorligi;

- noan'anaviy faoliyat turlarining iqtisodiy ahamiyati (YaIMda qayta ishslash va zamonaviy xizmatlar ulushi);

- tovarlar eksportining konsentratsiyalashuvi;

- tabiiy ofatlar natijasida ko'chirilgan iqtisodiy bazaning torligi va aholi ulushining salbiy ta'siri.

Qoloq mamlakatlar guruhi ro'yxatiga kiritilgan mamlakatlar yuqori kambag'allik darajasiga, iqtisodiy rivojlanishda katta to'siqlarga ega ekanligi, kambag'allik va iqtisodiy rivojlanish muammosini hal etishda jahon hamjamiyatining yordamiga muhtojligi bilan ajralib turadi. BMT muntazam ravishda qoloq mamlakatlarning muammosolarini muhokama uchun olib chiqadi va ularga iqtisodiy yordam ko'rsatish zarurligini ta'kidlab boradi. Qoloq mamlakat maqomi ushbu mamlakatlar guruhiba muayyan afzalliklar beradi:

- ikki tomonlama, hududiy va ko'p tomonlama kelishuvlar hamda xalqaro moliya institutlaridan rivojlanish uchun imtiyozli moliyaviy mablag'lar olish imkoniyati;
- JSTning muayyan kelishuvlariga muvofiq maxsus konsessiyalar shaklida xalqaro savdo tizimida imtiyozlarga ega bo'lish va ba'zi savdo hamkorlar bo'yicha bozorlarga imtiyozli kirish huquqi;
- BMTning maqsadli dasturlari hamda ikki va ko'p tomonlama hamkorlikdagi rivojlanish dasturlari bo'yicha texnik ko'mak olish imkoniyati.

Dengizga chiqish yo'liga ega bo'limgan rivojlanayotgan mamlakatlar

Hozirgi vaqtida jahon iqtisodiyotida 31 ta rivojlanayotgan mamlakat dengizga chiqish yo'liga ega emas.

3-jadval

Dengizga chiqish yo'liga ega bo'limgan rivojlanayotgan mamlakatlar

Ozarbayjon	Butan	Makedoniya	Paragvay	Chad
Afg'oniston	Zambiya	Malavi	Ruanda	Efiopiya
Armaniston	Zimbabwe	Mali	Svazilend	Turkmaniston
Boliviya	Qozog'iston	Moldaviya	Tojikiston	
Botsvana	Qirg'iziston	Mongoliya	O'zbekiston	
Burkina-Faso	Laos	Nepal	Uganda	
Burundi	Lesoto	Niger	Markaziy Afrika Respublikasi	

BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq ushbu mamlakatlar dengiz qirg'og'iga ega bo'limgan mamlakatlar sanaladi.

Ularning 15 tasi Afrikada, 12 tasi Osiyoda, 2 tasi Lotin Amerikasida, 2 tasi Yevropada joylashgan va 16 tasi kam taraqqiy etgan mamlakatlar guruhiga kiradi. Osiyodagi 4 ta mamlakat eng yaqin dengiz portidan 3,5 ming km. uzoqlikda joylashgan. Ushbu mamlakatlarning 7 tasidan dengiz portlarigacha 1,5 ming km., 11 tasida esa 1 ming km. masofa mavjud.

Ushbu omil qayd etib o'tilgan mamlakatlarning tovar tarkibida ham o'z ifodasini topgan. Ularning eksportida og'ir va arzon tovarlar ustuvorlik qiladi. Transport va sug'urta xarajatlari ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga og'ir yuk bo'lib tushadi hamda eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlashda jiddiy to'siq bo'lmoqda.

Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga import qiymatining yuqoriligi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramasdan mamlakatlarning tranzit muammolarini hal etish uchun milliy transport va samarali tranzit tizimini rivojlantirish, hududiy savdo va iqtisodiy integratsiyani kengaytirish, uzoq masofa tufayli transport xarajatlari oshib ketmaydigan mahsulotlar ishlab chiqariladigan tarmoqlarni rivojlantirish zarur.

BMTning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (YUNKTAD) tasnifi. YuNKTAD (The United Nations Conference on Trade and Development) dunyo mamlakatlarini BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti mezonlariga muvofiq rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari guruhlariga bo'linadi.

Rivojlangan mamlakatlar geografik joylashuviga ko'ra, Amerika (5), Osiyo (2), Yevropa (36) va Okeaniya (2) hududlariga ajratiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar esa Afrika (56), Amerika (41), Osiyo (40) va Okeaniya (21) hududlariga bo'linadi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari guruhiga Sharqiy Yevropa va MID mamlakatlari kiritiladi. YuNKTAD rivojlanayotgan mamlakatlarni quyidagi mezonlar bo'yicha guruholaydi:

eksportning ixtisoslashuvi:

- neft eksport qiluvchi mamlakatlar - 22 ta mamlakat;
 - sanoat mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlar - 12 ta mamlakat;
 - rivojlanayotgan mamlakatlar - 10 ta mamlakat;
 - yangi industrial mamlakatlar - 8 ta mamlakat.
- Iqtisodiy rivojlanish darajasi (aholi jon boshiga YaIM ishlab chiqarish);
- yuqori - 4500 dollardan yuqori (41 ta mamlakat);

- o‘rtalik - 1000 dollardan 4500 dollargacha (52 ta mamlakat);
- past - 1000 dollargacha (63 ta mamlakat).

1.3. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy holati

Har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasini ifodalovchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu - yalpi ichki mahsulot (YaIM)dir. YaIM yaxlit iqtisodiyotning rivojlanish yakunini yoritib beradigan ishlab chiqarishning pirovard ko‘rsatkichidir. Uning mazmuni iste’mol qiymati nuqtai-nazaridan qaraganda - yakuniy tovar va xizmatlarning jamini, qiymat jihatidan esa qayta yaratilgan qiymat hamda asosiy fondlar amortizatsiyasini ifodalaydi.

YaIM – iqtisodiy manfaatdorligi ma’lum bir hududga qaratilgan, mamlakat rezidentlari tomonidan muayyan davrda (oy, chorak, yil) pirovard iste’mol uchun ishlab chiqarilgan, ijtimoiy naflilik hamda ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan barcha tovar va xizmatlar hajmini ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

YaIMning to‘g‘ri va aniq hisoblanishi har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, uning jahon hamjamiyatiga kirib borish imkoniyati hamda jahon iqtisodiyotidagi tutgan o‘rnini belgilab beradi. Shu sababli har bir mamlakat o‘z hududida yaratilayotgan tovar va xizmatlar hajmini imkonli boricha to‘laroq hisoblashga harakat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, YaIM harakat shakllarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish va shu asosda hisobchilik tizimini takomillashtirishni obyektiv zaruriyatga aylantiradi.

YaIMning takror ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha harakati ushbu ko‘rsatkichni hisoblashning uchta usulidan foydalanishni taqozo qiladi:

1. Qo‘shilgan qiymatlar (ishlab chiqarish) usuli.
2. Xarajatlar (pirovard iste’mol) usuli.
3. Daromadlar (taqsimlash) usuli.

Bu uchala usulni qo‘llash YaIM harakatining barcha fazalarini (davrlarini) kompleks tadqiq qilishga, daromadlardan foydalanish

hamda ularni shakllantirish jarayonlarini o‘rganishga yordam beradi.¹

Qo‘silgan qiymat usuli bo‘yicha hisoblangan YaIM hajmi yaxlit iqtisodiyotning tarkibiga kiruvchi alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o‘rnii va hissasini aniqlashga yordam beradi.

YaIM real hajmining o‘sishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini umumlashtirgan holda aks ettiruvchi, aholining o‘sib va o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini, turmush sifatini yaxshilash qobiliyatini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy o‘sishni uning mezonlari bo‘yicha turlarga ajratib o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish mezonlarini aniqlash bo‘yicha qator tadbirlar ishlab chiqilgan. Lekin ishlab chiqilgan mezonlar mamlakatimizning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, obyektiv baholash va kelgusidagi strategik vazifalarni belgilashda bir qator noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, iqtisodiy o‘sish darajasi foizda ifodalanib, uning sur’atlari YaIMning hajmiga teskari bog‘liqlikda bo‘ladi. Mamlakatda YaIM real hajmining yildan-yilga oshib borayotganligini hisobga oladigan bo‘lsak, tabiiyki joriy yildagi o‘sish sur’atini keyingi yilda yoki uch yildan keyin ta‘minlashning imkonи bo‘lmaydi. Chunki YaIM hajmi qancha yuqori bo‘lsa, uning foizdagi ifodasi shunchalik pasayib boraveradi. Shuning uchun ham respublikaning real ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy o‘sishni uning mezonlari bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

1. Sekinlashgan iqtisodiy o‘sish (2% dan past);
2. Mo‘tadil iqtisodiy o‘sish (2%-3%);
3. O‘rtacha iqtisodiy o‘sish (3%-5%);
4. Barqaror iqtisodiy o‘sish (5% dan yuqori).

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari sanoat tarmoqlarida diversifikatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Diversifikasiya – yuqori qo‘silgan qiymatga ega bo‘lgan tovar va xizmatlar hajmi hamda ular assortimentining kengayish jarayonidir. Uning darajasini MHT

¹ K.K. Mambetjanov Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy hisoblar tizimini takomillashtirishning nazariy assoslari. Iqtisod fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2012, 18-b.

tamoyillari asosida hisoblash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, respublikamizda diversifikatsiya darajasini hisoblash ishlarini amaliyotga kiritish iqtisodiy hodisa va jarayonlarining o'zgarish tendensiyalarini o'rganishda, sanoatning tarmoq va sohalari o'rtaсидagi mutanosiblik hamda muvozanatlilikni tahlil qilishda, istiqboldagi vazifalarni belgilashda juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun diversifikatsiya darajasini bir qator ko'rsatkichlar tizimi orqali har tomonlama baholash maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi quyidagilardan iborat:

A) YAIM tarkibida qo'shilgan qiymat ulushini ifodalovchi ko'rsatkich. Ushbu ko'rsatkich yaxlit iqtisodiyot va uning tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatning YaIMga nisbati orqali aniqlanadi:

$$Q.Q.u = (QQ/YAIM)*100 \quad (1)$$

Bu yerda: Q.Q.u – YaIM tarkibida qo'shilgan qiymat ulushi;

QQ – qo'shilgan qiymat;

YaIM – yalpi ichki mahsulot.

Iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida yaratilgan yalpi mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymatning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, modernizatsiya darjasini ham shunchalik yuqori bo'ladi yoki aksincha.

Sanoat tarmoqlaridagi diversifikatsiyalashuv darajasining ma'lum mezonlar asosida baholanishi istiqboldagi vazifalarni belgilab olishda muhim ahamiyatga ega. Uning darajasini quyidagi mezonlar asosida guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- diversifikatsiyaning past darjasasi (20% dan past);
- diversifikatsiyaning mo'tadil darjasasi (20% dan 50% gacha);
- diversifikatsiyaning o'rtaча darjasasi (50% dan 60% gacha);
- diversifikatsiyaning yuqori darjasasi (60% dan yuqori).

B) Diversifikatsiya darajasining keyingi ko'rsatkichi bu - yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida yangi turdag'i tovar va xizmatlarning ulushidir. Yangi turdag'i tovar va xizmatlar - korxonalar tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, modernizatsiyalash natijasida yaratilgan mahsulotlardir.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida yangi turdag'i tovar va xizmatlarning ulushi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$YaTXU = (YATXQ/YAIM)*100 \quad (2)$$

Bu yerda: YaTXU – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot tarkibida yangi turdag'i tovar va xizmatlarning ulushi; YaTXQ – yangi turdag'i mahsulot qiymati; YaIM – yalpi ichki mahsulot.


YaIM tarkibida yangi turdag'i tovar va xizmatlarning ulushi ularning darajasi bo'yicha quyidagi mezonlar asosida guruhlanishi maqsadga muvofiqdir:

- past daraja (15% dan past);
- mo'‘tadil daraja (15% dan 20% gacha);
- o'rtacha daraja (20% dan 30% gacha);
- yuqori daraja (30% dan yuqori).

Korxonalarни texnik-texnologik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalashga kiritilgan investitsiyalar darajasi quyidagi mezonlar asosida guruhlarga bo'linadi:

- past daraja (4% dan past);
- mo'‘tadil daraja (4% dan 10% gacha);
- o'rtacha daraja (10% dan 15% gacha);
- yuqori daraja (15% dan yuqori).

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday davlatda yaratilayotgan YaIM hajmining tarkibida iqtisodiyot subyektlari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar ulushi ahamiyatl'i o'rin egallashi obyektiv jarayondir. Jumladan, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohalariga katta e'tibor qaratilishi natijasida, Ushbu sohaning tarkibi yildan-yilga shakllanib, rivojlanib bormoqda.



1-rasm. YaIMda xizmatlar ulushi¹

¹ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2027-O'zbekiston-xizmatlar-sohasining-rivojlanishi>

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi hisobiga O‘zbekiston Respublikasida 2010-yildan 2016-yilgacha sohaning YalMDagi hissasi ortib bordi. Xususan, 2010-yilda YalMDa xizmatlar sohasining ulushi 46,9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2016-yil yakuni bo‘yicha (dastlabki ma’lumot) 49,5 foizga yetdi (1-rasm).

Aholi tomonidan har xil turdag'i xizmat ko‘rsatish turlariga bo‘lgan talabning doimiy o‘sishi va davlat tomonidan ushbu sohaga aloqador infratuzilmalarni (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan amaliy choralar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta’minladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari jadal rivojlanib, ularning umumiyligi hajmi 4,6 martaga oshgan. Telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va rekonstruktsiya qilish milliy dasturlarining amalga oshirilishi, simsiz telefon aloqalarining o‘sishiga, uyali aloqa abonentlari va Internet tarmog‘iga jamoaviy ulanish joylari sonining ko‘payishiga olib kelmoqda.

2016-yil yakunlari bo‘yicha aholining uyali aloqa bilan ta’minlanishi 100 kishi hisobiga 65,3 birlikni tashkil etdi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining ma’lumotlari ga ko‘ra, xalqaro kanallarning ma’lumotlarni uzatish qobiliyati 54980 Mbit/s (2010-yilda 2510 Mbit/s.)ni tashkil etgan.

Hozirgi kunda YalMni qo‘shilgan qiymatlar usuli bo‘yicha hisoblash jarayoni korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan rasmiy ma’lumot hamda turli xildagi majburiy hisobotlar asosida amalga oshirilmogda. YalMning bu usulini tanlash mavjud informatsion bazaning xususiyatlari va uning ishonchliligi bilan bog‘langan. Biroq, ilmiy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu usul hisob-kitob ishlarida muayyan kamchiliklarga ega.

Birinchidan, xizmat ko‘rsatish sohalarining axborot ta’minoti yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Natijada bu sohaning ulushi yakuniy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini to‘liq topmayapti.

Ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish sohasini ifodalab beruvchi turli xil hisobot shakllari talab darajasida ishlab chiqilmagan, bu esa ularning faoliyatini to‘laligicha o‘rganish imkoniyatini bermayapti.

Bugungi kunda respublikamizda ayriboshlash jarayonida bevosita ishtirot etadigan va o‘z tannarxini to‘la qoplaydigan bozor xizmatlari dan farqli o‘laroq nobozor xizmatlarining qiymati ishlab chiqarish xarajatlari va asosiy vositalarning eskirishi hajmida hisoblanadi. Buning natijasida esa nobozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi iqtisodiyot subyektlarining qo‘sishimcha mahsuloti sotilmagan bo‘lib qoladi. Bir qator nobozor xizmatlarini ko‘rsatuvchi sohalar ko‘rsatgan xizmatlarining qiymati to‘g‘ri hisoblanmasligi evaziga mamlakatda yaratilayotgan YaIM hajmini buzib ko‘rsatadi.

YaIM hajmini qo‘silgan qiymatlar usuli bo‘yicha hisoblash jarayonida nobozor xizmatlarining hajmini xuddi bozor xizmatlari hajmini hisoblagandek yondashishimiz zarur. Foyda miqdorini esa xuddi shu tur xizmatlar ko‘rsatilayotgan sohalarda olinayotgan foyda bilan shartli ravishda teng deb olish kerak.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda norasmiy faoliyat (oilaviy biznes, magazinlar, yordamchi xo‘jalik, yakka tartibdag‘i mehnat faoliyati kabilar) sohasi ham sezilarli darajada kengaydi. Iqtisodiyotning norasmiy sektori tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ochiq faoliyat yurituvchi sektor hisoblanadi, lekin ular muntazam ravishda tegishli statistik hisobotlarni topshirmasligi sababli ushbu faoliyat natijalarini hisobga olish imkoniyati cheklangan. Bu esa YaIM hajmi va uning dinamikasini aniq baholash imkoniyatini bermaydi, buning oqibatida esa xufyona va norasmiy iqtisodiy faoliyat natijalari yakuniy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda o‘z ifodasini topmaydi.

Bizning fikrimizcha, norasmiy faoliyat yurituvchi iqtisodiyot subyektlarining ishlab chiqarish natijalarini tanlama uslubni yanada takomillashtirish orqali hisobga olish zarur.

YaIM hajmini qo‘silgan qiymatlar usuli bo‘yicha hisoblash jarayonida ko‘pchilik iqtisodchilar ishlab chiqarish sohasiga uy bekalarining ko‘rsatadigan uy yumush xizmatlarini ham kiritishni taklif qilishadi. Bular - kir yuvish, ovqat tayyorlash, uy-joy hamda uy jihozlarini toza holda tutish, bola tarbiyasi va shu kabi xizmatlardir. Ularning fikricha bunday xizmat turlarini shartli ravishda bozor baholarida hisobga olish kerak va ularning qiymatini ham YaIM tarkibiga kiritish zarurdir. Aks holda mamlakatda yaratilgan YaIM hajmi sun‘iy ravishda kamaytirilib ko‘rsatiladi.

Uy bekalarining bunday xizmatlarini YaIM hajmini hisoblaganda e'tiborga olmaslik kerak. Chunki ular juda katta hajmda ko'rsatiladigan nobozor (pulsiz) xizmatlar bo'lib, shartli ravishda pulda o'lchanadigan bo'lsa, bozor iqtisodiyotining natijaviy ko'rsatkichlariga putur yetkazadi, ya'ni ularning tarkibida shartli ravishda pulda o'lchanadigan nobozor xizmatlar salmog'i haddan tashqari oshib ketadi. Bu esa YaIM hajmining sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishiga olib keladi.

YaIMni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblaganda – uy xo'jaliklari, davlat va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat (ijtimoiy) tashkilotlarining pirovard iste'mol uchun qilgan barcha xarajatlari umumlashtiriladi. Bundan tashqari, yalpi jamg'arma, tovar va xizmatlarning eksport - importi qoldig'i ham hisobga olinadi, ya'ni:

$$\text{YAIM} = \text{PI} + \text{YAJ} + \text{EIQ} \quad (1)$$

Bu yerda: PI – pirovard iste'mol; YAJ – yalpi jamg'arma; EIQ – tovar va xizmatlarning eksport - importi qoldig'i.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2011-yil 1-apreldagi qaroriga asosan ishlab chiqilgan "Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"da ko'rsatilishi bo'yicha, yalpi jamg'arma asosiy kapital yalpi jamg'armasi va moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini o'z ichiga oladi. Asosiy kapital yalpi jamg'armasining o'sishi mamlakatda investitsion faoliyning rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Asosiy kapital yalpi jamg'armasi ulushining yuqori bo'lishi mamlakatda investitsion jarayonlarning jadallashayotganligini bildiradi. Lekin bu nisbat moddiy aylanma vositalari zaxiralarining kamayishi hisobiga emas, balki ularning umumiyligi summasining o'sishi hisobiga o'zgarishi ijobji holat hisoblanadi.

Asosiy kapital yalpi jamg'armasi hisobot davrida ishlab chiqaruvchi tomonidan qo'fga kiritilgan asosiy vositalar umumiyligi qiymati (chiqib ketganlarini ham hisobga olgan holda) va nomoddiy aktivlar qiymatini oshirish xizmatlariga sarflangan xarajatlarni umumlashtirish orqali aniqlanadi.

Fikrimizcha, asosiy kapital yalpi jamg'armasi qamrovini aniq belgilab olish zarur. Buning uchun, avvalo, asosiy kapital tarkibiga kiruvchi vositalar va yalpi jamg'arma hajmiga ta'sir qiluvchi nomoddiy

¹ Abdullaev Yo. Makroiqtisodiy statistika: 100 savol va javob. –T.: "Mehnat", 1998. -145 bet.

aktivlar miqdorini ko‘paytirishga xizmat qiladigan faoliyat turlarini aniqlab olish lozim.

Ishlab chiqarish, import yoki moddiy aktivlar realizatsiyasi natijasida mamlakatda turli xil tovar va xizmatlar yaratiladi. Ular iste’mol (oraliq va pirovard iste’mol), eksport yoki yalpi jamg’arma unsuri sifatida ishlatilishi zarur. Iqtisodiyotda iste’mol uchun foydalanilgan hamda yalpi jamg’arma uchun mo’ljallangan tovar va xizmatlar o’rtasida aniq chegara bo‘lishi lozim. Ushbu chegara ishlab chiqarish jarayonida bir yildan ortiq foydalaniladigan tovar va xizmatlardan iborat bo‘lgan asosiy vositalarni qamrab olishi zarur. Shu o‘rinda, ta’kidlab o‘tish joizki, ushbu chegara belgilanayotganda ikkita holatga istisno tariqasida yondashish kerak.

Birinchidan, uzoq muddat xizmat qiladigan iste’mol tovarlarining hammasi ham asosiy vosita sifatida qaralmaydi. Ulardan ishlab chiqarish jarayonida emas, balki uy xo‘jaligi sohasida uzoq muddat foydalanilishi mumkin. Masalan, kir yuvish mashinasi ishlab chiqarish sohasida emas, balki uy xo‘jaligi sektorida uzoq muddat xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun uni asosiy vositalar yalpi jamg’armasining unsuri sifatida hisobga olish uslubiy jihatdan mumkin emas.

Ikkinchi istisno konseptual emas, balki, ko‘proq amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi. Bu mayda asbob-uskunalar bilan bog‘liq. Ular bir necha yillar davomida ishlab chiqarish jarayonida tinimsiz ishlatilishi mumkin, masalan, bolta, tesha, ketmon, qaychi, pichoq, turli xil kalitlar va hokazolar. Agar ular uchun qilinadigan xarajatlar barqaror xususiyatga ega bo‘lib, ularning qiymati nisbatan murakkab vazifalarni bajaruvchi texnika va texnologiyalarga qaraganda pastroq bo‘lsa, u holda ularni oraliq iste’mol sifatida ishlatiladigan vositalar qatorida hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Lekin masalaning yana boshqa jihat shundaki, bunday yondashuvni dunyoning barcha mamlakatlarida qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki jahonda shunday mamlakatlar ham borki, ayniqsa, qolq mamlakatlarda yuqoridagi kabi asbob-uskunalar (bolta, tesha, ketmon, belkurak, pichoq, turli xil kalitlar va h.k.) korxonalarining asosiy ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi. Bunday holatda ularni asosiy vositalar sifatida, ular bilan bog‘liq operatsiyalarni esa, asosiy kapitalning yalpi jamg’arilishi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar mamlakatda YaIMni xarajatlar usuli bo‘yicha ishlab

chiqilgan uslubiy nizomda¹ yalpi jamg‘arma unsurlari to‘liq hisobga olinmaganligini ko‘rsatdi. Shuning uchun bizning fikrimizcha, yalpi jamg‘arma tarkibiga nizomda ko‘rsatilgan unsurlar bilan birgalikda sof harid qilingan qimmatbaho buyumlar qiymatini ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Ularga qimmatbaho tosh va metallar, antikvariatlar, asar va rasmlar, badiiy ishlanma kabilar kiradi. Lekin bu, ularning hammasini qimmatbaho buyumlar sifatida korxona balansida ko‘rsatish kerak, degani emas. Chunki ulardan daromad olishning imkonni bo‘lmay qoladigan vaziyatlar ham uchrab turadi. Shuning uchun ham ular turkumiga faqat daromad olishni mo‘ljallab, investitsiyalarga muqqobil variant sifatida harid qilingan qimmatbaho buyumlarni kiritish zarur. Real xayotda investorlar bozorda moliyaviy aktivlar narxlari o‘zgaruvchan bo‘lib qolgan vaziyatlarda daromad olish maqsadida ularni emas, balki, oltin yoki boshqa qimmatbaho toshlarni harid qilishni ma’qul ko‘rishiadi. Nafaqat investorlar, balki, uy xo‘jaliklari ham qimmatbaho buyumlarni kelajakda daromad olish va eng asosiyisi, naqd pul mablag‘lariga zarur bo‘lib qolgan paytda tezda almashtirish maqsadida harid qilishadi.

Qimmatbaho buyumlar qiymati ularning oldi-sotdisi ro‘y berayotgan paytda (auksion yoki baholovchi tashkilotlar tomonidan belgilangan narxlarda) shakllanadi va u nomoliyaviy aktivlar uchun xarajatlar sifatida hisobga olinadi. Ushbu xarajatlar esa, yalpi jamg‘arma tarkibiga kiradi va korxona balansida ob‘ektlar qiymati sifatida aks ettiriladi.

Fikrimizcha, qimmatbaho buyumlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

– qimmatbaho metall va toshlar. Bular korxonaning sotish, oraliq mahsulot, oltin zaxira yoki moliyaviy aktiv sifatida foydalanish uchun mo‘ljallanmagan aktivlaridir.

– antikvariat va boshqa badiiy asarlar. Bularga kartina, skulptura, turli xil qadimiy qo‘lyozmalar, antikvariat va shu kabilarning sotishiga mo‘ljallanmagan qismi kiradi. Muzey eksponatlari ham shular jumlasidandir.

– boshqa qimmatbaho predmetlar. Bularga yuqoridagi punktga kirmaydigan, qimmat va bozor tan olgan qiymatga ega bo‘lgan markalar kolleksiysi, monetalar, chinni idishlar, turli xildagi asarlar, qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoq va shu kabilar kiradi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2011-yil 1-apreldagi qaroriga asosan ishlab chiqilgan “Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste’mol usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”.

Asosiy fondlar yalpi jamg‘armasi mamlakatda yaratilayotgan YaIM hajmiga juda katta ta’sir qiladigan omillardan sanaladi. Ayniqsa, ilmiytadqiqotlar uchun xarajatlarni YaIM tarkibida yangicha talqin qilish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini namoyon qilishda, uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini xalqaro taqqoslashda hamda jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy-tadqiqot bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat – bu insoniyat va jamiyat rivojlanishida turli xildagi ixtirolarni yaratish hamda ularni hayotga tadbiq etish bilan bog‘liq bo‘lgan, muntazam ravishda bilim, ko‘nikma va malakani oshirib borishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyatdir. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining hajmi bozor va nobozor ishlab chiqaruvchilarini tomonidan muayyan subyektlarning buyurtmalari yoki o‘z tashabbuslariga asosan olib boriladigan tadqiqot ishlarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz statistika amaliyotida, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan “Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste’mol usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” asosida1 YaIMni xarajatlar bo‘yicha hisoblarga ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining hajmi, ya’ni shu sohaga qilingan xarajatlar asosiy kapitalning yalpi jamg‘armasi tarkibiga kiritilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, YaIM tarkibida ushbu xarajatlarning hisobga olinmasligiga sabab bo‘ladi. Natijada pirovard iste’mol bo‘yicha YaIM hajmi past darajada namoyon bo‘ladi. Vaholanki, ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari (bilim, ko‘nikma va malaka zaxiralari) kelgusidagi iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadi.

Bizning fikrimizcha, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini, ya’ni shu sohaga qilingan sarf-xarajatlarni mamlakatimiz milliy hisoblar tizimida aks ettirishga boshqacharoq yondashish zarur. Ushbu sohaga qilingan xarajatlarni xuddi bino-inshoot, texnika-texnologiya, kompyuter dasturlari va shu kabilarga qilingan sarflar singari asosiy kapitalning yalpi jamg‘armasi sifatida hisobga olish zarur. Chunki ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan ham ishlab chiqarish jarayonida uzoq yillar davomida bir necha bor foydalanish mumkin. Lekin ayrim yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar ham borki, ular o‘z egasi yoki butun bir jamiyatga ma’naviy tomonidan naqli bo‘lsa-da, iqtisodiy foyda olib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2011 yil 1 apreldagi qaroriga asosan ishlab chiqilgan “Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste’mol usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”.

kelmaydi. Ular uchun qilinadigan xarajatlarni oraliq iste'mol sifatida hisobga olishni davom qildirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, harbiy sohadagi qurol-aslaha va ularni yetkazib beruvchi vositalar uchun qilingan xarajatlarni kapital jamg'arish sifatida emas, balki davlat boshqaruv organlarining oraliq iste'moli shaklida hisobga olinadi.

Bizning fikrimizcha, agarda harbiy sohadagi qurol-aslaha va ularni yetkazib beruvchi vositalar bir yildan ortiq muddat xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, u holda ularga qilingan xarajatlarni asosiy kapital yalpi jamg'armasi sifatida hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tavsiyalarning ahamiyati shundaki, pirovard iste'mol bo'yicha yalpi ichki mahsulotni hisoblash jarayonida yalpi jamg'arma hajmining oshishi hisobiga YAIM miqdori ham sezilarli darajada o'sadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada yorqinroq namoyon etishga yordam beradi.

Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli-tuman bo'lib, turmush daroji konseptsiyasi bilan uzviy bog'liq. Ayrim muhim ko'rsatkichlar va uning indikatorlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Aholi turmush daroji ko'rsatkichlari va indikatorlari

Turmush daroji ko'rsatkichlari	Ko'rsatkichlar indikatorlari
I. Asosiy jismoniy ehtiyojlar qondirilishi	
1. Salomatlik	1.1. 1 ming yoki 100 ming aholi hisobiga jami o'lim. 1.2. 1000 tug'ilgan bola hisobiga bir yoshgacha o'lgan bolalar soni. 1.3. Kutilayotgan umr uzoqligi. 1.4. Kasallik natijasida mehnat qobiliyatining yo'qotilishi.
2. Ovgatlanish	2.1. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli hokazolar.
3. Turar joy	3.1. Turar joylarda uylarning umumiy maydonini ishga tushirish. 3.2. Turar joylarning umumiy maydoni. 3.3. Turar joy jamg'armasini obodonlashtirish. 3.4. Kvartiralarning o'rtacha kattaligi.
4. Uylardagi mol-mulklar	4.1. Aholining moddiy-maishiy va xo'jalik buyumlari bilan ta'minlanganligi. 4.2. Aholiga madaniy-maishiy buyumlar sotish va hokazolar.
5. Pulli xizmatlar	5.1. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish hajmi. 5.2. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish tarkibi. 5.3. Maishiy xizmatlar hajmi va hokazolar.

II. Ma'nnaviy ehtiyojlarning qondirilishi	
6. Aholining madaniy darajasi	<p>6.1. Aholining ma'lumot darajasi.</p> <p>6.2. Nashr etilayotgan kitob va risolalar hajmi.</p> <p>6.3. Chiqarilayotgan jurnallar va boshqa davriy nashrlar hajmi.</p> <p>6.4. Aholining televizorlar bilan ta'minlanganligi va hokazolar.</p>
III. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish	
7. Mehnat sharoitlari	<p>7.1. Sanoatda ish vaqt ni nobudgarchiligi (o'rta hisobda bir ishchi hisobiga, kun).</p> <p>7.2. Xodimlarning mehnat sharoitini o'zgartirish (og'ir jismoniy mehnat bilan band bo'lganlar va hokazo).</p> <p>7.3. Ishlab chiqarishda shikastlanish (bir ish kuni va bundan ko'proq ish kuni hisobiga baxsiz hodisalarda shikastlangan va mehnat qobiliyatini yo'qtganlar hamda 1000 nafar ishlaydigan odam hisobiga shikastlanishi o'lim bilan tugallanganligi soni) va hokazolar.</p>
8. Dam olish sharoitlari	8.1. Yozgi oromgohlarda dam olgan bolalar soni va hokazolar.
9. Ijtimoiy ta'minot	<p>9.1. Pensiyalar va o'rtacha ish haqi va uning eng kam miqdorlari bo'yicha nisbat.</p> <p>9.2. Bolalarga atalgan nafaqlarning o'rtacha miqdorlari va ularning yashashiga loyiq minimum nisbati.</p> <p>9.3. Pensiyalar miqdori va tirikchilik minimumi nisbati va hokazolar.</p>
10. Ijtimoiy-maishiy vaziyat	<p>10.1. Ishsizlarning umumiy soni.</p> <p>10.2. Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va shikastlanishlar, qotilliklar va hokazolar oqibatidagi o'lim.</p> <p>10.3. Ish tashlashlar (ish vaqt ni nobudgarchiligi kishi-kunlari miqdori, qatnashchilar soni).</p> <p>10.4. Ro'yxatga olingan jinoyatlar soni.</p> <p>10.5. Ifloslangan oqar suvlarning chiqarib tashlanish hajmi.</p> <p>10.6. Havoga ifloslangan moddalar chiqarib tashlanishi va hokazolar.</p>
11. Daromadlar va sarf-xarajatlar	<p>11.1. Aholining pul daromadlari, jumladan, ularning turlari bo'yicha.</p> <p>11.2. Aholining pul sarf-xarajatlari, jumladan, ularning turlari bo'yicha.</p> <p>11.3. Ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi, jumladan, tarmoqlar, mintaqalar va kasblar bo'yicha uning tabaqlanishi.</p> <p>11.4. Aholining omonatlardagi jamg'armalari va uning ko'payishi va hokazolar.</p>

Turmush darajasini baholash uchun jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar:

- darajaga oid ko'rsatkichlar (mutloq qiymatlar);
- tarkibiy ko'rsatkichlar (darajaga oid ko'rsatkichlarning tarkibiy qismlari);
- dinamik (darajaga oid ko'rsatkichlarning o'zgarishini tavsiflaydigan, nisbiy) ko'rsatkichlar sifatida hisoblab chiqilishi mumkin.

Nisbiy turmush darajasini quyidagi uchta jihat bo'yicha:

- a) avvalgi yillardagi turmush darajasi bilan taqqoslash;
- b) bir mintaqadagi turmush darajasini boshqa mintaqalardagi, (mamlakatlardagi) turmush darajasi bilan taqqoslash;
- v) amaldagi turmush darajasini odamlarning minimal va oqilona talablarini ifodalovchi ehtiyojlarning rivojlanganlik darajasi bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

Yuqorida keltirilgan turmush darajasi kontsepsiysi inson faoliyatining alohida qirralarini xarakterlaydi. Ta'kidlab o'tilganidek, barcha klassifikatsiyalar o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ular bir-birini to'ldiradi, ammo kompleks baholash uchun integral ko'rsatkichlar tizimi zarur. Hozirda asosi turlicha bo'lgan turmush darajasi kontsepsiyalarini aholining turmush darajasini (sifatini) har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul yo'q, biroq olimlar shunday usullarni ishlab chiqish bo'yicha jiddiy ish olib bormoqdalar.

Sho'rolar davri amaliyotida integral o'lchov sifatida jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha haqiqiy daromad ko'rsatkichidan foydalani-lardi. Uni oshirishning asosiy shakllari quyidagilar: haqiqiy ish haqining o'sishi (pul shaklidagi ish haqini to'g'ridan-to'g'ri oshirish, narxlarni tushirish, soliqlar, majburiy ajratmalarni kamaytirish), ijtimoiy iste'mol jamg'armalaridan to'lanadigan to'lovlarini (ijtimoiy transfertlarni) oshirish va boshqalar.

"Haqiqiy daromadlar" ko'rsatkichida pul daromadlaridan tashqari natural daromadlarning qiymati, muassasalarning ijtimoiy soha uchun moddiy xarajatlari ko'rinishidagi daromadlar, aholining qimmatbaho qog'ozlari, jamg'armalari ham hisobga olinadi. Aholining haqiqiy daromadlari indeksi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasini, moddiy ne'matlar, xizmatlar, tariflar baholarining,

soliqlar va majburiy ajratmalarning o‘zgarishini hisobga olgan holda ifodalayadi.

Keyingi yillarda yangi – «ixtiyordagi haqiqiy daromad» (soliqlar va majburiy ajratmalar chiqarib tashlanib, inflyasiya sur’atlarini hisobga olgan holdagi pul daromadlari) ishlatilmoqda.

Bu ikki ko‘rsatkichning farqi haqiqiy ixtiyordagi daromad – miqdor ko‘rsatkichi, jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha haqiqiy daromad esa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning o‘rtacha miqdori ekanidan tashqari, ularni hisoblash metodikasi ham turlicha.

Aholining turmush darajasini ifodalash uchun jahondagi turli mamlakatlarda turlicha mezonlar qo‘llaniladi. Ular orasida minimal iste’mol budgeti, kambag‘alik, mutloq va nisbiy kambag‘allik ko‘rsatkichlari keng foydalaniladi.

Minimal iste’mol budgeti – Shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy ehtiyojlar iste’molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta’minlaydigan iste’mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati.

Kambag‘allik ko‘rsatkichi aholining turmush darajasini baholash uchun foydalaniladigan mezonlardan biridir. Jahan amaliyotida kambag‘allik darajasini ta’riflashga yondashishda uchta asosiy konsepsiya: mutlaq, nisbiy va subyektiv kambag‘allik konsepsiyasidan foydalaniladi.

Mutlaq kambag‘allik konsepsiyasi shaxs yoki oqilona minimal hayotiy ehtiyojlarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan daromadni ta’riflashga asoslanadi. O‘zbekistonda insonning minimal ehtiyojlarini ta’riflash uchun shunday tirikchilik minimumi belgilanganki, uni hisoblab chiqishda kaloriyalar, oqsillar, yog‘lar va uglevodlar zaruriy iste’molining fiziologik me’yorlaridan foydalaniladi.

Nisbiy kambag‘allik konsepsiyasi asosiy mezon sifatida insonning minimal ehtiyojlaridan emas, balki uning farovonligi ko‘rsatkichlarining u yoki bu mamlakatda ustunroq keluvchi moddiy ta’minlanganlik darajasi bilan bo‘ladigan nisbatidan foydalanadi. Bunday yondashishda daromadlari mamlakat bo‘yicha o‘rtacha daromadning muayyan ulushidan oshmaydiganlar kambag‘al hisoblanadi.

Keyingi vaqtarda chet eldag'i tadqiqotlarda nisbiy kambag'allikni ta'riflashning boshqa uslubiyatidan ham keng foydalanilmoqda, u insonning boshdan kechirayotgan, umumqabul qilingan turmush tarzi olib borish imkonini bermaydigan etishmovchiliklar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Kambag'allikning subyektiv konsepsiysi ijtimoiy maqbul turmush darajasi uchun zarur bo'lgan resurslarni subyektiv ta'riflashga asoslangan.

Konsepsiyalardagi farqlardan tashqari, kambag'allik miqyoslarini ta'riflashga uy xo'jaliklari tavsifini tanlash ham ta'sir etadi, u kambag'allikni baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich bilan taqqoslanadi. Amaliyotda uy xo'jaliklarining quyidagi tavsiflaridan foydalaniladi:

- uy xo'jaliklarining pul daromadlari;
- uy xo'jaliklarining pul sarf-xarajatlari;
- uy xo'jaliklari tasarrufidagi moddiy resurslar ko'rsatkichlari.

O'zbekistonda kambag'allikni ta'riflash, kambag'allik darajasini baholashda o'rta hisobda bir oydag'i pul daromadlari ko'rsatkichidan foydalaniladigan tarzda kambag'allik chegarasini tirikchilik minimumi darajasida belgilaydigan mutlaq konsepsiya asoslanadi.

Tirikchilik minimumi inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'molinig minimal darjasini ko'rsatkichidir.

Tirikchilik minimumi o'rta hisobda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qiymat tarzida va umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha, uning tarkibiga kiruvchi subyektlardagi asosiy ijtimoiy demografik guruuhlar bo'yicha, shu jumladan, alohida shaharlar va ma'muriy-hududiy birlashmalar bo'yicha belgilanishi mumkin.

Tirikchilik minimumining qiymatini belgilash negizini ilmiy asosda ishlab chiqilgan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy turlari o'lchamlari tashkil etadi, ular aholi ayrim ijtimoiy-iqtisodiy guruuhlari uchun minimal iste'mol me'yorlari bo'yicha tabaqa lashtirib berilgan hamda iste'mol qilinadigan moddalarning kaloriyaliligi va kimyoviy tarkibi bo'yicha muvozanatlashtirilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli me'yorlarini asoslashda turli tabiiy-iqlimiylar sharoitlarni hisobga olish maqsadida respublika hududida amaldagi uslubiy tavsiyalarga muvofiq bir necha zonaga ajratilgan. Zonal taqsimotga

muvofig yiliga o‘rtta hisobda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari turlari ma’lum miqdorlar doirasida belgilab chiqilgan. Hududiy zonalar bo‘yicha oziq-ovqat turlarining quvvat bera olishi sutkasiga 2204 kkal.dan 2607 kkal.gachani tashkil etadi.

4. Asosiy xalqaro institutlar, ularning maqsadlari, tuzilishi va faoliyati

Jahon qishloq xo‘jaligining turli mamlakatlар va mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishi bo‘yicha bir xil emasligi xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy munosabatlarda sezilarli aks etadi.

XXI asr bo‘sag‘asida jahon xo‘jaligi bozor iqtisodiyoti tamoyillari, xalqaro mehnat taqsimotining obyektiv qonuniyatları, ishlab chiqarish va kapitalning internatsionallashuviga asoslanadi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari savdo, ishlab chiqarish va kredit-moliya sohasining birlashganlik darajasi xalqaro xo‘jalik kompleksi shakllanayotganligining belgisi bo‘lib xizmat qiladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, jahon xo‘jaligi faqat bir xil emas, balki tobora baynalminal tus olmoqda.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiyot va unga mos keladigan xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimini quyidagilar tavsiflaydi:

- xalqaro mehnat taqsimoti ishlab chiqarishining xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi.
- ishlab chiqarish omillari: kapital, ishchi kuchi, texnologiya, axborotning xalqaro harakati jadalligining yuqori darajadaligi.
- xalqaro tovar almashuvi, kapital oqimlari, mehnat migratsiyasi, axborot sohalarining globalligi.
- ishlab chiqarish va kapitalning baynalmallashuvi. Turli mamlakatlarda joylashgan korxonalardagi ishlab chiqarish shakllarining, avvalambor, yirik xalqaro korporatsiyalar doirasida ko‘payishi.
- ochiq turdagи milliy iqtisodiyotlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, tashqi iqtisodiy aloqalarning umumiyliberallahuvi.
- bevosita tovarlar harakati va ishlab chiqarish omillari bilan bog‘liq bo‘limgan mustaqil xalqaro moliya sohasining shakllanishi.
- axborotlashtirish, axborot texnologiyalari xalqaro iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biriga aylanmoqda. Ekspertlar-

ning baholashicha, 2000-yilda axborot xizmatlarining jahon bozori 1 trln, dollarga yetdi.

- xalqaro miqyosda joriy iqtisodiy va valyuta-moliyaviy jarayonlarni milliy darajada tartibga solishdan yuqori turuvchi, davlatlararo tartibga solishga intilishning kuchayib borishi.

Xorijiy mamlakatlarning iqtisodiyotida muhim rol o‘ynovchi bir nechta xalqaro institutlarni ajratib ko‘rsatish lozim.

Bu avvalambor, davlatlararo tashkilotlar, muassasalar va konferentsiyalardir, chunki xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish tizimida davlat markaziy o‘rin tutadi. Aynan davlat xalqaro huquqning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xalqaro iqtisodiy huquqning asosiy subyektlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda, masalan, BMTning 1944-yilda tuzilgan Bretton-vuds konferensiysi. Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki (XTTB) va Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) kabi xalqaro tashkilotlar haqida gap bormoqda. Bugungi kunda XTTB va XVF BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalaridandir. GATT hozirda Jahon Savdo Tashkiloti (JST) hamda BMT bilan bog‘langan.

Xalqaro konferensiylar ichida “katta sakkizlik” - AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Rossiya mamlakatlari rahbarlarining har yilgi uchrashuvlari juda mashhur. Ayni paytda “katta sakkizlik”ning jahon iqtisodiyotidagi roli “iqtisodiy qudrat huquqi xalqaro iqtisodiy huquqning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Xalqaro iqtisodiyotda ishtirot etuvchilar davlat chegaralari mavjudligiga qaramay, umumiy xo‘jalik tizimining tarkibiy qismlari sifatida faoliyat ko‘rsatadilar. XO‘jalik hayotining internatsionallashuvi va globallashuvi ro‘y bermoqda. Bu tushunchalar ortida alohida mamlakatlarni global jahon kompleksiga birlashtiruvchi xo‘jalik aloqalari ko‘p bosqichli jahon tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi turibdi.

Xo‘jalik hayotining baynalminallahuvi avvalambor, ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyalashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi, ya’ni xalqaro miqyosda ishlab chiqarishning ijtimoiy xususiyatining rivojlanishidir.

Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotidagi globallashuv jarayoni ishlab chiqarish va kapital integratsiyalashuvining qonuniy natijasidir. Globallashuv sezilarli darajada jahon xo‘jaligi aloqalarining miqyosi

o'sishi, doirasi kengayishining miqdoriy jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Jahon xo'jalik jarayonlarining integratsiyalashuvi va globallashuvi amalda hech bir davlatga faqat "o'z ishlab chiqarishiga" ega bo'lish foydali bo'lmaydigan vaziyat ekanligini ko'rsatdi.

Ba'zi milliy iqtisodiyotlar o'z zaminini topishga intilib, jahon xo'jaligiga tobora ko'proq qo'shilib bormoqda. Jahon xo'jalik aloqalari shakllanishi va rivojlanishining istiqbollari shuni ko'rsatmokdaki, xalqaro jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy tendentsiyasi sayyoramiz miqyosida tovarlar, kapitallar va xizmatlarning yagona bozorini yaratishga, alohida mamlakatlarning iqtisodiy yaqinlashishi va yaxlit xalqaro xo'jalik kompleksiga birlashishiga intilishdir. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqacha, ancha yuqori bosqichi hisoblanadi.

Integratsion tuzilmalarni ishlab chiqarishning integratsiya-lashuvida erishilgan darajasiga qarab ajratish lozim. Bunda integratsiyalashuv ham rasmiy, ham real xususiyatiga ega bo'lishi mumkinligini hisobga olish kerak. Rasmiy integratsiya kabi, rasmiy integratsiyalashuv ham ishlab chiqarishni shunday xalqaro umumlashtirishdan iboratki, uning asosida mamlakatlar o'rtaсидаги iqtisodiy aloqalar xalqaro mehnat taqsimoti asosida o'rnatiladi va bu mehnat taqsimoti o'zaro aloqada bo'ladigan mamlakatlar ishlab chiqarishi rivojlanishining tegishli o'lchamlaridan kelib chiqilmaydi. Ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyalashuvi rivojlanaverishi, lekin uning ishtirokchilari yakuniy natijalarga ta'sir qilmaydigan turli iqtisodiy sharoitlarda bo'lishi mumkin.

Real iqtisodiy integratsiya esa ishlab chiqarishning shunday xalqaro umumlashtirishdan iboratki, bu umumlashtirish ishtirokchi davlatlar asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o'lchamlarining ma'lum paritetini nazarda tutadi.

Iqtisodiy integratsiya, o'z navbatida, ishtirokchi mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy o'lchamlarini jadallashtirish uchun sharoit yaratadi. Iqtisodiy integratsiyaga olib keladigan jarayonlarni quyidagi o'zaro bog'langan zanjir ko'rinishida ifodalash mumkin: ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va kapitalning integratsiyalashuvi, iqtisodiy integratsiya.

Jahon xo'jaligidagi integratsion jarayonlarni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajriba iqtisodiy integratsiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishida to'rtta bosqichdan o'tishning zarurligidan dalolat beradi.

Birinchi bosqich - ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida bojxona tariflari va boshqa cheklashlarni bekor qilib, erkin savdo zonalarini tashkil qilish.

Ishtirokchi mamlakatlar bu bosqichda o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladi, lekin uchinchi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarda to'la erkinlikni saqlab qoladilar (masalan, bojxona poshlinalarini yoxud boshqa chekashlarni bekor qilish yoki yangiliklarni kiritish huquqi, savdo-iqtisodiy shartnomalar, bitimlar tuzish huquqi). Buning oqbatida mamlakatlar o'rtasida ularning chegaralarini kesib o'tayotgan tovarlarning kelib chiqishini nazorat qiladigan va tegishlicha uchinchi mamlakatlardan imtiyozli ravishda tovarlarni olib kirishga to'sqinlik qiladigan bojxona chegaralari va postlari saqlanib qoladi.

Bunday erkin zonalarga 1960-yildan buyon mavjud bo'lgan Yevropa Erkin Savdo assotsiatsiyasini misol qilib keltirish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya uch bosqichli model (ayniqsa, uning G'arbiy Yevropa variantida) sifatida qaraladi:

- mikrodarajada, ya'ni alohida kompaniyalar bevosita xo'jalik aloqalariga kirishadi, integratsion jarayonlarni yo'lga qo'yadigan korporativ darajada;

- davlatlararo darajada, davlatlarning maqsadga yo'naltirilgan (kollektiv yoki bir tomonlama) mamlakatlarining u yoki bu guruhida mehnat va kapitalning birlashib ketishiga ko'maklashadi, alohida integratsion vosita va usullarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yetakchi industrial mamlakatlarning tez iqtisodiy rivojlanishi va xalqaro transport hamda kommunikatsiya vositalarining takomillashishi natijasida tovarlar va xizmatlar almashinuvining qizg'in rivojlanishi ro'y beradi. Ishlab chiqarish omillari (kapital, ishchi kuchi va texnologiyalar) xalqaro harakatining turli shakllari vujudga kela boshladи, buning natijasida xorijga faqat tayyor mahsulot emas, balki uni ishlab chiqarish omillari ham ko'chib o'ta boshladи. Tovarning narxiga qo'shilgan foyda endilikda faqat milliy chegaralar doirasidagina emas, balki xorijda ham yaratila boshlandi. Tovarlar va xizmatlar xalqaro savdosi hamda ishlab

chiqarish omillari aylanishi rivojlanishining qonuniy natijasi iqtisodiy integratsiyaga sabab bo'ldi.

Iqtisodiy integratsiya – mamlakatlar iqtisodiy o'zaro hamkorligining natijasi bo'lib, u xo'jalik mexanizmlarining yaqinlashuviga olib keladi va bu yaqinlashuv davlatlararo bitimlar shaklini oladi hamda tegishli davlatlararo organlar tomonidan tartibga solinadi.

Mikrobosqichda bu jarayon bir-biriga yaqin joylashgan mamlakatlar alohida xo'jalik yurituvchi subyektlari (korxonalar, firmalar) kapitalining o'zaro iqtisodiy kelishuvlar tizimini yaratish, davlatlararo darajada chet elda filiallarini tuzish orqali ro'y beradi. Integratsiya davatlarning iqtisodiy birlashuvi va milliy siyosatlarining muvofiqlashtirilishi asosida kechadi.

Integratsion jarayonlar iqtisodiy regionalizmga olib keladi, buning natijasida mamlakatlarning alohida guruhi boshqa mamlakatlarga qaraganda o'zlariga savdo uchun, ba'zi hollarda esa ishlab chiqarish omillarining mintaqalararo muomalada bo'lishi uchun qulayroq sharoitlar yaratadi. Yaqqol proteksionistik qirralariga qaramay, xalqaro savdoni rivojlantirish uchun salbiy omil hisoblanmaydi, basharti o'zaro iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirayotib integratsiyalashgan mamlakatlar guruhi uchinchi davlatlar bilan integratsiya boshlangunga qadar noqulayroq shartlar o'rnatmaydilar. Boshqacha aytganda, bir guruhdagi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantira turib, iqtisodiy regionalizm boshqa katta mamlakatlar bilan bu aloqalarning murakkablashishiga olib kelmasligi kerak, toki regionalizm hech bo'limganda qolgan butun dunyo bilan savdo uchun sharoitlarni yomonlashtirmas ekan, u xalqaro iqtisodiyotni rivojlantirishning ijobiyligi omili hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy integratsiyaning shart-sharoitlari quyidagilardir:

- integratsiyalashayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi va bozor munosabatlaridagi etukligi darajasining yaqinligi. Kamdan-kam istisnolardan tashqari, qolgan barcha hollarda davlatlararo integratsiya yo industrial mamlakatlar yoki rivojlanayotgan mamlakatlar orasida rivojlanadi. Hatto sanoati rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar doirasida taxminan bir xil iqtisodiy rivojlanish darajasidagi davlatlar o'rtasida integratsion jarayonlar eng faol bo'ladi. Sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi integratsion guruh-larning shakllanishi boshlang'ich bosqichidadir;

- integratsiyalashayotgan mamlakatlarning geografik yaqinligi, ko‘p hollarda umumiy chegara va tarixan shakllangan iqtisodiy aloqalarning mavjudligi. Dunyodagi integratsion birlashmalarning aksariyati geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan, transport aloqalariga ega bo‘lgan va ko‘pincha bir tilda gaplashadigan bir necha qo‘shni mamlakatlardan boshlanganligi;

- rivojlanish, siyosiy hamkorlik va shakllar sohasida mamlakatlar oldida turgan iqtisodiy va boshqa muammolarning umumiyligi. Iqtisodiy integratsiya integratsiyalashayotgan mamlakatlar oldida real mavjud bo‘lgan aniq muammolar to‘plarnini hal qilishga qaratiladi. Bunda asosiy muammosiga bozor nqtisodiyoti asoslarini yaratish bo‘lgan mamlakatlar bozorining rivojlanganligi, umumiy valyutani joriy qilishni talab etadigan davlatlar bilan integratsiyalashuvni mumkin emasligi yaqqol ayonligi bunga sababdir. Xuddi shuningdek, aholini suv bilan ta’minalash asosiy muammosi bo‘lgan mamlakatlar kapital aylanishi erkinligi muammosini muhokama qilayotgan davlatlar bilan birlashishi mumkin emas.

Jahon bozori yanada birlashib, unga o‘tish iqtisodiga ega bo‘lgan mamlakatlar ham kirib kelmoqda. Oxirgi o‘n besh yil ichida jahon savdo-sotig‘i ishlab chiqarishdan ko‘ra ancha tez rivojlandi. Jumladan, xorijiy sarmoyalarning rivojlanayotgan mamlakatlarga bo‘lgan oqimi o‘n yil ichida olti marotaba ortgan.

Integratsiyaga yordam ko‘rsatish hamda yuzaga kelgan muammolarni hal etish maqsadida umumiy qoidalar ishlab chiqilgan va ularga aloqador bo‘lgan institutlar tashkil etilgan. Ayniqsa, bu borada Jahon Savdo Tashkiloti (JST) alohida o‘ringa ega.

Rivojlangan mamlakatlardan ko‘philigi keyingi vaqtida ochiq iqtisodiyot yo‘liga o‘tganligi sababli, jahon xo‘jalik tizimida faol rol o‘ynamoqdalar. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning eksport va import hissasi yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotning 49% ini tashkil etadi, vaholanki o‘n yil ilgari bu ko‘rsatkich 33% edi.

O‘tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar ko‘p yillik yakkalanishdan so‘ng jahon bozoriga chiqib, birlashishdan manfaat ko‘rmoqdalar, islohot yo‘nalishida turgan boshqa mamlakatlardan ko‘ra ko‘proq yutuqqa ega bo‘lmoqdalar.

Umumjahon savdosining foydasi ichki bozor murosasizligi bilan bo‘liq iqtisodiy ustunlikdan ham ancha ko‘proqdir. Mamlakatlararo

kapital, tovar va g'oyalar harakati yagona markaziy rahbariyat tomonidan emas, balki ehtiyoj va takliflar asosida boshqarilmogda. Bu esa ishlab chiqarish mehnatini, savdo ko'lagini va milliy daromadning tobora o'sishiga olib keladi. Boshqa tomondan olganda, o'zaro birlashish mamlakatlarni ochiq savda yo'lida turishiga yordam beradi, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi esa mamlakat ichida institutlar barpo etilishiga sabab bo'ladi.

Ochiq savdo siyosatini va chet el sarmoyalaringin jalg etilishini muntazam ravishda muhokama qilish g'oyatda muhimdir. Asosiy gap tashqi dunyo bilan o'zaro hamkorlik o'rnatish, ya'nijorat oqimlari va ularning jahon savdosiga ta'siri, tezkorlik bilan JSTga kirish hamda uning haqqoniy a'zosi bo'lish, mintaqaviy savdo bitimlari tuzish, yangi iqtisodiyot yo'liga o'tgan mamlakatlardan kapitalning oqib kelishi va ularning boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga ta'siri haqida bormoqda.

Yer yuzining chorak qismini, dunyo aholisining uchdan bir qismini (dunyo aholisi 6,5 mlrd.dan oshgan) tashkil etuvchi mamlakatlarning o'zaro muvaffaqiyatli uyushmasi (integratsiyasi) butun jahondagi iqtisodiy tizimga o'zining samarali ta'sirini o'tkazmoqda. Shu bilan bir qatorda, avvalgi iqtisodiy yo'nalishda bo'lgan mamlakatlarning umumjahon bozoriga o'tishi natijasida ayrim mamlakatning manfaatlari cheklanib qolmasmikan, degan xavotir ko'pchilikda yo'q emas, bu xavotirlanishda jon bor.

Jahon xo'jaligi tizimiga birlashish, shubhasiz, yangi imkoniyatlar yaratibgina qolmay, o'tish jarayonida kelib chiqadigan xavf-xatarlardan ham holi emas. Ko'pgina mamlakatlar o'tish davridagi chiqimlardan qochib qutulmaslar, lekin dalillar shuni ko'rsatadiki, keng va raqobatli jahon bozorida ishtirok etish barcha sarfxarajatlarning hissasini ortig'i bilan qaytaradi.

Shuni ta'kidlash zarurki, iqtisodiy o'tish davrini boshidan kechirgan mamlakatlarning tashqi savdoda o'z o'rni bor. Masalan, Xitoy 1978-1994-yillar mobaynida yirik eksportyor mamlakatlar ro'yxatidagi o'ttiz ikkinchi o'rindan uchinchi o'ringa chiqib oldi. Markaziy va Sharqiye Yevropa mamlakatlari hamda yangi Mustaqil Davlatlar (YaMD) bugungi kunda eksport va importdan teng ravishda manfaatdordirlar. Biroq ularning savdo hajmi qanday bo'ladi-yu, kimlar bilan savdo olib boriladi, degan savol tug'iladi. Ishonchli

rasmiy dalillar shuni ko'rsatadiki, agar yangi Mustaqil Davlatlar bozori tamoyillariga amal qilish yo'lidan borsa, ehtimol savdo-sotiq jarayonida umumiy yo'nalishdagi barqarorlikka erishishlari mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiyoti oldida ulkan imkoniyatlarni ochadilar. Ishlab chiqaruvchilar yangi bozorlarga, iste'molchilar esa tovarlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Iqtisodiy samaradorlikning ortishi va resurslarning jalb etilishi o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda taklif qilingan tovar va xizmatlarning umumiy jahon ko'lamni ortishini ta'minlaydi. Integratsiya tufayli kam va ichki tarmoqli savdoning o'sishi, Markaziy va Sharqi Yevropa mamlakatlarida kuzatilganidek, tovarlar turining ko'payishi va ishlab chiqarishning ratsionalizatsiya qilinishi, ishlab chiqarish ko'lamlar asosida tarmoqlarda tejamga erishishi tufayli dunyoda farovonlikning oshishiga olib keladi. Farovonlikni quyidagi ko'rsatkichlari namoyon bo'ladı: Barcha mamlakatlar eksporti: 1980-yilda -1,9 trln. dollar 1990-yilda - 3,3 trln. dollar G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarining yalpi eksporti 15 yil mobaynida 1985 yildan 2000-yilgacha - 2,8 martaga o'sdi, importi - 2,9 marta o'sgan. Shu mamlakatlarning yalpi milliy mahsuloti - 1,5 martagina o'sgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi savdo aylanmasining YaMMdagagi ulushi 1980-yillarda - 33%, 1990-yillarda - 43% ni tashkil etgan.

Bozor iqtisodiyoti, xususan, sanoati rivojlangan mamlakatlar, o'tkinchi iqtisodiyotli mamlakatlar savdoning o'sishidan manfaatdor va ular uchun o'z bozorlarini oolib berishga tayyordirlar.

Albatta, integratsiya ortidan bir muncha chiqimlarga yo'l qo'yiladi. Ular yangi iqtisodiy holatlarga bog'liq, ayniqsa, ko'p mehnat talab qilib tovar ishlab chiqaruvchi rivojlangan mamlakatlar kuchli raqobatga duch keladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar esa o'z imkoniyatlarini to'la ishga solib, boshqa tarmoqlarda ustunliklarni namoyish qiladilar, biroq qilingan chiqimlar to'g'ri baholansa, ularning mo'tadilligi ko'rinish turadi.

O'tuvchi iqtisodiyotdagi mamlakatlar jahon bozorining butun talablarini qondirmaydilar, lekin ishlab chiqaruvchilardan ko'proq yangi tovarlarni kashf etish, kishilar farovonligi uchun ko'plab xilmalarni

xil mahsulotlar ishlab chiqarish va zaruriy xizmatlarni bajarish talab etiladi.

O‘tuvchi iqtisodiyotdagi mamlakatlarning savdo integratsiyasi natijasi tufayli Yevropa birligiga xavf bormi?

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda Yevropa ittifoqi (EI) mamlakatlari Markaziy va Sharqiy Yevropa (MShYe) mamlakatlarining asosiy savdo sheriklaridir. 1989-yildan beri ular o‘rtasidagi savdo oboroti salkam ikki baravarga oshdi. MShYe mamlakatlari EI uchun juda qulay eksport bozori bo‘ldi, MShYe mamlakatlari va EI o‘rtasidagi Yevropa bitimi bozorlarni har xil tovarlar bilan to‘ldirishga yo‘l ochdi. Biroq hali ham “ta’sirchan” mahsulot importida ayrim cheklanish mavjud, qishloq xo‘jaligida avvalgidek proteksionistik siyosat olib borilmokda, antidemping va proteksionistik choralarining xavfi metallurgiya va kimyo tovarlari eksportining samarali murosasozligini yuklab qo‘ymoqda. Ammo ochiq savdo haqida Yevropa bitimi MShYe dagi ishlab chiqarilgan savdo islohotlarini mustahkamlashga yordam beradi. Ikki mintaqa o‘rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanish jarayonida ichki tarmoqdagi savdo hamda MShYe mamlakatlari korxonalarining ishlov berish va yig‘ish sohalaridagi faoliyat hajmi o‘smoqda. EI tashqaridagi pudratchilar bilan EI kompaniyalarning shartnoma tuzishlarini Yevropa bitimi rag‘batlantiradi.

Yevropa ittifoqida hozirgi paytda savdoda ishtirok etayotgan O‘rtal Dengiz va Afrika mamlakatlari EI va MShYe mamlakatlari o‘rtasidagi savdo murosasozligi natijasida yuzaga keladigan molchiqimdan tashvishdadirlar. Ammo bir qator O‘rtal Dengiz mamlakatlari 1970-yildan EI sanoat mollari bozorida boj solig‘isiz va qishloq xo‘jalik mollari bozoriga esa imtiyozli soliq asosida kirish huquqlariga ega. Binobarin, bu afzalliklar MShYe va EI savdo hamkorligi rivojlanishi natijasida saqanib qolishi shubhasizdir. Shuni tan olish kerakki, bu mamlakatlarning iqtisodiy jahon arenasida paydo bo‘lishi, o‘z navbatida, Yevropa Ittifoqi bozorlarida O‘rtal Dengiz mamlakatlari eksportyolalarining geografik afzalliklardan mahrum bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Lekin o‘rtal Dengiz mamlakatlarining Yevropa Ittifoqi bozorida eksport qismi (neft eksportidan tashqari) hanuzgacha bir xil bo‘lib qolmoqda. O‘rtal Dengiz hamda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari jahon savdosida o‘ziga xos afzalliklarga ega, haqiqatdan,

bu ikki mintaqaning eksport tuzilishi hech bir-birini kesib o'tmaydi. Ei bozorida qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportining chetlanib qolinishi qator O'rta dengiz mamlakatlari uchun katta ahamiyatga ega. Chunki ular bu sohada o'z eksport kuch-quvvatini to'liq ko'rsatishga qodirdirlar.

MShYe mamlakatlari nisbatan yuqori malakali ishchi kuchiga ega bo'lib, xalqaro sahnaga chiqadilar. Ular ta'lif tuzilmalariga bir muncha yangilik va o'zgartirish olib kirishlariga to'g'ri keladi. Bu esa ilmiy-tadqiqot institutlarining (ITI) tarraqqiyotini belgilaydi. Chunki bular faqat moliyaviy vosita va uskunalar manbai bo'lib qolmay, balki boshqarish va savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishiga olib keladi. Kelajakda MShYe mamlakatlari oddiy, lekin ko'p mehnat talab qiladigan mahsulot o'rniga o'rta va yuqori darajali malaka talab qiladigan tovarlar ishlab chiqarib, haqiqiy ravishda raqobatchi bo'ladilar. Bu tuzilmadagi o'zgarishlar MShYe mamlakatlari va kam daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bo'ladigan raqobatlilikni qisqartiradi.

Xulosha

Jahon iqtisodiyotida XX-XXI asrlar bo'sag'asida globallashuv tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. Globallashuv jarayonini to'xtatib bo'lmaydi. "Globallashuv" tushunchasi ilk bor amerikalik olimlar tomonidan kiritilgan. T.Levitt "Bozorlarning globallashuvi" nomli maqolasida globallashuvni oldindan tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada ko'p ko'rsatkichlarga ega bo'lgan iste'mol tovarlari standartlashishi uchun global bozorlar paydo bo'lishi bilan bog'liq yangi tijorat voqelegi deb atagan.

Globallashuv quyidagi jihatlarga ega:

- moliyaviy markazlashuvning kuchayishi. Uning yordamida kredit mablag'lari shakllantiriladi, kreditlar beriladi va foydalaniladi, shuningdek, kapitalning ishlab chiqarish ustidan hukmronligi o'rnatiladi;
- axborotlar ahamiyatining oshishi;
- global oligopolianing to'xtovsiz kengayishi;
- transmilliy korporatsiya (TMK)lar sonining ortishi;
- transmilliy iqtisodiy diplomatiyaning shakllanishi va milliy davlat hokimiyatining globallashuvi.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotining globallashuvi jahon iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liq turli soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo‘jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va bilimlar bozorini asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishini bildiradi.

Globallashuv jarayonlarining tezlashishiga bir necha omillar ta’sir etadi, bu omillarning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- yopiq tipdagi milliy iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga o‘tish;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- davlat tomonidan tartibga solish usullarining takomillashuvi;
- transmilliy korporatsiyalarning paydo bo‘lishi;
- baynalmilal iqtisodiy ayriboshlash mexanizmlarining vujudga kelishi;
- fan va texnikaning rivojlanishi.

Tayanch iboralar:

Jahon iqtisodiyoti, globallashuv, integratsiyalashuv, moliyaviy markazlashuv, axborotlar, global oligopoliya, transmilliy korporatsiyalar, global bozor, ochiq iqtisodiyot, xalqaro mehnat taqsimoti, fan-texnika taraqqiyoti.

Nazorat uchun savollar:

1. Globallashuv tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
2. Globallashuv jarayonining asosiy jihatlari nimadan iborat?
3. Globallashuv jarayonlarining tezlashishiga qanday omillar ta’sir etadi?
4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy xususiyatlarini aytинг.
5. Globallashuv jarayoni qanday ijobji va salbiy oqibatlarga ega?
6. Globallashuv sharoitida o‘tish iqtisodiyotli mamlakatlarning rivojlanish tendentsiyalarini tushuntiring.

2-MAVZU. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY MUAMMOLARI

Reja:

1. Iqtisodiy taraqqiyotning obyektiv shartlari va ziddiyatlari;
2. Iqtisodiy tizimlarning mumkin bo‘lgan modellari.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Vinod Thomas, Namrata Chindarkar. Economic Evaluation of Sustainable Development, 2019. <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6389-4>;
2. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
3. B.Xodihev, Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik–T.: “Barkamol fayz media”, 2017.

Qo‘sishimcha adabiyotlar

1. Oecd, United Nations: Economic Commission for Latin America and the Caribbean, Caf Development Bank of Latin America. Latin American Economic Outlook 2019 Development in Transition, Latin American Economic Outlook, 2019;
2. Абдулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. –Т.: Ilmiy–tehnika axboroti-press nashriyoti, 2016;
3. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko‘rgazmali va tarqatma materiallar. -Т.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;
3. www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko‘rsatkichlar.

2.1. Iqtisodiy taraqqiyotning obyektiv shartlari va ziddiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma’ruzalarida keltirilgan materiallar, qoidalar va xulosalarning talabalar tomonidan puxta o‘zlashtirilishi, kelgusi amaliy faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondoshishlarini ta’minlash fanni o‘rganish oldida turgan asosiy vazifalardan biri.

Fanni o‘qitishning asosiy maqsadi – iqtisodiy taraqqiyotning asosiy qonuniyatları va tendentsiyalarını, global iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini tahlil etish asosida O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish omillari va imkoniyatlarini o‘rgatishdan iborat.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan o‘zgarishlar va turli salbiy tendentsiyalarga to‘xtalib o‘tdilar. Bu borada dunyodagi taniqli iqtisodchilar, nufuzli ekspert va mutaxassislarning baholari va chiqarayotgan xulosalari prinsipial jihatdan yagona bir fikrga kelayotganligi, jumladan, jahon iqtisodiyotiga, birinchi navbatda, rivojlangan yirik mamlakatlar iqtisodiyotiga global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hali beri salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi ta’kidlandi.

Fanni o‘qitishning asosiy vazifalari – iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanish qonuniyatları va tendentsiyalarını, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish; jahon mamlakatlarining o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligining ziddiyatlari va muammolarini tahlil qilish; O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ko‘tarish omillarini aniqlash qobiliyatini hosil qilishdan iborat.

Ma’lumki, o‘zining salbiy ta’siri bilan insoniyatga jiddiy tashvishlar tug‘dirayotgan, jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini izdan chiqarayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz uzoq yillar, ayniqsa, o‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi muhim mutanosibliklarning, xususan, real va moliyaviy sektor o‘rtasidagi nisbatning buzilishi oqibatida vujudga kela boshladi. Rivojlangan mamlakatlardagi yirik moliyaviy muassasalarning korporativ manfaatlarini amalga oshirish maqsadida bank-moliya sohasidagi me’yor va tartiblarning qo‘pol tarzda buzilishi, jahondagi ko‘plab mamlakatlarning real aktivlaridan spekuliyativ tarzda foydalanish

orqali katta daromadlar olishga intilish va shu maqsadda jahon moliyaviy arxitekturasida jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilishi, milliy iqtisodiyotdagi yalpi talabni qo'llab-quvvatlash, tobora o'sib borayotgan tashqi qarzlarni cheklash maqsadida "arzon pullar" siyosatining qo'llanishi kabi xatti-harakatlar yuzaga kelayotgan nomutanosibliklarning yanada kuchayishi va borgan sari keskin, inqirozga yuz tutuvchi darajaga o'tishiga olib keldi.

Shunisi e'tiborliki, mustaqillik yillarda mamlakatimizda olib borilgan samarali iqtisodiy siyosat, eng avvalo, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda har tomonlama puxta o'ylangan o'z taraqqiyot yo'limizning tanlab olinganligi va uning muhim tamoyillariga og'ishmay amal qilib kelinganligi inqiroz sharoitida iqtisodiyotimiz uchun o'ziga xos "xavfsizlik yostig'i" vazifasini bajardi. Ayniqsa, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lining tanlanganligi, davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi, mamlakatimizda moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarining barqaror hamda uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi, oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi, aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi kabi omillar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini sezilarli darajada yumshatishga imkon yaratdi.

Jahon iqtisodiyotida XX-XXI asrlarda globallashuv tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. Globallashuv muammolari tarixchilar, iqtisodchilar, texnologlar, faylasuflar va ko'plab mamlakatlarning hukmron doiralari hamda jamiyat vakillari tomonidan muhokama qilinmoqda. Globallashuv tarafдорлари va unga qarshi bo'lganlarning mavjudligi ushbu tushuncha turlicha talqin qilinishini anglatadi. Globallashuv tarafдорларining fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sishni rag'batlanadiradi, aholi farovonligini oshiradi, yangi ish o'rinnari yaratilishiga imkon beradi. Globallashuvga qarshi bo'lganlar esa, u savdo ekspansiyasining kuchayishi, iqtisodiy jinoyatlarning ortishi (qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarish, noqonuniy reeksport, narkotik

moddalar savdosining oshishi va h.k.) atrof-muhit ifloslanishi, texnika xavfsizligiga amal qilmaslik, bolalar mehnatidan foydalanish va boshqa noxush hodisalar bilan bog‘liq muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda kuchayishiga olib keladi, deb hisoblaydilar. Umuman olganda, globallashuv jarayonini to‘xtatib bo‘lmaydi. Tahlilchilar globalashuv jahon iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va ekologik tendentsiyalarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganishlari lozim bo‘ladi.

“Globalashuv” tushunchasi ilk bor AQShlik olimlar tomonidan kiritilgan. T.Levitt 1983-yilda “Bozorlarning globalashuvi” nomli maqolasida globalashuvni oldin tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada ko‘p ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan iste’mol tovarlari standartlashishi uchun global bozorlar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq yangi tijorat voqeligi deb atagan.¹

Iqtisodchi N.Trift globalashuvning quyidagi jihatlarini ajratib ko‘rsatadi:

- moliyaviy markazlashuvning kuchayishi. Uning yordamida kredit mablag‘lari shakllantiriladi, kreditlar beriladi va foydalaniлади, shuningdek, kapitalning ishlab chiqarish ustidan hukmronligi о‘rnataliladi;

- axborotlar ahamiyatining oshishi;
- global oligopoliyaning to‘xtovsiz kengayishi;
- transmilliy korporatsiya(TMК)lar sonining ortishi;
- transmilliy iqtisodiy diplomatiyaning shakllanishi va milliy davlat hokimiyatining globalashuvi.

Kaliforniya universiteti professori M.Kastels globalashuv jarayonini “yangi kapitalistik iqtisod” deb atab, unda axborot, bilim va informatsion texnologiyalar ishlab chiqarish hamda raqobatbardoshlik o‘sishning asosiy manbasi ekanligini ta’kidlaydi.

Rossiyalik olima I.G.Vladimirovaning fikricha, globalashuv jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuvining eng yuqori bosqichidir.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotining globalashuvi jahon iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liq turli soha va jarayonlarining kuchayib borishi, jahon xo‘jaligida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va

¹ Глобализация мирового хозяйства: Учеб. пос / Под ред. М.Н. Осьмовой, А.В. Бойченко. - М.: ИНФРА-М, 2006. С.1.

bilimlar bozorining asta-sekinlik bilan yagona bozorga aylanishini bildiradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) ilk davlatlar bilan bir paytda obyektiv reallik sifatida paydo bo‘lgan keng ko‘lamdagi rang-barang aloqalar va munosabatlarning muhim tarkibiy qismini ifodalaydi. Uzoq tarixga nazar tashlar ekanmiz, qadimgi sivilizatsiyalar eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklardayoq iqtisodiy sohada o‘zaro aloqalar olib borishganiga doir bir qancha misollarga duch kelamiz, chunki ular xoh Qadimiyl Misr yoki Shumer madaniyati bo‘lsin, xoh Ind vodiysi madaniyati yoki Shan-In davridagi Xitoy bo‘lsin, kelib chiqishining avtoxtonligi (avtonomligi) va jug‘rofiy jihatdan ajralganligiga qaramasdan, bir-birlari bilan xo‘jalik munosabatlarini o‘rnatishga va ularni keyin ham davom ettirishga intilishgan.

Juda ko‘p manbalar shundan guvohlik beradiki, ahyon-ahyonda tartibsiz tabiatdagи natural tovar ayirboshlash ko‘rinishidagi munosabatlar o‘rniga asta-sekin antik davr (eramizdan avvalgi I minginchi yillar - eramizning I minginchi yillarining o‘rtalari)ga xos bo‘lgan tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi asosidagi doimiy xo‘jalik aloqalari vujudga keladi.

O‘rta asrlarning boshlanishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilgarilanma harakatida iqtisodiyotning yalpi naturallashuvi, mulkning korporativ-tabaqalangan tuzilmasi va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga asoslangan orqaga chekinishni keltirib chiqardi. Biroq shaharlarning o‘sishi va savdo-sudxo‘rlik kapitalining rivojlanishi Buyuk jug‘rofiy kashfiyotlar ochilgan davrda mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy sohadagi aloqalarning misli ko‘rilmagan darajada kengayishiga va Yevropadagi yetakchi davlatlar: Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Fransiya va Britaniyaning kolonial imperiyalari tashkil topishiga poydevor yaratdi.

Aynan ana shu omil, shuningdek, ishlab chiqarish, transport va aloqa vositalarida ulkan olg‘a siljishni ifodalagan XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlaridagi sanoat to‘ntarishi (inqilobi) zamonaviy ko‘rinishdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan muhit sifatida global iqtisodiy makrotizimni yuzaga kelish jarayoniga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, insoniyatni XIX-XX asrlar bo‘sag‘asida taraqqiyotning industrial

davriga o'tishi an'anaviy ko'rinishdagi hududiy xo'jalik tizimlari evolyutsiyasidan oldingi davrga yakun yasadi, jahon miqyosida Yevropa (to'g'rirog'i, ingliz-amerika) bozor iqtisodiyoti modelining g'alabasini ifodaladi.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomonidan Yevropa, Shimoliy Amerika va ma'lum darajada, Yaponiya milliy xo'jaliklarini, ikkinchi tomonidan keng ko'lamdagi mustamlaka periferiyalarini o'z ichiga olgan jahon iqtisodiy kompleksi (majmuasi)ning yuzaga kelishi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tiziminining shunday ko'rinishining yaralishiga olib keldiki, bu ko'rinish shu holatda ma'lum o'zgarishlar bilan hozirgi kunda ham mavjud bo'lib kelmoqda. Albatta, o'tgan o'n yillik davr xalqaro iqtisodiy munosabatlar tabiatи va tuzilmasiga ma'lum o'zgartirishlar kiritdi. Mustamlakachilik imperiyalarining tugatilishi va rivojlanayotgan mamlakatlar (180 dan ortiq) deb atalmish guruhlarning vujudga kelishi natijasida iqtisodiy aloqalar uch iqtisodiy markaz, ya'ni AQSh, Yevropa, Yaponiya bilan Osiyo, Afrika hamda Lotin Amerikasidagi yosh davlatlar o'rtasidagi aloqalar ko'rinishini oldi. SSSRning tarqalib ketishi va sobiq sotsialistik mamlakatlarning tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'liga o'tishi rejali-buyruqbozlik xo'jaligining samarasiz ekanligi va rivojlanishning bozor modeliga keng ko'lamda o'tish muqarrar ekanligini namoyish qildi. Va nihoyat, ixtisoslashuv va kooperatsiyaning chuqurlashuvi bilan birga kuzatiluvchi ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi bir qator integratsion guruhlari, shuningdek, universal va ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar paydo bo'lishini rag'batlantirdi.

Globallashuv jarayonlarining tezlashishiga bir necha omillar ta'sir etadi, bu omillarning asosiyları quyidagilar hisoblanadi:

- yopiq turdag'i milliy iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga o'tish;
- xalqaro mehnat taqsimotining chiqurlashuvi;
- davlat tomonidan tartibga solish usullarining takomillashuvi;
- transmilliy korporatsiyalarning paydo bo'lishi;
- integratsion iqtisodiy ayriboshlash mexanizmlarining vujudga kelishi;
- fan va texnikaning rivojlanishi.

Davlatlarning yopiq turdag'i xo'jalik tizimi (avtarkiya)dan qutulishga intilishi haqida gapirganda, yetakchi mamlakatlar o'z

siyosatlarida global bozor makrotizimini qurishning asosiy sharti bo‘lgan barcha uchun barobar raqobat muhitini saqlash yoki yaratishni ilgari suruvchi «ochiq eshiklar» va «teng imkoniyatlar» tamoyillarini amalda qo‘llaganliklarini qayd etib o‘tish kerak.

Xalqaro mehnat taqsimotiga kelsak, iqtisodiy turmushning ushbu favqulodda hodisisi xo‘jalik taraqqiyotining ilmiy-texnikaviy tarkibiy qismi birinchi darajali ahamiyat kasb etganligi tufayli yangi sifatlarga ega bo‘ldi. Natijada milliy iqtisodiyotlarning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy-jug‘rofiy omil ikkinchi darajali bo‘lib qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, transmilliy korporatsiyalar (TMK) nomini olgan xalqaro monopolistik guruhlар davlat chegaralarini kesib o‘tish orqali sayyoramizning barcha mamlakatlari va hududlari bo‘ylab menejment va marketingning yangi uslublarini tarqatish yo‘nalishida globallahuv jarayonlariga ta’sir etmoqda.

Xo‘jalik sohasida integratsion ayirboshlash mexanizmlari sezilarli darajada murakkablashdi - ko‘plab yangi huquqiy me’yor va tartiblar paydo bo‘ldiki, ular xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olindi hamda iqtisodiy masalalar bo‘yicha ikki va ko‘p tomonlama bitimlarda mustahkamlandi.

Oxirgi ellik yil davomida bir necha rivojlanish bosqichlarini, ya’ni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, biologizatsiya kabilarni boshidan kechirgan ilmiy-texnikaviy inqilob global jahon bozorida tamomila yangi segmentning - axborotlar va texnologiyalar bozorining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Global xo‘jalik makrotizimi tuzilmasining tabiiy ravishda murakkablashuvi bozor muhiti funksiyalarining tabaqlanishi bilan birga kuzatiladi. Bu funksiyalarning asosiyлari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- indikativ – bozor agentlari, ya’ni ishlab chiqaruvchilar, vosita-chilar va iste’molchilarni tovar va xizmatlarga talab va taklif tamoyillari yo‘nalishi to‘g‘risida axborotlardan xabardor qilish;
- tartibga solish – jahon narxlari harakatiga ta’sir o‘tkazish;
- kommunikativ – harakatdagi bozor subyektlari o‘rtasida aloqalarni ta’minlash;

- sanatsiyalash – raqobat kurashi jarayonida bozorning «o‘z-o‘zini davolashi» jarayoni, ya’ni iqtisodiy jihatdan samarasiz kompaniyalarни bartaraf etish va talabga ega bo‘lmagan mahsulotlar ishlab chiqarishni to‘xtatish.

2.2. Iqtisodiy tizimlarning mumkin bo‘lgan modellari

XX asrning oxirgi choragi jahon iqtisodiyoti o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tishini boshlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu yangi bosqich oldingi rivojlanish bosqichlaridan tubdan farq qiladi. Mutaxassislar uzoq muddatli tamoyillarni belgilash va kelajakdagi iqtisodiy strategiyani aniqlashga intilgan holda tuzilmaning eng xarakterli belgilarini muhokama qilishni davom ettirayotgan bo‘lsalarda, hozirgi kundayoq xalqaro iqtisodiy munosabatlarning zamonaviy tuzilmasining quyidagi xususiyatlari o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lib turibdi:

- a) samarali, yuqori texnologik hamda resurslarni tejovchi ijtimoiy ishlab chiqarish bilan tavsiflanuvchi axborotlar iqtisodiyotini shakllantirish;
- b) konveyer, keng xalq ommasi iste’moliga asoslangan industrial tizimni davlat, aralash va, ayniqsa, xususiy kompaniyalarining alohida yo‘naltirilgan kreativ (ijodiy) xo‘jalik faoliyatiga o‘zgartirish;
- v) milliy iqtisodiyotlarni ochiqlashtirish tamoyillarining hududiy miqyosdagi yopiq iqtisodiy bloklarni shakllantirish tamoyili bilan qo‘silib ketishi;
- g) xalqaro korporatsiyalar ahamiyatining ortib borishi sharoitida davlatning tartibga solish rolining kuchayishi;
- d) hal etilishida jahondagi barcha mamlakatlarning jamoaviy harakatlarini talab qiluvchi, sivilizatsiyaning global muammolari deb atalmish ekologik, xom ashyo, demografik kabi muammolarning keskinlashishi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning eng muhim belgilarini sanab o‘tgan holda, kasbiy faoliyati xo‘jalik sohasi bilan bog‘liq har bir mutaxassis uchun o‘z faoliyatida alohida korxona doirasidagi jarayonlarga jahon bozorining ta’sir qilish omillarini u bank, zavod yoki savdo kompaniyasi bo‘lishidan qat’iy nazar, bilishi va hisobga olishi kerak bo‘ladi.

Shuning uchun xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy ko‘ri-nishlarining globallashuvini o‘rganish, ularni modellashtirish usullari ko‘p omillarga asoslangan tahlil va statistikani qo‘llanishiga qarab turli-tuman bo‘lishiga qaramasdan, makro va mikrodarajada jahon hamda milliy xo‘jalik kon'yunkturasidan muvaffaqiyatli xabardorlikning zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi, ya’ni;

- tashqi, xalqaro, jahon miqqyosidagi tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk obyektlari savdosini;

- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatini (ishchi kuchi, kapital, axborot);

- xalqaro moliya-kredit va valyuta operatsiyalarini (beg‘araz moliyalashtirish va yordam, iqtisodiy munosabatlar subyektlarining kredit va qarzları, qimmatbahō qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalar, maxsus moliyaviy mexanizmlar va vositalar, valyuta operatsiyaları);

- ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, injiniring va axborotlar sohasidagi hamkorlikni.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining globallashuvi quyidagi jarayonlarda namoyon bo‘лади:

- eng avvalo, ishlab chiqarish baynalmilallahuvining chuqurlashuvi. Ishlab chiqarish baynalmilallahuvni iste’mol uchun yaratiladigan mahsulotni tayyorlashda jahonning turli davlatlari ishlab chiqaruvchilari qatnashishini namoyon qiladi. Jahon savdosining asosiy qismini yarim tayyor mahsulotlar egallaydi. Ishlab chiqarishning baynalmilallahuvida TMK yetakchi hisoblanadi;

- kapitalning baynalmilallahuvining chuqurlashuvi, ya’ni davlatlaro xalqaro kapital harakatining o‘sishi, bunda eng avvalo, to‘g‘ri investitsiyalar ko‘rinishida, fond bozorlarining baynalmilallahuvini;

- ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy, texnologik bilimlar vositalarining almashinuvni natijasida, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, xalqaro miqqyosda ishlab chiqarish resurslarining joylashuvi natijasida ishlab chiqarish kuchlarining globallashuvi;

- xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta’minlovchi global miqqyosdagi material, axborot, tashkiliy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishi;

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi natijasida ayirboshlashning baynalmilallahuvini kuchayishi, bunda xalqaro hamkorlikning ishlab chiqarish sohasiga nisbatan xizmatlar sohasi asosiy yo'naliishlardan biriga aylanadi.

- xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining o'sishi. Bunda rivojlangan davlatlarda kambag'al davlatlardan kelgan ishchi kuchlarini malaka talab qilmaydigan yoki past malaka talab qiladigan ishga jalgan etiladi.

- ishlab chiqarish va iste'molning baynalmilallahuvini atrof-muhitga ta'sirining ortishi, bu esa zamonaviy global muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishini keltirib chiqaradi;

Globallashuv jarayoni quyidagilarga o'z ta'sirini o'tkazadi:

- mintaqaviy integratsion jarayonlarni jadallashtirish;
- hozirgi paytda xo'jalik yuritishni to'liq erkinlashtirmagan davlatlar iqtisodiyotining ochiqligi ta'minlash;
- barcha bozorlardagi ishtirokchilarning to'siqlarsiz qatnashuvini ta'minlash;

- moliyaviy va savdo operatsiyalarning qonun-qoida va chegaralarini universallashtirish;

- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni bir me'yorga keltirish, ya'ni unifikatsiya qilish;

- kapital joylashtirish, investitsion jarayonlar va umumjahon to'lov-hisob tizimini standartlashtirish.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv davlatlar va integratsion uyushmalarning iqtisodiy faoliyetta intilib, savdo va investitsion to'siqlarni olib tashlash, erkin savdo hududlarini tashkil qilish asosida paydo bo'ladi. Undan tashqari globallashuv jarayoni davlatlararo xo'jalik yuritish uchun iqtisodiy, huquqiy, axborot va siyosiy miqyosdagi o'zaro kelishuvlarni ham qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashuv kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishi natijasida paydo bo'ladi. Ko'pgina yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) global miqyosda harakat qiladi: ular chegarasi va milliy egaligidan qat'iy nazar iste'molchilarining talabini qondirishi kerak. TMK uchun ichki bozorga nisbatan ko'pincha tashqi iqtisodiy faoliyat muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ular globallashuv jarayonining

subyekti bo‘ladi. TMK – bu globallashuvning asosi, uni harakatga keltiruvchi asosiy kuch.

Globallashuvning bir qator ijobjiy va salbiy oqibatlarga ega. Globallashuv jarayonining ijobjiy tomonlarini quyidagicha tavsiflash mumkin.

Globallashuv natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv chuqurlashib boradi. Bunda mablag‘ va resurslar samarali sarflanadi. Globallashuv jarayonining asosiy ustunliklaridan biri, xarajatlarning qisqarishi, narxlarning pasayishi va barqraror iqtisodiy o‘sishga olib keluvchi ishlab chiqarish miqyosidagi iqtisod qilish hisoblanadi.

Globallashuvning ijobjiy jihatlaridan yana biri erkin savdodan keladigan yutuq barcha mamlakatlarni qanoatlantiradi. Globallashuvda raqobatning kuchayishi yangi texnologiyalarning yaratilishini va mamlakatlar o‘rtasida keng tarqalishini ta’minlaydi. Ushbu sharoitda xorijiy to‘g‘ri investitsiyalar su’ratining oshishi jahon savdosining o‘sishiga olib keladi. Globallashuvning yana bir afzalligi xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy-texnik, texnologik va malakali darajadagi qisqa muddatda va nisbatan kam xarajat talab qiladigan yangiliklarini amaliyotga tadbiq etish natijasida iqtisodiy qulaylikka erishishidir.

Globallashuv jarayonida xalqaro raqobat kuchayib, milliy bozordagi ichki raqobatchilarga tashqi bozordagi kuchli raqiblar ham qo‘siladi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayoni, eng avvalo, iste’molchilarga qulay, bunda raqobat ularga narxlarni pasaytirish va tanlash imkoniyatini beradi.

Globallashuv ilg‘or texnologiyalarning tarqalishi va global miqyosdagi ishlab chiqarishning ratsionallashuvi natijasida mehnat unumdrorligining oshishiga olib kelishi, shuningdek jahon miqyosidagi innovatsiyalarni amaliyotga uzlusiz tadbiq etishi mumkin.

Globallashuv davlatlarga moliyaviy resurslarining asosiy qismini aylanishini ta’minlashga keng imkoniyat beradi. Globallashuv jahon hamjamiyatining birlashishini turli sohalardagi harakatlarni faollashtirishni talab qiluvchi insoniyat uchun umumiy bo‘lgan muammolarni, eng avvalo, ekologik muammolarni hal qilish uchun jiddiy asos yaratadi.

Umuman olganda, ko‘philik mutaxassislar, globallashuvning pirovard natijasi jahondagi mamlakatlarda farovonlikni oshishiga olib keladi, deb umid qiladilar.

Yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, jahon iqtisodiyotining globallashivi turlicha talqin qilinmoqda. Bu jarayonga nafaqat olimlar, mutaxassislar va ekspertlar balki, turli mamlakatlarning fuqarolari ham turlicha munosabat bildirmoqda. Globallashuv jarayonlari rivojlangan mamlakatlarda hayrixohlik bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xavotir bilan qabul qilinmoqda. Buning sababi shundaki, globallashuv jarayonining afzalliklari barcha mamlakatlarga teng taqsimlanmaydi. Shuning uchun globallashuvdan kim foyda ko'radi, degan savol munozaralarga sabab bo'layotgan eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, eng avvalo, sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlab, ularga qo'shimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globallashuv jarayonining kengayishi past rivojlangan mamlakatlar mavqeining salbiy o'zgarishiga sabab bo'lib, ularni globallashuv jarayonini subyektlariga emas, balki obeyktlariga aylantirishi mumkin.

Demak, globallashuv jarayonlarining alohida mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy ta'sirining darajasi ushbu mamlakatlarning jahon iqtisodiyotida tutgan o'miga bog'liq. Amalda afzalliklarning asosiy qismi boy davlatlarga yoki individlarga tegadi.

Globallashuv sharoitida markazlashtiruvchi kuchlarning markazlashishi bilan bog'liq bo'lgan buzg'unchilik ta'siri yuzaga chiqishi mumkinki, bu mamlakat ichidagi an'anaviy aloqalarning uzilishiga, ijtimoiy muammolarning kuchayishiga, mazkur jamiyat uchun begona bo'lgan salbiy oqibatlar tufayli barcha mamlakatlarda yuzaga keladigan muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- globallashuvdan keladigan afzalliklarning milliy iqtisodiyotning alohida tarmoqlari o'rtasida bir xil taqsimlanmasligi;
- milliy iqtisodiyotda sanoatlashishning sekinlashuvi.

Zamonaviy globallashuvning asosiy xususiyatlari kapital, tovar va xizmatlar, ishchi kuchining erkin harakati inson qobiliyatlaridan unumli foydalanish imkoniyatlarining ortishida namoyon bo'ladi. Ushbu omillar ta'sirida rivojlanayotgan mamlakatlarning globallashuv afzalliklaridan foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ayni vaqtda iqtisodiy siyosatni

yuritishda ularning e'tiborga olinmasligi natijasida salbiy oqibatlarga olib keluvchi xavflar ham kelib chiqadi.

Xalqaro kapital migratsiyasi. So'nggi yillarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar taraqqiy etishi bilan birgalikda xorijiy investitsiyalar, portfelli investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat kapitallarning xalqaro harakatining kuchayishi globallashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy mablag'lar xalqaro oqimining o'sish sur'atlarini xalqaro savdo hajmining o'sish sur'atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining o'sib borayotgani, diqqatga sazovordir.

Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikning diversifikatsiyalanishiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qo'lga kiritmoqdalar. Odatda investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foyda normalari yuqori bo'lib, bu investorlarning o'z kapitallarini yuqori foyda darajasini ta'minlovchi hududlarga yo'naltirishiga turtki bo'ladi.

O'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda milliy xo'jalik tizimini rivojlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish va eksportning diversifikasiyaga erishish maqsadida mavjud tarmoqlarni rivojlan-tirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj yuqori hisoblanadi. Shu vaqtning o'zida, bunday iqtisodiyotga ega aksariyat mamlakatlar ushbu maqsadlarga erishishda ichki resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq turli muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda jahoning ulkan kapital resurslari bozoriga kirish ushbu mamlakatlar uchun jamg'arishdan ko'ra ko'proq investitsiyalarni amalga oshirish, iqtisodiyotni isloh qilish va o'sish sur'atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda jahon moliya bozorlari afzalliklaridan foydalanish imkoniyatini beradi.¹

Investitsiya jalg qilish natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish ko'p jihatdan kapitalning qaysi shaklda kirib kelishiga bog'liq. Masalaga bu kabi nuqtai nazardan yondashish bevosita xorijiy

¹ «Национальный семинар по наращиванию потенциала в Центральной Азии для регулирования процесса глобализации» ЭСКАТО, Центр экономических исследований Республики Узбекистан, 2003.

investitsiyalarning yuqori darajadagi afzalliklarga ega ekanligidan dalolat beradi. Bevosita xorijiy investitsiyalar ko‘rinishidagi xalqaro kapital harakatining afzalliklariga transmilliy kompaniyalarning ustuvorligini belgilovchi omil, bu - texnologiyalarning jahon bozorida sotilmasligi bo‘lib, o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakat bunday imkoniyatga faqatgina bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali ega bo‘lishi mumkin. Bevosita xorijiy investitsiyalarning o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun afzal xususiyatlaridan bo‘lib, uning markasi, imidji, mol yetkazib beruvchilar bilan aloqasi, sotuv kanallari, jahon bozoridagi marketing tadqiqotlari, boshqaruv malakasi va jahonga mashhur TMKlarning ishlab chiqarish-tijorat sirlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash dasturlaridan foydalanishiga imkon berib, iqtisodiyot samaradorligi va raqobatbardoshligi darajasining oshishga olib kelmoqda.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning tashkil etilishi raqobat muhitini yaratish orqali tovar va xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va avvallari bozorning mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan monopollashtirilgan tarmoqlarida tovar va xizmatlar sifat standartlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Erkin savdo. Tovar va xizmatlarning erkin savdosi globallashuvning o‘ziga xos xususiyatidir. Ma’lumki, iqtisodiyotning nisbiy afzalliklarga ega tarmoqlarda ixtisoslashuvi va xalqaro savdoda ishtirok etishi aholi daromadlari va farovonligi oshishining qo‘srimcha manbai bo‘lib hisoblanadi. Xalqaro savdo bu kabi yutuqlarga boshqa yo‘llar orqali ham erishishi mumkin. Fan-teknika yutuqlaridan foydalanish natijalari xalqaro savdo orqali boshqa mamlakatlarga bilvosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarqaladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarqalish fan-teknika yutuqlarini o‘zida mujassam etgan texnologiyalarning jahon bozorida sotilganida va boshqa mamlakatlar ularni xarid qilganida sodir bo‘ladi. Bilvosita tarqalish yangi texnika va texnologiya ishlab chiqilgan mamlakat eksport tarmoqlari samaradorligi oshganida va tovarlar sifatining yaxshilanganida ro‘y beradi.

Erkin savdo milliy ishlab chiqaruvchilar tovar va xizmatlari sifatining yaxshilanishi orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlarining oshishi, import orqali ishlab chiqaruvchilar soni kam bo‘lgan yoki xorijiy tovar sifati darajasiga yetmagan iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatni vujudga keltirib, tovar tannarxining pasayishini ta’minlaydi. Mahalliy ishlab

chiqaruvchilarning kuchli raqobat mavjud bo‘lgan jahon bozorlariga chiqishi ham tovar va xizmatlar sifatining oshishi hamda tannarx pasayishining muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari va raqobat kuchaysa, ishchi resurslarining ma’lumoti va malakasi, ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tizimi, ilmiy-texnik ustuvorlik hamda sifatli infratuzilmaga talab oshadi. Faqatgina ishlab chiqarish omillari sifatini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish, faol axborot almashinuvini ta’minalash, infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiy strategiyalarni o‘z vaqtida tuzatib borish orqali mavjud ustuvorliklarni asrab qolish, ularni rivojlantirish va pirovard natijada mamlakatning iqtisodiy o’sishiga erishish mumkin.

Globallashuv narx-navo va iste’mol tovarlari sifatining unifikatsiyasini tezlashtiradi, global raqobat esa ularning doimiy takomillashuvini talab qiladi. Iqtisodiy yopiqlik, proteksionizm, qolaversa, jahon bozorlari global raqobatining mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir etmasligi resurslarning optimal taqsimlanishi va foydalanimishiga to‘sqinlik qilib, iqtisodiy o’sish sur’atlarini pasaytiradi.

Globallashuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishda ham qulay sharoitlar yaratib bermoqda. U izlanish va tadqiqotlar, ta’lim va tajriba sohasida xalqaro malaka oshirish, qo’shma korxonalar va xorijda tajriba almashinishning jadallashuvi natijasida o‘zini iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida namoyish etmoqda. Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo‘jalik subyektlarining faoliyat doirasini kengaytirmoqda. Xo‘jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega bo‘lmoqdalar. Shuningdek, boshqaruv jarayonida yangi sifat darajalariga erishish, xo‘jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o‘zgarishlariga xos qarorlarni o‘z vaqtida qabul qilish imkoniyatga ega bo‘lmoqdalar.

Tashqi savdo siyosati. Erkin savdo va protektsionizmning yaxlit holda samarasiz ekanligi shubhasiz. Globallashuvning aytib bo‘imas o‘zgarishlari mamlakat tashqi savdosi shartlariga o‘tkazadigan ijobiy ta’sirlarini maksimallashtirish va uning tahdidlarini minimallashtirishda iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi tashqi savdoda ham olib boriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega. Chunki valyuta bozorini erkinlashtirish orqali eksport-import operatsiyalarini rag‘batlantirish, erkin raqobat muhitida ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali tashqi

savdoning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshirish, sanoat siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotning strategik muhim eksport tovarlari jahon bozori konyunkturasining o‘zgarishlariga bog‘liqlik darajasini kamaytirishga erishish mumkin.

Pol Roberts uchta savdo blokini taklif etdi. Bloklar mos ravishda Uchinchi, Ikkinchisi va Birinchi olam mamlakatlari uchun tashkil etilib, mamlakatlar yashash tarzining o‘sishiga muvofiq holda bir blokdan ikkinchisiga o‘taveradi. Bu kabi yondashuvning sababi - birinchidan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning savdodan oladigan salmoqli nafning kamayishi hamda pirovard natijada umumiy boyliklarning qisqarishidir. Ikkinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar iste’molchilarining xarid qobiliyati pastligi natijasida savdoda salmoqli naf ko‘ra olmasligi muammosining mavjudligi tufayli zarur bo‘lgan na iqtisodiy o‘sish va na aholi farovonligining sezilarli darajada yaxshilanishi ro‘y beradi.¹

Ikkinchisi variant – odil savdo nazariyasi. Uning mazmuni turli mamlakatlarda savdodan olinadigan nafning bir muncha tekis taqsimplanishi hamda ijtimoiy va ekologik standartlarning tenglash-tirilishi maqsadida xalqaro tashkilotlar yordamida rivojlanayotgan mamlakatlar mahsulotlariga qiyosiy narxlar o‘rnatishda. Bu nazariyanı Laura Tayson qo‘llab-quvvatlaydi. Bu nazariyaning kamchiligi shundaki, bu kabi narx mexanizmiga aralashuv qimmatga tushib, uzoq kelajakda ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi va iqtisodiyot faoliyatining samaradorligi pasayadi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar vakolatini yaratish va oshirish taklifi mustaqil davlatlar suverenitetini barbod qiladi.

Resurslarga yo‘naltirilgan iqtisodiy rivojlanish nazariyasi iqtisodiy rivojlanish maktablaridan biri bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ularning o‘z xalqaro savdo nazariyasini ishlab chiqish jarayonidir. Farovonlik savdo nazariyasi deb nomlangan bu kabi qarashlar bir qator qoidalarga asoslanadi. Erkin savdoni joriy etishning empirik izlanishlari natijalari shuni tasdiqladiki, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xarajatlari yaqin kelajakda savdodan olinadigan nafdan aksariyat hollarda kam bo‘ladi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham to‘g‘ri hisoblanadi, chunki ular ishlab chiqargan tovarlarga

¹ Г.Ленц, <http://www.contr-tv/discuss/353>

nisbatan rivojlangan mamlakatlar tomonidan import cheklashlari tovar egalarining savdo shartlarini yomonlashtiradi. Boshqa tarafdan, xorij tovarlari uchun chegaralarning butkul yopiqligi monopolizmga, iste'molchilarining yuqori narxlarga duch kelishiga va nihoyat, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xorijiy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan raqobatga moyilligining yo'qolishiga olib keladi. Shu tufayli, bozorning optimallik shartlariga ko'ra aniqlanadigan bir qismi xorij ishlab chiqaruvchilari uchun ochiq bo'lishi kerak: savdodan olinadigan naf ushbu ishlab chiqarish va eksport darajasiga muvofiq tarzda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish xaratjatlarining 120% dan kam bo'lmasligi kerak. Empirik izlanishlar ichki bozorning mazkur optimal ochiqlik darajasini 25% deb belgilamoqda (uning hajmini aniqlashda milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish hajmi va o'tgan yildagi eksport hajmi ko'satkichlaridan foydalilanadi). Optimal ochiqlik bozoriga import qilinadigan tovarlarga nisbatan boshqa davlatlar tomonidan demping va eksportning subsidiyalanishini qoplaydigan boj orqali himoyalanishning o'rtacha darajasi belgilanadi (tovarning o'tgan yildagi ichki o'rtacha narxining taxminan 10%). Mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan yoki ishlab chiqarish kam samarali bo'lgan tovarlarga nisbatan ham xuddi shunday tarif siyosati qo'llaniladi.

Xulosa

XX asrda global iqtisodiyot kuchli dinamizm bilan rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida savdoning o'sish sur'atlari jahon YalMning o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq rivojlandi.

Global bozorning shakllanishi, turli xil firmalar o'rtasidagi raqobatning kuchayganligi ularni kapitalni jamlash, yanada yangi ishlab chiqaruvchilarni o'z doirasiga jalb etish, birgalikda o'z o'rinalarini saqlab qolish uchun kuchlarni o'zaro birlashtirishga undaydi.

1950–2000-yillarda xalqaro savdoda tovar aylanmasi 14-15 barobar o'sdi. 1950–1970-yillarni xalqaro savdoning “oltin asri” deb aytish mumkin. Aynan ana shu davrda jahon eksporti yiliga o'rtacha 6-7 %ga o'sdi. Xalqaro savdoning barqaror o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatdi:

- xalqaro mehnat taqsimot va ishlab chiqarishning integratsiyala-shuvining rivojlanishi;
- ilmiy-texnika inqilobi (ITI);

- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati;
- xalqaro savdoning Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) faoliyati orqali tartibga solinishi (erkinlashtirilishi);
- xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko'plab davlatlarning importni son jihatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qisqartiruvchi rejimga o'tishlari, erkin savdo hududlarining tashkil topishi;
- savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi. Mintaqaviy to'siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo hududlarining tashkil etilishi;
- sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishlari. Ular orasidan tashqi bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan "yangi industrial davlatlarning" ajralib chiqishi va h.k.

Tayanch iboralar:

Global iqtisodiyot, xalqaro savdo, tovarlar va xizmatlar eksporti, tovar aylanmasi, xalqaro savdoning "oltin asri", GATT, JST, mintaqaviy savdo bloki, rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, liberallashuv, erkin savdo, proteksionizm.

Nazorat uchun savollar:

1. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdo qanday rol o'yynadi?
2. Global bozorlarning shakllanish xususiyatlarini tushuntiring.
3. Tashqi savdoni tartibga solishda qanday usullardan foydalaniladi?
4. XX asrda xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarishlarining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
5. Xalqaro savdoda rivojlangan mamlakatlar qanday o'ringa ega?
6. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdo qanday ahamiyatga ega?
7. Xalqaro savdoning rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning rolini tushuntiring.
8. Mintaqaviy savdo bloklari doirasida xalqaro savdoni erkinlashtirish jarayonlarining oqibatlarini tushuntiring.

3-MAVZU. TENGSIZLIK, KAMBAG‘ALLIK VA QASHSHOQLIK

Reja:

1. Tengsizlik, daromad va rivojlanish;
2. Tengsizlik, tejash, daromad va rivojlanish;
3. Tengsizlik va talab tarkibi;
4. Tengsizlik va martaba tanlash.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Vinod Thomas, Namrata Chindarkar. Economic Evaluation of Sustainable Development, 2019. <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6389-4>;
2. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
3. B.Xodiyev, Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik-T.: “Barkamol fayz media”, 2017.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Oecd, United Nations: Economic Commission for Latin America and the Caribbean, Caf Development Bank of Latin America. Latin American Economic Outlook 2019 Development in Transition, Latin American Economic Outlook, 2019;
2. Абдулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. –Т.: Ilmiy-tehnika axboroti-press nashriyoti, 2016;
3. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko‘rgazmali va tarqatma materiallar. -T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;
3. www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko‘rsatkichlar.

3.1. Tengsizlik, daromad va rivojlanish

Mavzu aholi daromadlarining iqtisodiy mazmuni, turlarini bayon qilish hamda uning darajasini belgilab beruvchi asosiy omillarni qis-qacha tavsiflash bilan boshlanadi. Keyin bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligining asosiy sabablari ko'rib chiqiladi. Daromadlar tengsizligi borasida bildirilgan fikrlar tahlil qilinib, tengsizlik va samaradorlik o'rtasidagi nisbat ko'rsatib beriladi. Mavzu kambag'allik muammosi, aholi daromadlarining yetarli darajasini ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini qarab chiqish bilan yakunlanadi.

«Daromad» iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, u serqirra va murakkab mazmunga ega hisoblanadi. Chunki daromad bir vaqting o'zida biron-bir faoliyat natijasida olingan tushumni, pul mablag'larini, natural ko'rinishda olingan mahsulotlarni, iqtisodiy resurslar keltiruvchi nafni va boshqa tushunchalarni ifodalashi mumkin. Shuningdek, daromad umumiyligi tushuncha bo'lib, uning tarkibida aholi daromadlari muhim o'rinni tutadi.

Aholi daromadlari ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi.

Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlarni o'z ichiga oladi.

Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlaridan iborat bo'ladi.

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, ixtiyorida bo'lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Nominal daromad – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarining pul ko'rinishidagi miqdori hisoblanadi.

Ixtiyorida bo'lgan daromad – shaxsiy iste'mol va jamg'arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan daromad. Bu daromad nominal daromaddan soliqlar va majburiy to'lov summasiga kam bo'ladi.

Real daromad – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdorini ko‘rsatadi, ya’ni daromadning xarid quvvatini bildiradi.

Aholining nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanib, ulardan asosiyлари quyidagilar hisoblanadi:

- a) ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;
- b) davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lov va imtiyozlar shaklidagi pul tushumlari;
- v) moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pud daromadlari.

Aholining yollanib ishlovchi qismi oladigan daromadlarining asosiy ulushini ish haqi tashkil etadi. Daromadning bu turi istiqbolda ham pul daromadlari umumiy hajmining shakllanishida o‘zining yetakchi rolini saqlab qoladi. Jumladan, O‘zbekistonda 2001-yilda mehnatga layoqatli aholining o‘rtacha ish haqi kun kechirish uchun minimum darajada zarur bo‘lgan mablag‘ning 99 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2007-yilda bu ko‘rsatkich 3 barobardan ko‘proq oshdi. Ta’kidlash joizki, bu ko‘rsatkich MDH mamlakatlari o‘rtasida yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Aholi pul daromadlari darajasi davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lovlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu manbalar hisobiga pensiya ta’minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to‘lanadi.

Aholining moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari quyidagilardan iborat: davlat sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlari; shaxsiy uy qurilishiga va mathubot jamiyati a‘zolariga bank ssudalar; jamg‘arma bankiga qo‘yilmalar bo‘yicha foizlar; aksiya, obligasiya bahosining ko‘payishidan olinadigan daromad va zayom bo‘yicha to‘lovlari; lotereya bo‘yicha yutuqlar; tovarlarni kreditga sotib olish natijasida tashkil topadigan, vaqtincha bo‘sh mablag‘lar; har xil turdag kompensatsiya to‘lovlari va h.k.

Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko‘rsatkichlari tizimi o‘z ichiga quyidagi guruhlarni oladi:

1. Tug‘ilish va o‘lish darajasi hamda boshqa demografik ko‘rsatkichlar.
2. Hayot kechirishning sanitар-gigiyena jihatidan sharoitlari.
3. Oziq-ovqat tovarlarini iste’mol qilish.
4. Turar joy sharoitlari.
5. Ma’lumot va madaniyat.
6. Mehnat qilish va bandlik sharoitlari.
7. Aholining daromadlari va xarajatlari.
8. Hayot kechirish qiymati va iste’mol narxlari.
9. Transport vositalari.
10. Dam olishni tashkil etish.
11. Ijtimoiy ta’minot.
12. Inson erkinligi.

Bu asosiy ko‘rsatkichlardan tashqari yana ba’zi bir axborotga oid ko‘rsatkichlar ham ajratib ko‘rsatiladi: aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi iste’mol hajmi va boshqalar.

Kishilar hayot faoliyati uchun zarur ne’matlar to‘plami mehnat sharoiti, ta’lim, sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi xilma-xil ehtiyojlarni o‘z ichiga oladi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a‘zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog‘liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida (butun aholi uchun) va tabaqaqlashgan mikrodarajada (aholining alohida guruhi uchun) qarab chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi bo‘yicha aniqlab, qiyosiy tahsil qilish imkonini beradi.

Aholi guruhlari bo‘yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash iste’molchi budgeti asosida amalga oshiriladi. Iste’molchi budgetlarining bir qator turlari mavjud bo‘ladi: o‘rtacha oila budgeti, yuqori darajada ta’minlangan budget, minimal darajada moddiy ta’minlanganlar budgeti, nafaqaxo‘rlar va aholi boshqa ijtimoiy guruhlari budgeti shular jumlasidandir.

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta’minlab bo‘lmaydi. Bu

daraja moddiy ta'minlanganlik minimumni yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad «o'rtacha sinf» deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste'mol savati to'plamiga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalarini o'qitish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar va zebu ziynat buyumlari kiradi.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta'minlangan yoki «boy» qatla-mining mavjud bo'lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo'lgan juda oz miqdori kiradi.

Turmush darajasi kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog'liq. Turmush tarzi – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya. Turmush tarzi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi, ya'ni:

- mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;
- turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me'yorlari va qoidalari.

3.2. Tengsizlik, tejash, daromad va rivojlanish


Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanadi. Bu turli mamlakatlar aholisining daromadlari darajasi o'rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhlari o'rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo'ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi darajasi ham daromadlaridagi farqlarni bartaraf qilmaydi.

Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida Lorens egri chizig'idan foydalaniladi (1-chizma). Chizma-ning yotiq chizig'ida aholi guruhlarining foizdagi ulushi, tik chizig'ida esa bu guruhlar tomonidan olinadigan daromadning foizdagi ulushi joylashtirilgan. Nazariy jihatdan daromadlar mutlaq teng taqsimlanishi imkoniyati (burchakni teng ikkiga bo'luvchi) 0E chiziqda ifodalangan bo'lib, u oilalarning har qanday tegishh foizi daromadlarning mos

keluvchi foizini olishini ko'rsatadi. Ya'ni aholining 20% barcha daromadlarning 20%ni, aholining 40% daromadlarning 40%ni, aholining 60% daromadlarning 60%ni olishini bildiradi va h.k. Demak, O'E chizig'i daromadlarning taqsimlanishidagi mutlaq tenglikni ifodalaydi.

Shuningdek, nazariy jihatdan mutlaq tengsizlikni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda aholining ma'lum guruhlari (20%, 40 yoki 60% va h.k.) hech qanday daromadga ega bo'lmay, faqat bir foizi barcha 100% daromadga ega bo'ladi. Chizmadagi OFE siniq chizig'i mutloq tengsizlikni ifodalaydi.

Real hayotda mutlaq tenglik va mutlaq tengsizlik holatlari mavjud bo'lmaydi. Balki, aholining ma'lum guruhlari o'rtaida daromadlarning taqsimlanishi notejis ravishda boradi. Bunday taqsimlanishni Lorens egri chizig'i deb nomlanuvchi O'E egri chizig'i orqali kuzatish mumkin. Aholi guruhlari ulushi va daromad ulushini birlashtiruvchi egri chiziqdan ko'rindaniki, aholining dastlabki 20%ga daromadlarning juda oz (taxminan 3-4%gacha) qismi to'g'ri keladi. Keyingi guruhlarga to'g'ri keluvchi daromad ulushi ortib boradi. Daromadning eng katta qismi (deyarli 60%) aholining so'nggi 20%ga to'g'ri keladi. Bu guruh chegarasi ichida ham daromadlar notejis taqsimlangan, ya'ni dastlabki 10% taxminan 20% daromadga ega bo'lsa, keyingi 10%ga daromadning deyarli 40% to'g'ri keladi va h.k.



1-chizma. Lorens egri chizig'i

Mutloq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi tafovut daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo'lsa, ya'ni Lorens egri chizig'i 0E chizig'idan qanchalik uzoqda joylashsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo'ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutloq teng bo'lsa, bunda Lorens egri chizig'i va bissektrisa o'qi bir-biriga mos kelib, farq yo'qoladi.

Daromadlar tabaqlanishini aniqlashning ko'proq qo'llaniladigan ko'rsatkichlaridan bir ditsel koeffitsienti hisoblanadi. Bu ko'rsatkich 10% eng yuqori ta'minlangan aholi o'rtacha daromadlari va 10% eng kam ta'minlanganlar o'rtacha daromadili aholi o'rtasidagi nisbatni ifodelaydi. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada bu nisbat 13:1ga, Shvetsiyada esa 5,5:1ga teng.

Yalpi daromadning aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Djini koeffitsienti) ko'rsatkichi qo'llaniladi. Djini koeffitsienti chizmadagi Lorens egri chizig'i bilan mutlaq tenglik chizig'i o'rtasidagi yuzaning OFE uchburchak yuzasiga nisbatli orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich qanchalik katta bo'lsa, (ya'ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo'ladi. Jamiyat a'zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko'rsatkich 0 (nol)ga intiladi. Masalan, keyingi yarim asr davomida Djini indeksi Buyuk Britaniyada 0,39 dan 0,35 ga qadar, AQShda esa 0,38 dan 0,34 ga qadar pasaygan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar mavjud. Bularning asosiyлари quyidagilar:

- kishilarning umumiy (jismoniy, aqliy va estetik) layoqatidagi farqlar;
- ta'lim darajasi va malakaviy tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- tadbirdorlik mahorati va tahlikaga tayyorgarlik darajasidagi farqlar;
- ishlab chiqaruvchilarning bozorda narxlarni o'rnatishga layoqatliligi (bozordagi hukmronlik darajasidan kelib chiqib) darajasidagi farqlar.

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a'zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta'minlashga qaratiladi.

3.3. Tengsizlik va talab tarkibi

Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqaqlashgan soliq solish yo‘li bilan shakllantirish va uni budget orqali aholi turli guruhlari o‘rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarni qayta taqsimlashda ijtimoiy to‘lovlar bilan birga bozor narxlarini o‘zgartirish va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi.

Ijtimoiy to‘lovlar – kam ta’minlanganlarga pul yoki natural yordam ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo‘lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ijtimoiy to‘lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlash-tirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi.

Aholi real daromadlari darajasiga inflyatsiya sezilarli ta’sir ko‘rsatishi sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste’mol tovarlariga narxning o‘sishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash, ya’ni nominal daromadlarni narxlar o‘sishiga bog‘liqlikda oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishda ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi aholining kambag‘al qatlamini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Amaliy hayotda qashshoqlikning o‘zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik (jismoni) minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoni ehtiyojlarni qondirishning minimal me’yori bilan birga ijtimoiy talablarning minimal xarajatlarini ham o‘z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoni ehtiyojlarni qondirishni ko‘zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamiga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darjasini, shaxsiy mol-mulki miqdori, oilaviy ahvoli va shu kabilalar kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan siyosatdir.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo‘nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish

darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo‘nalishi – ichki iste’mol bozorini himoya qilish, hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste’molini muayyan darajada saqlab turish bo‘ldi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to‘lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me’yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo‘nalishi – aholining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo’llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o‘tkazilganligi bo‘ldi. Bu yo‘nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko‘p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o‘quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo‘llar bilan himoya qilib borildi.

Kambag‘allik va qashshoqlik o‘rtasida qanday farq mavjud? Kambag‘allik va qashshoqlik tushunchalari O‘zbekistonda qanday izohlanadi? O‘zbekiston tarixida ilk bor kambag‘allik masalasi 2020-yilning 24-yanvarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ko‘tarilib, mazkur mavzu ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy kun tartibiga aylandi.

Aholi o‘rtasida ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to‘lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, degan fikr mavjud. Bu – bir tomonlama yondashuv bo‘lib, muammoni to‘la yechish imkonini bermaydi. Zero, kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil – bu insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo‘lishi kerak.

Mamlakatimiz rahbarining ko‘rsatmalariga binoan kambag‘allikni qisqartirishning aniq vosita va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani hisobga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubi, ijtimoiy ta’minotning minimal

standartlari va me'yoriy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadida qisqa muddatlarda Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarining 14 nafar eksperti jalb qilingan.

Mazkur ekspertlar bilan birgalikda yuqoridagi vazifalarni o'zida qamrab olgan «2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish konsepsiysi» loyihasi ishlab chiqilgan.

Hozirda jahon bo'ylab kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rifi ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik – insонning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarining mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytildi (BMTning "Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti"dan).

Kambag'allik esa insонning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirot etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag'allik — bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoaalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi (BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining "Kambag'allikni o'lchash bo'yicha qo'llanma"sidan, 2017-yil Nyu-York, Jeneva).

Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan 2015-yildagi 115 ta mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida taklif etilgan uslubiyotga ko'ra, barcha mamlakatlar uchun 2011-yildagi narxlarda xarid qobiliyati pariteti bo'yicha qashshoqlik chegarasi 1,9, kambag'allik chegarasini esa mamlakatlar aholisi daromadlarining past, o'rta

va yuqori darajalaridan kelib chiqib 1,9; 3,2; 5,5 va 21,7 AQSh dollari etib belgilash tavsiya etilgan.

Yuqoridagi ta’rif va uslubiyotlardan kelib chiqib, alohida qabul qilingan kambag‘allikni aniqlash uslubiyoti asosida jami daromadi (yoki xarajati) belgilangan kambag‘allik chegarasiga yetmagan aholi qatlamini kambag‘al, hayot kechirishi uchun zaruriy ehtiyojlarini mutlaqo qondirish imkoniyati bo‘lmagan qatlamni esa qashshoq aholi deb e’tirof etish mumkin.

Kambag‘allikni aniqlash bo‘yicha metodologiya va nazariyalar mavjudmi? O‘zbekiston tanlagan yo‘l qanday? Kambag‘allikni aniqlash uslubiyoti haqida so‘z borganda, avvalo, mazkur uslubiyot nima uchun kerak, degan savolga javob berish lozim bo‘ladi. Kambag‘allikni aniqlash uslubiyoti davlat tomonidan umumiy aholi tarkibidagi kambag‘al aholi qatlami ulushini aniqlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalgaga oshirish uchun zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, aholi ijtimoiy himoya tizimidagi asosiy ijtimoiy standartlarni belgilashda kambag‘allik chegarasi zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida kambag‘allik chegarasini aniqlashning asosiy 4 ta: mutlaq, nisbiy, moddiy deprivatsiya va ko‘p o‘lchamli usullari mavjud. Mazkur usullar mamlakat ijtimoiy siyosatining ustuvorligi, iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi hamda ichki imkoniyatlardan kelib chiqib belgilanadi. Qator mamlakatlar milliy kambag‘allik chegarasi sifatida mutlaq yoki nisbiy usuldan foydalanadi.

Mutlaq kambag‘allik chegarasi kishi hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan tovar va xizmatlar qiymati orqali aniqlanadi. Jahon tajribasida mutlaq kambag‘allik chegarasining o‘rtacha yillik miqdorini aniqlash uchun aholi jon boshiga YaMning 25 foizi qabul qilingan bo‘lib, aksar rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Niderlandiya) mazkur ko‘rsatkich nisbatan yuqoridir.

Kambag‘allik chegarasini aniqlashning nisbiy usuli esa kishining daromadini jamiyatning qolgan a’zolariga nisbatan taqqoslash orqali aniqlanadi (masalan: aholi daromadlari o‘rtalamasining 50 foizi, 60 foizi va h.k.).

Biroq nisbiy usul jamiyatdagi tengsizlik darajasini inobatga olsada, aholining barcha qatlami daromadi hamda kambag‘allik darajasining o‘zgarishini to‘liq ifodalamaydi. Ammo shunga qaramay, bir qa-

tor davlatlar kambag‘allik chegarasini belgilashda nisbiy usuldan foydalanadi. Misol uchun, Vengriya, Estoniya, Belarus, Chernogoriya, Rossiya kabi davlatlarda aholi daromadlari mediana qiymatining 60 foizi kambag‘allik chegarasi sifatida qabul qilingan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich mos ravishda Polshada 50, Ukrainada 75 foizni tashkil etadi.

Yuqoridagi usullardan tashqari, amaliyotda monetar usullarning to‘ldiruvchisi sifatida aholining moddiy va ijtimoiy imkoniyatlardan qoniqishlarini baholash (deprivatsiya) usulidan foydalaniadi.

Bunda, kambag‘allik chegarasi insonning ma’lum bir tovar va xizmatlardan foydalana olish imkoniyatini baholash orqali aniqlanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida 9 turdagи tovar va xizmatlarning 4 tasidan foydalana olmaydigan inson kambag‘al hisoblanadi.

Sanab o‘tilgan usullarda kishining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda hech qanday to‘sqliarsiz ishtirok eta olishini miqdoriy baholash cheklangan. Shuning uchun jahon tajribasida kambag‘allikni ko‘p o‘lchamli baholash usulidan ham foydalaniadi. Mazkur usuldan Armaniston, Gonduras, Dominikan Respublikasi, Kolumbiya, Kosta-Rika, Mozambik, Butan, Pokiston, Panama, Salvador, Chili, Ekvador, ba’zi EI mamlakatlari hamda BMT Inson taraqqiyoti indeksini hisoblashda foydalaniadi.

Ko‘p o‘lchamli usulda uy xo‘jaligi yoki kishining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishini ifodalovchi qator indikatorlarga vazn berish orqali binar usulda («ha» javobiga-1, «yo‘q» javobiga-«0») hisoblanadi.

BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasi tomonidan ko‘p o‘lchamli kambag‘allik darajasini hisoblashda aholi turmush darjasи, xizmatlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim, bandlik va atrof-muhit ko‘rsatkichlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Jahon banki ekspertlari bilan birgalikda olib borilgan o‘rganishlar natijasida mamlakatimizda kambag‘allik darajasini aniqlash uchun oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlardan iborat bo‘lgan hamda bir kishi uchun zarur bo‘lgan minimal iste’mol xarakatlari qiymati tushunchasi kiritilmoqda. Mazkur usulning o‘ziga xosligi aholi real iste’moli tarkibi va xarakteridan (consumption behavior) kelib chiqadi.

Muntazam ravishda o'tkaziladigan uy xo'jaliklari so'rovi bo'yicha olingen ma'lumotlar asosida aholi daromad va xarajatlaridan kelib chiqib, aholini 10 ta guruhga (10 foizlik) ajratib, quyi 30 foiz uchun (chunki ushbu guruhlarda daromadlar oshishiga hamohang tarzda oziq-ovqat uchun xarajatlar deyarli bir xil o'sishi kuzatildi) oziq-ovqat, nooziq-ovqat va xizmatlarga xarajatlar xususiyati o'rganiladi.

Ushbu guruhda umumiylar xarajatlarning qariyb 70 foizi oziq-ovqat-larga, qolgan 30 foizi nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlar ulushiga to'g'ri keladi.

Shunga ko'ra, kerakli kaloriya va oziq-ovqat qiymatidan kelib chiqib, zaruriy minimal xarajatlar miqdori hisoblab chiqiladi.

Ma'lumot uchun, FAO tomonidan O'zbekiston Respublikasida bir kishi o'rtacha kuniga 2100-2300 kkal oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilish tavsiya etilgan.

Ushbu usul, umumiylar yondashuvlardan farqli ravishda kam daromadli aholining real iste'moli xususiyatlarini aks ettiradi.

Boshqacha qilib aytganda, kam daromadli aholining kerakli kaloriya va qiymatdagagi oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar uchun minimal xarajatlar miqdori aniqlanadi.

Ta'kidlash lozimki, bu usul va yondashuv jahon amaliyotida keng qo'llanib kelinayotgan mezonlardan biri bo'lib, xalqaro ekspertlar tomonidan hozirda maqbul va to'g'ri keladigan yondashuv sifatida taklif etilmoqda.

Ushbu usul va mezon bizga kelajakda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ishlarimizni aniq va manzilli tashkil etishda amaliy jihatdan qo'l keladigan instrument bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, 2021-yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadida qator vazifalar belgilandi, jumladan:

1. BMT Taraqqiyot dasturi, Jahon banki kabi qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda «O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha kambag'allikni qisqartirish strategiyasi» loyihasi ishlab chiqiladi.

2. Kambag'allikni qisqartirish borasida kompleks yondashuv va nostandard usullar joriy etiladi, ya'ni kambag'al aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash bo'yicha Xalqaro ekspertlar bilan chuqr

tahlil asosida, hisob-kitoblar yakuniga yetkaziladi va joriy yilning 1 martidan boshlab, «Ahолining minimal iste'mol xarajatlari qiymati» joriy etiladi.

Mazkur yondashuv aholining kambag‘al qatlamiga kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan birgalikda ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasb-hunarga o‘qitish, ichimlik suvi, energiya va yo‘l infratuzilmasi bilan bog‘liq kompleks muammolarni hal etishni nazarda tutadi.

3. Ehtiyojmand aholini to‘g‘ri aniqlash va shu asosda, ular bilan manzilli ishlash tizimi yaratiladi.

4. Kelgusi yildan to‘liq ishga tushadigan «Ijtimoiy reestr»da «temir daftar»dagi barcha ma’lumotlar qamrab olinib, ehtiyojmand oilalarga 30dan ziyod ijtimoiy xizmatlar elektron shaklda ko‘rsatiladi.

5. Ijtimoiy kafolatlarni bir tizimga keltirib, ularni minimal me’yorlar darajasida bosqichma-bosqich ta’minalash bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

6. Hududlarning mavjud salohiyatini kambag‘allikni qisqartirish uchun safarbar etish yo‘llari ishlab chiqiladi, jumladan:

- hududlardagi mavjud maxsus industrial zonalardagi loyihalarni amalga oshirishga to‘sinqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘riladi;

- ehtiyojmand aholini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak tamoyili asosida har bir tuman va shahar bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqiladi.

7. Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning bandligini ta’minalash va doimiy daromad manbaini yaratishning yangi mexanizmini amaliyotga joriy etish bo‘yicha qaror loyihasi ishlab chiqiladi.

8. Kambag‘allikni qisqartirishga aloqador va mas’ul xorijiy institutlar bilan hamkorlik yanada rivojlantiriladi, jumladan:

- 2021-yilda «Qashshoqlikka barham berish va kambag‘allikka qarshi kurashish» masalalariga bag‘ishlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global sammiti o‘tkaziladi;

- 2021-yilda ShHTga a’zo mamlakatlarda sohaga mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda «Kambag‘allikka qarshi kurashish» konfrensiyasi o‘tkaziladi;

- Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasining Xalqaro kambag‘allikni qisqartirish markazi o‘rtasida anglashuv memorandumi imzolanadi.

3.4. Tengsizlik va martaba tanlash

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o‘tish – ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Shuningdek, Prezidentimiz aholini ijtimoiy himoyalash borasidagi ishlar kelgusi yillarda ham davom ettirilishini ta’kidlab, bu yo‘nalishda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, agar ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar davlat budgetining umumiylariga nisbatan 2006-yilda 51,9 foizni, 2007-yilda 53,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2008-yilda 54,6 foiz darajasida bo‘lishi ta’kidlandi.

Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, o‘z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta’minalashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yilni “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlash taklif etilishida uzoq muddatli barqarorlikni ta’minalash nazarda tutilgan. Ushbu g‘oyaning tub mohiyati mamlakatni ilg‘or tajribalar asosida rivojlantirish va aholi daromadlari tengsizligini bartaraf etishdir. Bu esa kambag‘allikni qisqartirishning bosh omili hisoblanadi. Davlatimiz rahbari 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas. Har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi bizda ham kam ta’minalangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu o‘rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda”, deya alohida ta’kidladi.

O‘zbekistonda mazkur kategoriya nisbatan yondashuvning yuzaga kelishi va unga doir islohotlarni amalga oshirish juda muhim masala. Chunki shu paytgacha unga, umuman, e’tibor berilmagan, raqamlar ochiqlanmagan edi. Shu ma’noda, Prezidentimizning

2020-yil 26-martdagи “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan bu borada ko‘plab vazifalar belgilab berildi hamda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangi yo‘nalishlar shakllantirildi. Xususan, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi qilib qayta tashkil etilishi ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Misol uchun, pokistonlik olimlar – Tariq Majid va No‘mon Malik tomonidan 2015-yilda amalga oshirilgan tadqiqotda kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi omillar sirasiga savodxonlik darajasi ham kiritiladi. Bunda oila xo‘jaligining kambag‘allikka tushib qolishiga oila boshlig‘ining tajribasi, yoshi, jinsi va bandligi kabi omillar ta‘sir qilishini keltirib o‘tadi. Shuningdek, oila boshlig‘i sifatida ayol kishi bo‘lishi kambag‘allikni keltirib chiqarishga ko‘proq ta‘sir qiladi, degan g‘oya ilgari suriladi. Bu ayollarning ta‘lim olish va daromad topishdagi imkoniyatlari yuqori emasligi bilan izohlanadi. Tadqiqotlar asosida, birinchidan, ta‘lim olganlik darajasi bilan kambag‘allik teskari proporsional ekanligi, ikkinchidan, qishloq joylarda pul o‘tkazmalariga ega bo‘lganlar kambag‘allikka kamroq tushishayotganligi, uchinchidan, shaharlashib borish kambag‘allikni pasaytirishini va qishloq hududlarida esa oshishiga olib kelishini qayd etib o‘tadi. O‘z navbatida, tajriba, yosh va qishloq xo‘jaligida band bo‘lish kambag‘allikni keltirib chiqarmasligini asoslاب beradi.

AQShda monetar siyosatning samarali amalga oshirilishi asoschilaridan biri M.Fridmen daromadlar notengligi statistik taqsimotni aniq ko‘rsatmasligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, iste’mol jihatidan daromadlarning taqsimoti ularni yuzaga keltiruvchi sabablarga bog‘liq. Daromadlarning notengligiga sabablardan biri esa insonlarning qobiliyat teng taqsimlanmaganligi bilan bog‘liq. Ushbu tendensiyani olim H.Stakle ham ta‘kidlasa, J.Minser inson kapitaliga investitsiyalar hamda daromadlarning tengsizligi omillarini aniqlagan va ularni baholagan. Insonlar daromadining notengligi inson kapitaliga qilingan investitsiyalarga bog‘liq ekanligi, investitsiya jarayoni erkin tanlovga asoslanishini qayd etib o‘tadi. Minser fikriga ko‘ra, katta maosh ko‘p o‘rganishni talab etadi. Shu bois kasblararo farq ularni o‘rganishdagi farqlar bilan izohlanadi va o‘rganish muddatlaridagi o‘zaro absolyut farq yillik daromaddagi foizli farqlarni keltirib

chiqaradi. Bir kasbning bir necha egalari daromadlari o'rtasidagi farq inson kapitali tajribasiga qilingan investitsiya muddatining uzaytirilganligi bilan bog'liq. Umuman olganda, ta'lif, yosh va kasb kabi omillar insonlar daromadlari tabaqlanishida asosiy sabab ekanligi asoslab beriladi.

S.Peng va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarda kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil etib chiqadi. Ular kambag'allik ehtimolini keltirib chiqaruvchi omillar sifatida quyidagilarni sanab o'tadi: keksalik, ayol kishi bo'lish, turmush o'rtog'ining bo'lmasligi, ota yoki ona bo'lмаган oilada katta bo'lish, ishsizlik, davlat uyida ijarada turish, past savodxonlik va sog'liq darajasi. Shuningdek, oilada nogiron yoki surunkali kasallikka chalingan odamning bo'lishi. Ta'kidlash lozimki, oliy ta'lif olganlik kambag'allik va minimal qashshoqlikdan saqlanishga yordam berishi aytildi.

Fikrimizcha, kambag'allikni aniqlashga yordam beradigan omil sifatida daromadlarning shakllanishiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Bunda daromad shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiluvchi sabablar va omillarni rivojlantirish yanada muhim. Bu esa kambag'allikni bartaraf etishda asosiy rol o'ynaydi. Jumladan, ta'lif tizimi va insonlar qiziqishi doirasida kasbga yo'naltirishni rivojlantirish.

Ushbu masalada xalqaro tashkilotlarning yondashuv va mezonlari ham qiziq. Xususan, Jahon banki tomonidan kambag'allikni aniqlash bo'yicha kunlik daromadning hajmiga nisbatan mezon sifatida milliy daromadning kishi boshiga to'g'ri kelishi hajmi quyidagicha belgilangan:

- * xalqaro kambag'allik chizig'i 1,9 AQSh dollari;
- * o'rtacha daromaddan past (2020-yil uchun kishi boshiga YalM 1026 - 3995 AQSh dollari) bo'lgan mamlakat uchun 3,2 AQSh dollari;
- * o'rtacha daromaddan yuqori (2020-yil uchun kishi boshiga YalM 3995 - 12375 AQSh dollari) bo'lgan mamlakat uchun 5,5 AQSh dollari.

Mazkur mezon 2013 yilda e'lon qilingan bo'lib, o'sha davrda 1,25 AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib 1,9 AQSh dollariga ko'tarilgan. O'z navbatida, mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 2005 va 2011-yillardagi bazis narxlar bilan kishi boshiga

daromad hisoblanishi orqali tatbiq etiladi. 2017-yildan boshlab esa qo'shimcha ravishda keyingi ikkita ko'rsatkich ham kiritilgan. Kambag'allikning xalqaro me'yori minimal iste'molni nazarda tutadi va u keyingi ikkita mezon bilan almashtirilmaydi. Ushbu ko'rsatkich o'ta kambag'allikni aks ettiradi. O'zbekiston o'rtacha daromaddan past daromadga ega bo'lganligi uchun 3,2 AQSh dollari tavsija etiladi.

2015-yilda BMT Bosh Assambleyasining 70-sessiyasida 2030-yilgacha Barqaror rivojlanishning 17 maqsadi qabul qilindi. Ushbu maqsadlarning birinchisi - "Kambag'allikni yo'qotish" (No Poverty) deb nomlangan bo'lib, dunyo mamlakatlari ushbu omilga qarshi ommaviy kurashga chaqiriladi. Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror ilovasining 1-bandida "1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish" deb nomlangan. Ushbu bandning vazifalari sifatida belgilangan 7-yo'nalishda asosiy e'tibor ijtimoiy himoyaga va gender tengligini ta'minlash hamda mikrokreditlash amaliyotlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Bizningcha, ushbu qarorda keltirilgan vazifalarning bir qator yo'nalishida ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan, ayniqsa, oliv ta'lim bilan qamrab olish darajasini kengaytirish bo'yicha ustuvorliklar keltirilmagan. Bu esa jahon olimlari tomonidan asoslangan ilmiy xulosalar inobatga olinmaganligini anglatadi. Sababi daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi kam sonli omillarning asosiysi, bu ta'lim ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda aholi daromadlarining 1/4 qismi 10 foiz aholi qo'lida to'planganligi ham daromadlar tengligini ta'minlash zaruratinini keltirib chiqaradi. Aholi asosiy qatlaming daromadlari vaqtinchalik uzilishga uchragan davrda jamg'arma kategoriyasi muhim ahamiyatga ega. Bu davlatning zimmasiga katta moliyaviy yukni keltirib chiqarishi, budget defitsitini oshirishi mumkin.

Pandemiya sharoitida daromadlar pasayishi va jamg'armalarning uzoq muddatga yetmaslik ehtimoli davlat tomonidan qo'shimcha mablag'larni safarbar etishni taqozo qiladi. Bu esa budget daromadlari

qisqargan sharoitda qarz mablag'larini jalg etish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu ma'noda, Prezidentimizning 2020-yil 19-martdag'i "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganini alohida qayd etish joiz. Chunki ushbu hujjat asosida hukumat tomonidan xalqaro moliya institutlaridan 1 milliard AQSh dollari miqdorida tashqi qarz jalg etilishi belgilab berildi. 2019-yilda iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotini qo'lga kiritgan A.Banerji, E.Dyuflo va M.Kramer - tomonidan davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar amalga oshirayotgan islohotlarning nechog'liq natija berayotganligi tahlil etildi. Nafaqat O'zbekiston, balki jahon mamlakatlari amalga oshirilgan kambag'allikka qarshi kurash natijalari tahlili bu boradagi tadbirlarni tubdan o'zgartirish zaruratini ko'rsatdi. Ya'ni tadqiqotlarga ko'ra, maktab ta'limida ikki omil - o'quvchilar qiziqishi va o'qituvchilar bilan ma'lum muddatli shartnomalar muhim ekanligi isbotlandi.

Aytish kerakki, maktab ta'limidagi muammolar nafaqat kambag'allikka doir, balki boshqa ijtimoiy-huquqiy masalalarni ham keltirib chiqarishi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Masalan, 2020-yil 3-mart kuni Toshkent shahrida "Suriya va Iroqdan qaytarib olib kelinganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish bo'yicha Markaziy Osiyo muloqoti: O'zbekiston tajribasi" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Unda "Mehr-1" va "Mehr-2" operatsiyalari natijalari tahlil qilindi. Jumladan, Prezident huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti vakili, professor Baxtiyor Bobojonov o'zbek ayollarining Iroq hamda Suriyaga ketgani sabablari haqida to'xtalib, "Eng katta sabab - ularning bilimsizligidir. Ayollarning shahodatnomasiga qarasak, hammasi qoniqarsiz ta'lim olishgan", deb ta'kidlab o'tdi.

Ikkinci omil sifatida sog'lijni saqlash tizimida odamlarning farzandlari sog'lig'i uchun investitsiya qilmasligi yoki uni ortga surib kelishi salbiy ta'sirga ega ekanligi ko'rsatiladi. Shu bois bolalarni infeksiyalarga qarshi emlashda vaqtinchalik subsidiyalar doimiylaridan ko'ra samarali ekanligi qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tgan "...bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa,

oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi” degan so‘zlarining qanchalik ahamiyatga ega ekanligini anglash qiyin emas.

Bundan tashqari, mikrokreditlash mexanizmini ham yana bir omil sifatida keltirish mumkin. Nega deganda, mazkur usul kambag‘allikka qarshi kurashishda kutilgan natijalarни bermasligi aniqlangan. O‘zbekistonda kambag‘allikni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar nimalar? Quyida shularning ayrimlarini keltirib o‘tiladi:

1. Ijtimoiy sohaning nobarqarorlashuviga olib kelgan jihatlar:

* sog‘liqni saqlash tizimida davlat xarajatlarining, ayniqsa, birlamchi tibbiy xizmatlar taqdim etishda yetarli emasligi;

* maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish qamrovi pastligi;

* maktab ta’limida o‘quv muassasalaridan “rezina” kabi foydalanish bazaviy ta’limning natijadorligini tushirib yuborishi;

* oliv ta’limning qamrovi 10 foizga yetmasligi katta ulushga ega bo‘lgan yoshlarning inson kapitali darajasini pasaytirishi;

* ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan mablag‘lar YaIMGa nisbatan 0,25 foiz atrofida bo‘lishi.

2. Mehnatga haq to‘lash kasbga emas, balki lavozimga birkirtilishi, yuqori bilim talab qiluvchi kasblar jozibadorligini yo‘qotdi. Masalan, shifokor va serjant unvonidagi harbiy xizmatchining ish haqidagi sezilarli tafovut.

3. Elektr ta’midotidagi uzilishlar davomiyligi quyidagi nobarqarorlikni keltirib chiqardi:

* ta’limning uyda bajariladigan vazifalar qismi o‘zlashtirilmasligiga ta’sir ko‘rsatdi;

* biznes yuritishga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, jahon bankining hisobotida, biznes subyektti kichiklashib borgani sari elektr ta’midotidan uzilishi kuchayib borishi qayd etilgan.

4. Iqtisodiyotning norasmiy qismi kuchayishi aholi daromadlari hisobini va statistikasini yuritishga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Ko‘rinib turibdiki, kambag‘allikni kamaytirish, bu borada yuzaga keladigan muammolardan kelib chiqadigan omillar yo‘q emas. Shunday ekan, nima qilish kerak?

Tadqiqotlarda ayon bo‘layotgan ushbu masalalardan kelib chiqib, quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Avvalo, aholining kambag‘allik darajasini aniqlash uchun demografik

jihatdan guruhlarga ajratish nuqtai nazaridan aniq statistikani shakllantirish va shunga mos tadqiqotlarni amalgal oshirish. Bunda oila a'zolari soni, savodxonligi, sog'lig'i, yoshi, jinsi, tanlagan kasbi kabilarni inobatga olishga imkon yaratish.

Shuningdek, qisqa muddatli davrda e'tibor berilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ham talaygina. Xususan, iqtisodiyotdagi ixtisoslashuv nazariyasining (D.Rikardo) odamlar qobiliyatiga uyg'unlashuvini joriy etish. Buning uchun ularning qanday mehnat qilishga imkoniyat va xohishlari yuqori bo'lishini inobatga olish orqali qiymat yaratish (YaIM)ni yo'lga qo'yish. Masalan, pichoq yasovchi (hunarmand otabobosidan o'rgangan va shu ishni sevib qiladigan) insonga mehnat qilishi uchun barcha sharoitni yaratish mexanizmini joriy etish. Agar biz undan boshqa turdag'i mehnat qilishni talab etsak yoki u shunga majbur bo'lsa iqtisodiy o'sish va kambag'allikdan chiqish tendensiyasi yuzaga kelmasligi mumkin.

Aholining iste'molini arzonlashtirish, ya'ni davlat va "ayrim" tadbirkorlarning monopoliyasini favqulodda tugatish. Buning uchun iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish zarur bo'ladi. Ushbu jarayonda ikki jihatga e'tibor qaratish zarur. Birinchidan, milliy (davlat yoki xususiy) ishlab chiqaruvchilar monopoliyasi shakllanishini kamaytirish. Ikkinchidan, turli iqtisodiy ittifoqlar, jumladan, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni jadallashtirish kerak.

Elektr ta'minoti uzlusizligini ta'minlash, muqobil energiyadan foydalanishni jadallashtirish. Buning uchun muqobil (quyosh, shamol kabilar) energiya manbalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish. Shuningdek, ushbu turdag'i energiya iste'moliga o'tishda davlat subsidiyalarini joriy etishni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Xarajatlarni qisqartirish, ya'ni ko'p daromadga ega bo'lмаган sharoitda jamiyatda tejamkorlik tamoyilini joriy etish. Masalan, turli milliy qadriyatlarga asoslangan marosimlarga xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish talab etiladi.

Uchinchidan, bu jarayonda uzoq davrga mo'ljallangan dasturlarning ham ahamiyati katta. Shu nuqtai nazaridan bu kabi dasturlarni amalgal oshirishda profilaktika tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish hajmi va samaradorligini oshirish darkor. Bu orqali yosh bolalarni emlash ishlariga e'tibor berilib, aktiv umr faoliyatini

rivojlantirish orqali passiv umr ko‘rishni qisqartirishga sharoit yaratiladi.

Maktab ta’limida o‘quvchilar qiziqishlarini inobatga olgan holda, guruhlarga ajratib ta’lim berish ham yaxshi natijani yuzaga chiqaradi. Bunda o‘qish, yozish, matematika va tabiiy fanlar kesimida guruhlarni tashkil etishni o‘quvchilarning qanday kasbga (lavozimga emas) qiziqishlari doirasida sinflarga ajratishni joriy qilish lozim.

Shuningdek, oliy ta’lim qamrovini oshirish, ya’ni bir turdagи mu-taxassislikni tayyorlash bir nechta oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilishi orqali raqobat muhitini yaratish, oliy ta’limda shartnomा to‘lovlарini darsga qatnashish uchun emas, balki fan bo‘yicha yakuniy imtiimtihonlarda qatnashish huquqini belgilash tamoyili asosida o‘quv yurtlarida mustaqil joriy etishga imkon berish lozim. Qolaversa, qabul kvotalari muassasa sig‘imkorligi asosida mustaqil belgilanishi kerak.

“Kichik biznesdan – yirik biznesga”. Bu g‘oya ham aholi bandligini ta’minalash, demakki, kambag‘allikdan chiqarishda ayni muddao. Faqat bunda bir ishchi o‘rin uchun xarajatlar hajmi yirik biznesda kichik biznesga nisbatan kam ekanligi inobatga olinadi. Shu bilan birga, yirik biznes mamlakat eksport salohiyatini oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, yuqori ilmiy sig‘imkor mahsulotlarni rivojlantirish, ya’ni tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga, ayniqsa, xususiy sektorning tadqiqotlarini moliyalashtirishni joriy etish uchun venchur fondlarini shakllantirish zarur.

Mehnat migrantlarini emas, balki mehnat mahsulini eksport qilish tamoyilini rivojlantirmoq zarur. Binobarin, inson kapitaliga investitsiyalar jalb etish uzoq davrda barqaror natijalarini berishi muqarrar.

Yurtimizda inson manfaati yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlар, sa’y-harakatlar ko‘lami tobora kengayib bormoqda. So‘nggi paytlarda uzoq yillar davomida yashirib kelingan holat - kambag‘allik xususida, ayniqsa, ko‘p gapirilmoqda. Amaliy harakatlar boshlab yuborilgan. Kambag‘al insonlar soni aniqlashtirilib, kam ta’minlangan oilalar ro‘yxati shakllantirilmoqda.

Xulosa

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan ko‘lamlari, balki kapitalni olib chiqish,

qimmatli qog‘ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlar shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valyuta bozorlaridagi aylammalar savdo aylammalaridan o‘nlab, ba‘zan yuzlab marta ortiqdir. 1997-yilda jahon aksiyalar savdosi aylanmasi 40 trln. dollar, mamlakatlar o‘rtasida valyutani xarid qilish va sotish hajmi 400 trln. dollar deb baholangan edi. 2006-yilda turli kredit resurslarining hajmi ulkan miqdorga – 152 trln.dollarga yetdi.

Bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga kapitallarning katta oqimi ularning iqtisodiy rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligini paydo qiladi. TMKlar o‘zlarining tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo‘l bilan tovar, xizmat, kapital va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarga ta’sir etdi. Shuningdek, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e’tirof etish zarur.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) – bu BMTning maxsus tashkiloti. U 1944-yilda Bretton-Vudsdag'i valyuta-moliya masalalari bo‘yicha bo‘lib o‘tgan BMT konferentsiyasida tashkil topgan va o‘z faoliyatini 1946-yildan boshladi. XVFning vazifasi unga a’zo bo‘lgan mamlakatlarning oltin va AQSh dollarida ifodalangan valyuta zaxiralarni tartibga solish hamda a’zo mamlakatlarning valyuta paritetlarining barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Globallashuv jarayonlari o‘tish iqtisodiyotli mamlakatlarda tegishli iqtisodiy siyosatni olib borishini taqozo etadi. Bu vaqtida iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon xo‘jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu vaziyatda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavfni ham minimallashtirishdan iboratdir.

Jahon moliya bozorlarining o‘sishi, ular raqobatdoshligining oshishi va faoliyat doiralarining kengayishi daromad darajasi past bo‘lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishiha imkoniyat yaratadi. Lekin bir qator sabablar tufayli rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida to‘laqonli qatnashish imkoniyatlari hali mavjud emas.

XXI asr boshida rivojlanmay qolib ketgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini sezilarli darajada yaxshilash uchun samaralii xalqaro

tizim yaratilishi kerak. Zarur islohotlar sifatida ko‘pincha quyidagilar ta’kidlanadi:

- bundan buyog‘iga iqtisod qilishning qat’iy dasturlarini amalgalashirolmaydigan rivojlanayotgan davatlarning qarzga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha og‘irlikni kamaytirish;
- BMT tomonidan rivojlanayotgan davatlarga yordam berish ko‘rsatkichiga – donor-davatlari YalMning 0,7% iga erishish uchun yordam hajmini ko‘paytirish;
- rivojlanayotgan davatlarga, ayniqsa, hududiy savdo bloklarini shakllantirayotganlarga nisbatan protektzionistik tadbirlarni bekor qilish orqali ularning jahon savdosidagi ulushini ko‘paytirish;
- XVF va Jahon bankini isloh qilish.

Tayanch iboralar:

Kapital eksporti, qimmatli qog‘ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlar, xalqaro fond va valyuta bozorlari, kredit resurslari, xalqaro tashkilotlar, Xalqaro valyuta fondi (XVF), moliyaviy islohot.

Nazorat uchun savollar:

1. Global moliya bozorlarining shakllanish xususiyatlari nimadan iborat?
2. Xalqaro moliya munosabatlarini tartibga solishda xalqaro moliya tashkilotlari qanday o‘ringa ega?
3. Globallashuv sharoitida o‘tish iqtisodiyotli mamlakatlarda davlat moliya siyosatini olib borish xususiyatlarini tushuntiring.
4. Xalqaro moliya munosabatlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning ishtirot etishi qanday xususiyatlarga ega?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nima uchun moliyaviy tizimlar islohotlarini o‘tkazish zarur?
6. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro moliya munosabatlarda ishtirot etish tamoyillari nimalardan iborat?

4-MAVZU. SIKLLI IQTISODIY TARAQQIYOT

Reja:

Iqtisodiy taraqqiyotning siklik tabiatи;
Iqtisodiy o'sish va uning omillari;
Iqtisodiy inqirozning o'ziga xos xususiyati;
Iqtisodiy inqirozning ijobiy va salbiy oqibatlari.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Vinod Thomas, Namrata Chindarkar. Economic Evaluation of Sustainable Development, 2019. <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6389-4>;
2. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
3. B.Xodihev, Sh.Shodmonov "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik-T.: "Barkamol fayz media", 2017.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Oecd, United Nations: Economic Commission for Latin America and the Caribbean, Caf Development Bank of Latin America. Latin American Economic Outlook 2019 Development in Transition, Latin American Economic Outlook, 2019;
2. Абдулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. -Т.: Ilmiy-texnika axboroti-press nashriyoti, 2016;
3. Jo'rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko'rgazmali va tarqatma materiallar. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi;
3. www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko'rsatkichlar.

4.1. Iqtisodiy taraqqiyotning siklik tabiatи

Bu mavzuda dastlab iqtisodiy sikllarga, ya’ni bozor iqtisodiyoti uchun xususiyatlari bo’lgan ishlab chiqarish, bandlik va narx darajasining davriy tebranishlariga umumiyl tavsif beriladi. Keyin iqtisodiy sikl fazalari va davriy tebranishlarning sabablari qarab chiqiladi. Tahlil davomida moliyaviy, tarkibiy va agrar inqirozlarga hamda ularning xususiyatlarini yoritib berishga alohida o’rin ajratiladi.

«Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta’siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo’llarini izlashdan iborat». Shunga ko’ra, bob davomida hozirgi davrda ro’y berayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mazmun-mohiyati, kelib chiqish sabablari va ta’sir yo’nalishlariga alohida e’tibor qaratiladi.

Har qanday mamlakat iqtisodiy o’sish, iqtisodiy resurslarning to’la bandligi va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladi. Ammo uzoq muddatli iqtisodiy o’sish bir tekis va uzuksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari ta’sirida tebranib turadi. Iqtisodiy o’sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqt-vaqt bilan obyektiv qonunlarning o’zgartirib bo’lmaydigan ta’siri ostida takror ishlab chiqarish harakatida ayrim vaqtarda, ayrim bo’g‘inlarda uzilishlar paydo bo’ladi va bu uzilish iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo’lishi hisoblanadi. Bu holat iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning siklli rivojlanishi deb ataladi.

Ko’plab iqtisodchilar ortiqcha ishlab chiqarish sabablarini ochib berishga harakat qilib, talabning ko’payishi va kamayishi, ishlab chiqarish hajmining o’sishi yoki qisqarishi kabi hodisalarning davriy tavsifiga e’tibor qaratdilar. Bu hodisalarning ro’y berish ketma-ketligidagi ma’lum izchillik ham aniqlandi. Siklli rivojlanishning obyektivligi va realligi, uning iqtisodiy jarayonlar tavsifiga ta’siri nuqtai nazaridan ahamiyatliligi to’g’risida bir qator taniqli iqtisodchilar, jumladan, A.Shpitgof, M.Tugan-Baranovskiy, T.Veblen, U.Mitchell, J.M.Klark, J.Xiks, J.M.Keyns, Y.Shumpeter va boshqalarning ilmiy asarlarida bayon etilgan.

Ta’kidlash lozimki, turli darslik va o’quv qo’llanmalarda mazkur muammoni yoritishga ham turlicha yondashilgan. Jumladan, akademiklar V.I.Vidyapin, A.I.Dobrinin, G.P.Juravleva va L.S.Tarasevich

umumiyl tahriri ostida tayyorlangan darslikda bu muammoga alohida mavzu orqali keng to‘xtalib o‘tilgan¹. Unda iqtisodiy sikllar nazariyasi iqtisodiy o‘sish nazariyasi bilan bir qatorda iqtisodiy dinamika nazariyalari tarkibiga kirishi, iqtisodiy sikl tabiatining o‘zi esa munozarali va kam o‘rganilgan muammolardan biri ekanligi ta‘kidlangan. Shuningdek, ijtimoiy hayotda siklli rivojlanishni tan oluvchi hamda inkor etuvchi ikki yo‘nalishdagi tadqiqotchilar mavjudligi ko‘rsatilgan. Siklning mohiyatini ochib berishda dastlab unga jismlar o‘zaro ta’sir jarayonining natijasi sifatida qaralib, falsafiy qoidalar nuqtai nazaridan izohlashga harakat qilingan. Sikl fazalarini ajratib ko‘rsatishda, markscha sanoat sikli nazariyasiga keng to‘xtab o‘tilgan. Shundan so‘ng sikllarning asosiy turlari, bugungi kunga qadar mavjud bo‘lgan sikllar to‘g‘risidagi nazariyalar bayon etilgan.

Ba’zi bir darsliklarda esa iqtisodiyotning siklli rivojlanishi muammolariga nisbatan qisqa, umumiyl tarzda to‘xtab o‘tilgan². Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda iqtisodiy siklning mohiyati va uning fazalari bayoniga to‘xtalib o‘tamiz.

Iqtisodiy sikl deganda, odatda, iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin-ketin bir necha fazalarni bosib o‘tib, o‘zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o‘tgan davr tushuniladi. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi harakati bir sikl bilan to‘xtab qolmaydi, balki u to‘xtovsiz to‘lqinsimon harakat sifatida davom etadi. Siklli harakat iqtisodiy o‘zgarishning muhim omili, makroiqtisodiy muvozanat unsurlaridan biri bo‘lib, milliy xo‘jalik turli tarkibiy qismlarining amal qilishidagi notekislikni, uning rivojlanishidagi inqilobi va tadrijiy bosqichlarning, iqtisodiy taraqqiyot jarayonidagi almashuvini aks ettiradi.

Iqtisodiy sikl maxsus fazalar orqali amalga oshadi. Har bir faza iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan pallani ifodalab, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Odatda, iqtisodiy siklning inqiroz, turg‘un-

¹ Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добринина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 465-485-б.

² Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева.

10-с изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, 537-541-б.; Борисов Е.Ф. Экономическая теория: Учебник. – 3-е изд., перераб. и доп. М.: Юрайт-Издат, 2005, 301-309-б.

lik, jonlanish, yuksalish fazalari ajratib ko'rsatiladi (1-chizma). Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jaryonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi.


Iqtisodiy siklning dastlabki fazasi inqirozdan boshlanib, u ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi. Inqiroz fazasining asosiy belgilari va o'ziga xos xususiyatlarini mazkur bobning 3-bandida batatsil bayon etiladi.

Inqirozdan keyin turg'unlik fazasi boshlanib, u nisbatan uzoqroq davom etadi. Bu fazada ishlab chiqarish darajasining barqarorligi ta'minlansa-da, u inqiroz boshlanishidan oldingi darajaga nisbatan ancha past bo'ladi. Narxlarning pasayishi to'xtab, ssuda foizlari pasayadi, tovar zaxiralari barqarorlashadi. Biroq ishsizlikning yuqori darajasi saqlanib qoladi. Turg'unlik fazasi davomida iqtisodiy faoliik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi nihoyasiga yetadi.

Jonlanish fazasida ishsizlik darajasi bir oz qisqarib, ishlab chiqarish darajasi sekin-asta o'sib boradi. Narxlар ham asta ko'tarilib, ssuda foizi o'sa boshlaydi. Iqtisodiyotning bandlik darajasining ortishi va foyda hajmining tezlik bilan o'sishi jonlanish fazasining yuksalish bosqichiga o'sib o'tishiga imkoniyat yaratadi. Yangi sikl yuksalishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

1-chizma

Iqtisodiy sikl fazalari



Yuksalish fazasida ishchi kuchiga bo‘lgan talabning kengayishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga hamda ish haqining o‘sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste’mol tovarlariga to‘lovga qodir talab kengayadi. Pirovard talabning oshishi, o‘z navbatida, iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosiblik-larning to‘planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo‘lib qoladi.

Alohidha iqtisodiy sikllar bir-biridan davomiyligi va intensivligi bo‘yicha keskin farqlanadi. Shunga qaramay, ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqish sabablari va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning chuqur va izchil ravishda tadqiq etilishi turli ko‘rinishdagi iqtisodiy sikl nazariyalarining vujudga kelishiga olib keldi.

Ko‘pchilik hozirgi zamon iqtisodchilar iqtisodiy sikllarning obyektiv tavsifini tan olib, bu hodisani unga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o‘rganishni tavsiya qiladi. Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani eksternal nazariya deb ataladi.

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarining davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- urushlar, inqilobiy o‘zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;
- oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi;
- yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog‘liq ravishda aholi migratsiyasi, yer shari aholisi sonining o‘zgarib turishi;
- ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o‘zgarishlar.

Iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o‘ziga xos ichki omillari ta’sirida vujudga kelishini asoslovchi nazariya internal nazariya deb ataladi.

Asosiy kapitalning jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirib, xizmat muddati tugashi va uning yangilanishi ko‘pchilik iqtisodchilar

tomonidan iqtisodiy siklni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Agar bir yoki bir necha tarmoqda mashina-uskunalariga talabning keskin ortishini keltirib chiqaradigan iqtisodiy o'sish boshlansa, tabiiyki, bu hol mashina va uskunalar to'liq eskiradigan har 10-15 yildan keyin takrorlanadi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida bu muddat qisqarib boradi va inqirozlar tez takrorlanadi.

Shuningdek, quyidagi boshqa ichki omillar ham ajratib ko'rsatiladi:

- shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);
- investitsiyalar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi;
- ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarishi.

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish to'g'ri bo'lmaydi. Iqtisodiy sikl va umuman iqtisodiy tizimdagи miqdoriy va sifat o'zgarishlar tashqi va ichki omillar birligida ta'siri oqibatida kelib chiqishi mumkin.

Shuningdek, iqtisodiyotning siklli rivojlanishi sabablarini izohlashda bir qator nazariyalar ham ilgari suriladi. Quyida ulardan asosiyalarini ko'rib chiqamiz.

Sof monetar nazariya. Bu nazariya tarafdarlarining fikricha, bozor iqtisodiyotida markaziy o'rinni pul va kredit egallaydi. Iqtisodiyotning siklli o'zgarishi, eng avvalo, pul massasi oqimini o'zgartirishga bog'liq.

Iqtisodiy faoliyning o'sishi, iqtisodiyotning ravnaq topishi, uning turg'unlik bilan almashinib turishiga yagona sabab pul oqimining o'zgarishidir. Tovarlarga talabning ortishi natijasida savdo, chakana narx o'sib, ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi.

Pul oqimi (iste'mol xarajatlari summasi) pul miqdorining o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Pul miqdorining kamayishi iqtisodiy faoliyat faolligini pasaytiradi.

Pul va kredit tizimi beqaror tavsifga ega ekanligi sababli pul oqimini barqarorlashtirish murakkab hisoblanadi. Hozirgi paytda kredit pullari to'lov va muomala vositasi sifatida asosiy rolni o'ynaydi. Aynan bank tizimi kredit pullarni yaratadi, shunga ko'ra, pul

oqimining o‘zgarishida banklarning hisob stavkalari katta ahamiyat kasb etadi. Bu nazariyaning ayrim namoyandalari pulga harakatga keltiruvchi kuch sifatida qarab, muvozanatning buzilishiga asosiy sabab deb ko‘rsatadilar.

Ikkinci guruhi esa pul tizimi mutanosiblikni buzmaydi, faqat mutanosiblikning buzilishiga olib keluvchi boshqa omillar uchun sharoit yaratadi, degan fikrni ilgari suradilar. Muvofiq ravishda monetar va nomonetar yo‘nalish vujudga keldi. Monetar nazariyaning e’tiborli tomonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) yuksalish fazasi davrida kreditni kengaytirish tufayli kelib chiqqan ishlab chiqarish tuzilmasi nomutanosibliklarini tahlil qilinadi; *

2) mazkur nomutanosibliklarning salbiy oqibati sifatida kelib chiquvchi inqirozlar tahlil qilinadi.

Shunday qilib, bu nazariya jamg‘arishning davriy ravishda oshib ketishi va mutanosiblik buzilishining asosiy sababi sifatida pulni ko‘rsatadilar. Nomonetar nazariya tarafdorlari esa texnologik o‘zgarishlar, yangiliklar, ixtirolarning ahamiyatini alohida ta’kidlab, pul jamg‘arishning ko‘payib ketishidagi rolini ko‘rsatishadi. Monetar va nomonetar yo‘nalish o‘rtasidagi farq uncha katta emas, biri ikkinchisini to‘ldiradi.

Har ikkala nazariya ham oxir-oqibat iqtisodiy faollikning kuchayishiga iste’mol emas, balki investitsiya sabab bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Iqtisodiy sikllarni iste’mol tovarlariga talabning o‘zgarishiga bog‘-lab, akseleratsiya prinsipi e’tibor qaratiladi. Bu prinsip mohiyatiga ko‘ra texnik sabablar tufayli iste’mol tovarlariga bo‘lgan talabning ozginagina o‘zgarishi ishlab chiqarish uchun zarur tovarlarga talabni keskin o‘zgarishiga olib keladi.

Yetarlicha iste’mol qilmaslik nazariyasi. Bu nazariyaning mohiyati ko‘proq jamg‘arib, samarali darajada iste’mol qilmaslik jamiyatni siklli rivojlanishining sababi qilib ko‘rsatiladi:

1) mablag‘ni jamg‘arish, boshqacha aytganda, xazinaga aylantirish turg‘unlikka olib kelishi mumkin, chunki bu mablag‘ investitsiyalash uchun foydalanimaydi;

2) pulni jamg‘arish iste’mol tovarlariga talabning qisqarishiga olib keladi, chunki u iste’molga sarflanmaydi.

3) natijada investitsiyaga nisbatan pul shaklidagi jamg‘arish hajmi o‘sib borib, iste’mol tovarlariga talab kamayib boradi, taklif esa ortadi, narx pasayadi, iste’mol tovarlari bozoridagi qiyinchiliklar inqirozga olib keladi.

Jamg‘arish nazariyasi. Bu nazariyaga ko‘ra iqtisodiy sikl ishlab chiqarish vositalari yoki kapitallashgan investitsion tovarlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Kundalik iste’mol tovarlari ishlab chiqarish bilan uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlar va ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish sikllari o‘rtasida katta farq bor.

Kundalik iste’mol mollari doimiy ravishda iste’mol qilinadi. Ularning iste’mol miqdori o‘zgargan taqdirda ham uncha katta o‘zgarishlar sodir bo‘lmaydi.

Uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlar domiy ravishda xarid qilinmaydi. Balki, ular iste’molchi daromadi ko‘paygan paytdagina sotib olinadi. Uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlarga talab barqaror emas. Ishlab chiqarishni davom ettirish uchun kapital tovarlar ishlab chiqarish zarur.

Iste’mol o‘sgan sari kapital tovarlarga talab ham ortadi. Bunda ishlab chiqarish tarkibida nomutanosibliklar yuz beradi, ya’ni iste’mol tovarlari, uzoq muddat foydalilaniladigan va kapital tovarlar o‘rtasida nisbatlar buziladi.

Inqirozning sababi pul yetishmasligi, bank rezervlarining kamligi emas, balki ana shu nisbatlarning buzilishidir. Lekin ko‘pchilik iqtisodchilar etarli darajada iste’mol qilmaslik inqirozning sababi emas, balki uning oqibatidir, deb ta’kidlaydilar. Ya’ni iste’molchilar daromadlarini ko‘proq jamg‘arishga ajratganlari uchun emas, balki to‘lov qobiliyatining yetarli emasligi, ya’ni xarid qilish uchun pulning yo‘qligidan kelib chiqadi.

Psixologik nazariya. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tushuntirishda iqtisodiy nazariyalar bilan bir qatorda psixologik nazariyalar ham keng o‘rin olib bormoqda. Psixologik nazariya tarafdarlariga J.M.Keyns, U.Mitchell, F.Xayek va boshqalarni kirtish mumkin. Ularning fikricha, insondagi optimizm va pessimizm faoliyat aktivligiga obyektiv iqtisodiy omillar: foiz me’yori, pul oqimi, foyda va boshqalar ta’sir ko‘rsatib, buning natijasida ishlab chiqarishning qisqarishi yoki kengayishi ro‘y beradi.

Kreditning kengayishi, talab va ishlab chiqarishning o'sishi odamlarning kayfiyatini ko'taradi va, aksincha. Bundan tashqari, kishilar borgan sari likvidligi yuqori bo'lgan pul jamg'arishga moyilligi ortib borishi va o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etishini ko'rsatishadi.

Hozirgi zamон iqtisodiy fanida iqtisodiy siklning 1380 dan ortiq turlari mayjudligi ta'kidlanadi¹. Quyidagi 1-jadvalda ularning ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan eng asosiy turlari ifodalanganan.

1-jadval*

Sikllarning asosiy turlari

Sikl turlari	Siklning davomiyligi	Asosiy xususiyatlari
Kitchin sikli	2-4 yil	Zaxiralar miqdori → YAMM, inflyatsiya, bandlikning tebranishi, tijorat sikllari
Juglar sikli	7-12 yil	Investitsion sikl → YAMM, inflyatsiya va bandlikning tebranishi
Kuznets sikli	16-25 yil	Daromad → immigratsiya → uy-joy qurilishi → yalpi talab → daromad
Kondratyev sikli	40-60 yil	Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar
Forrester sikli	200 yil	Energiya va materiallar
Toffler sikli	1000-2000 yil	Sivilizatsiyalarning rivojlanishi

Kitchin sikli zaxiralar sikli deb ham nomланади. Bunda Jozef Kitchin (1926 y.) o'zining e'tiborini tovar zaxiralarining harakat chog'idagi moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqsa, u siklning davomiyligini jahondagi oltin zaxiralarining tebranishlari bilan bog'lab, uni 3 yilu 4 oyga teng, deb hisoblaydi.

* Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добринина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 469-б.

Biroq qisqa muddatli sikllar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko‘pchilik iqtisodchilarni qoniqtirmaydi.

Juglar sikli «biznes-sikl», «sanoat sikli», «o‘rtacha sikl» va «katta sikl» kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko‘rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Fransiya, Angliya va AQShda foiz stavkalari hamda narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan Klement Juglar (1819-1905 yy.) nomi bilan ataladi.

Birinchi sanoat sikli 1825-yili Angliyada metallurgiya va boshqa etakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni egallagan davrda kuzatiladi. 1836-yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQShga ham tarqaladi, 1847-1848-yillarda AQSh va qator Yevropa davlatlarida boshlangan inqiroz tub mohiyatiga ko‘ra birinchi jahon sanoat inqirozi bo‘lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo‘lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AQSh va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan kechirgan bo‘lib, ulardan yettiasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro‘y bergen.

Kuznets sikli ko‘p hollarda «qurilish sikli» deb ham nomlanib, 20 yilgacha bo‘lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Saymon Kuznets o‘zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida milliy daromad, iste’mol sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko‘rsatkichlarida 20 yillik o‘zaro bog‘liq tebranishlar mavjud bo‘lishini ko‘rsatib bergen. 1955-yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznets sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli «uzoq to‘lqinlar» sikli deb ham ataladi. Sikllilikning bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta hissa qo‘shgan. Uning tadqiqoti Angliya, Fransiya va AQShning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab olgan. Bunda u iqtisodiy o‘sishning ko‘p omilli tahlilini o‘tkazib, ya’ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko‘rsatadi.

I sikl: 1787-1814-yillar – ko‘taruvchi to‘lqin; 1814-1851-yillar – pasaytiruvchi to‘lqin.

II sikl: 1844-1851-yillar – ko‘taruvchi to‘lqin; 1870-1896-yillar – pasaytiruvchi to‘lqin.

III sikl: 1896-1920-yillar – ko‘taruvchi to‘lqin.

Kondratev siklining davomiyligi o‘rtacha 40-60 yilni tashkil qildi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirishi hisoblanadi.

Kondratev birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini – temir yo‘l transportining rivojlanishi, uchinchisini – elektr energiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to‘rtinchisini – avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog‘laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilar beshinchi siklni elektronika, gen innejnerligi va mikroprotsessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko‘rsatadi.

Iqtisodiy sikl barcha tomonlari bilan namoyon bo‘lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi sababli uning hech bir sohasi inflyatsiya to‘lqini yoki turg‘unlikning noxush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e’tiborga olish zarurki, iqtisodiy sikl alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Odatda, iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalilanidigan iste’mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ko‘proq zarar ko‘radilar.

Uy-joy va sanoat binolari qurilishi, og‘ir mashinasozlik hamda investitsion tovarlar, avtomobillar, maishiy xo‘jalik buyumlari va shunga o‘xshash tovarlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo‘lgan ishchilar siklning inqiroz fazasida og‘ir oqibatga uchraydi. Biroq bu tarmoqlar siklning yuksalish fazasida o‘zining rivojlanishi uchun yuqori darajada rag‘bat oladi.

Iqtisodiy qiyinchilikni boshdan kechira boshlaganda ishlab chiqaruvchilar ko‘pincha zamonaliv uskunalarini sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to‘xtatadi yoki qandaydir muddatga kechiktirishi mumkin. Bunday kon'yunktura sharoitida investitsion tovarlar zaxiralarini ko‘paytirish hech qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha, korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan ancha to‘laroq foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy jihatdan qulay davrlarda, ya’ni siklning jonlanish va yuksalish fazalarida ishlab chiqarish vositalari odatda, ular to‘liq eskirgunga qadar almashtiriladi. Ammo tanazzul davri kelganida, korxonalar o‘zining eskirgan uskunalarini ta’mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo‘lgan ayrim korxonalar, hatto iste’mol qilingan asosiy kapitalining o‘rnini qoplashga ham harakat qilmaydi.

Qisqa muddatli foydalaniladigan iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari iqtisodiy siklning oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi.

Aholi yoki keng iste’molchilar qatlamiga iqtisodiy sikl turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Tanazzul davri boshlanganda, doimiy daromad oluvchi iste’molchilar oila budgetini qisqartirishga to‘g‘ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishni to‘xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a’zolari yeb-ichishi va kiyinishi zarurligi tufayli, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar, ya’ni qisqa muddatda foydalanadigan iste’mol tovarlарini xarid qilishni to‘xtatish mumkin emas. Faqat bunday tovarlarni xarid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi ko‘pchilik sanoat tarmoqlari yuqori darajada monopol mavqega egaligi bilan farqlanadi va natijada bozorda nisbatan ko‘p bo‘lmagan yirik firmalar ma’lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi turishi, talabning kamayishi sababli mahsulot chiqarish hajmini cheklash uchun yetarlicha monopol hukmronlikka ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli talabning kamayishi birinchi navbatda, ishlab chiqarish va bandlik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bunga teskari bo‘lgan holatni qisqa muddatli foydalaniladigan iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko‘pchiligi o‘zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarish markazlashuv darajasining pastligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli ular siklning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlariga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko‘proq aks etadi.

Demak, kapitalning to‘planishi yuqori darajada bo‘lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishi va narxlarning

nisbatan sekin tushishi, to‘planish darajasi past bo‘lgan tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

4.2. Iqtisodiy o‘sish va uning omillari

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo‘li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishiga erishishdir. Aholi farovonligi oshirib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o‘sish darajasi va sur’atlariga bog‘liq. Shu sababli ushbu bob iqtisodiy rivojlanishning mohiyati, uning darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, iqtisodiy o‘sishning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlarini bayon qilish bilan boshlanadi. Iqtisodiy o‘sishning omillari, milliy boylik va uning tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy o‘sish borasida mavjud bo‘lgan turli modellar mazmunini yoritib berishga ham o‘rin ajratiladi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo‘lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘sish ko‘proq tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o‘sish bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari har bir birligi hisobiga o‘sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi.

Iqtisodiy o‘sishni YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, biron-bir mamlakat iqtisodiy o‘sishini YaIM mutlaq hajmining ortishi orqali o‘lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o‘lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo‘llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atini tavsiiflaydigan mazkur ko‘rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o‘sishi) miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to‘liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o‘sishini to‘liq tavsiiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o‘sishi bo‘sh vaqtning sezilarli ko‘payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko‘rsatilishiga

olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Shunga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barcha tavsifi yillik o'sish sur'atlarining foizdagi o'lchovida to'liq o'z ifodasini topadi:

$$O'S = \frac{\frac{YalM_{joriy}davr}{YalM_{ba zis}davr} - YalM_{ba zis}davr}{YalM_{ba zis}davr} \times 100\%,$$

bu yerda:

O'S – iqtisodiy o'sish sur'ati, foizda;

YalMbazis davr – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

YalMjoriy davr – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

Iqtisodiy o'sish sur'atlari «sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi. Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish – 8,3 foiz, transportda iok va yo'lovchi tashish hajmi – 10,2 foiz, savdo sohasi – 7,2 foizga o'sdi».

Shuningdek, iqtisodiy o'sish mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayib borishini ham anglatadi. Milliy ishlab chiqarish natijalarining miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan takomillaшиб borishi pirovardida ishlab chiqarish imkoniyatlari egi chizig'ining o'ng tomonga qarab siljishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sish natijasida ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot miqdori ortadi, bu esa aholi turmush farovonligining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yanada to'larq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ahamiyati to'g'risida gapirliganda uning darajasini ham e'tiborda tutish lozim. Iqtisodiy o'sish sur'atlarining ahamiyatlilik darajasi turli mamlakatlar real YaIMning hajmidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Real YaIM hajmi nisbatan kichik bo'lgan mamlakatlar uchun 8-10% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati me'yordagi holat sanalishi, real YaIM hajmi juda katta bo'lgan mamlakatlar uchun 2-3% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati esa ahamiyatli ko'rsatkich hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 miqdori qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 9% darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 7,7 yil talab etiladi (70:9). Holbuki, iqtisodiy o'sishning 2000-yildagi 4,0% darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun ishlab chiqarish omillari miqdori ikki barobar ko'paytirilishi lozim, sodda qilib aytganda, mavjud korxonalar bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarining quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana korxonalar qurilishi lozim. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potentsialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiyлари ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, mehnat unumdorligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- a) ishlab chiqarish vositarining rivojlanganlik darajasi;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi;
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;
- g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YAIM ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi. Bunda iqtisodiyotning yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar taklif omillari deb ham atalib, iqtisodiyotning o'sish layoqatini belgilab beradi:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi ichki mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu yerda:

Y – yalpi ichki mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

- 1) mehnat unumdarligi (Y/L) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;
- 2) mehnat sig'imi (L/Y) – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- 3) kapital samaradorligi (Y/K) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;
- 4) kapital sig'imi (K/Y) – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- 5) tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'llanilgan tabiiy resurslar miqdoriga nisbati;
- 6) mahsulotning resurslar sig'imi (N/Y) – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- 7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L) – ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlardan tashqari yana keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdarligi ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o'zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo'shimcha o'sishi ta'sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi hajmini belgilab beradi:

- 1) keyingi qo'shilgan mehnat unumdarligi ($\Delta Y / \Delta L$);
- 2) keyingi qo'shilgan kapital unumdarligi ($\Delta Y / \Delta K$);
- 3) keyingi qo'shilgan tabiiy resurslar unumdarligi ($\Delta Y / \Delta N$).

Bu ko'rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishida har bir omilning hissasini namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Y = (\Delta Y / \Delta L)L + (\Delta Y / \Delta K)K + (\Delta Y / \Delta N)N$$

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatalishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan


real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning yuqori miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo‘ladi.

Real mahsulot ikki asosiy usulda ko‘paytirilishi mumkin: 1) resurslarning ko‘proq hajmining jalb etilishi; 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo‘li bilan (2-chizma).

Amaliy hayotda iqtisodiy o‘sishni susaytirib turuvchi omillar ham mavjud bo‘ladiki, ular mehnat muhofazasi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi holatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda respublikamizda davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu o‘z navbatida iqtisodiy o‘sish sur’atiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali mehnat unumdarligini oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar boshqa tomonga jalb qilinadi.

2-chizma

Real mahsulot o‘sishini aniqlab beruvchi omillar



Hozirda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish omillaridan imkon qadar samarali foydalanishga e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, iqtisodiyotda ishchi kuchining samarali bandligini ta’minlash bu boradagi muhim

yo‘nalishlardan hisoblanadi. Har yili iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratib borilmoqda. Jumladan:

- chorvachilik, parrandachilik komplekslari va issiqxona xo‘jaligi (35 ming ish o‘rni);
- sut va go‘shtni qayta ishlash sohasi (8 ming ish o‘rni);
- mebel, poyafzal va tikuv sexlari (9 ming ish o‘rni);
- oziq-ovqat va qandolatchilik sexlari (6 ming ish o‘rni);
- mahalliy xomashyodan qurilish materiallari sexlari (7 ming ish o‘rni).

Shuningdek, kasanachilik va xalq hunarmandchiligini tashkil qilish orqali 70 mingta, har bir qishloq tumanida kamida 50 ta kam ta‘minlangan oilalarni qoramol bilan ta‘minlash evaziga 7 mingta yangi ish o‘rinlari yaratish belgilangan. Bu ishlarni amalga oshirish uchun barcha moliyalashtirish manbalaridan 202,0 mldr. so‘m ajratilishi nazarda tutilgan¹. Bunday chora-tadbirlar natijasida ishchi kuchi bandligi darajasini oshirish va tarkibini yanada takomillashtirish mamlakatimizda iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta‘minlashga zamin yaratadi.

Iqtisodiy o‘sish omillaridan texnika taraqqiyotini ta‘minlash hamda investitsiyalar hajmini oshirish – mamlakatimizdagi iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishiga aylangan, «...jahon iqtisodiy inqirozi ishlab chiqarishni muntazam yangilab, modernizatsiya qilib borish zaruratini kun tartibiga yanada o‘tkir qilib qo‘ymoqda va buning uchun bor kuch-imkoniyatimiz hamda resurslarimizni safarbar etishni talab qilmoqda».

Umuman olganda, hozirgi global inqiroz sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga investitsiyalarni ko‘proq jalg etish zarurati quyidagilar orqali izohlanadi:

1) inqiroz vaqtida jahon bozorida zamонавија asbob-uskuna va jihozlar arzonlashadi. Bunday imkoniyatdan foydalaniб, ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasini yangilash hamda uning asosida raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish qisqa davrda ushbu sarf-xarajatlarni qoplash imkonini beradi;

2) yuqori darajada qo‘silgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlarni eksportga chiqarishning qo‘srimcha imkoniyatlari vujudga keladi;

¹ Manba: «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi materiallari.

3) texnik va texnologik asosni yangilashda vaqt jihatidan yutish imkonи paydo bo‘ladi;

4) investitsiyalar ichki talabni kengaytirib, qurilish sanoatining rivojlanishini rag‘batlantiradi;

5) ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi diversifikatsiyalanadi.

Shunga ko‘ra, mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo‘yicha 2009-2014-yillarga mo‘ljallangan muhim loyihalarni amalga oshirish rozasidan choralar dasturi ishlab chiqildi. Unda umumiy qiymati 42,5 mlrd. doll. hajmida 852 ta loyiha, shu jumladan, 2009-yilda umumiy qiymati 24,4 mlrd. doll. hajmidagi 590 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Ushbu loyihalarni amalga oshirishning asosiy maqsadlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ulushini oshirish orqali iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish;

- resurslar tejamkorligini ta’minlovchi, samarali iqtisodiyotni shakllantirish;

- iqtisodiyotning ustuvor yetakchi tarmoqlarini jadal rivojlanish;

- mahalliy xomashyo va materiallarni yanada chuqurroq qayta ishlash hamda butlovchi mahsulotlarni yaratishga asoslangan mahalliy ishlab chiqarishni rivojlanish;

- energiya resurslaridan samarali va oqilona foydalanish;

- mahalliy raqobatbardosh mahsulotlarning tashqi bozorlardagi mavqeini mustahkamlash¹.

Bundan ko‘rinadiki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda barqaror va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan omillardan foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

¹ Сайдова Г. Модернизация, техническое обновление и диверсификация производства, широкое внедрение инновационных технологий – необходимое условие выхода Узбекистана на новые рубежи на мировом рынке. // «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanı materiallari. TDIU, 2009 yil 5 may.

4.3. Iqtisodiy inqirozning o‘ziga xos xususiyati

Siklli rivojlanishning dastlabki va asosiy fazasi inqiroz hisoblanadi. Shunga ko‘ra ushbu fazaning mazmuni va uning turlarini batafsil ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Inqiroz bir siklni nihoyasiga yetkazib, yana muqarrar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi; inqiroz vaziyatida asosiy kapitalning ortiqcha jamg‘arilishi uning hamma funksional shakllarida namoyon bo‘ladi.

Inqiroz fazasida ishlab chiqarish va bandlik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoyiliga berilmaydi. Bu fazaning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik o‘zining eng past darajasiga tushib ketishi orqali tavsiflanadi. Shunga ko‘ra, iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmining keskin tushib ketishiga aytildi.

Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to‘lovga qobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo‘ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to‘xtab qoladi, tovarlar ishlab chiqarish kamayadi, ishlab chiqarishning o‘sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi. Iqtisodiyotning o‘sishi inflyatsiya, ya’ni narx darajasining asossiz ravishda keskin ko‘tarilishi sababli orqaga ketadi. Shunday davrlar ham bo‘ladiki, bunda iqtisodiy o‘sish bandlik va ishlab chiqarishning past darajasiga o‘rin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko‘tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin o‘sadi. Qisqacha aytganda, iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflyatsiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi – takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo, ishlab chiqarish va uning natijalarini o‘zlashtirish o‘rtasidagi nomutanosiblik bo‘lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Ishlab chiqarish bilan iste’mol, talab va taklif o‘rtasidagi vaqt-i-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqish imkoniyatini saqlaydi.

Rivojlangan tovar xo‘jaligi paydo bo‘lgunga qadar ishlab chiqarishning keskin qisqarishi odatda, tabiiy ofatlar (qurg‘oqchilik, toshqinlar va h.k.) yoki urushlar va ular keltiradigan vayronagarchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan. Yirik mashinali ishlab chiqarishga o‘tilgan davrdan keyingi vaqt-i-vaqti bilan iqtisodiyotni larzaga solib turuvchi iqtisodiy

inqirozlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishga siklik tavsifni kasb etadi. Inqirozlar turli-tuman tarzda ro'y bersada, ularni umumiy, o'xshash tomonlarini nazarda tutib, guruhlarga ajratish mumkin.

1. Xo'jalik tizimida muvozanatning buzilishi miqyosiga ko'ra inqirozlarni umumiy hamda ayrim sohalarda yuz beradigan inqirozlarga bo'lish mumkin. Umumiy inqirozlar butun milliy xo'jalikni qamrab olsa, ikkinchisi qisman, ya'ni ayrim sohalar yoki tarmoqlardagi tanglik sifatida ro'y beradi.

Ayrim sohalardagi inqirozlar orasida moliyaviy inqiroz muhim o'rin tutib, u o'z ichiga pul-kredit sohasidagi inqiroz, valyuta inqirozi, birja inqirozi va boshqalarni oladi. Hozirgi vaqtida AQSh va Yevropaning aksariyat mamlakatlarida ro'y berayotgan inqiroz ham dastlab moliya sohasida boshlanib, keyinchalik ishlab chiqarish sohasiga ham tutashib ketdi.

Pul-kredit sohasidagi inqiroz. Mamlakatda pul-kredit tizimining tang ahvolga tushishi bo'lib, bunda tijorat va bank krediti qisqaradi. Aksiya va obligatsiyalarning kursi, bank foizi tushib ketishi natijasida banklar sinib, yalpi holda bankrotlikka uchraydilar.

Valyuta inqirozi. Bunda milliy valyutaning obro'si tushib ketadi. Bankda valyuta zaxirasi tugab, milliy valyuta kursi tushib ketadi.

Birja inqirozi. Bu tanglik birjada qimmatli qog'ozlar kursining tezda tushib ketishi, ularni emissiya qilishni qisqarishi, fond birjalari faoliyatidagi chuqur tushkunlikda ifodalanadi.

Ekologik inqiroz. Atrof-muhitni eng avvalo, inson sog'lig'ini yo'qotish, umrini qisqartirishga olib keladigan darajada vaziyatni vujudga keli-shida ifodalanadi. U sanoatning shiddatli tarzda o'sishiga yo'l qo'ymaydi.

Tarmoqlar inqirozi. Bu milliy xo'jalikning biron-bir tarmog'ini qamrab, ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishi yoki normal xo'jalik aloqalarining buzilishi tufayli yuz beradi.

Tarkibiy inqirozlar. Iqtisodiyotdagi inqirozlardan bir ko'rinishi yoki uning bir turi tarkibiy inqirozlardir. Bu inqirozlarni ishlab chiqarishning ayrim sohalari bilan tarmoqlar rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklar keltirib chiqaradi.

Tarkibiy inqirozlar bilan iqtisodiy tebranishlar va, shu jumladan, iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlari ham mavjud bo'ladi. Masalan, bayramlar arafasidagi xarid qilish, iste'mol tovarlarining faollik sur'atida, asosan chakana savdoda sezilarli har yillik tebranishlarga olib

keladi. Qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, qurilish ham qandaydir darajada mavsumiy tebranishlarga duchor bo'ladi.

Iqtisodiy faoliyning iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tamoyillarga, ya'ni uzoq muddatli davr, masalan, 25, 50 yoki 100 yil davomida iqtisodiy faoliyning ortishi yoki pasayishiga bog'liq. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ayrim mamlakatlarda (masalan, AQSh) uzoq muddatli tamoyil sezilarli iqtisodiy o'sish bilan tavsiflansa, boshqalari uchun iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi xos.

Iqtisodiy faoliyning tebranishini tushuntiruvchi ko'plab qarashlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ko'pchilik iqtisodchilar ishlab chiqarish, va bandlik darajasini bevosita aniqlovchi omil umumiy yoki yalpi sarflar darajasi hisoblanadi, deb tasdiqlaydi.

Agrar inqiroz. Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlar agrar inqirozlar deb ataladi. Agrar inqirozlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: 1) qishloq xo'jalik mahsulotlarining nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan juda katta zaxiralarining to'planishi; 2) narxlarning pasayishi, daromadlar va foydalarning kamayishi; 3) fermerlarning ommaviy ravishda xonavayron bo'lishi, ular qarzlarining ortishi; 4) qishloq aholisi o'tasida ishsizlarning ko'payishi.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, agrar inqirozlar o'ziga xos tavsif kasb etadi. Agrar inqirozlar sanoat sikllariga qaraganda odatda, ancha uzoq vaqt cho'zilib boradi. Birinchi agrar inqiroz XIX asrning 70-yillarda boshlanib, har xil shakllarda 90-yillar o'tasigacha davom etgan edi.

Birinchi jahon urushidan keyin, aholining xarid qobiliyati juda pasayib ketgan sharoitda, 1920-yil bahorida keskin agrar inqiroz boshlanib ketdi va ikkinchi jahon urushining boshlanishga qadar davom etdi. Uchinchi agrar inqiroz 1948-yildan boshlanib, 80-yillargacha davom etdi.

Agrar inqirozlarning cho'zilib ketishining asosiy sabablari quyidagilar: a) yerga xususiy mulk monopoliyasi sharoitida, u qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining rivojlanishida sanoatga nisbatan orqada qolishni taqozo etadi; b) yer rentasining mavjud bo'lishi va uning uzluksiz sur'atda o'sib borishi. Yer rentasining, avvalo, absolyut rentanining ko'payishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qimmatlashtirib yuboradi, buning natijasida uni sotish qiyinlashadi; v) ko'plab mayda dehqon xo'jaliklarining mavjud bo'lishi. Mayda ishlab chiqaruvchilar xo'jalikni asosan, o'zi va oilasi uchun zarur tirikchilik vositalarini topish

maqsadida yuritadi. Inqiroz sharoitida ham ular ishlab chiqarishni qisqartira olmaydilar. Tirikchiliklarini o'tkazish va ijara haqini to'lash uchun ishlab chiqarishni ilgarigi miqyoslarda olib boraveradi. Bu hol qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarishni yana ham ko'paytirib yuboradi.

Agrar inqirozlar siklli tavsifga ega bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish absolyut tavsifga emas, balki nisbiy tavsifga ega. Chunki inqiroz ro'y bergan mamlakatlarda million-million kishilar doimiy suratda ochlikda yashaydi.

2. Iqtisodiyotda muvozanatning buzilishini muntazam yoki aksincha, tarzda yuz berishiga ko'ra davriy, oraliq, nomuntazam inqirozlarga ajratish mumkin.

Davriy inqirozlar ma'lum vaqt mobaynida takrorlanib turadi.

Oraliq inqirozlar to'liq sikl bo'yicha yuz bermaydi. Siklning biron-bir fazasida to'xtatiladi. Ular nisbatan uncha chuqur bo'lmay, qisqa muddat davom etadi.

Nomuntazam inqirozlar biron-bir alohida sabablarga ko'ra yuz beradi. Masalan, tabiiy ofat, sel, to'fon, qurg'oqchilik tufayli iqtisodiyot tang ahvolga tushib qolishi mumkin.

3. Takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi tavsifiga ko'ra inqirozlar ikkiga: ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlariga bo'linadi. Tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi turli naf keltiradigan ne'matlarni ko'p ishlab chiqarish, lekin ularni to'la sota olmaslikda namoyon bo'ladi.

Taqchil ishlab chiqarish inqirozi davrida muvozanat buzilib, yetishmovchilik natijasida tang ahvol kelib chiqadi. Shunday qilib, iqtisodiyotning tang ahvolga tushishiga faqat ortiqcha ishlab chiqarish emas, balki taqchil ishlab chiqarish ham sabab bo'ladi.

4.4. Iqtisodiy inqirozning ijobiy va salbiy oqibatlari

2008-yilda o'zining ko'lami va salbiy ta'sir oqibatlari jihatidan anchalik jiddiy bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuz berdi. Bu inqiroz AQShda ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarining likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyatini zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aktsiyalarining bozor

qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o‘z navbatida, ko‘plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog‘liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Bundan ko‘rinadiki, dastlab AQSh ipoteka bozorlarida namoyon bo‘lgan mazkur inqiroz yetarlicha to‘lov layoqatiga ega bo‘limgan, qarzlarni qaytarish qobiliyat shubhali bo‘lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallahushi natijasida ro‘y berdi.

Modomiki, ipoteka krediti o‘zining mohiyati bo‘yicha ko‘chmas mulk garovi hisobiga beriladigan kreditlar bo‘lsa-da, AQSh bozorlari bunday likvidli ko‘chmas mulklarga yetarlicha «to‘yindi» va ularning narxlari keskin tusha boshladи. Buning ustiga investitsion banklarning AQSh ipoteka bozorlaridagi yangi moliyaviy «mahsulot» hisoblangan aktivlarni sekyuritizatsiyalash bo‘yicha operatsiyalarining avj olishi ipoteka bozorlaridagi tanazzullik holatlari ehtimolligini oshirdi.

AQSh iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to‘yindi va bu Federal zaxira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini o‘zgartirishiga olib keldi. Natijada 2004-2006-yillarda Federal zaxira tizimi foiz stavkalarni 6,25% gacha ko‘tardi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholini ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo‘yicha qarzdorlar to‘loving qisqarishiga olib keldi. Boshqa tomonidan, oziq-ovqat mahsulotlari va energiya resurslari narxlarining o‘sishi aholining kreditni qaytarish bo‘yicha moliyaviy imkoniyatlarining cheklanishiga olib keldi. 2000-2007-yillar mobaynida jahon bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlarining narxi o‘rtacha ikki barobarga oshdi, benzin narxi esa 3,5 barobarga oshdi. Neft narxi rekord darajada, ya’ni bir barreli 147 dollardan ortdi.

Pirovard natijada 2007-yil boshida AQShda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog‘liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko‘chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko‘ra to‘lovlarni to‘lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to‘lov qobiliyatiga ega bo‘limgan mijozlarning ko‘chmas mulkclarini qayta sotuvga qo‘yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko‘payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining «mevasi»

ekanligini, ya’ni «o‘z-o‘zini boshqaruvchi bozor» g‘oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvining cheklanganligi bilan ham izohlamoqdalar.

Shu o‘rinda jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta’kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma’lumki, iqtisodiyot sog‘lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o‘rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan, AQShda, keyinchalik ko‘plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaifashuviga, keyin esa uni umuman e’tiborga olmaslikka qadar olib keldi. Jumladan, o‘tgan asrning 70-yillariga qadar amal qilib kelgan jahon valyuta tizimlari pullarning oltin yoki tovar mazmunini ta’minlash orqali iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga zamin yaratdi. Biroq jahon amaliyotida 1976-yildan boshqariladigan, suzib yuruvchi valyuta tizimiga o‘tgach, pulning oltin mazmuni yo‘qolib, asosan, AQSh dollari yetakchi valyutaga aylangach, uning muomalaga chiqarilishini nazorat qilib bo‘lmay qoldi. Keyingi yillarda globallashuv jarayonining jadallahushi ta’sirida xalqaro iqtisodiy aloqlarda qat’iy valyutaga bo‘lgan talabning yanada kuchayishi AQSh tomonidan hech qanday tovar bilan ta’milanmagan pullarning muomalaga chiqarilish jarayonini yanada tezlatib yubordi. Ma’lumotlarga ko‘ra, muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to‘lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligi ham hisobga olinsa, muomala uchun zarur bo‘lgan pul miqdoridan, ya’ni pulga bo‘lgan talabdan bir necha o’n baravar ko‘payib ketganligini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, asosan, yetakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga asosiy sabablaridan hisoblanadi:

- noratsional pul-kredit siyosatini, hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;

- moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag‘lari o‘rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;

- qimmatli qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;
- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;
- moliyaviy rag'batlantirish uslubi sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;
- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarning vujudga kelishi va hokazo.

Prezidentimiz o'z asarlarida dunyoning hozirgi vaqtida bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelayotganligini ta'kidlab o'tdilar. Ya'ni «Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'laming cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahoning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda».

Jahon iqtisodiyotida kuzatilgan bunday nomutanosiblik holatlari, ya'ni rivojlanayotgan mamlakatlar savdo balansida ijobiy saldo o'sayotgan sharoitda ayrim rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo balansidagi yirik miqdordagi taqchillikning vujudga kelishi dunyo mamlakatlari valyuta zaxiralaringin o'zgarishiga olib keldi. Xususan, keyingi yillarda Xitoy, Yaponiya, Yaqin Sharq mamlakatlari valyuta zaxiralari keskin o'sdi. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi paytlarda xalqaro valyuta zaxiralaringin 3,4 trln. dollari, ya'ni jami zaxiralarning qariyb 59% Osiyoning 10 ta yirik mamlakati hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Aksariyat xalqaro ekspertlarning e'tirof etishlaricha, 2006-yilda AQSh ipoteka bozorlarida boshlangan inqirozning avj olishi va uni jahon moliyaviy inqirozining kelib chiqishiga faol ta'sirini AQShning jahon yalpi ichki mahsulotining asosiy iste'mol qiluvchisi hisoblanganligini keltirib o'tishadi. Ma'lumotlarga qaraganda, AQShning jahon yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqishdagi hissasi 20% ni tashkil qilsa-da, uning iste'molidagi hissasi qariyb 40% ni tashkil qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, AQSh davlat tashqi qarzi miqdorining o'sib borganligi va uni YaIMga nisbatan salmog'i o'sganligi inqirozning kuchayishining asosiy omillaridan biri bo'ldi.

Hozirda ko'plab mutaxassis va ekspertlar tomonidan jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonlarining kuchayishi retsessiya va iqtisodiy pasayishni, investitsiyaviy faollik ko'lami cheklanib borishimi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi hamda jahoning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishi mumkinligi e'tirof etilmoqda.

AQSh Federal zaxira tizimi tomonidan olib borilgan noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalashtirish stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida banklar tomonidan kredit berish ko'lami keskin o'sdi. Federal zaxira tizimining ekspansion pul-kredit siyosati tijorat banklariga taqdim etadigan kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini 1,25% gacha pasaytirilishida namoyon bo'lgan edi.

Federal zaxira tizimining ipoteka bozorlariga e'tiborsizligi, ipoteka kreditlari berish talablarining haddan ziyyod erkinlashtirilishi natijasida bozorda ko'chmas mulklarga talab ortdi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi kuzatildi.

Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining nomuvofiqligi natijasida banklar tomonidan kreditlash tizimi talablari o'ta yengillashib, bu holat kreditlardan foydalanishda to'lovga layoqatlilik darajasining hisobga olinmasligiga imkon yaratdi.

Shuningdek, mutaxassislardan amaldagi bank kapitalini xalqaro tartibga solish (Bazel II) tizimi moliyaviy inqirozning vujudga kelishi uchun zamin yaratgan. Ma'lumki, 90- yillarning boshida qabul qilingan bank kapitalini xalqaro tartibga solishning Bazel II tizimi tijorat banklari uchun talab qilinadigan kapital yoki kapitalning yetarliligi aktivlarning investitsion sifatlari va ularning risk darajasi bo'yicha guruhashni ko'zda tutadi. Natijada Bazel II bank kapitallarini reyting agentliklari xulosalariga asoslangan holda yuqori riskli aktivlarni sekyuritizatsiyalab, qimmatli qog'ozlarga aylantirishni rag'batlantirgan.

Moody's, Standard & Poors va Fitch kabi reyting agentliklari riskli ipotekaga asoslangan qimmatli qog'ozlarga AAA reytingini bergenligi bilan inqirozga o'z hissasini qo'shganlikda ayblanmoqdalar¹. Mazkur reyting agentliklari tomonidan ipoteka bozorlaridagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha berilgan xulosalariga asoslanib faoliyat yuritayotgan tijorat banklari va barcha ipoteka kreditlarining 70% ini taqdim etuvchi davlat ipoteka agentliklari (Freddie Mac (the Federal Home Loan Mortgage

¹ Jumayev N.X. Jahon moliyaviy inqirozi: mohiyati, sabablari va uning O'zbekistonga ta'siri (Elektron ma'ruza matni).- TDIU. - T, 2009.

Corporation) va Fannie Mae (the Federal National Mortgage Association)) aktivlari sifat ko'rsatkichlarining pasayishi kuzatildi va pirovardida ular to'liq davlat nazoratiga o'tdi.

Yuqoridagi holatlar moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligini, shunga ko'ra, ushbu tizimni tubdan isloh qilish orqali yangi, sog'iom moliyaviy tizimni shakllantirish zarurligini tasdiqlamoqda.

XX asrning oxirlarida boshlangan va hozirgacha davom etib kelayotgan bozorlarning globallashuvi, kapitallar xalqaro harakatining erkinlashtirilishi natijasida AQSh bozorlarida vujudga kelgan inqiroz dunyoning boshqa mamlakatlariga ham keng yoyildi. AQSh banklari va ipoteka agentliklarining qimmatli qog'ozlariga qo'yilma qilingan xorijiy investorlar moliyaviy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bu o'z navbatida, dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. AQSh moliya bozorlaridagi inqiroz jahonning yirik fond bozorlaridagi kon'yunkturaga ta'sir qildi va bu o'z navbatida, mazkur bozorlardagi fond indekslarida (S&P, Dow-Jones, Nasdaq, FTSE, CAC, DAX, Nikkei, Hang Seng, Shanhai composite, RTS, MMVB va b.) o'z aksini topdi. Global moliyaviy bozorning asosiy tarkibi va jahonning asosiy moliyaviy markazlari hisoblangan yirik fond bozorlarini o'z ichiga oluvchi mamlakatlars iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda YalMning o'sish sur'atlari keyingi yillarda ahamiyatli darajada pasayib ketdi.

Shu o'rinda aytish lozimki, hozirda rivojlanib borayotgan moliyaviy inqiroz inflyatsiya, qator banklar va moliyaviy muassasalarining tanazzulga yuz tutishi ta'sirida ishsizlik, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi va boshqalar negizida iqtisodiy inqiroz shaklida kuchayib bormoqda. Bundan ko'rinadiki, hozirgi jahon moliyaviy inqirozining o'ziga xos xususiyati – bu uning iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan boshlanib, real sektoriga o'tganligidir.

Jahon moliyaviy inqirozi aksariyat rivojlangan mamlakatlars moliya tizimini tubdan isloh qilish zarurligini keltirib chiqardi. Shunga ko'ra, AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'zlarining bank tizimlarini inqirozdan qutqarish uchun yirik tijorat banklarining aksiyalarini sotib olib, ularni budjet mablag'lari hisobiga likvidli aktivlar bilan ta'minlay boshladи.

AQSh hukumati iqtisodiyotga yirik masshtabdagi davlat aralashuvi siyosatini yurita boshladи. AQShning sobiq moliya vazirining tashabbusi

bilan Kongress «Polson rejasi» deb nomlanuvchi rejani qabul qildi. Mazkur rejaning umumiy hajmi 700 mld. dollarni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari inqirozdan chiqish bo'yicha tijorat banklari kreditlari uchun davlat kafolatlari tizimidan foydalanishga kelishib olishdi. Bu holatda kafolatlар banklararo kreditlar bo'yicha 5 yil muddatga taqdim etiladi va hukumat banklarning imtiyozli aksiyalarini sotib olish orqali ularni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Masalan, AQShda Federal zaxira tizimi qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali xususiy sektorni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish amaliyotiga o'tish orqali likvidlilikni ta'minlashning yangi usuliga o'tdi.

Buyuk Britaniya hukumati banklar va moliyaviy muassasalar aksiyaliga 37 mld. funt sterling mablag'larini investitsiya qilishini e'lon qildi. Germaniya hukumati esa, bank tizimini qo'llab-quvvatlash uchun kapital va kreditlar bo'yicha kafolatlars shaklida 500 mld. evro ajratishini e'lon qildi. Avstraliya hukumati esa barcha omonatchilar pul jamg'armalarini 3 yilga kafolatlashini e'lon qildi va ipoteka qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun 2,6 mld. dollar mablag' ajratdi (2-jadval)1. Yevropaning yirik banklari milliyashtirildi, ya'ni davlat tomonidan sotib olindi.

Inqirozdan qutqarish bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlardan ko'-rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlari tartibga solinmaydigan erkin bozor haqidagi ideologik dogmani orqaga tashlab, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullaridan keng foydalana boshladilar.

Tijorat banklarini «milliyashtirish»ni nazarda tutuvchi davlat budgetidan ajratilgan mazkur investitsiya resurslari ma'lum bir davrga o'zining ijobiy natijasini berishi mumkin.

2-jadval

Jahon mamlakatlarining inqirozga qarshi kurashga sarflangan moliyaviy xarajatlari

Mamlakat	Moliyaviy xarajatlar, mldr. dollar	Mamlakat YaIMga nisb. % hisobida (2008-yil)
Rossiya	222	13,9
Buyuk Britaniya	1020	37
AQSh	3539	25
Germaniya	893	23
Yaponiya	576	12
Xitoy	570	13
Dunyo bo'yicha	9400	15

¹ Manba: Internet ma'lumotlari.

Hozirgi vaqtida dunyo mamlakatlari tomonidan inqirozga qarshi kurash bo'yicha yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajratilmoqda. Ularning hajmi va yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i inqirozning ta'sir ko'lami va har qaysi mamlakatlarning inqirozga qarshi kurash bo'yicha ishlab chiqqan rejalarini hajmiga asoslanadi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, dunyo bo'yicha jami sarflangan mablag'larining hajmi 9400 mlrd. dollarni tashkil qilgan. AQSh hukumati sarflagan mablag'larining hajmi 3539 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo'lib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 25% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada 1020 mlrd. dollarni (mamlakat yalpi ichki mahsulotining 37%), Germaniyada 893 mlrd. dollarni (23%) tashkil qilgan. Bundan ko'rinishdiki, hozirgi sharoitda inqirozdan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya nisbatan ko'proq aziyat chekmoqda.

Inqirozni bartaraf etishda mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar bo'yicha ajratiladigan mablag'lar ma'lum maqsadli sarflanish yo'naliishlariga ega (3-jadval).

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganligida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi hamda eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu bois global moliyaviy inqiroz va birinchi navbatda, uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta'sir etayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi».

Biroq, o'z o'mida ta'kidlash lozimki, moliyaviy inqirozning respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davatlardagiga qaraganda mazmunan farq qiladi. Agar boshqa mamlakatlarda bu jarayonlar bevosita moliya tizimining izdan chiqishi va ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarning yopilishi orqali namoyon bo'lsa, O'zbekistonda inqirozning iqtisodiyotga ta'siri jahon xomashyo bozorlarida eksport mahsulotlariiga talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi hamda buning oqibatida eksport daromadlarining sezilarli kamayishi, asosiy savdo hamkorlar xarid qobiliyatining pasayishi natijasida tashqi savdo aylanmasining qisqarishi orqali namoyon bo'ladi.

3-jadval

**Inqirozni bartaraf etishga ajratilgan
mablag'larning yo'nalishlari**

Mamlakat	Kredit mablag'lariغا davlat kafolati		Moliyaviy institutlar ustav kapitallariga qo'yilmalar		Yuqori riskli, shubhalii aktivlarning xaridi		Boshqalar		Jami
	mlrd. doll.	jamiga nisb. %	mlrd. doll.	jamiga nisb. %	mlrd. doll.	jamiga nisb. %	mlrd. doll.	jamiga nisb. %	mlrd. doll.
Rossiya	-	-	185	84	11	5	25	11	222
Buyuk Britaniya	393	39	79	8	-	-	549	54	1020
AQSh	1769	50	714	20	663	19	394	11	3539
Germaniya	539	60	177	20	-	-	176	20	893
Yaponiya	303	53	-	-	-	-	237	47	576
Xitoy	-	-	-	-	-	-	570	100	570
Jami	3004	44	1155	17	674	10	1951	29	6820

«Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko'rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarimizning o'sish sur'atlari va iqtisodiy optimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir etadi».

Shu bilan birga, bugungi kunda ko'plab yetakchi olim va mutaxassislarimiz tomonidan iqtisodiy optimizda moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirini pasaytiradigan omillar mavjudligi ta'kidlanmoqda. Ba'zi mutaxassislarining fikricha, «hozirgi inqiroz ehtimol tutilayotgan salbiy ta'sirlardan tashqari biz uchun ijobjiy ta'sirlarga ham ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarni vujudga keltirishi mumkin. AQSh va Yevropadagi investorlar aksiyalardan bosh tortib, o'z aktivlarini bo'shatmoqdalar. Mohiyatiga ko'ra, qaytadan qandaydir ishga jalb etilishi zarur bo'lgan resurslarni bo'shatish jarayoni bormoqda. Demak, yangi bozorlarni, yangi imkoniyatlarni izlash boshlanadi. Investorlar kapital kiritishning muqobil yo'llarini qidiradilar. G'arb bozorlari turg'unlikka yuz tutgan chog'da rivojlanayotgan

mamlakatlar bozorlari o'sishning ijobiliy dinamikasini ko'rsatadi. Shunday mulohazalardan kelib chiqqan holda, ko'plab investorlar O'zbekiston bozoriga e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas»¹.

Shuningdek, jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'limganligini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lining tanlanganligi;

- davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi;

- O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarining barqaror hamda uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralalar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;

- oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;

- aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilganligi;

- davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekani, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchliligi bilan izohlanadi.

Hozir O'zbekistonning umumiyligi tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 13,3% ni tashkil etmoqda, eksport hajmiga nisbatan esa 31% dan oshmaydi. Bu o'z navbatida mamlakatimizning xalqaro darajadagi to'lov qobiliyatga egaligini ifodalaydi.

Respublikamizda doimo qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatlarga, imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etildi. Natijada milliy iqtisodiyotimizning xalqaro kreditlar bozoridagi kon'yunkturaga keskin bog'liqligini va moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlarining oldi olindi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda tashqi dunyo bilan ikki tomonlama o'zaro manfaatli aloqalarimiz rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha

¹ Хангбаев Д. Кризис может иметь свои плюсы // http://www.review.uz/page/article/v_uzbekistane/2356.

dasturlarni amalga oshirishimizda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or texnologiyalariga asoslangan investitsiyalariga ehtiyoj mavjud. Qolaversa, jahon bozoridagi talabning pasayib borishi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarimizning eksport ko‘lamiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunga asoslangan holda, hukumatimiz tomonidan inqirozga choralar dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur dasturda talabni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlovchi chora-tabdirlar majmui o‘z aksini topdi.

Xulosa

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy zamonaviy xususiyatlari iqtisodiy globallashuv va o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishidir. Global muammolar o‘zaro bog‘liqlikning yaqqol ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida u yoki bu muammoni global, ya’ni umumjahon miqyosdagi muammolar ekanligini ko‘rsatuvchi asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- uning olamshumul ahamiyat kasb etishi.
- insonlar hayotining barcha sohalariga taalluqliligi.
- muammoni hal etishda ko‘pchilik davlatlarning birgalikda harakat qilishligi va h.k.lar.

XXI asr boshidagi global muammolar orasida ekologik, oziq-ovqat, demografik, iqtisodiy, energetik muammolar, moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar alohida ajralib turadi.

Globallashuvning bu muammolarini milliy va xalqaro institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro darajada yechish orqali hal qilish mumkin.

Shuningdek, jahoning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar saqlanib qolayotgani, davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Ming yillik rivojlanish deklarat-siyasida ta’kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o‘limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to’siqlar bo‘lib qolmoqda. Bu muammolarni hal etishda 2000-yilda bo‘lib o‘tgan BMTning Mingyillik Sammitida “Mingyillik Deklaratsiyasi”ning qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muhim tarixiy hujjat XXI asrga mo‘ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik

rivojlanish maqsadlari (MRM) sifatida ma'lum bo'lgan sakkizta aniq maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni qo'ydi. MRM jahon hamjamiyatining 2015 yilgacha bo'lgan davr uchun global loyiha bo'lib, u jahondagi barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Tayanch iboralar:

Jahon iqtisodiyoti, iqtisodiy globallashuv, o'zaro bog'liqlik, global muammolar, ekologik muammo, oziq-ovqat muammosi, demografik muammo, iqtisodiy muammolar, energetik muammo, moliyaviy va iqtisodiy inqiroz, xalqaro institutlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi, Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM).

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning paydo bo'lish sabablari nimadan iborat?
2. Global muammo deganda nimani tushunasiz?
3. Global o'zaro bog'liqlik nima va u qanday ziddiyatlarga ega?
4. Global ekologik, oziq-ovqat, demografik muammolarni tavsliflab bering.
5. Global energetik muammo va uni hal etish yo'llarini tushuntiring.
6. Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jahon iqtisodiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
7. Antigloballashuvning asosiy belgilari va maqsadlari nimadan iborat?

5-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINING INSTITUTSIONAL ASOSLARINI BARPO ETISH

Reja:

1. Keysn modellari;
2. Iqtisodiy nazariyalarni shakllantirish shartlari;
3. Neoklassik modellar, institutsional modellar.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Vinod Thomas, Namrata Chindarkar. Economic Evaluation of Sustainable Development, 2019. <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6389-4>;
2. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
3. B.Xodiayev, Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik–T.: “Barkamol fayz media”, 2017.

Qo‘sishimcha adabiyotlar

1. Oecd, United Nations: Economic Commission for Latin America and the Caribbean, Caf Development Bank of Latin America. Latin American Economic Outlook 2019 Development in Transition, Latin American Economic Outlook, 2019;
2. Абдулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимателкой деятельности. Учебное пособие. –Т.: Ilmiy–texnika axboroti-press nashriyoti, 2016;
3. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko‘rgazmali va tarqatma materiallar. -T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;
3. www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko‘rsatkichlar.

5.1. Keysn modellari

Iqtisodiy model – turli xil iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning rasmiylashtirilgan tavsifi.

Iqtisodiy modellar ikkilamchi elementlardan chetlanishga imkon beradi va tizimning asosiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqliklariga e’tibor qaratishga imkon beradi. Iqtisodiy modellar voqelikning mavhum aksi bo‘lib, hamma voqealarni to‘liq qamrab ololmaydi.

Iqtisodiy modellarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- umumlashtirish darajasi bo‘yicha (mavhum-nazariy va aniq-iqtisodiy)

- aniqlashtirish darajasi bo‘yicha

- ko‘lam bo‘yicha

- elementlar o‘zaro munosabati xususiyati bo‘yicha

- tuzilish darajasi bo‘yicha (kichik va ko‘p o‘lchovli)

- qamrov darajasi bo‘yicha (yopiq va ochiq)

- hodisalarni va jarayonlarni belgilovchi omil sifatida vaqtini hisobga olish orqali

- elementlar munosabatlari tabiatni nuqtai nazaridan

Iqtisodiyotdagи mashhur modellar:

- aylana oqimlar modeli

- Keyschilik xochi

- AD-AS modeli

- IS-LM modeli

- Baumol-Tobin modeli

- Marksning takror ishlab chiqarish modeli

- Solou modeli

- Harrod-Domar modeli

- multiplikator-akselerator modeli

- moliyaviy akselerator modeli

Har bir modelda o‘zgaruvchilarning 2 turi ajratilgan:

- Ekzogen o‘zgaruvchilar - qiymatlari modeldan tashqarida o‘rnataligan tashqi tomonidan o‘rnataladigan o‘zgaruvchilar.

- Endogen o‘zgaruvchilar - qiymati model ichida shakllanuvchi o‘zgaruvchilar.

Ushbu o‘zgaruvchilar 2 guruhga bo‘linadi: oqim tezligi va zaxiralalar ko‘rsatkichlari.

• Oqim - bu ma'lum bir vaqt uchun miqdorni tavsiflovchi ko'rsatkich.

• Zaxira - ma'lum bir vaqtda, ma'lum bir sanada miqdorni tavsiflovchi ko'rsatkich.

Modellarni qurishda to'rt xil funksional bog'liqliklar qo'llaniladi:

• Definitsion - o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonning mazmuni yoki tuzilishini aks ettiradi.

• Xulq-atvor - iqtisodiy subyektlarning afzalliklarini ko'rsatadi.

• Texnologik - iqtisodiyotdagi texnologik bog'liqlikni tavsiflaydi, ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, ilmiy-texnik taraqqiyot bilan belgilanadigan aloqalarni aks ettiradi.

• Institutsional - institutsional bog'liqliklarni bildiradi; ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlar va iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi davlat institutlari o'tasidagi aloqalarni aniqlash.

Vaqt omili iqtisodiyotda juda katta rol o'yнaydi. Iqtisodiy subyektlar kutishlariga katta ahamiyat beriladi.

Kutishlarni guruhlash

• **ex post** kutish (oldingi kutish) – subyektlar tomonidan o'tmishda to'plangan tajribani baholash.

• **ex ante** kutish - iqtisodiy vaziyatlarning o'tgan davrdagi baholari. Hozirgi vaqtida oldindan kutishning uchta turi mavjud: **statik, adaptiv (moslashuvchan) va ratsional (oqilona) kutishlar**. Birinchisi, asosan, Keyns tushunchalarida, ikkinchisi - monetarizmda, uchinchisi - neoklassik tushunchalarda qo'llaniladi.

Statik kutishlar shuni anglatadiki, kelajakda iqtisodiy subyektlar kon'yunkturaning hozirgi paytda sodir bo'ladigan parametrlarini boshqaradilar.

Adaptiv kutishlarni mashhur "xatolardan o'rganing" degan so'z sifatida talqin qilish mumkin. Ya'ni iqtisodiy subyektlar o'zlarining xatti-harakatlarini o'tmishdagi tajribaga asoslanib quradilar, lekin kutishlarini, birinchidan, o'tmishni o'zlarining noto'g'ri baholari asosida, ikkinchidan, iqtisodiy muhitdagi aniq o'zgarishlarga asoslanib tuzatadilar. Aytish mumkinki, uy xo'jaliklari, qisman firmalar kabi iqtisodiy subyektlarning aksariyati, ya'ni iqtisodiy vaziyat o'zgarishi to'g'risida yetarli darajada aniq ma'lumotga ega bo'lmaganlar adaptiv kutishlarga duchor bo'ladilar.

Ratsional kutishlar iqtisodiy subyektlar o‘zlarining rejalarini shakllantiradi va xatti-harakatlarini hozirgi paytda mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlarni tahlil qilish asosida shakllantiradi, deb taxmin qiladi. Ratsional ravishda ishlaydigan iqtisodiy subyektlar nafaqat o‘tgan tajribaning xatolarini hisobga olishadi, balki kelajakka ham qarashadi. Qaror qabul qilishda ular iqtisodiy boshqaruvi modeli haqidagi o‘z g‘oyalariga tayanadi va iqtisodiy vaziyatga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan kutilayotgan hodisalar to‘g‘risida mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlarga asoslanadi. Bu ularga kutilmagan zARBalar bo‘limgan taqdirda kelajakdag‘i o‘zgarishlarni aniq bashorat qilishlariga imkon beradi. Natijada, subyektlar kelajakdag‘i narxlar darajasi to‘g‘risida o‘zlarining prognozlarini shakllantirgan holda, bozor haqiqiy narxlarni belgilaganidek amalga oshiradilar.

Iqtisodiy modelni yaratish bosqichlari:

1. Avvalo, iqtisodiy modelni yaratishda o‘zgaruvchilar tanlovi mavjud. Ekzogen va endogen o‘zgaruvchilarni ajratish. Ekzogen o‘zgaruvchilar iqtisodiy modelga tashqi tomonidan kiritiladi va birinchi navbatda, modelni o‘zi yaratishni boshlashdan oldin o‘rnataladi. Ammo ikkinchisi, asosan, qurilish jarayonida paydo bo‘ladi.

2. Bundan tashqari, o‘zgaruvchilar tanlanganidan so‘ng iqtisodiy modelni murakkablashtirmaslik uchun har xil taxminlar aniqlanadi. Masalan, ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘ida ishlab chiqarilgan tovarlarning faqat ikki turi, doimiy resurslar miqdori va tashqi iqtisodiy aloqalarning yo‘qligi hisobga olinadi.

3. Keyinchalik, iqtisodiy model tomonidan tasdiqlanishi yoki rad etilishi kerak bo‘lgan gipoteza ilgari suriladi. Iqtisodiyotda bu endogen o‘zgaruvchilarning qanday bog‘liqligini tushuntiruvchi vaziyat.

Keyns iqtisodiyoti - bu AQShdagi Buyuk Depressiyaga iqtisodiy nazariyaning reaksiyasi sifatida paydo bo‘lgan iqtisodiy tendensiya. Asosiy ish 1936-yilda nashr etilgan Jon Maynard Keynsning “Ish bilan ta’minalash, foizlar va pullarning umumiylari nazariyasi” edi, ammo uning nazariyasi ishlab chiqilgan J.M.Keynsning bir qator ilmiy asarlari 1920-yillarning boshlaridan beri nashr etilmoqda. Birinchi Jahon urushi darslari va oqibatlari ta’sirida J.M.Keyns “Tinchlikning iqtisodiy oqibatlari” asosida Germaniyaga katta miqdorda tovon puli undirishning asosiy muammosi sifatida ilgari suradi. Keyns buni fojiali xato deb hisobladi, natijada ushbu mamlakat eksport kengayishining

tiklanishiga va qarama-qarshiliklarning paydo bo'lishiga olib kelishi kerak edi, bu esa J.M.Keyns bashorat qilganidek, yangi jahon urushiga olib keladi.

Robert Skidelskiy, ingliz iqtisodchisi, keynschi, J.M.Keyns nazari-yasi haqida quyidagicha yozadi: Jon Meynard Keyns ingliz iqtisodchisi bo'lganiga qaramay, Shumpeter yozganidek, "birinchi navbatda ingliz tilidagi muammolarni hal qilish uchun inglizcha maslahat, hattoki ushbu maslahatlar boshqa mamlakatlarga murojaat qilgan taqdirda ham" degan taklifni ilgari surgan edi, chunki uning nazariyalari hammaning e'tiborini tortdi, chunki ular aynan shu 1929-33-yillardagi Buyuk Depressiya bilan yakunlangan iqtisodiy qulash vaqtini. Uning ajoyib ishi, "Ish bilan bandlik, foizlar va pullarning umumiy nazariyasi" (1936), umuminsoniy ma'noga ega mavhum tushunchalarda aniq saqlanib qolgan. Bu shuningdek, keyinchalik marksistlar "kapitalizmning umumiy inqirozi" deb nomlagan nazariyani tushuntirishga urinish edi.

Keyns iqtisodiy nazariyasining paydo bo'lishi "Keyns inqilobi" deb nomlanadi. XX asrning 40-yillaridan 70-yillar birinchi yarmigacha J.M.Keyns tushunchasi G'arbnинг eng rivojlangan sanoat mamlakatlarining hukumat va akademik doiralarida ustun mavqega ega edi. 1950-1960-yillarda keynschilikning ko'plab qoidalariga neoklassik maktab vakillari qarshi chiqdilar. Monetarizmning paydo bo'lishi Keynschilikning ustunligini to'xtatdi, ammo monetarizm J.M.Keyns tomonidan ishlab chiqilgan pulni tartibga solish konsepsiyasidan foydalandi. XVFni yaratish g'oyasi bilan aynan Keyns chiqqan edi. Keynschilik doirasida quyidagi yo'naliishlar ajratilgan: neokeynschilik, postkeynschilik va yangi keynschilik.

Keynschilik ta'sirida aksariyat iqtisodchilar inflyatsiya va tanazzuldan saqlanib, uzoq muddatli o'sish uchun iqtisodiy siyosat olib borishning foydaliligi va zarurligiga ishonch hosil qilishdi. Biroq 1970-yillarda AQShda yana inqiroz yuz berdi, unda yuqori ishsizlik va shu bilan birga yuqori inflyatsiya mavjud bo'lib, bu hodisa stagflyatsiya deb nomlandi. Bu iqtisodchilarning Keynschilikka bo'lgan ishonchini susaytirdi. Keyinchalik, keynschilar stagflyatsiya hodisasini o'z modellari doirasida tushuntirishga muvaffaq bo'lishdi.

1920-30-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi va 1929-1933-yillardagi Buyuk Depressiya neoklassiklarning liberal yondashuvining

natijalariini aniq ko'rsatib berdi. Ular, ehtimol, keynschilikning asosiy "aniq tarixiy" sababi bo'lgan. Keyns iqtisodni mustaqil intizom sifatida ajratib qo'ydi, klassiklar va neoklassiklar esa iqtisodiy masalalarни mustaqil ko'rib chiqish obyekti sifatida ajratib ko'rsatmadilar. Keyns iqtisodiy hayotni tahlil qilishda klassik yondashuvdagi kamchiliklarni bartaraf etish variantlarini taklif qildi:

- optimallaشتirish va uslubiy individualizm tamoyillarini iqtisodiy o'zgaruvchilar funksiyalarini olish va iqtisodiy modellarni yaratish uchun majburiy shartlar sifatida rad etdi;
- iqtisodiy nazariyada tub o'zgarishlarni amalga oshirdi, iqtisodiy aloqalarni tubdan yangi tahlil qildi. Natijada bozor iqtisodiyotining iqtisodiy faoliyatiga davlatning faol aralashuvi zarurligini isbotlash mumkin bo'ldi. Bunday aralashuv eng yaxshi iqtisodiy muhit holatiga qarab hukumat ixtiyoriga binoan amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosatni takomillashtiradi.

J.M.Keyns mashhur asosiy psixologik qonunni shakllantirdi, uning mohiyati shundan iboratlki, jismoniy shaxsnинг daromadi uning xarajatlari tarkibida o'sib borishi bilan jamg'arma ulushi ortadi. Keyns ushbu yondashuvni "sog'lom fikr" bilan ta'kidlaydi. Daromadning pasayishi bilan, aksincha, aholi bir xil hayot darajasini saqlab qolish uchun jamg'armalarga mablag' ajratilishini kamaytiradi. Ayrim shaxslarga qaraganda davlat ko'proq ma'lumotga ega ekanligi sababli, Keyns mamlakatni izchil rivojlantirish maqsadida iqtisodiy jarayonlarga hukumatning faol aralashuvini o'z zimmasiga oladi.

Keynschilik 100 yil ichida birinchi marta klassik siyosiy iqtisodni (klassik nazariya) tanqid qildi. J.M.Keyns o'zining "Bandlik, foizlar va pullarning umumiyligi nazariyasi" da konsepsiyanining ushbu bayonotidan boshlanadi:

Men ushbu kitobning "umumiyligi" ta'rifiga e'tibor qaratib, bandlik, foizlar va pullarning umumiyligi nazariyasi deb nomladim. Kitob mening dalillarim va xulosalarimni men tarbiyalagan klassik nazariya va 100 yil oldin bo'lgani kabi bizning hukmron va akademik doiralarimizning amaliy va nazari iqtisodiy fikrlarida hukmronlik qilayotgan dalillar va xulosalar bilan solishtirish uchun shunday nomlangan. Klassik nazariyaning postulatlari umumiyligi uchun emas, balki faqat maxsus holatga taalluqli ekanligiga dalil keltiraman, chunki u ko'rib chiqayotgan iqtisodiy vaziyat faqat mumkin bo'lgan muvozanat

holatlarining cheklovchi holatidir. Bundan tashqari, ushbu maxsus ishning xususiyatlari biz yashayotgan iqtisodiy jamiyatning xususiyatlariga to‘g‘ri kelmaydi va shuning uchun ularning voizliklari nazariyani amaliy hayotga tatbiq etishda adashadi va o‘lik oqibatlarga olib keladi.

Keynschilikning ta’siri shunchalik katta ediki, 1971-yilda AQSH Prezidenti Richard Nikson shunday dedi: “Bugun biz hammamiz keynschimiz”.

Bozor iqtisodiyoti to‘liq bandlikni ta’minlaydigan muvozanat bilan tavsiflanmaydi. Sababi - daromadlarning bir qismini tejashta moyilligi, bu esa yalpi talabning yalpi taklifdan kam bo‘lishiga olib keladi. Jamg‘arishga moyillikni yengib bo‘lmaydi. Shuning uchun davlat iqtisodiyotni yalpi talabga ta’sir qilish yo‘li bilan tartibga solishi kerak: pul massasining ko‘payishi, foiz stavkalarining pasayishi (investitsiya faolligini rag‘batlantirish). Talab yetishmasligi jamoat ishlari va budjet mablag‘lari bilan qoplanadi.

Ushbu sxema bo‘yicha rivojlangan mamlakatlar 25 yil davomida o‘z iqtisodiyotlarini muvaffaqiyatli qurdilar. Faqat 1970-yillarning boshlarida iqtisodiy siyosat muammolari paydo bo‘la boshлади, бу 1973-yilgi neft inqirozi bilan yanada kuchaygan.

Ijtimoiy sohaga: maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va san'at, uy-joy communal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo va umumiyy ovqatlanish, jismoniy tarbiya, sport va boshqa tarmoqlar kiradi.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlari bu, eng avvalo, inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir.

Shunday qilib, biz komil ishonch bilan ayta olamizki, mustaqillik yillari mobaynida biz yangi jamiyat asoslarini yaratishga o'zgarishlar muqarrarligining negizini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik.

Ijtimoiy sohaning asosiy mazmuni – aholi turmush farovonligini oshirish hisoblanadi. Aholining turmush farovonligi darajasi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi bilangina emas, balki ijtimoiy soxani rivojlantirish axvoli, darajasi, asosan budgetli tibbiyotni, uy-joy qurilishini rivojlantirish hamda xizmat ko'rsatishni tashkil qilish nazarda tutilgan qismi bilan ham bog'liq. Binobarin, iqtisodiyotni inson tomonidan beistisno har bir oilaning kundalik zaruriyati va hayotiy ehtiyojlari, aholining individual talablarini tomoniga yo'naltirish ishlarimizning o'zagi bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy siyosat deganda muayyan davlat hokimiyatining ushbu soha bo'yicha o'z oldiga qo'yan vazifalarini va maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot siyosat turi tushuniladi. Bu siyosat bevosita aholining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq siyosat bo'lib unga:

-daromad siyosati;

-ijtimoiy ta'minot va mehnat bozorini shakllantirish;

-aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini yahshilash kabi ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat turlari kiradi.

Ijtimoiy siyosatning obyekti bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasi: maorif, madaniyat va san'at, sog'liqni saqlash uy-joy communal xo'jaligi, savdo, umumiyy ovqatlanish, jismoniy tarbiya-sport, madaniyat va san'at, birjalar va dehqon bozorlari, ijtimoiy himoya va ta'minot, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari, xayriya jamg'armalari va boshqalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki kundayoq ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi bozor iqtiso-

diyotini qurishni maqsad qilib oldi. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi davr taqazosi edi, desak xato bo'lmaydi. Chunki:

- Sobiq ittifoqning qator respublikalaridan farqli o'laroq, O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy sharoiti og'ir, turmush darajasi ko'rsatkichlari past bo'lgan bir vaqtda boshlashiga to'g'ri keldi;

- Respublikada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul daromadlari, o'rtacha ish haqi, eng muhim oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish va oziq-ovqat tovarlari hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi jihatdan oxirgi o'rnlarda edi;

- 1990-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, aholiga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko'rsatish hajmi bo'yicha respublika ko'rsatkichlari Sobiq ittifoq ko'rsatkichlarining 55-60 foizidan oshmas edi;

- Aholining katta qismi, ayniqsa qishloq aholisi jamiyatda rasman e'lon qilingan qashshoqlikda yashardi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1989-yilda jon boshiga hisoblanganda respublikalardagi oilalarning (respublikamizdagi) 44 foizining pul daromadi rasmiy belgilangan eng kam ish xaqidani ham oz bo'lgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat olib borilishi lozim, lekin qanday qilib? Bu yerda eng muhim muammolardan biri masalaning javobini tashkil qiladi, ya'ni eng avvalo, kam ta'minlangan tabaqaga yordam berish haqida davlat samarali siyosatni ishlab chiqishi lozim va bunga bog'liq holda kam ta'minlanganlik va kambag'allik tushunchalarini ta'riflab berish shart deb o'ylaymiz.

Har bir davlatning kam ta'minlanganligini belgilashning, ya'ni hisoblab aniqlashning o'ziga xos uslubi mavjuddir. Masalan, o'rtacha davlat pensiyasi Finlyandyada 65%, Norvegiyada 90%, Buyuk Britaniyada 40%, Yaponiyada 60%, Ispaniyada 85%, Italiyada 75%, Fransiyada 50%, Kanadada 45% va Rossiyada 35% ni tashkil qiladi. Respublikamizda ham aholi muhtojlik darajasiga qarab farqli guruhlarga ajratilgan: juda muhtojlar; muhtojlar; kam mulklilar va kam ta'minlanganlar.

Mamlakatda xizmat ko'rsatish sohalari aholining qandaydir ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq. Xizmatlarning hammasini ikkita yirik guruhg'a bo'lish mumkin:

1) Moddiy xizmatlar;

2) Ijtimoiy va ma'naviy xizmatlar.

Yetkazib berish usuli bo'yicha xizmatlar ikki guruhga bo'linadi:

1) Pulli xizmatlar;

2) Bepul xizmatlar.

Pulli xizmatlarga uy-joy kommunal xo'jalik xizmatlari, aholiga maishiy xizmatlar ko'rsatish tarmoqlari, savdo xizmatlari va hokazolar kiradi.

So'nggi yillarda respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvatlash va rag'batlantirish borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, xizmatlar sohasidagi alohida olingan tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo'nalishlar xizmat ko'rsatish va servis sohasini, shuningdek maishiy xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelmoqda.

Davlatning ijtimoiy siyosati keng ma'noda hukumatning har qanday harakatini o'ziga kiritadi va ularning har birisi u yoki bu ma'noda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi hamda bu davlatning ijtimoiy siyosatiga kiritilishi mumkin, uning ijtimoiy – iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy, ijtimoiy va boshqa tizimlarini aytish mumkin. Lekin davlat faoliyatining bunday keng aniqlanishi uni o'rganishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun biz ijtimoiy sohaga tegishli davlat faoliyatini o'rganamiz.

Davlatning ijtimoiy faoliyatini quyidagi uch turga kiritish mumkin:

1. Ijtimoiy ehsonlarni ishlab chiqish, ularning xususiy ishlab chiqarishini boshqarish va subsidiya qilish;

2. Ijtimoiy ehsonlarni sotib olish va yetkazish;

3. Daromadlarni qayta taqsimlash va transfert to'lovlarini amalga oshirish.

Ijtimoiy soha – bu davlat va jamiyatning ijtimoiy masalalar yechimiga qaratilgan faoliyatining mosligi, boshqacha qilib aytganda, barcha ijtimoiy dasturlarning mosligi. Shuningdek, ijtimoiy ehsonlarni amalga oshiruvchi davlat va jamiyat tashkilotlarining, maktab, o'quv yurtlari, kasalxonalar, teatrlar, mehnat bo'limlari, energiya tarmoqlari, suv, gaz tarmoqlari va boshqalar, ya'ni davlat qo'lidagi ijtimoiy infratuzilma.

Ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi insoniy kapitalni investitsiyalash hisoblanadi, shaxsning ishlab chiqarish va ruhiy salohiyatini qo'llab – quvvatlash va rivojlantirish, ijtimoiy dasturlaridek, u soliq tushumidan moliyalashtirilib, ehson hisoblanmaydi, vaqt o'tishi bilan bepul xizmat iste'molchilar bu xarajatlarni to'ldiradilar.

Bu barcha yo'naliishlar, avvalambor, alohida shaxs va oilalarga pulli va bepul ijtimoiy yordamlarni o'z ichiga oladi, aholining alohida ijtimoiy guruhlarining boshqarilishiga tegib o'tadi.

Xulosha

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy zamonaviy xususiyatlari iqtisodiy globallashuv va o'zaro bog'liqlikning kuchayishidir. Global muammolar o'zaro bog'liqlikning yaqqol ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida u yoki bu muammoni global, ya'ni umumjahon miqyosdagi muammolar ekanligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- uning olamshumul ahamiyat kasb etishi.
- insonlar hayotining barcha sohalariga taalluqliligi.
- muammoni hal etishda ko'pchilik davlatlarning birgalikda harakat qilishligi va h.k.lar.

XXI asr boshidagi global muammolar orasida ekologik, oziq-ovqat, demografik, iqtisodiy, energetik muammolar, moliyaviy va iqtisodiy inqirozlar alohida ajralib turadi.

Global lashuvning bu muammolarini milliy va xalqaro institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro darajada yechish orgali hal qilish mumkin.

Shuningdek, jahoning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar saqlanib qolayotgani, davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida ta'kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o'limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to'siqlar bo'lib qolmoqda. Bu muammolarni hal etishda 2000-yilda bo'lib o'tgan BMTning Mingyillik Sammitida "Mingyillik Deklaratsiyasi"ning qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur muhim tarixiy hujjat XXI asrga mo'ljalangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) sifatida ma'lum bo'lgan sakkizta aniq

maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni qo‘ydi. MRM jahon hamjamiyatining 2015-yilgacha bo‘lgan davr uchun global loyiha bo‘lib, u jahondagi barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Tayanch iboralar:

Jahon iqtisodiyoti, iqtisodiy globallashuv, o‘zaro bog‘liqlik, global muammolar, ekologik muammo, oziq-ovqat muammosi, demografik muammo, iqtisodiy muammolar, energetik muammo, moliyaviy va iqtisodiy inqiroz, xalqaro institutlar, Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi, Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM).

Nazorat uchun savollar:

1. Jahon iqtisodiyotida global muammolarning paydo bo‘lish sabablari nimadan iborat?
2. Global muammo deganda nimani tushunasiz?
3. Global o‘zaro bog‘liqlik nima va u qanday ziddiyatlarga ega?
4. Global ekologik, oziq-ovqat, demografik muammolarni tavsiflab bering.
5. Global energetik muammo va uni hal etish yo‘llarini tushuntiring.
6. Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jahon iqtisodiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
7. Antigloballashuvning asosiy belgilari va maqsadlari nimadan iborat?

6-MAVZU. IQTISODIY TARAQQIYOTDA DAVLATNING ROLI

Reja:

1. Davlatning rejali iqtisodiyotga o‘tish sabablari;
2. Tenglik va demokratiya;
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sotsializm nazariyasi va amaliyoti;
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat siyosatining xususiyatlari.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Vinod Thomas, Namrata Chindarkar. Economic Evaluation of Sustainable Development, 2019. <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6389-4>;
2. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
3. B.Xodihev, Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik–T.: “Barkamol fayz media”, 2017.

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Oecd, United Nations: Economic Commission for Latin America and the Caribbean, Caf Development Bank of Latin America. Latin American Economic Outlook 2019 Development in Transition, Latin American Economic Outlook, 2019;
2. Абдулкасимов Х.П., Сайдахмедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимателкой деятельности. Учебное пособие. –Т.: Ilmiy–texnika axboroti-press nashriyoti, 2016;
3. Jo‘rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko‘rgazmali va tarqatma materiallar. -Т.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi;
3. www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko‘rsatkichlar.

61. Davlatning rejali iqtisodiyotga o‘tish sabablari

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko‘p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog‘liq. Chunki milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga asosan, quyidagi yo‘llar orqali erishiladi:

- 1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo‘llash;
- 2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;
- 3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg‘unlashtirish. Hozirgi davrda O‘zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko‘proq uchinchi yo‘l xususiyatli hisoblanadi.

Ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi quyidagi holatlar orqali izohlanadi.

Birinchidan, davlat milliy iqtisodiyotda o‘zini-o‘zi bozor vositasida tartibga solish orqali bajarish mumkin bo‘lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo‘lmaydigan vazifalarini o‘ziga oladi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste’molning xususiy tavsifi bir qator ijobiylari va salbiy oqibatlarni tug‘diradi.

Uchinchidan, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi shu sababli ro‘y beradiki, individual iste’molchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste’mol qilishning oqibatlarini obyektiv baholay olmaydilar. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste’molni kengaytirish va aksincha, sog‘liqqa salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tovarlar iste’molini cheklash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari uchun yuqori aksiz (egri) solig‘ini o‘rnatib, bir tomonidan o‘zining daromadini oshirsa, boshqa tomonidan shu mahsulotga bo‘lgan talabni cheklaydi.

To‘rtinchidan, davlat bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Bozor hamma uchun to‘lovga qobil talabni qondirishga teng imkoniyatni ta’minlaydi. Ammo bu bozor mexanizmining milliy

boylikni ijtimoiy-adolatli taqsimlashini anglatmaydi. Bunday sharoitda davlat aholi kam ta'minlangan qatlamining tur mush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga oladi.

Beshinchidan, hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi.

XX asrning 80-yillarida rivojlangan mamlakatlarda yangi konservativ konsepsiyalar asosida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni cheklash jarayonlari boshlandi. .

Bunda tartibga solishning an'anaviy shakllaridan voz kechildi, davlat mulkini xususiyashtirish yo'li bilan davlat sektori ulushi qisqartirildi, xo'jalik qarorlarini qabul qilishda nomarkazlashuv jarayonlari kuchaytirildi, iqtisodiyotdag'i bozor mexanizmlarining ahamiyati oshirildi. Jumladan, AQShda bu tadbirlar "Amerikaning yangi rivojlanish yo'li: iqtisodiy jihatdan yangilanish dasturi" nomli yo'nalish asosida amalga oshirilib, unda daromad solig'i stavkalari ning pasaytirilishi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida yirik korporatsiyalar investitsiyalari uchun soliq imtiyozlarini qo'llash, federal hukumat xarajatlarini cheklash, xususiy biznes faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishini kamaytirish, inflyasiyaga qarshi pul-kredit siyosatini o'tkazish ko'zda tutilgan edi.

Biroq olib borilgan tadbirlar kutilgan natijani bermadi. Masalan, AQShda YaIMdagi davlat sarflari ulushi 1980 yilda 22,6% bo'lsa, 1987-yilga kelib 27% ga qadar o'sdi. Davlat qarzları kamayish o'rniga o'sib ketdi, inflyasiyaning pasayishi moliya tizimini izdan chiqishdan saqlab qola olmadi. Aksincha, inflyasiyaning cheklanganligi uchun o'sish sur'atlarining pasayishi, ishsizlikning o'sishi, real ish haqining pasayishi kabi holatlar yuzaga keldi. Bunday jarayonlar Angliya, Yaponiya, Avstriya, Italiya va boshqa mamlakatlarda ham ro'y berdi¹.

90-yillardan boshlab iqtisodiyotni tartibga solishda keysncha tendensiyalar yangidan kuchaya boshladи. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tipi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni ro'yobga chiqarish, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchanligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri

¹ Osnovi ekonomicheskoy teorii. Politekonomiya: Uchebnik / Pod red. D.D.Moskvina. – M.: Editorial URSS, 2003, 392-393-b.

aralashuv shakllari va byurokratik nazoratning kamayishi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv asosi bo‘lib ham milliy iqtisodiyot darajasida, ham xalqaro miqyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi negizida ishlab chiqarishning umumlashuvi jarayoni xizmat qiladi.

Bu jarayon quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- chuqurlashib borayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarish ixtisoslashgan tarmoqlarining o‘zaro aloqasi va o‘zaro bog‘liqligi yanada kuchayadi;

- ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va markazlashuvi natijasida alohida xo‘jalik birliklarining mayda bo‘laklarga ajralib ketish holatlari barham topadi;

- ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to‘planushi jarayoni o‘sadi;

- turli iqtisodiy mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va faoliyat almashuvi jadallahadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda, davlatning jamiyat a’zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta’minlovchi, umumiyl iqtisodiy muvozanatga erishishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo‘yicha faoliyat tushuniladi.

Bozor xo‘jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, iじro etish va nazorat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo‘llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash va uni o‘zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy sikni barqarorlashtirish; milliy xo‘jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo‘ladi. Bozor xo‘jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo‘ladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug‘diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta’minlash;

2) raqobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiyligi tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda davlatning uchta vazifasi alohida ahamiyatga ega:

1) daromad va boylikni qayta taqsimlash;

2) resurslarni qayta taqsimlash;

3) iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya’ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyasiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o’sishni rag‘batlantirish.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

- bevosita ta’sir qilish usullari;

- bilvosita ta’sir qilish usullari;

- tashqi iqtisodiy usullar.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma’muriy vositalardan foydalanadi. Ma’muriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga tayanadi va taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xususiyatidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Tartibga solishning ma’muriy vositalaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solish ko‘zda tutiladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish tanazzulga uchragan davrda iqtisodiyotga bilvosita ta’sir qilish tadbirlari kam samarali bo‘lib, ma’muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko‘rsatish mumkin:

a) iqtisodiyotning ayrim bo‘g‘inlari – transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa sohalarni bevosita boshqarish. Bunda davlat mulk sohibi va tadbirkor sifatida o‘ziga qarashli korxona va tashkilotlar iqtisodiy hayotida faol qatnashadi. Davlat tadbirkorligi, ma’lum doirada amal qilib, ko‘pincha texnologiya sharoiti xususiy kapital uchun qulay bo‘Imagan korxonalar doirasi bilan cheklanadi. Davlat tadbirkorligi bir tomondan, ma’lum sharoitlarda iqtisodiy o‘sish uchun zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan vaqt o‘tishi bilan samarasiz bo‘lib qolishi ham mumkin. Bunday holda ular xususiy tadbirkorlik obyektiga aylantiriladi.

Respublikada «iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning boshqaruvchilik vazifalarini-funksiyalarini qisqartirish uning korxonalar xo‘jalik faoliyatiga, birinchi galda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash»¹ hisoblanadi;

b) narxlar va ish haqini «muzlatib» qo‘yish siyosati. Bu iqtisodiyotga aralashishning antiinflyasion tadbirlari hisoblanib, inflyasiyani yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritishda narxlar va ish haqini oshirish qonun bilan taqiqlandi yoki ma’lum doira bilan cheklanadi. Antiinflyasion tadbirlar orqali inflyasiya darajasining pasayishi investitsiyalarga rag‘bat beradi;

c) ish bilan bandlik xizmati faoliyati (mehnat birjalari)ni tashkil qilish. Davlat bu faoliyatni tashkil qilish bilan ishsizlikni qisqartirish choralarini ko‘radi. Ularni zarur kasblarga qayta tayyorlaydi, ish bilan ta’milanmaganlarga nafaqa beradi, muhtojlarga yordam ko‘rsatadi;

d) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko‘zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish (monopoliyaga qarshi qonunchilik, tadbirkorlik to‘g‘risidagi, bank sohalari, qimmatli qog‘ozlar bozorining faoliyatini tartibga solishni ko‘zda tutuvchi qonunlar).

Shu orqali bozor munosabatlарining rivojlanishi qonun yo‘li bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta’milanadi, monopoliyalarga yo‘l berilmaydi va erkin raqobatga sharoit yaratiladi.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va budjet siyosatida o‘z ifodasini topadi.

¹ Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «Yangi asr avlodи», 2001, 62-bet.

Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- hisob stavkasini tartibga solish;
- moliya-kredit muassasalarining Markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o‘rnatish va o‘zgartirish;
- davlat muassasalarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ularni sotish va to‘lash).

Davlat bu dastaklar yordamida moliya bozorida talab va taklif nisbatini kutilgan yo‘nalishda o‘zgartirishga harakat qiladi. Jumladan, ssudaga beriladigan pul miqdorini o‘zgartirish uchun foiz stavkasi vositasidan foydalanadi. Davlat kreditga bo‘lgan talab va taklifni markaziy bank orqali quyidagi yo‘llar bilan o‘zgartiradi.

Birinchidan, davlat markaziy bank ehtiyojlari orqali banklar mablag‘larining qarzga beriladigan va zaxirada turadigan qismlari ulushini o‘zgartiradi. Natijada qarzga beriladigan pul miqdori o‘zgaradi, ya’ni uning taklifi oshsa, foiz kamayadi, aksincha, u kamaysa, foiz oshadi. Foizning kamayishi kredit olishga intilishni kuchaytiradi va bu investitsiya faolligi orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Ikkinchidan, Markaziy bank boshqa banklarga past foiz stavkasida qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o‘sishiga ta’sir qilishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, davlat Markaziy bank orqali xazina majburiyatlarini tarqatadi, o‘z obligatsiyalarini sotadi yoki qimmatli qog‘ozlarini sotib oladi. Natijada taklif etilgan pul miqdori o‘zgarib, bu foizga ta’sir etadi. Davlatning pulga bo‘lgan talab va taklifini o‘zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi.

Davlat budgeti siyosati uning daromadlar va xarajatlar qismini o‘zgartirishga qaratiladi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun moliyaviy mablag‘larni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Ulardan xo‘jalik subyektlari faoliyatiga va ijtimoiy barqarorlikga ta’sir ko‘rsatishda ham keng foydalaniladi.

Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga hamda soliq turlari va soliq to‘lashda berilgan imtiyozlarga bog‘liq bo‘ladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida budjet xarajatlaridan ham foydalanadi.

Bunga birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalari va kafolatlari hamda xususiy sektordan tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar misol bo‘ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda asosiy kapitalga hisoblanadigan jadallashgan amortizatsiya ajratmalari alohida rol o‘ynaydi. U hozirgi sharoitda jamg‘arish va iqtisodiyotdagি tarkibiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirishning asosiy vositasi hamda iqtisodiy sikli va bandlikka ta’sir ko‘rsatuvchi muhim dastak hisoblanadi.

Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat kapital qo‘yilmalari muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, bozor kon'yunkturasi yomonlashgan, turg‘unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qo‘yilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odatda, o‘sadi. Shu orqali davlat ishlab chiqarishda tanazzul va ishsizlikning o‘sishiga qarshi turishga harakat qiladi.

Davlat kapital qiymatlari iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishlarda ham sezilarli o‘ringa ega bo‘ladi, masalan, davlat xususiy kapitalining oqib kelishi yetarli bo‘Imagan mintaqalar, tarmoqlar yoki faoliyat sohalarida yangi obyektlar qurish va eskilarini qayta qurollantirish orqali iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bulardan tashqari, davlat kapital qo‘yilmalari ilmiytadqiqot ishlarida, kadrlar tayyorlashda, tashqi savdo va chetga kapital chiqarishda ham katta rol o‘ynaydi.

Shuningdek, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bir qator shakllarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin:

- davlat iqtisodiy dasturlarining ishlab chiqilishi;
- ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-tadqiqot konstrukturlik ishlanmalari, ixtirolarni davlat tomonidan rag‘batlantirish hamda iqtisodiyotdagи ijobjiy tarkibiy siljishlarni ta’minalash;
- investitsiya jarayoni va iqtisodiy o‘sishni davlat tomonidan tartibga solish;
- ishchi kuchi bozorga davlat tomonidan ta’sir ko‘rsatish;
- qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan tartibga solish va boshqalar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning oliv shakli davlat iqtisodiy dasturlari hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga

solistning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat.

Iqtisodiy dasturlar o'rta muddatli, favquloddagi va maqsadli bo'lishi mumkin. O'rta muddatli umumiqtisodiy dasturlar odatda, besh yilga tuziladi. Favquloddagi dasturlar tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflysiya sharoitlarida ishlab chiqilib, qisqa muddatli xususiyatga ega bo'ladi. Bunday maqsadli dasturlarning obyekti tarmoqlar, mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo'jalik aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatiladi.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan-texnika yutuqlari eksportini rag'batlanirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to'lovlarini o'zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jaib qilish yoki cheklash bo'yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jaib qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.

6.2. Tenglik va demokratiya

O'tgan 30 yillik mustaqil taraqqiyot davrida iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvi tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflysiyanı prognоз ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani

davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shularni e'tiborga olib, Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalihsida makroiqtisodiy barkarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishning quyidagi vazifalari belgilab olindi:

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda, Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosibligini muvozanatni saqlash, mahalliy budjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;
- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalanigan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;
- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalash-tirish yo'lini davom ettirish, soliq ma'muriyatçiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish;
- bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiyaviy loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish;
- sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek, fond bozorini kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida rivojlantirish;
- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarini kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga

oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;

- sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqr qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- ishlab chiqarishda mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rmini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

- iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

- erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan zonalarning samaradorligini oshirish;

- xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish,

ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

- eksport faoliyatini liberalallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikasiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

- yo'1-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

- tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

- paxta va boshqqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

- fermer xo'jaliklar, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish hamda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihibalarini amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasining tarmoqlarini yanada kengaytirish;

• sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish;

• yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

• global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi halokatining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

• xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minalash, barcha turdagи to‘siq va cheklowlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to‘liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan prinsipni amalga oshirish;

• kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish;

• davlat mulkini xususiylashtirishni kengaytirish va uning tartib-taomillarini yanada soddallashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

• investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirotkini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlash-tirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va o'zini-o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral xom ashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;

- yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarini jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

- subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

- sanoat korxonalarini va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Bundan tashqari, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida nafaqat iqtisodiyot sohasini, balki, shu bilan birgalikda, ijtimoiy sohani ham jadal rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir. Shundan kelib chiqqan holda Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Unda itjtimoiy sohani rivojlantirishning quydagi ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan:

Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

- aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’milangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

- budget muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur’atlaridan yuqori miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;

- yangi ish o‘rnulari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliv o‘quv yurti muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minalash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta’minalash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

- mehnatga layoqatlari aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, gayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish:

- aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta’minalash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo‘g‘inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni

kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada keng amalga oshirish;

- xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

- pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

- farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

- aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

- aholining communal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suviga bo'lgan talab va ehtiyojini ta'minlashni tubdan yaxshilash;

- odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkam-

lash, chiqindini yo‘q qilish bo‘yicha zamonaviy obyektlar bilan ta’mirlash;

- aholiga transport xizmati ko‘rsatishni tubdan yaxshilash, yo‘lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof-muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

- yo‘l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo‘llarini rivojlantirish, xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, aholi punkti ko‘chalarini kapital va joriy ta’mirlash;

- yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash, shuningdek, aholini boshqa yoqilg‘i-energiya resurslari bilan ta’mirlashni yaxshilash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida aholini elektr energiyasi bilan ta’mirlashni yaxshilash;

- teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish:

- uzuksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

- ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash, ularni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish;

- maktabgacha ta’lim muassasalarini tarmog‘ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish

va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

- umumiy o'rta ta'lif sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at mакtablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

- kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarining ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- ta'lif va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lif muassasalarini faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lif muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlanirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:

- jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lif muassasalarini bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalarini, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

Shunday qilib, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida Harakatlar stragegiyasining amalga oshirilishi iqtisodiyotda yangi bozor munosabatlarining taraqqiy etishi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirdorlikni namoyon etish, aholi turmush darajasining oshishiga zamin yaratadi.

6.3. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sotsializm nazariyasi va amaliyoti

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat jamiyat a'zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos aholi tarkibiga ega bo'lgan respublikamizda ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar jarayonida Ushbu masalani hal etish uchun bir qator tadbirdorlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Birinchidan, keng faoliyat turlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirdorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishslash, xalq iste'mol mollarini, mahalliy xom ashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarini faol rivojlantirishni rag'batlantirish.

Ikkinchidan, xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo'yicha xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

Uchinchidan, qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun respublikamizda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda.

To'rtinchidan, ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish. Bunda ishdan bo'shayotgan va ixtisosi bo'lмаган shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o'zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o'rgatishga e'tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o'quv markazlari, biznes mактабларнинг keng tarmog'ini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Beshinchidan, vaqtincha ishga joylashtirish imkonini bo'lмаган mehnatga yaroqli aholini davlat tomonidan ishonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo'lishga qaratiladi.

Ishchi kuchining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda "mehnatga qobiliyatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishga joylashtirishga muxtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish"¹ 2017-2021-yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining muhim yo'nalishi sifatida belgilab olinganligining o'zi ham yurtimizda ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash jarayonida naqadar muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligidan dalolat beradi.

Insonning ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishining asosiy mezoni bo'lib mehnatga bo'lgan qobiliyatni hisoblanadi. Odatda, mehnat qilish qobiliyatiga ega ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16

¹ "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". http://strategy.gov.uz/uz/pages/action_strategy

yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollar kiritiladi. Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa sohalarda band bo‘lgan pensionerlar ham ishlashi mumkin.

Mamlakatda ishchi kuchi resurslari hajmi va sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, yaratilayotgan YaIM hajmining o‘sishi ham shunga mos ravishda bo‘ladi. Masalan, dunyoning aholi soni eng ko‘p bo‘lgan mamlakatlardan Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) va Hindistonni oladigan bo‘lsak, 2014-2016-yillar mobaynida valyutaning xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblaganda YaIM hajmiga ko‘ra XXR dunyoda 1-o‘rinni (2014 yil 18,2 trln.doll., 2015-yil 19,7 trln. doll. va 2016-yil 21,3 trln. doll), Hindiston esa 3-o‘rinni (2015-yil 7,3 trln.doll., 2015-yil 8,1 trln.doll. va 2016-yil 8,7 trln.doll.) egallahsgan.¹ Bundan hulosa shuki, YaIM hajmi mamlakatdagi ishchi kuchi resurlari miqdori va sifatiga bevosita bog‘liqidir.

Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, mamlakatimizda YaIM hajmining oshishida eng asosiy katta boyligimiz bo‘lgan ishchi kuchi resurslari hajmi va ularning iqtisodiyotda band bo‘lishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiyotning aynan o’sha subyektlari haqiqiy yangi qiymat yaratishda ishtirok qiladi va YaIM ko‘payishining bosh omillaridan sanaladi. Oxirgi yillarda respublika va uning hududlarida aholi soni oshishi bilan birga uning tarkibidagi ishchi kuchi resurlari va ularning bandlik darajasi ham yildan-yilga oshib bormoqda.

Respublikamiz va uning barcha hududlarida ishchi kuchi resurslari yildan-yilga oshib borgan. Masalan, 2000-yilda ishchi kuchi resurslari 12,5 mln., iqtisodiy faol aholi 9,02 mln., bandlar esa 8,9 mln. kishini tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2016-yilga kelib mos ravishda 6 mln., 5 mln., 4,4 mln. kishiga ortgan. Buning natijasida o’sha yillarda mamlakatda YaIM hajmi ham shunga mos ravishda ortganligi hammaga ma’lum.

Mamlakatimizda ishchi kuchi bandligi samaradorligini ta‘minlash uchun davlatni bandlik siyosatining quyidagi yo‘nalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

- oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirishni jadallashtirishni ta‘minlash;
- mazkur maqsadlarda mikrokreditlash tizimini rag‘batlantirish;

¹<https://ru.wikipedia.org/wiki>

- yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikroq bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperatsiyani rivojlantirish imkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish;

- mahalliy xom ashyoni puxta qayta ishlashga va tayyor, raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan yengil va oziq-ovqat qayta ishlash sanoatining ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;

- xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, qishloq joylarida qishloq xo‘jaligiga taalluqli bo‘lмаган bandlik sohalarini kengaytirish masalalarini hal etishga e’tiborni kuchaytirish;

- ishsizlarni kasbiy o‘qitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan xizmatlar ishini faollashtirish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi xalqimizning farovon turmushini ta’minalash manbai bo‘lgan ish bilan bandlik darajasining yanada oshishiga, aholining ijtimoiy muhofazasining kuchayishiga yanada keng yo‘l ochib beradi.

Mamlakatimizda aholini ish bilan bandligini oshirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada «Aholinaing ish bilan bandligini oshirish» davlat dasturi, «Bandlik xizmati to‘g‘risida»gi qonun va shu kabi huquqiy me’yoriy xujatlarni ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda aholining ish bilan bandligini oshirish hamda ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha davlat siyosati quyidagi chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi:

- tarkibiy qayta qurishni rag‘batlantirish hamda iqtisodiyotni tubdan isloh qilish;

- ishchi kuchiga talabni shakllantirish va rag‘batlantirish;

- ishchi kuchi taklifini qisqartirish;

- bandlik xizmatini shakllantirish va rivojlantirish;

- ishchi kuchi bozorini rivojlantirish va tartibga solish;

- aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish va hokazo.

Qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida davlatning roli muhimdir. Qaysiki, qishloq joylarda mavjud bo‘lgan mulkdorlar, ya’ni ish beruvchilar guruhini shakllantirishda ularga yuridik va iqtisodiy maslahatlar berishga qodir bo‘lgan davlat tomonidan tashkil qilingan konsalting firmalarning roli beqiyosdir. Ikkinchi tomonidan esa, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy tomonidan

qo‘llab-quvvatlovchi tijorat banklari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda tadbirkorlik faoliyati mahalliy va davlat boshqaruv organlarining aralashuvini qisman cheklash ko‘zda tutiladi.

Jiddiy muammolar yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat doimiy ravishda fuqarolarni ish bilan ta’minlash siyosatini o‘tkazadi.

Birinchidan: ishsizlikning friksion va tarkibiy turlari o‘sganda;

- gayta kasb o‘rgatadi hamda ta’lim berish tizimini kengaytiradi;

- bo‘sish joylari haqidagi axborotlarni keng tarqatadi;

- mehnat birjalariga investitsiyalarni kiritadi.

Ikkinchidan, agar ishsizlik davriy xususiyat kasb etsa, davlat budget, fiskal, kredit pul vositalarini ishga soladi, ya’ni:

- ish bilan ta’minlashni kuchaytirish uchun ishlab chiqarishga ko‘proq mablag‘ sarflaydi;

- tadbirkorlarning manfaatdorligini oshirish uchun ssuda hamda kreditlarning foiz stavkalarini pasaytiradi;

- ishlab chiqaruvchi va iste’molchilarga solinadigan soliqlarni kamaytiradi.

Uchinchidan, davlat ishchi kuchi bozorini tashkil etish va tartibga solishda:

- aholi soni, yosh va jinsining salmog‘idagi o‘zgarishlariga;

- ish bilan bandlikdagi tarmoq va hudud o‘zgarishlariga;

- qo’shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mezonlariga;

- ishlab chiqarish xajmiga, uning o‘sish sur’atiga, ishlab chiqarish tarkibiga;

- ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi kabi omillarga alohida e’tibor beradi.

Ihsizlik muammosini hal qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan birga sanoatni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq joylarda chet el investitsiyasiga asoslangan ishlab chiqarishni olib kirish qishloqda mavjud bo‘lgan ishchi kuchi potensialiga va xomashyodan unumli foydalanish, aholi turmush darajasining yaxshilanishi pirovardida qishloq va shahar o‘rtasidagi farqning kamayishi bilan ajralib turadi.

Bunday chora-tadbirlar ishsizlik muammosini hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada kuchaytirish imkonini

yaratadi. Bu esa kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda yangi ish joylarini yaratish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog'liq zarur ijtimoiy vazifani bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda mamlakatda aholini ish bilan ta'minlashning yangi usuli yo'lga qo'yila boshlandi. Bu ham bo'lsa, mamlakat ichkarisida mavjud bo'lgan ortiqcha ishchi kuchlarini chetga eksport qilishdir. Bu jahon tajribasida sinalgan usul bo'lib, misol uchun Turkiyada yiliga 25-30 ming ishchi Yevropa mamlakatlarida ishlab valyuta olib keladi. Mamlakatda mavjud ortiqcha ishchi kuchini chet elda ishlab kelishi uchun sharoit yaratib beris hva uni keng miqyosida yo'lga qo'yish yurtimiz rivojiga katta hissa qo'shadi. Qaysiki, ular mamlakatimizga valyuta olib kirish bilan birga chet el texnologiyalarini o'rghanib, zamon talablari darajasidagi yetuk, malakali mutaxassis bo'lib qaytadilar. Bundan tashqari, ular o'z jamg'armalarini ishlab chiqarishga joriy qiladilar va bu yangi ish o'rnlarining ochilishini ta'minlaydi. Natijada ishsizlar sonining ma'lum darajada kamayishiga o'z hissalarini qo'shadilar.

Mamlakatlarni guruhlarga ajratishda turli mezonlardan foydalanildi. Birinchi mezon sifatida hududiy yondoshuvga murojaat qilish mumkin. Masalan, mamlakatlarni qit'alar bo'yicha guruhash, o'z navbatida, bu qit'alarni madaniy-tarixiy hududlarga bo'lish mumkin. Misol uchun Yevropani G'arbiy, Markaziy va sharqiy Yevropaga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmiga ko'ra mamlakatlar eng kam rivojlangan, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarga guruhanadi. BMT iqtisodiy tahlil maqsadlarida mamlakatlarni quyidagilarga ajratadi: rivojlangan mamlakatlar, o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar. Bu guruhlarga kiruvchi mamlakatlarni ham turli tamoyillarga ko'ra yana kichik guruhlarga bo'lish mumkin. Masalan, rivojlangan mamlakatlarning ichida eng taraqqiy etgan yetti mamlakat: AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Kanadani ajratib ko'rsatish mumkin. O'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarni ham sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik mamlakatlar va sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan respublikalarni alohida guruhga kiritma olamiz.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni hududiy, iqtisodiyotining rivojlanishi, tashqi qarzining miqdori darajasi jihatidan ham guruhlarga ajratishimiz mumkin. Masalan, sof kreditor, sof qarzdor mamlakatlar yoki energiya resurslarini eksport qiluvchi yoki bu resurslarni import qiluvchi mamlakatlar va hokazo. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda mamlakatlarning quyidagi elementar tipologiyasini keltirishimiz mumkin.

- 1) Katta yettilik davlatlari.
- 2) Boshqa rivojlangan mamlakatlar.
- 3) Yangi industrial mamlakatlar.
- 4) Markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlari.
- 5) Sobiq SSSR respublikalari.
- 6) Xitoy.
- 7) Hindiston va Pokiston.
- 8) Nisbatan tezroq rivojlanayotgan mamlakatlar.
- 9) Klassik rivojlanayotgan mamlakatlar.
- 10) Eng kam rivojlangan mamlakatlar.

Daromad darajasiga ko‘ra mamlakatlarni kam daromadli (60 ta), o‘rtadan past daromadli (59 ta), o‘rtadan yuqori daromadli (37 ta) va yuqori daromadli (53 ta) mamlakatlarga ajratish mumkin.

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, bunday guruhga kiruvchi davlatlar asosan, Yevropa qit’asi va shimoliy Amerika materigidagi joylashgandir.

Ma’lumki, rivojlangan “katta yettilik” davlatlar (hozirgi kunda Ushbu davlatlar guruhiba Rossiya Federatsiyasining qo’shilishi bilan “katta sakkizlik” davlatlar degan so‘zlar ham jahon iqtisodiyotida ishlatilmogda) iqtisodiyotining rivojlanishi asosan, tabiiy resurslardan qanday foydalanishlik darajasiga va shuningdek, uzoq yillarga mo‘ljallangan zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdagi o‘zgarishlarga bog‘liqidir. Shuning uchun ham bu mamlakatlar iqtisodiyotida tabiiy resurslardan tejamli foydalilaniladi, ishlab chiqarishda esa energetika quvvati pasayishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Masalan, AQSH ishlab chiqarishida asosan, kam xarajat qilish evaziga yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulot 1900-1990-yillar davomida 8-9 baravarga, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 4-5 baravarga ortgan edi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi qanchalik yuqori bo‘imasin, narx-navoning ko‘tarilishi ushbu davlatlarda yuqoriligidcha qolmoqda. Bu holat, albatta, xizmat ko‘rsatish sohalari va shuningdek, ilmiy-texnikaviy inqilobga asoslangan yangi tarmoqli sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan bog‘liqidir.

Jahon xo‘jaligining rivojlanishida rivojlangan mamlakatlarning qay darajada sanoat energetikasi bilan ta’milanganligi ham muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlar o‘zлari ishlab chiqarayotgan sanoat energetikasi mahsulotlaridan tejamkorlik bilan samarali foydalanib kelmoqdalar. Masalan, 1970-1990-yillar davomida AQSH sanoat energetikasi iste’molini 40% ga, Yaponiya va Fransiya davlatlari esa, 30% ga qisqartirish imkoniyatiga ega bo‘lishgan edi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarining barchasida qayta ishslash sohalari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular asosan, tejamkorlik bilan samarali foydalanishning ijtimoiy dasturlari asosida amalga oshirilmoqda. Masalan, 90-yillar boshida AQSHda qalayning 72-73% xomashyoga bo‘lgan talabi, misning 60% i, po‘latning 50% i, oltinning 47% i, ruxning 43% i qayta ishslash sanoat korxonalari hisobiga qondirilgan edi. Xullas, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishida qimmatbaho nodir metallar o‘rnini bosuvchi mahsulotlarning kengroq ishlatilishi muhim rol o‘ynamoqda.

Jahon xo‘jaligi rivojlanishida yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSH, GFR, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya) iqtisodiyoti muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu mamlakatlar ulushiga rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarning 79-80%i va dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarning 59-60%i, tovarlar eksportining 60-61%i va xizmat ko‘rsatish sohalarning 49-50%i to‘g‘ri kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar guruhi hozirgi kunda o‘z tarkibida jahonning 30 dan ortiq davlatini birlashtirgan bo‘lib, bu davlatlar dunyo mamlakatlari xo‘jaligida tutgan o‘rniga ko‘ra bir necha klassifikatsiyaga bo‘lib o‘rganiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi bo‘yicha rivojlangan katta “yettilik” davlatlar guruhi (Ushbu davlatlar guruhiga Rossiya Federasiyasining qo‘shilishi bilan “katta sakkizlik” davlatlar guruhi degan

so‘zlar ham ishlatilmoqda). Ushbu guruhgaga AQSH, Yaponiya, GFR, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada kabi davlatlarni kiritish mumkin.

2. Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhgaga GFR, Belgiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Finlandiya, Avstriya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

3. Yevropa erkin Savdo assotsiatsiyasiga (EAST) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhgaga Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvetsariya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

4. Benilyuks guruhgiga kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhgaga Belgiya, Niderlandlar va Lyuksemburg kabi davlatlar kiradi.

5. Shimoliy Amerika erkin savdo shartnomasiga (NAFTA) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhgaga AQSH, Kanada, Meksika kiradi.

90-yillar boshida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning (YaIM) to‘g‘ri kelishi bo‘yicha jahonning rivojlangan mamlakatlari quyidagicha tavsiflangan edi: Yaponiya dunyoda ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha uchinchi o‘rinda turgan bo‘lsa, Kanada 11, Norvegiya 6, Shvetsariya 1, Shvetsiya 5, AQSH 10, Avstriya 20, Fransiya 13, Niderlandiya 17, Buyuk Britaniya 21, Islandiya 9, GFR 8-o‘rinda turgan. Xullas, jahon xo‘jaligida rivojlangan mamlakatlar o‘z rivojlanish sohalari bo‘yicha katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, jahon mamlakatlarining rivojlanishida asosan, generatorlik rolini o‘ynab kelmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlari tizimini rivojlanishining ahamiyatli tomonlaridan biri, sobiq mustamlaka va qaram territoriyalarning roli va ahamiyatini iqtisodiy jihatdan kuchayib borayotganligidir. Ushbu mamlakatlar hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ozod etilgan mamlakatlar, “uchinchi dunyo mamlakatlari”, “janub” mamlakatlari yoki “periferiya” mamlakatlari sifatida tilga olinadi.

Bu mamlakatlar iqtisodiyoti turli-tumandir, ularning hududida 3,2 mlrd atrofida aholi yashaydi. Ushbu mamlakatlarda hozirgi kunda juda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar kechmoqda.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ozodlikka erishgan mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi XX asrning 60-yillaridan boshlab tobora o‘sib boruvchi xarakter kasb etmoqda. Ularning eng ilg‘orlari 1950-yilga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlarning “o‘rtachalaridan” (54 mamlakat) 2,4 marta, yuksaklikka erishdi. 50 – yillarning o‘rtalaridan boshlab, yuqorida zikr etilgan malakatlar o‘rtasidagi rivojlanish darajisidagi farq sezilarli darajada ortib bordi. 90 – yillarga kelib rivojlanayottgan mamlakatlarning birinchi guruhi guruhiga kiruvchi (19 ta mamlakat) malakatlardagi aholi jon boshiga “to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha foyda”, o‘rtachalariga nisbatan 2,9 barobar, quyi guruhlarinikiga nisbatan esa 12,2 barobar yuqori bo‘ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aynan shu guruhlarining tarkibida ham, rivojlanish darajalari o‘rtasidagi bog‘liqda ham o‘zgarishlar vujudga keldi. Jahon iqtisodiyotida Ushbu jarayonlar natijasida tabaqalashuv ham ikkita asosiy mintaqada ro‘y bergen edi. Mintaqaning bir tomonida ozodlikka erishgan mamlakatlarning ko‘proq rivojlanganlari, jumladan, fors ko‘rfazidagi bir qator mamlaktlar – Qatar, Quvayt, BAA, shuningdek, Osiyo – Tinch okeani mintaqasi va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar joylashgan bo‘lsa, mintaqaning ikkinchi tomonida esa mutlaqo turg‘unlik holatidagi iqtisodiy kambag‘al mamlakatlar joylashgandir. Bu kategoriyaga 48 ta mamlakat taalluqlidir. Bularga bir qator Afrika mamlakatlarini, jumladan Mozambik (YaIM yiliga kishi boshiga 80 dollar), Efiopiya (100 dollar), Sera Leone (140 dollar), Burundi (180 dollar), Uganda (190 dollar), Chad va Ruanda (200 dollar) kabi davlatlarni kiritish mumkin. Bu guruhga taalluqli mamlakatlardan tashqari, guruh ruyxatining yanada quyi qismida joylashgan bir qator Osiyo mamlakatlarini – Nepal (160 dollar), Butan va Vietnam (170 dollar), Myanma va boshqa davlatlarni ham ko‘rsatish mumkin.

Ushbu mintaqalar orasida rivojlanayotgan mamlakatlarning qolgan qismlari joylashgandir. Bu ham o‘z navbatida, bir xil tipda bo‘lмаган гурӯҳdir. Uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlar ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlanadi. Bu mamlakatlardan eng rivojlanganlari hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan “yangi industrial davlatlar” iqtisodiyotiga yaqinlashib bormoqda. Jumladan, Lotin Amerikasi va Shimoliy Amerika o‘rtasidagi farq

sezilarli ravishda qisqarmoqda. Shimoliy Amerikaning yalpi milliy mahsuloti Lotin Amerikasining yalpi milliy mahsulotidan 4 marta ko‘proqni tashkil etadi (50 yil oldin bu nisbat 10:1 ni tashkil etgan).

Ushbu iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarga qaramasdan rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ham alohida ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘lib, bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining ko‘p ukladli xarakterga egaligi.

- ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi past darajada ekanligi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infrostrukturaning qoloq ekanligi (birinchi guruh, “Yuqori qutb” mamlakatlarini hisobga olmaganda).

- Ularning iqtisodiy rivojlanishi jahon xo‘jaligi tizimiga qaram holatda ekanligi, kapitalizmni periferik xarakter kasb etishi va boshqalar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ko‘p ukladli ijtimoiy-iqtisodiy tarkibga asoslanadi. Bir qator mamlakatlarda kapitalistik uklad bilan bir qatorda hamon urug‘-aymoqchilik va patriarxal munosabatlar ham mavjuddir. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va davlat xo‘jalik ukladi muhim rol o‘ynaydi. Davlat sektorini rivojlantirish bosqichi kapitalistik ishbilarmonlikni kengaytirish siyosati bilan hamohang olib boriladi. Buning natijasida esa davlat kapitalizmi paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Milliy xususiy kapitalistik xo‘jalik ukladning rivojlanishi va shakllanishi jamg‘arish muammolari (ya’ni pul resurslarining yetishmovchiligi) va jamg‘arilgan mablag‘larning sarflanishi xususiyatlariga bog‘liqdir. Bu mablag‘lar asosan, savdoga (ichki va tashqi), ko‘chmas mulklarni sotib olishga, mashinalarni ta’mirlashga, sug‘urtaga, benzin quyish shaxobchalariga, taksiga, ya’ni sarmoyalarni aylanishi tez bo‘lgan sohalarga yo‘naltiriladi.

Jahon iqtisodiyotida ozodlikka erishgan rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligidagi paydo bo‘lgan va rivojlanib borayotgan kapitalizm periferik xarakterga ega. Bu shuni anglatadiki, u sanoati rivojlangan mamlakatlar kapitalizmidan nafaqat rivojlanish darajasi bo‘yicha, balki eng muhimi, ishlab chiqarish usullarning modeli va moddiy ne’matlar taqsimoti bo‘yicha ham tubdan farq kiladi.

Kapitalizm markazlari, jamg‘arishning organik va o‘zaro aloqador doimiy o‘sish jarayonida bo‘lgan milliy zaminda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Moslashuvchanlik (imitatsiya) aholining boy qatlamlarining o‘zлari uchun zaruriy bo‘lgan barcha narsalarni qo‘lga kirta oladigan maxsus bozorlarning tashkil topishidan boshlandi. Bunday vaziyatda aholining asosiy qismi kambag‘allikka mahkum etilib, ularni bozorlarda erkin muomalada bo‘lish imkoniyatidan mahrum etadi.

Transmilliy korporatsiyalar tomonidan joriy qilingan yangi texnik-tekhnologiyalar odatda hozirgi kunga mos keladi, ammo ularning bozor narxlari juda yuqori bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Jahon iqtisodiyotida ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘xshashlik tomonlari, ya’ni ularning qashshoqligi, aholisining qoloqligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, sanoati rivojlangan mamlakatlardan katta miqdorda qarzdorligi bo‘lib hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi o‘zining to‘laqonli ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi va aholisining yashash turmush tarzi darjasasi bo‘yicha G‘arbiy Yevropani sanoatlashgan ilg‘or mamlakatlaridan qariyb 20-50 marotaba orqada qolmoqda.

6.4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat siyosatining xususiyatlari

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda “Yangi industrial mamlakatlar” (“YaIM”) rivojlanayotgan davlatlarning ko‘pchiligidan iqtisodiy parametrlarining barcha sistemalari bo‘yicha ajralib turadi.

“YaIM” ning rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularni rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ham ajratib turishidir. Ya’ni ularning rivojlanishi “Yangi industrial” rivojlanish modeli sifatida mavjudligidir. Bunday xarakterli tomonlar, Lotin Amerikasidagi va shuningdek, Osiyodagi “YaIM”ning rivojlanish tajribasini chuqur tahlil qilish jarayonida ko‘zga tashlangan edi.

Lotin Amerikasidagi “YaIM”larning rivojlanish tajribasi va shuningdek, Osiyodagi “YaIM”larning ko‘pchiligi ozodlikka erishgan jahoning rivojlanayotgan mamlakatlari uchun xalq xo‘jaligining ichki rivojlanish dinamikasi bo‘yicha ham, tashqi iqtisodiy

munosabatlarining ekspansiyasi bo'yicha ham, rivojlanishning o'ziga xos namunasi bo'lib qolmoqda. Odatda, rivojlanayotgan "Yangi industrial mamlakatlar" qatoriga Osiyodagi Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur, Malayziya shu bilan bir qatorda Lotin Amerikasidagi "YaIM"lar – Argentina, Braziliya, Meksika kabi mamlakatlar taalluqlidir. Yuqorida sanab o'tilgan barcha mamlakatlar "YaIM"larning birinchi avlodlari yoki birinchi qaldirg'ochlari hisoblanadi. Ularning orqasida "YAIM"ning so'nggi avlodlari (Filippin va Xitoyning janubiy chegaralari va boshqalar) yetishib chiqmoqda..

BMT tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha "YAIM"lar qatoriga kiruvchi davlatlar u yoki bu kriteriyalar bo'yicha alohida ajralib turadi. Ular quyidagilardan iboratdir:

- Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotning miqdori bo'yicha.
- Yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari bo'yicha.
- Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi qayta ishlash sanoatining umumiy miqdori bo'yicha (20% atrofida bo'lishi kerak).
- Chiqariladigan tovarlarning umumiy miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport miqdori bo'yicha.
- Xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to'g'ridan–to'g'ri investitsiyalarning umumiy miqdori va h.k.lar

"YaIM"lar ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlardan ajralib turadi, balki ayrim hollarda bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlardan ham ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka egadir. Masalan, Tayvan, 1952-1995-yillarda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 170 marotaba o'stirgan edi (aholining o'sishiga nisbatan 2,5 marotaba ortiqroqdir). Tashqi savdo hajmini esa 544 marotabaga oshirdi. Mamlakatning inflyasiya darajasi o'rtacha 3,6%ni, iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'ati 8,7%ni tashkil etgan edi. Tayvan iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga kiritilgan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad taxminan 12 ming dollarni tashkil qilgan edi.

Shunday qilib, 1960-1990-yillarda Osiyo mintaqasidagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'ati hisoblab ko'rilmaga uning miqdori yiliga 5%ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (bu

ko'rsatkich Yevropa mamlakatlarida 2%ga teng bo'lgan). Ana shu yillarda Tayvanda yillik o'sish sur'ati juda yuqori bo'lib 8,7%ni tashkil etgan. 90- yillarda J.anubiy Koreya va Singapurda yillik o'sish sur'atlari 8%ni, Malayziyada esa 9%ni tashkil etgan.

Jahon iqtisodiyotida "Yangi industrial mamlakatlar"ning iqtisodiy rivojlanish sur'atining yuqoriligi aholining yashash turmush tarzini, yaxshilab borayotganligi bilan uyg'unlashib bormoqda. 1960-1990-yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad rivojlanayotgan "YaIM"da 4 marotaba o'sgan edi. Xullas, xalqaro ekspertlarning bashorat qilishicha, 2015-yilga borib Sharqiy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari G'arbiy Yevropaning yalpi milliy mahsulotining hajmi bo'yicha quvib o'tishi, 2020-yillarga borib esa Shimoliy Amerikadan ham o'zib ketishi bashorat qilinmoqda.

Osiyo – Tinch okeani mintaqasining "YaID"laridan biri Singapur haqida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, u 1995-yilda mintaqavi davlatlari ichida birinchi bo'lib "industrial rivojlangan mamlakat" statusini qo'lga kiritdi. Bunday unvon unga Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT) tomonidan rasman e'lon qilindi. Barqaror iqtisodiy o'sishning 5-10 yilligi davomida o'ziga nisbatan past rivojlangan 10 mamlakat doirasidan ajralib chiqib, dunyoning boy davlatlari qatoridan joy oldi. (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hisobiga). Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakatning sanoatida yillik o'sish sur'ati o'rtacha 8,4%ni tashkil etdi. Mamlakat aholisining yashash turmush tarzi esa o'rtacha yetti marotabaga ortdi.

"YaIM"ning iqtisodiy rivojlanish modeli va uning muvaffaqiyatli taraqqiy etish tomonlari qarab chiqilganda, uning tashqi va ichki omillari xususida ham to'xtalib o'tiladi. Ko'rinish turibdiki, omillarning bu ikki guruhlari, "YaIM"larning hukumat rahbarlari tomonidan olib borilayotgan noziq maqsadli siyosatlar orqali to'ldirib turiladi. "YaIM"larning ichki tuzilishidagi muammolarga hamda ularning xo'jalik mexanizmlariga asosiy e'tiborni qaratmasdan turib, "YaIM"tashqi iqtisodiy omillarining o'ziga xos tomonlarini ochib bera olmaymiz. Endi biz Lotin Amerikasining "YaIM"ning rivojlanishi xususida to'xtalib o'tamiz.

Jahon tajribasi guvohlik bermoqdaki, jahonning u yoki bu mamlakatlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol kirishayotganda asosiy ishni xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda tashqi savdoning

o'sishiga xos hisoblanadigan shart-sharoitlarni yaratishdan boshlaydi. Shunday ekan, bu mamlakatlar o'z iqtisodiy rivojlanishlari doirasida texnologik ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlaridan keng foydalanigan holda tarkibiy qayta qurilishlarga, ishlab chiqarishda tayyor xomashyolardan texnologik sig'imi yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'ta boshlaydi. Juhon iqtisodiyotida tarmoqlarni rivojlantirish va qayta ta'mirlash uchun eksportdan tushgan daromadlardan keng foydalanish, xalqaro mehnat taqsimoti ko'lamida ancha istiqbolli va "foydali" usul hisoblanadi.

Juhon iqtisodiyotida AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlar xuddi mana shu yo'llar orqali taraqqiy etgan edi. AQSH o'z iqtisodiy faoliyatining dastlabki yillarida asosan xomashyo, mevalar, paxta, asal, ko'mir va shunga o'xshash bir qator sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilishdan boshlagan bo'lsa, GFR 50-yillarda ko'mir, qora metallurgiya, kimyoviy sanoat mahsulotlarni ekport qilishdan, Yaponiya esa to'qimachilik, metallurgiya, kimyoviy sanoat mahsulotlarni eksport qilishdan boshlagan edi.

60-yillarda Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi bir qator mamlakatlar, ya'ni "YaIM"lar ham xuddi ana shu yo'llar orqali rivojlanish bosqichiga qadam qo'ygan edi.

Ushbu davlatlarning barchasi iqtisodiy o'sishning tashqi omillaridan samarali foydalandilar. Shu o'rinda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalar- texnika va texnologiyalarni keng miqyosda jalb kilinganligini ta'kidlab o'tish lozimdir. Xullas, jahon iqtisodiyotida shunday savol tug'ilди: qaysi sabablarga ko'ra "yangi industrial mamlakatlar"ni rivojlanayotgan dunyodagi boshqa mamlakatlardan ajratib o'rganish mumkin?

Ma'lumki, bir qator sabablarga ko'ra, "yangi industrial mamlakatlar"ning ba'zi birlari sanoati rivojlangan mamlakatning muhim siyosiy va iqtisodiy manfaatlari ta'sir doirasiga tushib qolganligini ko'rishimiz mumkin. AQSHning siyosiy manfaatlari asosan Sharqiy Osiyo mamlakatlarining "kommunistik ta'siriga" qarshi turuvchi Tayvan va Janubiy Koreyaning siyosiy manfaatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Shuning uchun ham ushbu mamlakatlarga cheksiz iqtisodiy yordam uyuştirilib harbiy jihatdan ko'llab-quvatlandi. (Masalan, Tayvanga 1,5 mlrd.AQSH dollarini

miqdorida yordam ko'rsatilgan edi). 1950-1960-yillarda AQSHning yordami, Tayvanda jalgan jami investitsiyalarning 34%ni tashkil etgan bo'lib, uning 74%ni infrastrukturaga, 59%ni qishloq xo'jaligiga va 13%ni esa sanoatga jalgan edi. Xullas, bularning barchasi Tayvan iqtisodiyotining rivojlanishida tashlangan ijobjiy qadam bo'ldi.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda "YaIM"larni zamonaviy iqtisodiy tarkibining shakllanishida, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning ta'siri katta bo'ldi. 80-yillarning birinchi yarmida "YaIM"larning iqtisodiyotidagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning miqdori, rivojlanayotgan mamlakatlardagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan sarmoya qo'yilmalarining 42%ga yetgan edi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AQSH "yangi industrial mamlakatlar"dagi ishbilarmonlik sarmoyalarining eng ko'zga ko'ringan investorini bo'lib hisoblanadi. Ulardagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sishi, xorijiy mamlakatlardagi xuddi shunday investitsiyalar umumiy miqdorining 10%ni tashkil etadi. Yaponiya hozirgi kunda "YaIM"dagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan miqdori bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi.

Yaponiya investitsiyalari, "YaIM"ning industriallashuviga va ularning eksport tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratib, "YaIM"lar sanoatida qayta ishlanadigan mahsulotlarning yirik eksportyorlaridan biriga aylanishida muhim rol o'ynamoqda. Yaponiya investitsiyalarining kirib kelishi bирgina 1982-1985-yillarning o'zida Tayvanda 2,1 martaga, Gonkongda esa 61%ga o'sgan edi.

Yaponiya sarmoyalarining ishtirokida, ushu mamlakatlar yuqori sifatli tayyor mahsulotlarning ekportyorlari bo'lib qolishiga imkon beruvchi yirik ishlab chiqarish bazasi tashkil etildi. 80-yillarning boshidan, Yaponiya investitsiyalari umumiy miqdorining yarmisidan ko'prog'ini tashkil etgan edi. Xullas, Yapon investorlari ishtirokida "YaIM"larda zamonaviy stanoklar, elektronika jihozlari, dengiz kemalari va boshqalarni ishlab chiqarish bo'yicha komplekslar barpo etilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida Osiyoning "YaIM"lari uchun shu narsa xarakterli bo'ldiki, ulardagi tadbirkorlik sarmoyalari, birinchi galda qayta ishslash sanoati va xom ashyo tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi. O'z navbatida, Lotin Amerikasining "YaIM" laridagi

ishbilarmonlik sarmoyalari esa, ko'proq savdo, xizmat ko'rsatish sohalari va qayta ishlash sanoat tarmoqlariga jalb etilgan edi. Xullas, jahon iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalarning keng miqyosda tarqalishi shu narsaga olib keldiki, "YaIM"larda xorijiy sarmoyalalar ishtirok etmagan birorta ham iqtisodiy tarmoq qolmagan edi. 1998-yilda Lotin Amerikasi va Osiyoning "YaIM"larining bozorlaridagi qo'yilmalaringin daromadliligi (%hisobida) quyidagicha xarakterda bo'lgan edi. Argentinada 58%, Braziliyada 83,5% ni, Meksikada 40% ni, Chilida 39% ni, Indoneziyada 79%ni, Janubiy Koreyada 26,1% ni, Tayvanda 104% ni, Tailandda 121,3% ni, Filippinda 165,2% ni tashkil etgan edi.

Ushbu statistik manbalardan ko'rinish turibdiki, Osiyoning "YaIM"laridagi investitsiyalarning daromadlilik darajasi Lotin Amerikasi mamlakatlarinikidan sezilarli darajada yuqoriq bo'lgan. Qonuniy shunday savol tug'iladi, xo'sh, nima uchun xorijiy mamlakatlarning xususiy sarmoyalalarining barchasi Osiyo mintaqasidagi ba'zi bir mamlakatlarga nisbatan faolroq kirib boradi?

Ma'lumki, 60-yillarning oxirida jahon xo'jaligining rivojlanishidagi vaziyat shu qadar murakkablashgan ediki, natijada transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish manfaatlari va strategiyalari Osiyodagi bir qator davlatlarning imkoniyatlari va intilishlari bilan moslashib borgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlar importidagi turli xildagi cheklashlar va ularning uncha katta bo'limgan to'lov qobiliyatiga duch kelayotgan transmilliy korporatsiyalar, joylarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida, sarmoyalarni chetga chiqarish orqali tovarlar eksportini qisman yangilash tomon qadam qo'ya boshladi. Transmilliy korporatsiyalarning xuddi ana shu yo'nalishlardagi faoliyati, rivojlangan mamlakatlarning to'yingan bozorlarining konyukturasi, raqobatning avj olishi va ishlab chiqarish xaratjatlarini pasaytirish uchun kurashish orqali amalga oshirilmoqda. Transmilliy korporatsiyalar, o'zları faoliyat ko'rsatayotgan joylarda ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirishga e'tiborni qaratadi. Xarakterli tomoni shundaki, jahon iqtisodiyotida "Osiyo ajdarhosи" deb nom olgan xalqaro iqtisodiy konyukturalarining bunday o'zgarishlarni qabul qilishga va ulardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga tayyor ekanligi ma'lum bo'ldi. Transmilliy korporatsiyalarni, aynan Osiyo mintaqasiga jalb qilishida quyidagi shart –Sharoitlar muhim ahamiyat kasb etgan edi.

1. “Yangi industrial mamlakatlar”ning foydali strategik joylashganligi. Ularning barchasi jahonning savdo iqtisodiy yo’llarining chorrahasida, ya’ni jahon xo‘jaligi markazlari bo‘lmish – AQSH va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarga yaqinroq hududlarda joylashganligi.

2. “Yangi industrial mamlakatlar”ning barchasida sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan munosib hisoblangan avtokratik yoki shunga yaqin bo‘lgan siyosiy muhitlar yaratilganligi. Ularda siyosiy barqarorlik ta’milanib, siyosiy hamda demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiy isloxoqlar amalga oshiriladi. Xorijiy investor-larning xavfsizligi uchun yuqori darajali kafolatlar ta’milanadi.

3. Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” aholisiga xos bo‘lgan mehnatsevarlik intiluvchanlik, tartibilik, matonatlilik singari noiqtisodiy omillar ham katta ahamiyat kasb etdi. Bu omillar ma’lum darajada Osiyo va Lotin Amerikasidagi –“YaIM” larning ikki modeli o‘rtasidagi o‘ziga xos bo‘lgan bellashuvda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Xo’sh, ushbu modellarning o‘ziga xos tomonlarini nimada ko‘rishimiz mumkin. Jahon iqtisodiyotida birinchi model milliy iqtisodiyotning tashqi bozor va eksportga tomon ustuvor yo‘nalishlari orqali rivojlanishini ko‘rsatib bersa, ikkinchi model esa import o‘rnini egallahsga qaratilganligidir. Birinchi modelda ko‘rsatib o‘tilgandek, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida AQSH, ikkinchi jahon urushdan keyin – G‘arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya, keyinchalik esa Osiyoning “YaIM” lari ham rivojlanishning birinchi modeli yo‘lidan borishdi. Ikkinchi model esa sezilarli darajada Lotin Amerikasining “YaIM” lari tomonidan o‘zlashtirib olingan edi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi kunda import o‘rnini egallahsga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyalari bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynamoqda. Import o‘rnini egallah strategiyalari xo‘jalik tarkibining xilma-xilligini ta’minalash imkoniyatini yaratadi. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda esa yangi va muhim bo‘lib hisoblanuvchi bir qator ishlab chiqarish tarmoqlari barpo etilishi bilan bir qatorda muhim yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z-o‘zini ta’minalash darajasi ham o‘sib bormoqda .

Shuningdek, iqtisodiyotni tubdan isloh qilishda asosiy yo‘l bo‘lib hisoblanuvchi import o‘rnini egallahsga mo‘ljallangan ishlab

chiqarish sohalarini rivojlantirishni asosiy o‘ringa qo‘yuvchi barcha mamlakatlarda o‘z-o‘zidan jiddiy inqirozlar bo‘lib turibdi. Gap shundaki, xorijiy kompaniyalar uchun imtiyorli kreditlarning yo‘qligi va proteksionizm siyosatiga asoslangan milliy iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishini “qo‘llab–quvvatlab turganlik” muhiti jahon iqtisodiyotida tez moslashuvchan va samarali iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymadi. Umuman olganda, import o‘rnini egallash siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatining dunyo xo‘jaligidagi tub o‘zgarishlar yasashiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bundan tashqari, import o‘rnini egallash siyosati nafakat tashqi omillarning pasayishiga yo‘l qo‘ymaydi, balki uning o‘sishini ham ta’minlaydi. Import o‘rnini egallash prinsiplariga uzoq vaqt tayanilganda mamlakatlarda qoloqlikni bartaraf etish imkoniyati paydo bo‘ladi hamda keng mikyosdagi taraqqiyotga erishishni ta’minlovchi iqtisodiyotdagи yetakchi tarmoqlarni vujudga kelishiga xalaqit beruvchi barcha to‘sinqlarga barham beriladi. Proteksionizm, ichki bozorlarni va biznesni himoya qilish choralar sifatida qisman samarasiz ishalyotganiga qaramasdan, uning monopol holati va baholarining keskin o‘sayotganligidan foydalaniб foyda olayotgan mahalliy korxonalarni qo‘llab–quvvatlaydi. Xullas, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash davri, ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, “yangi industrial mamlakatlar”da ham o‘z nihoyasiga yetganligini ko‘rishimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida import o‘rnini egallash strategiyasi Lotin Amerikasining “YaIM”lari (Braziliy, Argentina, Meksika) uchun xilma-xil bo‘lgan milliy iqtisodiyotni barpo etishda va shuningdek, bir qator tovarlarni ishlab chiqarish bo‘yicha jahonda salmoqli o‘rinni egallab kelishida muhim rolni o‘ynamoqda. Nima bo‘lganda ham, ushbu mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qoloqlik darajasini bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitni yarata olmadilar. Shuning uchun ham Lotin Amerikasining “YAIM”lari qanchalik kuchayib iqtisodiy potensialga ega bo‘lishlariga qaramasdan, Osiyodagi “YaIM”larga nisbatan iqtisodiy jihatdan ancha qoloqligicha qolmoqda. Masalan, Braziliyaning yalpi ichki mahsuloti (YALM) Sharqiy Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar”ning umumiyl yalpi ichki mahsulotiga nisbatan biroz kamroqdir.

Lotin Amerikasining “YaIM”lari ekportining salmoqli o’sishiga ega bo’lmasdan turib, o’z iqtisodiyotini talab darajasida tubdan islox qilishga erisha olmadilar. Iqtisodiy o’sish sur’atlarining natijalariga qarab, ichki iqtisodiy muammolarni bartaraf etish uchun bir qator kamchiliklarga yo’l qo’yildi. Bir vaqtning o’zida tashqi muammolar ham vujudga keldi. Eksportning past darajada o’sishi, to’lov balansi defitsitning hamda barcha yangi kreditlarga bo’lgan talablarning o’sishiga imkoniyat yaratdi. Oqibatda ushbu mamlakatlar sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning eng ilg’or bo’lmagan texnika va texnologiyalarini o’z iqtisodiyotida joriy etish siyosatida mustaxkamlanib qolaverdi.

Qayd etish joizki, Lotin Amerikasining “yangi industrial mamlakat”lari 90- yillarning o’rtalariga kelib 80-yillardagi uzoq davom etgan inqirozdan chiqib oldi. Braziliy, Argentina, Meksika, Chili kabi davlatlarda amalga oshirilgan liberal iqtisodiy o’sish sur’atlari yuksalib, savdo balansini yaxshilashda ijobjiy yutuqlar qo’iga kiritildi.

Lotin Amerikasining yirik “YaIM”laridan biri Braziliyada olib borilayotgan siyosat – bu ochiq iqtisodiyotni yaratishga qaratilganligidir. Buning uchun mamlakatning ichki bozorida raqobat kurashuvi uchun muhit yaratilayotgan bo’lib, unga bog’liq holda import tariflari pasaytirildi. 1995-yilda MERKOSUR mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay) o’rtasida bojxona to’siqlari to’liq olib tashlandi.

Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” o’z iqtisodiyotining eksportga mo’ljallangan ancha samarali va tez moslashuvchan modelini joriy etdi. Bu model, ma’lum davr mobaynida bir vaqtning o’zida import o’rnini egallash siyosatini ham o’z ichiga olgan edi. Eksport siyosati o’rnini egallashga mo’ljallangan industriallashuvning tugallangan davrini qayta sodir etishni talab etmaydi. Ma’lumki, jahon iqtisodiyotida import o’rnini egallash va eksportga mo’ljallangan iqtisodiy siyosat bir-biri bilan tengma-teng holda harakat qilib, ba’zi davrlarda esa ular bir-biridan ustunlikka ham ega bo’lishi mumkin. Eksportni kengaytirish davriga yoppasiga o’tish oldidan, import o’rnini egallash uchun jahon mamlakatlari ishlab chiqarishining zamonaviy tizimlarini vujudga keltirish, xalq xo’jaligining an’anaviy sektorini qayta qurish kabi masalalariga ham e’tiborni qaratishmoqda.

Osiyoning ko‘pchilik mamlakatlarida, jumladan XX asrning 50 va 60-yillarida Janubiy Koreya va Tayvanda, 60-yillarda Malayziyada; 60- va 70-yillarning boshlarida Tailandda, 50 va 60 yillarning oxirida Filippinda import o‘rnini egallash siyosati ustuvor yo‘nalishga ega bo‘lgan edi. Gonkong va ma’lum darajada Singapur, o‘zlarining tarixiy rivojlanish shart-sharoitlari, jo‘g‘rofiy joylashuvi va ichki talabning cheklanganligi ta’sirida ishlab chiqarishni ko‘proq eksportga qaratdilar. Mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi chora –tadibrlar, qayta ishlash sanoatidagi foyda me’yorini oshirish, iste’mol mahsulotlarni va shuningdek, uzoq muddatli foydalanishga mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning asta-sekinlik bilan import o‘rnini egallashiga sabab bo‘lgan edi.

60-80 - yillarda Janubii Koreya jahon bozoriga uzoq muddatli foydalanishga mo‘ljallangan mahsulotlarning 2,9%ni, 3,4%ni, 9,6%ni, 9,3%ni, 11,1%ni va 9,6%ni yetkazib bergen bo‘lib, uning jahon kemasozlik sanoati eksportidagi ulushi 13,1% ga to‘g‘ri kelgan edi.

Osiyoning “Yangi industrial davlatlari” sanoat mahsulotlari eksportining yuqori dinamikasiga asoslangan holda, an’anaviy ayrim tovarlar eksporti bo‘yicha tashqi savdo aylanmasida hal qiluvchi o‘rinni egallagan edi. Masalan, Janubi Koreya va Tayvan eksportida xomashyo va oziq-ovqatning ulushi mos ravishda 7,1% va 7%ni tashkil etgan edi. Xullas, 90-yillarda Janubiy Koreyada tovarlar eksportida qiymati bo‘yicha ikkinchi o‘rinni poyafzal mahsulotlari egallagan bo‘lsa, Tayvanda esa o‘yinchoqlar va sport tovarlari egallagan edi. Janubi Koreya eksportida to‘rtinchı o‘rinda sintetik mahsulotlardan tayyorlangan tekstil tovarlari turgan bo‘lsa, Tayvanda esa yettinchi o‘rinda poyabzal mahsulotlari turgan edi.

Osiyoning “Yangi industrial davlatlari”da ayniqsa, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha eksportida Hindiston va shuningdek, Lotin Amerikasining “YaID”larining kuchsizligi sezilarlidir. Agar Lotin Amerikasining “YaID”larini tovarlar eksportinig rivojlangan davlatlar umumiyligi eksportidagi ulushi 1998-yilda 1980-yilga nisbatan unchalik kamaymagan (0,5%) bo‘lsa-da, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha ulushi qariyb 1,8 barobar kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.. Aynan ana shu mashinateknik mahsulotlar eksporti rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi holatlarini yaxshilanishining eng muhim omilidir.

90-yillarda Osiyoning “Yangi industrial davlatlari”ni olib borayotgan faol tashqi savdo siyosati AQSHning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan bo‘lgan yillik o‘zaro savdo hajmi (128,4 mlrd. doll.) G‘arbiy Yevropa bilan bo‘lgan savdo aylanmasidan (117,1 mlrd. doll.) yuqori bo‘lgan edi. Bunda Osiyoning “YaID”lari (Yaponiyani qo’shib hisoblaganda) AQSH bozorida avtomobillar va elektrontexnikaning 30%ni, tekstil va tikuvchilik mahsulotlarining 50%ni egallagan edi.

80-90-yillarda rivojlangan mamlakatlarning eng yirik kapital importyori bo‘lgan “Yangi industrial davlatlar” o‘z geografiyasini ancha kengaytirgan edi. Hozirgi kunda ilg‘or sanoati rivojlangan davlatlarining kapitali uchun Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlarning yangi bozorlaridir. Masalan, Janubiy Koreya firmalari AQSHda aniq maqsadga yo‘naltirilgan eksport ekspansiyasini o‘tkazmoqda. Amerika iqtisodiyotiga kapital qo‘yishib, Janubiy koreyaliklar o‘z iqtisodiyoti uchun eng yangi texnologiyalarning kirib kelishiga yo‘l ochmoqdalar. Shuningdek, Janubiy Koreya firmalari Osiyoning “ajdarho” deb nom olgan boshqa davlatlariga ham kapital olib chiqishni ko‘paytirmoqda. Masalan, Tayvanning Xitoyga bo‘lgan qiziqishi juda kattadir. 90-yillarning o‘rtalarida Tayvanning XXRdagi investitsiyalari 9 mlrd. doll.dan oshib ketgan edi. O‘z navbatida Gongkonglik ishbilarmonlar XXRda ro‘yxatga olingan qo’shma korxonalarining yarmidan ko‘proq‘ini tashkil qilishgan.

XX asrning 50-yillarida jahon xo‘jalida baynalminallahuv jarayonlarining tezlashishi rivojlanayotgan davlatlarni, birinchi navbatda “yangi industrial davlatlar”ni ham qamrab olgan edi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishni, mehnat va kapital bozorlarini va tovar ayirboshlash jarayonlarining baynalminallahuviga moliya bozorlarining baynalminallahushi ham qo‘sildi. “YaID”larning kredit imkoniyatining o‘sishi, milliy moliyaviy bozorlarining rivojlanishi bilan va shuningdek, moliyaviy salohiyatining oshishi bilan ham chambarchas bog‘liqidir. Ko‘pgina “yangi industrial davlatlar” hozirgi kunda milliy moliyaviy bozorlar tashkil topishining birinchi bosqichidan o‘tishib, ularning faoliyatini liberallashtirishning ikkinchi bosqichiga kirishdilar. Bu bilan esa ularning xalqaro moliya munosabatlari tizimiga faol integratsiyalashuviga asos yaratildi.

Kapital harakatining baynalminallashish jarayonlari hatto rivojlangan davlatlar orasida ham yakunlanishdan uzoqdir. Shuning uchun ham rivojlanayotgan davlatlar haqida gapirmassa ham bo‘ladi. Shunga qaramasdan, ba‘zi bir “yangi industorial davlatlar” (Singapur va Gonkong) bu yo‘lda o‘zlarining sezilarli qadamlarini qo‘ydilar. Bunga, 70-yillarda jahon iqtisodiyotida yangi xalqaro moliyaviy markazlarning hosil bo‘lishi va tez o‘sishini kiritish mumkin. XXI asr boshlarida Tayvan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yirik valyutamoliyaviy markaziga aylanishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Osiyoning “YAID”lari xalqaro moliya markazlari kredit-moliya operatsiyalarini o‘tkazish miqyosi bo‘yicha London, Parij, Syurix kabi yirik moliya markazlari qatoriga chiqib, ularni ssuda kapitali bozoridan asta-sekin siqib chiqarmoqda.

Osiyoning “YaID”larining iqtisodiy evolyusiyasining xarakterli tomonlaridan biri ularning bir-biriga bo‘lgan qiziqishining tobora ortib borayotganligidir. Sanoati rivojlangan G‘arbiy Evropa davlatlariga kapital yo‘naltirishning ustuvor tendensiyasi, mintqa va bir-biriga yaqin bo‘lgan submintaqalarda savdo-iqtisodiy hamkorlarni olib borishligi bilan to‘ldirilmoqda. Ammo bu Osiyoning “YaID”larini raqobatbardoshlilagini oshirishga e’tibor bermayapti, degani emas. Xullas, 90-yillarning o‘rtalarida tovarlarning raqobatbardoshligi bo‘yicha jahondagi birinchi beshlikda Singapur, Gonkong, Tayvan kabi davlatlar turgan edi.

Bu davatlarda qabul qilingan iqtisodiy strategiyaning asosiy yo‘nalishi - ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Mehnat talab va past rentabelli ishlab chiqarishlar “YaID”larning “ikkinchi oqimi”da turgan Xitoy va V’etnamga “topshirmoqda”. Natijada bu ishlab chiqarishlarni bir paytlar sodir etgan sanoati rivojlangan davlatlardan birinchi avlod “yangi industrial davlatlar”ga ko‘chish jarayoni amalda qaytarilmoqda. Shunday qilib “YaID”larni rivojlanishidagi qo‘lga kiritilgan yutuqlari, jahon xo‘jaligiga integratsiyasi, iqtisodiy o‘sishining istiqbollari, aholi turmush tarzining o‘sishi ushbu davlatlarning iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy ekspansiyalarning roli yuqori darajada deyishga imkon beradi. XXI asrda ushbu davlatlar jahon iqtisodiy hukmronligida yuqoriroq o‘rinni egallab, yangi va muhim natijalarni namoyish kilmoqda. Juhon Bankininng bashoratiga qaraganda, yaqin 10 yillar mobaynida o‘sishning o‘rtacha

sur'atlari Janubiy Osiyoda - 5,5 %ni, Sharqiy Osiyoda - 7,7 %ni, Lotin Amerikasida - 3,5 %ni tashkil qilar ekan. 1996-2004-yillarda Sharqiy Osiyoda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning yillik o'sishi 6,6 %ni tashkil etib, o'rta hisobda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad 1,9% ga o'sgan edi.

Jamiyatni taraqqiy ettirish va iqtisodiyotni isloh qilish yo'llarining xilma-xilligi bir qancha omillarga bog'liq. Avvalambor, bunga ularning aniq maqsadni ko'zlab yo'naltirilishi va iqtisodiyotning amal qilish prinsiplari sabab bo'ladi. Rivojlanayotgan yosh mamlakatlar o'z oldilariga erishish osonroq bo'lgan maqsadlarni qo'yib, «muqobil rivojlanish» nazariyasining turli konsepsiyalariga tayanib, o'z yo'llarini mana shu konsepsiylar doirasida izlashga majbur edilar. Bu konsepsiyalarning asosiyalar quyidagilar:

- «Asosiy ehtiyojlar» konsepsiysi. Aholining eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta'minlash va ish bilan band qilish muammolarini hal etish ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadidir;

- «Maqbul yoki tegishli texnologiya» konsepsiysi. Bu konsepsiya aholi bandligini ta'minlaydigan va mahalliy xom ashyni, avvalo, qishloq xo'jalik xom ashynosini qayta ishlashga qaratilgan sermehnat texnologiyani rivojlantirish zarurligiga asoslanadi;

- «O'z kuchiga jamoa bo'lib tayanish» konsepsiysi. Bu konsepsiya mayjud zaxiralardan to'liqroq foydalanishga va rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiy etgan mamlakatlarga qaramligini kamaytirish maqsadida ular o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan;

- «Yangi xalqaro iqtisodiy tartib» konsepsiysi. Bu konsepsiya rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan mustamlaka holatidan qutulishga va iqtisodiy qoloqligini tugatishga, teng huquqli sheriklar sifatida tan olinish, xom ashyo va sanoat mollariga o'z manfaatlariga muvofiq keladigan yangi narxlarni, xalqaro savdo me'yorlarini, valyuta kursini belgilashga, zamonaviy texnologiyalarni solib olish imkoniyatlarini kengaytirishga bo'lgan umumiy intilishlarini aks ettiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pgina andozalari, iqtisodiy yo'llari yuqorida ko'rsatilgan konsepsiylar va nazariyalarning o'ziga

xos qo'shilmasidan iboratdir.

Jahonda milliy taraqqiyot modellari ko'p. Ular o'sha mamlakat tub aholisi - millatning nomi bilan ataladi. Masalan, Amerika, Nemis, Shved, Yapon, Xitoy singari milliy modellar ma'lum.

Har bir milliy model o'sha mamlakat aholisining mentaliteti, tarixiy va madaniy qadriyatlari, siyosiy tuzumi, ijtimoiy tarkibi, tabiiy - iqtisodiy shart-sharoitlari, ishlab chiqarish omillari va resurslari, iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi kabi holatlardan kelib chiqadi.

Qanday model to'g'risida gap bormasin, asosiy maqsad samarali iqtisodiyotni barpo etish, xalq turmush darajasini yuksaltirishdan iboratdir. Biron-bir modelni tanlash pirovard maqsad emas. Model, eng avvalo, mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va buyuk aql-zakovatning amaldagi ifodasıdır.

Shimoliy Amerika, xususan, AQSH modelida bozorda davlatning xo'jalik faoliyatidagi roli eng past darajaga tushirilgan. Davlat asosan uchta vazifa — barqarorlik, qonun oldida barcha fuqarolarining tengligini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish yo'li bilan biznes va tadbirdorlik faoliyatiga ko'maklashish hamda o'zini-o'zi boqishga qurbi etmaydiganlarga g'amxo'rlik ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bu model bozorning keskin, shiddatli yo'li bo'lib, korxonalarining zarar keltirib ishlashini, dotatsiyani rad qiladi. Bu yo'l bir qarashda ancha maftunkor tuyulsa-da, ammo xalqni, ayniqsa, uning kam ta'minlangan tabaqalarini ancha qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin. Amerika modeli narxlarning erkin shakllanishi, subsidiyadan voz kechish, tashqi savdo uchun ochiq iqtisodiyot, davlat korxonalarini xususiylashtirish, chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, samarasiz korxonalarini yopish va ortiqcha ishchilarni bo'shatishni ko'zda tutadi. Bu yo'l muayyan keskinliklar - g'oyat yuqori narx-navo, ishsizlik, daromadlarning pasayishi, tashqi qarzning oshishiga ham olib keladi. Ammo bunday yo'qotishlar erkin bozorga o'tish bilan bog'liq. Uzoq muddatli foyda bilan keyinchalik qoplanishi mumkin, albatta.

Bu model aksiyadorlik mulkining intensiv qayta taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Bu modelda korxonaga tovar sifatida qaraladi. U «qismlarga» bo'linib ham, fond birjasi orqali ham solilishi mumkin. «Amerikacha» iqtisodiy taraqqiyot modelining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ishlab chiqarish konsentratsiyalashuvining g'oyat yuqoriligi va yirik biznesning iqtisodiyotda muhim o'rinn tutishidir.

Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, korporatsiyalarning tovar aylanmasi mamlakatdagi jami tovar aylanmasining 90 foizini tashkil etadi. Mayjud 4 milliondan ortiq sanoat korporatsiyasidan besh yuztasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 40 foizini ishlab chiqaradi¹. Ushbu korporatsiyalarning katta qismi transmilliy korporatsiyalar hisoblanadi va ularning xorijdagi korxonalari ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlari AQSH yalpi ichki mahsulotining 1/3 qismini tashkil etadi².

Moliya kapitali darajasida konsentratsiyalashuv ko'rsatkichlari yana da yuqori. Garchi mamlakatda bir necha ming tijorat banki faoliyat yuritsa-da, ulardan elliktasi jami bank aktivlarining 1/3 qismiga egalik qiladi.

Yirik banklar va sanoat korporatsiyalari strategik alyanslarni tashkil etadi. Bunday yirik moliya-sanoat guruhlari mamlakat yetakchi iqtisodiy markazlarini o'z ta'sir doirasiga qamrab olishi tabiiy. Mutaxassislar fikricha, hozirgi kunda AQSH iqtisodiyotida yigirmadan ortiq ana shunday alyans faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyotning «amerikacha» modelida inson omilining roli ham yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. AQSH muhojir-ajnabiylar mamlakati hisoblanadi. Amerika davlati muhojirlar tomonidan barpo etilgan. Ommaviy muhojirlik AQSH aholisi milliy tarkibining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi Amerika millati - dunyoning turli qit'alaridan, eng avvalo, Yevropadan ko'chib kelgan odamlarning etnik yaxlitligi natijasidir. Garchi AQSHda yuzdan ortiq millat va elat istiqomat qilsa-da, ularning 80 foizini evropaliklar, 12 foizini qora tanli amerikaliklar, 5 foizini ispan tilida so'zlashuvchi amerikaliklar tashkil etadi. Mahalliy xalq (avvalo, hindular) soni bir foizga yaqin, xolos.

Iqtisodiy adabiyotlarda Yevropa mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyot modellari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- nemis iqtisodiy taraqqiyot modeli;
- britancha taraqqiyot modeli;
- fransuzcha taraqqiyot modeli;
- iqtisodiy taraqqiyotning «Shvedcha modeli».

Nemis iqtisodiy taraqqiyot modelining o'ziga xosligi shundaki,

¹ Ekonomika SShA.//Pod red. V.B.Supyana// - SPb.: Piter, 2003. - S.514.

² Chernikov G.P. Mirovaya ekonomika. M.: Drofa, 2003. - S.297.

unda asosiy e'tibor ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ijtimoiy - huquqiy davlat qurilishiga qaratilgan. Nemis «iqtisodiy mo'jizasi» iqtisodiyotga davlat aralashuvi va erkin bozor tamoyillaridan maqsadga muvofiq foydalanishga asoslanadi. Germaniyada iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillari jumlasiga «Marshall rejasiga muvofiq keng miqyosli yordamdan foydalanish, «inson kapitali» sifatining yuqoriligi, jahon xo'jalik aloqalarida faol ishtirok etish, mo'tadir ichki iqtisodiy siyosatni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida uzoq vaqt davomida narx barqarorligi saqlanib turgan holda, mamlakatda yalpi ichki mahsulotning yillik o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 8,5 foizgacha yetdi¹¹. Aynan shu davrda «nemischa sifat», «nemischa mehnatkashlik», «nemischa mas'uliyat» kabi tushunchalar paydo bo'ldi.

Britancha taraqqiyot modelida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ustuvor o'ringa ega. Davlat kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda, yangi tarmoqlarni rag'batlantirishda, ilmiy yo'nalishni rivojlantirishda, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat ko'plab kichik korxonalarining yirik kompaniyalar bilan o'zaro shartnoma imzolashida vositachi rolini bajaradi. Kichik korxonalar esa bunday shartnomalar orqali barqaror bozorga, ta'minot va moliyalashtirish manbasiga ega bo'ladilar, yangi texnologiyalar va ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Fransuzcha taraqqiyot modeli «dirijizm» tamoyillariga asoslanadi. Garchi «neoliberal inqilob» natijasida davlatning tadbirkorlik faoliyati bir munkha qisqargan bo'lsa-da, Fransiyada davlat tadbirkorligi AQSH darajasidan 3 barobar yuqoridir. Davlatning tartibga solish faoliyati ham sezilarli darajada saqlanib qolgan. Bugungi kunda Fransiya hukumati umummiliy tuzilmaviy dastur, yangi tarmoqlarni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, faol ijtimoiy siyosat yuritish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir o'tkazmoqda. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat budjeti asosiy o'rinda turadi. Fransiya milliy daromadining 54 foizi davlat budjeti orqali qayta taqsimlanadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning «Shvedcha modeli»da ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash ustuvordir. «Shvedcha» modelning iqtisodiy asoslari quyidagilardan iborat:

- aralash iqtisodiyot (bozor mexanizmi va davlat tomonidan faol tartibga solish usulidan birgalikda foydalanish);
- ishlab chiqarish sohasida xususiy mulkchilik kombinatsiyasi va «iste'molning jamoalashuvi»;
- ijtimoiy xizmatlarda davlat-kommunal sektorining yirikligi;
- cheklangan mikroiqtisodiy siyosatning bandlik va investitsiyalarning yuqori darajasini saqlab turish bo'yicha selektiv chora-tadbirlar bilan uyg'unlashuvi.

Milliy iqtisodiy taraqqiyot modellarining Yevropa modellari (Germaniya, Shveysariya, Niderlandiya, Shvetsiya) ko'p hollarda Germaniyadagi mashhur daryo nomi bilan - «Reyn modeli» deb ham ataladi. Bu model aksioner korxonalar mulklari tarkibining barqarorligi bilan tavsiflanadi. Bu modelda iqtisodiy faoliyat «falsafasi» katta rol o'ynaydi. Unga ko'ra korxonaga umumiy manfaatlarga ega jamoa deb qaraladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda Yevropa mamlakatlari ning turli milliy modellarida umumyevropa modeliga yaqinlashuv holati kuzatiladi. Bu, eng avvalo, quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

- yagona ichki bozorni barpo etish;
- iqtisodiy va valyuta ittifoqini shakllantirish;
- moliya siyosatini muvofiglashtirish;
- ijtimoiy modellarning yaqinlashuvi;
- tadbirkorlik faoliyati va raqobat muhitini shakllantirishning yagona shart-sharoitlarini ta'minlash;
- federativ tuzilmani takomillashtirish;
- iqtisodiyotni tartibga solishning yagona qoidalari va mexanizmlarini qabul qilish.

Yaponiyada ham, Osiyoning yangi industrial davlatlarida ham erkin tadbirkorlik faoliyati davlat boshqaruvi (markazlashgan rejallashtirish) bilan qo'shib olib boriladi. Asosiy narxlar fiskal usullar bilan, ya'ni davlat daromadlarini nazarda tutib boshqarilishi mumkin. Albatta, hozirgi iqtisodiyotda muayyan turdag'i bozor o'z holicha va sof ko'rinishda uchramaydi. Hozir mamlakatlar, xalqlar tajribasi ancha umumlashib ketdi. Osiyodagi yangi industrial davlatlar, ulardan oldin esa Yaponiya iqtisodiy islohot va xo'jalikni tarkibiy qayta qurish davomida jahon tajribasidan keng foydalanganligi ma'lum.

Ikkinchı jahon urushidan keyin Yapon iqtisodiyoti qiyin ahvolga tushib qolgan. Sanoatning chuqur inqirozi, harbiy-iqtisodiy modeldan bozor modeliga o‘tishning qiyinchiliklari, iqtisodiyotning harbiy ishlab chiqarishga bo‘ysundirilganligi, tinkani quritadigan taqchillik, inflyasiya va boshqalarni yengib o‘tish lozim edi. Ammo Yaponiya xalqi bu qiyinchiliklarni ancha tez hal qildi. Chunki mamlakatdagi boshqarishning markazlashgan harbiy qolipi joriy etilgan shunchaki tartibot emas, balki mavjud vaziyatni hisobga olib, ataylab orqaga chekinish edi.

Shuning uchun iqtisodiyotning yangi bozor modeli qaytadan yaratilmadi. Yaponiyada sobiq sotsialistik mamlakatlardagi kabi millatning eng iste’dodli, eng qobiliyatli qismi, tadbirkor, omilkor kishilar yo‘q qilib yuborilmagan edi. Asosiy masala - islohotni nimadan boshlashda edi. Bu masala, avvalo, to‘g‘ri belgilab olindi va keyin yechildi: iqtisodiy jonlantirishning ustun tomonlari aniq belgilandi, avvalo, oziq-ovqat, ko‘mir, ruda, eng hayotiy zarur buyumlarni ishlab chiqarish rivojlantirildi.

Iqtisodiy taraqqiyotning «Yaponcha» modeli o‘zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ulardan biri Yaponcha xayot tarzi an’analalarini hurmat qilish asosida barcha darajada va barcha ijtimoiy sohalarda munosabatlarni muvosifqlashtirishni ko‘zda tutuvchi jamiyatni ijtimoiy tashkil etishdan iboratdir. Yaponiyada g‘oyaviy qadriyatlар asosida amerikacha standartlardan keskin farq qiluvchi mehnatga rag‘batning o‘ziga xos shakli vujudga kelgan. Iqtisodiy taraqqiyotning aynan «Yaponcha» modelida jamiyat hayotida ijtimoiymadaniy va diniy omilning ahamiyati yaqqol o‘z ifodasini topgan.

Yapon xalqi va madaniyatida ijtimoiy ong, jamoa ruhi muhim o‘rin tutadi. Bu qadimiy va boy tarix samarasidir. Yapon milliy an’analari ko‘ra har qanday ijtimoiy guruh manfaati alohida shaxs manfaatidan ustun. Jamiyat hayotida birlamchi guruh - oila asosiy rol o‘ynaydi, keyingi o‘rinda esa jamoa turadi. Zamonaviy korxona, korporatsiya ham, davlat ham yirik oila hisoblanadi.

Har bir yaponiyalik guruh nomidan fikrashi va o‘zini guruh a’zosi deb hisoblashi faqat Yapon madaniyati va an’analari bilan bog‘liq emas, albatta. Bunda Yapon jamiyatining ijtimoiy tarkibi ham muhim ahamiyagga ega. Mutaxassislar fikricha, Yaponiya ijtimoiy barkamollik jamiyatni hisoblanadi. Garchi real vaziyat ushbu ta’rifga to‘la mos

tushmasa-da, Yaponianing boshqa rivojlangan mamlakatlardan farqli jihatlari ko‘p. Chunonchi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromadlar miqdori g‘oyat yuqori bo‘lishiga qaramasdan, Yaponiyada boylar va kambag‘allar o‘rtasida unchalik katta tafovut yo‘q. Xususan, aholining eng boy va eng qashshoq 20 foizi daromadlari o‘rtasidagi nisbat Yaponiyada 2,9 barobarni tashkil etadi, xolos. Vaholanki, bu ko‘rsatkich AQSHda 19 ga teng¹.

Boshqaruvning «Yaponcha» usuli rivojlanishning strategik muammolariga alohida e’tibor qaratadi. Davlat korxonalarining ijtimoiy samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Bunda u faqat puł rentabelligi bilan o‘lchanadigan tor doiradan yuqiroq fikrlashni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi.²

Xitoy va Vietnam iqtisodiy islohotni ustun darajada qishloq xo‘jaligidan, oziq-ovqat bozorini to‘ldirishdan boshladi va yahshi natijalarga erishdi.

Xitoya amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor mexanizmi va iqtisodiyotning nodavlat sektori o‘z mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi. Ammo davlat tomonidan tartibga solish, mehnat bo‘yicha taqsimlash va ijtimoiy kafolatlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu modelni sotsialistik model ustuvor mavqega ega bo‘lgan aralash iqtisodiyot deb ham atash mumkin. Shu o‘rinda Xitoy modelining asoschilaridan biri Den Syaopinning quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinli: «Reja» yoki «bozor» - bu kapitalizm va sotsializmning tub farqi emas. Rejali iqtisodiyot sotsializm degan ma’noni anglatmaydi, kapitalizmda ham reja mavjud. Ayni vaqtida bozor iqtisodiyoti kapitalizm emas, zero, sotsializmda ham bozor mavjud. Reja va bozor - iqtisodiy usullardir»³.

Iqtisodiy taraqqiyot modellarining xilma-xilligi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xos. Bu modellarni rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: eksportga yo‘naltirilgan va importning o‘rnini bosishga qaratilgan strategiyani tanlagan mamlakatlar. Birinchi guruhga Janubi-Sharqiy Osiyorning

¹Ekonomika SSHA. //Pod red. V.B.Supyana//. - SPb.: Piter, 2003. - S.324.

² Nurislom To‘xiev Taraqqiyotning o‘zbek modeli. –T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”. 2012. 43-51-betlar.

³ Lyu Goguan. Funktsionirovaniye va razvitiye kitayskoy ekonomiki, «Uanchjou», 2001. - S.39 (xitoy tilida).

«yangi industrial mamlakatlari»ni, ikkinchi guruhga Lotin Amerikasi mamlakatlarining rivojlanish modelini kiritish mumkin.

Xulosa

XX asrda global iqtisodiyot kuchli dinamizm bilan rivojlandi. XX asrning ikkinchi yarmida savdoning o'sish sur'atlari jahon YAIMning o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq rivojlandi.

Global bozorning shakllanishi, turli xil firmalar o'rtasidagi raqobatning kuchayganligi ularni kapitalni jamlash, yanada yangi ishlab chiqaruvchilarni o'z doirasiga jalb etish, birgalikda o'z o'rinalarini saqlab qolish uchun kuchlarni o'zaro birlashtirishga undaydi.

1950-2015-yillarda xalqaro savdoda tovar aylanmasi 14-15 barobar o'sdi. 1950-1970-yillarni xalqaro savdoning "oltin asri" deb aytish mumkin. Aynan ana shu davrda jahon eksporti yiliga o'rtacha 6-7 %ga o'sdi. Xalqaro savdoning barqaror o'sishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatdi:

- xalqaro mehnat taqsimotni va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvining rivojlanishi;
- ilmiy-texnika inqilobi (ITI);
- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati;
- xalqaro savdoning Tariflar va savdo bosh bitimi (GATT) faoliyati orqali tartibga solinishi (erkinlashtirilishi);
- xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko'plab davlatlarning importni son jihatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qisqartiruvchi rejimga o'tishlari, erkin savdo hududlarining tashkil topishi;
- savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi. Mintaqaviy to'siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo hududlarining tashkil etilishi;
- sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishlari. Ular orasidan tashqi bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan "yangi industrial davlatlarning" ajralib chiqishi va h.k.

Tayanch iboralar:

Global iqtisodiyot, xalqaro savdo, tovarlar va xizmatlar eksporti, tovar aylanmasi, xalqaro savdoning "oltin asri", GATT, JST,

mintaqaviy savdo bloki, rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar, liberallahuv, erkin savdo, protektsionizm.

Nazorat uchun savollar:

1. Global iqtisodiyotning shakllanishida xalqaro savdo qanday rol o'ynadi?
2. Global bozorlarning shakllanish xususiyatlarini tushuntiring.
3. Tashqi savdoni tartibga solishda qanday usullardan foydalанилди?
4. XX asrda xalqaro savdo dinamikasi va o'zgarishlarining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
5. Xalqaro savdoda rivojlangan mamlakatlar qanday o'ringa ega?
6. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdo qanday ahamiyatga ega?
7. Xalqaro savdoning rivojlanishida xalqaro tashkilotlarning rolini tushuntiring.
8. Mintaqaviy savdo bloklari doirasida xalqaro savdoni erkinlashtirish jarayonlarining oqibatlarini tushuntiring.

7-MAVZU. GLOBALLASHUV VA RIVOJLANISH

Reja:

1. Xalqaro integratsiyaning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari;
2. Jahon bozorida kapital va texnologiyalarning o'rni;
3. Globallashuv to'lqinlarini taqqoslash;
4. Zamonaviy xalqaro migratsiya;
5. Umumjahon tovarlarini yetkazib berish mexanizmlari.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Vinod Thomas, Namrata Chindarkar. Economic Evaluation of Sustainable Development, 2019. <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6389-4>;
2. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
3. B.Xodiyev, Sh.Shodmonov "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik-T.: "Barkamol fayz media", 2017.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Oecd, United Nations: Economic Commission for Latin America and the Caribbean, Caf Development Bank of Latin America. Latin American Economic Outlook 2019 Development in Transition, Latin American Economic Outlook, 2019;
2. Абдулкасимов Х.П., Саидахмедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие. -Т.: Ilmiy-tehnika axboroti-press nashriyoti, 2016;
3. Jo'rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko'rgazmali va tarqatma materiallar. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi;
3. www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko'rsatkichlar.

7.1. Xalqaro integratsiyaning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlar va xo'jalik mintaqalari o'rtaсидаги о'заро bog'liqliкнинг о'sib borishi hisobланади.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlarga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalgga oshiriladi.

Turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining turli-tumanligi ular taraqqiyot darajasini qandaydir bitta nuqtai-nazardan baholash imkonini bermaydi. Shunga ko'ra, mazkur maqsadda bir necha asosiy ko'rsatkich va mezonlardan foydalilanadi:

- mutloq va nisbiy YALM;
- milliy daromad va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori;
- milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi;
- mamlakat eksporti va importi tarkibiy tuzilmasi;
- aholining turmush darjasasi, sifati va boshqalar.

Mamlakatning jahon xo'jaligidagi o'mini aniqlashda bir necha yondoshuvlar mavjud. Ulardan eng oddiylari – mamlakatlarni aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad darajasini bo'yicha guruhlarga ajratish hisobланади. Bunday yondoshuv BMT, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon tiklanish va taraqqiyot banki (JTTB) tomonidan qo'llaniladi. Masalan, JTTB daromad darajasiga ko'ra mamlakatlarning uchta guruhini farqlaydi. 1995-yili aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromadlarning quyidagi chegaraviy miqdorlari belgilangan edi:

- daromadlarning past darjasasi – 765 dollargacha (49ta mamlakat);
- daromadlarning o'rtacha darjasasi – 766 dollardan 9385 dollargacha (58ta mamlakat);
- daromadlarning yuqori darjasasi – 9386 dollar va undan yuqori (26ta mamlakat).

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiylasosda yondashib xo'jalik tizimlarining xususiyatlariga mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan holda rivojlanayotgan va bozor

iqtisodiyoti mavjud bo‘limgan mamlakatlar. Rivojlanganlik darajasi bo‘yicha ham o‘z navbatida uchta guruh farqlanadi: past, o‘rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoli-Sharqi Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YalM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabiston, Quvayt va boshqalar), eng kam rivojlangan mamlakatlar (EKRM), shu jumladan, eng kambag‘al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya), har xil mintaqaviy ittifloqlar va baynalminal guruhlarga ajratiladi.

Jahon xo‘jalik aloqalarining tez o‘sishi shunday davrlarga to‘g‘ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan o‘sib chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo‘jalik aloqalarining baynalminallashuvini ko‘p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mantiqi taqozo qiladi, ya’ni u milliy chegaradan o‘sib chiqadi va obyektiv ravishda ishlab chiqarishning baynalminallashuvini zarur qilib qo‘yadi.

Intensiv davlatlararo iqtisodiy aloqalarning hozirgi darajasi quyidagilarni ko‘rsatadi:

jahon xo‘jaligida xalqaro mehnat taqsimoti darajasining chiqurligini;

an‘anaviy xalqaro tayyor mahsulotlar savdosi miqyoslarining kengayishi va xarakterining o‘zgarganligini (u ko‘p jihatdan milliy ishlab chiqarish jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat qila boshlaydi);

kapital migratsiyasining intensivlashganligini;

ilmij-texnik bilimlar almashuvining tezlashganligi va shuningdek, xizmatlar sohasining rivojlanganligini;

ishchi kuchi migratsiyasining sezilarli darajada o‘sganligini (xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro xo‘jalikning baynalminallashuvining muhim qismi bo‘lib qolmoqda);

davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarining tezlashishi va kengayishini.

Sanoati rivojlangan davlatlarning savdo, ishlab chiqarish va kredit-moliya sohasida erishilgan yutuqlar darajasi jahon xo‘jaligining shakllanishining ko‘rinishi bo‘lib xizmat qiladi. Uning ishtirokchilari davlat chegaralarining mayjudligiga qaramay umumiy xo‘jalik tizimining tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko‘rsatadilar. Xo‘jalik

hayotining baynalminallashuvi tushunchasi ortida alohida davlatlarni global jahon majmuiga birlashtiruvchi ko‘p darajali jahon xo‘jalik aloqalari tizimining samarali ishlashi turadi.

Baynalminallashuv alohida milliy iqtisodiy tizimlarning o‘sib borayotgan o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqligini xarakterlaydi. XX asrda ayriboshlashning baynalminallashuvi kapital va ishlab chiqarishning baynalminallashuviga aylanadi, ITI ta’sirida rivojlanishda sezilarli turtki oladi (XX asr 50-yillarining o‘rtalari). Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi keskin o‘sdi. Yirik miqyosdagi ixtisoslashgan ishlab chiqarish uchun ichki bozorlar doirasi torlik qila boshlab, u obyektiv ravishda milliy chegaralardan chiqa boshlaydi.

ITI ta’sirida ishlab chiqarishning baynalminallashuvi shunday holatni yuzaga keltiradiki, u har qanday mamlakat uchun “Shaxsiy ishlab chiqarishga” ega bo‘lish foydasiz bo‘lib, alohida milliy iqtisodiyotlar esa yanada ko‘proq jahon xo‘jaligiga integratsiyalashadilar. Ishchi kuchi harakati, kadrlar tayyorlash, mutaxassislar bilan almashish yanada baynalminal xarakterga ega bo‘ladi.

Ushbu aloqalar va rivojlanishining istiqboli shakllanishi qonuniyatlarini tekshirish shuni ko‘rsatmoqdaki, jahon xo‘jaligini rivojlanishining asosiy tendensiyasi bo‘lib,, kapital, tovar va xizmatlarning yagona planetar bozorini tashkil qilish va alohida davlatlarni yagona jahon xo‘jaligi majmuiga birlashtirishga bo‘lgan harakat hisoblanadi. Bu esa global iqtisodiyot masalalarini xalqaro iqtisodiyot munosabatlari tizimi majmui sifatida o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqacha qilib aytganda yuqoriqoq darajasidir.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda globalizatsiya fenomenini ikki tomonlama, ya’ni makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada ko‘rib chiqish mumkin. Makroiqtisodiy darajada globalizatsiya – bu, davlatlar va alohida mintaqalarning chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishga bo‘lgan umumiy intilishlari tushuniladi. Bunday intilishlarning ko‘rinishlari - liberalizatsiya, savdo va investitsion to‘siqlarning olib tashlanishi, erkin tadbirkorlik zonalari tashkil etish va h.k.lar hisoblanadi. Mikroiqtisodiy darajadagi globalizatsiya esa korxona faoliyatining ichki bozor chegaralaridan tashqarida kengayishi tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatining

millatlararo yoki ko'pmilliy yo'nalganligidan farqli ravishda globalizatsiya jahon bozori yoki "jahon uchligi" (Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa, Yaponiya) bozorlarini o'zlashtirishda yagona yondashish tushuniladi.

7.2. Jahon bozorida kapital va texnologiyalarning o'rni

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyati, ma'nosini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir. Dunyoning barcha mamlakatlari u yoki bu jihatdan xalqaro mehnat taqsimotiga (XMT) qo'shilgan. Uning chuqurlashuvi ilmiy-texnika inqilobi (ITI)ning ta'siri ostida bo'lgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidan kelib chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish davlatlarga qo'shimcha iqtisodiy samara berib, o'z ehtiyojlarini eng kam xarajatlar bilan to'liqroq qondirish imkonini beradi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mohiyati ishlab chiqarish jarayonining mehnat faoliyatini turli shakllarining ixtisoslashuvi va ularning kooperatsiyalashuvida, o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Mehnat taqsimotini faqat ajratish jarayoni sifatida emas, balki, jahon miqyosida mehnatni birlashtirish yo'li sifatida ham ko'rish mumkin.

Xalqaro mehnat taqsimoti davlatlar o'rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimotining darajasi hisoblanadi. U alohida bir davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasi siyosiy iqtisod klassiklari A.Smit va D.Rikardo ishlarida asoslab berildi va rivojlantirildi. Adam Smit "Xalqlar boyligining tabiatи va sabablari" kitobida (1776 y.) xalqaro mehnat taqsimotini tahlil qilib, savdo va tadbirkorlik erkinligi zarurligini isbotlaydi. Uning fikricha, savdo erkinligini cheklashlar alohida mintaqalar va butun bir davlatlar o'rtasida ro'y berayotgan mehnat taqsimotining chuqurlashishiga halaqit beradi. To'siqlarning yo'qotilishi va xalqaro almashinuv maydonining kengayishi milliy iqtisodiyotning ixtisoslashuviga va ularning o'zaro bog'liqligini oshirishga, umumjahon xo'jaligining yuzaga kelishiga olib kelishi kerak. A.Smit keyinchalik jahon iqtisodiyotida juda mashhur bo'lib ketgan erkin savdo shiorini olg'a surgan edi (laisser-faire). A.Smit g'oyalarini keyinchalik ingliz iqtisodchilar David Rikardo, R.

Torreens va Jon Styuart Mill va boshqalar o‘z ishlarida rivojlantirishdi.

Klassiklarning xalqaro mehnat taqsimoti to‘g‘risidagi ilmiy nazariyasining asosiy yutuqlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarishning nisbiy xarajatlari nazariyasidir. Bu nazariya xalqaro savdo haqidagi iqtisodiy ta‘limotning “klassik” asosi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning nisbiy xarajatlari nazariyasining asosida mamlakatlar orasida ishlab chiqarish sharoitlarda farq mavjudligi haqidagi g‘oya yotadi. Bunga ko‘ra har qanday mamlakatda ham va shuningdek, har qanday tabiiy va iqlimi sharoitlarda ham har qanday tovar ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin deb hisoblanadi.

Nisbiy xarajatlar nazariyasi biron-bir tovar ishlab chiqarishda bir davlatning boshqa bir davlatdan absolyut ustunligi mavjudligida emas, balki bunday ustunlik mavjud bo‘lmagan holatda ham ixtisoslashuv foydali ekanligi isbotlanadi. Agar xalqaro darajadagi xarajatlarga nisbatan kam xarajat bilan tovar ishlab chiqarishning iloji bo‘imsa, xarajatlarning o‘rtacha darajadan ko‘pligi qaysidir bir tovarda eng kam bo‘ladi. Boshqa tovarlarga nisbatan foydaliroq bo‘lgan shu tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashish kerak (bunda ixtisoslashish samara beradi). Bunda teskari holat ham nazarda tutilgan. Mamlakat bir necha tovarlar bo‘yicha ustunlikka ega bo‘lsa, bu ustunlik maksimal bo‘lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashish kerak. Iqtisodiy klassiklarining ushbu g‘oyalari E.Xeksher, P.Samuelson, B.Olin, V.Leontev va boshqa zamonaviy iqtisodchilar tomonidan yanada rivojlantirildi.

Jahon xo‘jaligini rivojlantirish uchun birinchi navbatda, ishlab chiqarishda mehnat unumдорligini oshirish, ishlab chiqarishda samaradorlikni ko‘tarish, shuningdek, ishlab chiqarishda xarajatlarni kamaytirishga intilish zarur. Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi jarayonida asosiy narsa, bu shu jarayonning har bir ishtirokchisi o‘zining XMTdagi ishtirokidan iqtisodiy foyda qidirishi va topishidir.

Har qanday davlatning xalqaro almashuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklarini amalga oshirishi – birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlardagi farqni olish; ikkinchidan, arzonroq bo‘lgan importdan foydalanib, milliy ishlab chiqarishdan voz kechgan holda ichki xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Jahon xo‘jaligini tizim sifatida ko‘rib chiqqanda XMTni bu tizimni tashkil qilgan birlashtiruvchi asos deb ko‘rish mumkin.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlarning ishlab chiqarishi ko‘p holatlarda tashqi iste’molchilarga, ichki talab esa importga yo‘nalgan bo‘ladi, deb taxmin qilinsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa ichki bozorning nisbatan tez, lekin ekstensiv kengayishi taxmin qilinmoqda.

Xullas, XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahonda misli ko‘rilmagan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar ro‘y bergan bo‘lib, ular, albatta, xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatgan edi.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosiy yo‘nalishini biz xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayishida ko‘rishimiz mumkin. Xalqaro kooperatsiya (XK) va xalqaro ixtisoslashuv (XI) xalqaro mehnat taqsimotining shakllari bo‘lib, uning mohiyatini namoyon qiladi.

Turli davlatlarning korxonalarini ma’lum bir tovarga ixtisoslashuvi zamonaviy ITI bilan bog‘liqidir. Ishlab chiqarishning texnologik tiziminining murakkablashib borishi bilan tayyor mahsulotda ishlataladigan detallar soni ko‘paydi. Masalan, yengil avtomobil sanoatida 20 minggatacha, prokat dastgochlarda 100 mingtacha, elektrovozlarda esa 250 mingtacha detallarning qismlari ishlatalishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi (XII) ikkita yo‘nalish bo‘yicha – ishlab chiqarish va hududiy yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanib bormoqda. O‘z navbatida, ishlab chiqarish yo‘nalishi:

- a) sohalararo;
- b) davlatlar guruhi;
- v) alohida korxonalarining ixtisoslashuviga bo‘linishi mumkin. Bundan tashqari, hududiy xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi esa:
 - a) alohida davlatlar;
 - b) davlatlar guruhi;
 - v) hududlarning jahon bozori uchun ma’lum tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuviga bo‘linadi.

Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvining asosiy turlariga:
predmetli (mahsulot ishlab chiqarish);

detalli (mahsulotni tashkil qiluvchilarni ishlab chiqarish); texnologik yoki bosqichli (ya’ni alohida texnologik jarayonlarni, masalan, yig‘ish, bo‘yash va boshqalarni amalga oshirish) ixtisoslashish kiradi.

Xalqaro mehnat taqsimotining boshqa bir shakli - xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir. Uning obyektiv asosi bo‘lib, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining o‘sib borayotgan darajasi hamda mamlakat ichida yoki tashqarisida ro‘y berishidan qat’iy nazar mustaqil korxonalar o‘rtasidagi barqaror ishlab chiqarish jarayonlarining borishi hisoblanadi. Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi o‘zining rivojlangan shakllarida hamkorlikning turli sohalarini qamrab oladi. Jumladan, birinchidan, ishlab chiqarishda texnologik hamkorlik. Ushbu hamkorliklarga quyidagilar kiradi:

- a) litsenziyalar berish va mulkchilik huquqlaridan foydalanish;
- b) loyiha konstrukturlik hujjatlarini, texnologik jarayonlarni, mahsulotning texnik darajasi va sifatini, qurilish va montaj ishlari zamonaviy, kooperatsiyalashgan korxonalarni ishlab chiqish va moslashtirish;
- v) ishlab chiqarishni boshqarish, standartlashtirish, unifikatsiyalash, sertifikatsiyalashni takomillashtirish, ishlab chiqarish dasturlarini taqsimlash va h.k.lar.

Jahon iqtisodiyotida kooperatsiya aloqalarini o‘rnatishda foydalaniладиган quyidagi uch asosiy usulga alohida e’tibor beriladi:

- hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish.
- shartnoma asosida ixtisoslashish.
- qo’shma korxonalar tashkil qilish.

Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish o‘z navbatida, ikki asosiy shaklda (pudratli ishlab chiqarish kooperatsiyasi va hamkorlikdagi ishlab chiqarish) amalga oshiriladi. Shartnoma asosida ixtisoslashish esa ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqarish kooperatsiyasi ishtirokchilari orasida taqsimlanishini nazarda tutadi. Qo’shma korxonalar bu integratsiyalashgan kooperatsiyadir.

7.3. Globallashuv to‘lqinlarini taqqoslash

XX asrning ikkinchi yarmida xo‘jalik hayotining baynalminallashuvi zamonaviy jahon xo‘jaligi rivojlanishining yetakchi an’anasiga

aylandi. Juhon xo'jaligini global baynalminalashuvining asosiy tendensiyalaridan biri shundaki, ma'lum bir davlat yoki bir necha davlatlar guruhining ta'sir zonasini vujudga kelishidir. Bu davlatlar yoki davlatlar guruhi jahon xo'jaligi aloqalari ta'sirida o'ziga xos mintaqalar hosil qilib, boshqa davlatlarni o'z atrofida birlashtiruvchi integratsion markazlarga aylanib boradi.

Juhon iqtisodiyotida iqtisodiy integratsiya o'z navbatida, bu jarayon ishtirokchilari bo'lmish davlatlar o'rtasida ishlab chiqarish va kapitalning baynalminalashuviga imkon yaratadi. Iqtisodiy integratsiyaga boshlovchi jarayonlarni sxemali tarzda quyidagi o'zaro bog'liq zanjir shaklida tasvirlash mumkin: ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi - xalqaro mehnat taqsimoti - ishlab chiqarish va kapitalning baynalminalashuvi - iqtisodiy integratsiya. Juhon iqtisodiyotida iqtisodiy integratsiyaga ikkita omil katta ta'sir ko'rsatadi: ilmiy-texnik inqilob va transmilliy korporatsiyalarni faoliyati.

Juhon xo'jaligi va XIMda integratsion jarayonlarning rivojlanishi bo'yicha to'plangan tajribalar iqtisodiy integratsiya hosil bo'lishi va rivojlanishining quyidagi to'rt bosqichi mavjudligini ko'rsatadi:

1. Tarif va boshqa cheklashlarni bekor qilish bilan erkin savdo zonasini tashkil qilish.
2. Savdo, mehnat va kapital harakatida bir xil tariflar tizimini o'rnatish bilan bojxona ittifoqini tashkil qilish;
3. Iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish bilan diskriminatsiyasiz ishtirokchi davlatlar iqtisodiy ittifoqini tuzish.
4. Yagona iqtisodiy siyosat, umumiyligi valyuta va davlatdan yuqori turuvchi tartibga soluvchi organlarga ega bo'lgan to'liq integratsiya.

Oxirgi ikki bosqich o'z ichida u yoki bu integratsion guruhgaga xos bo'lgan tomonlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir kichik bosqichlarni jamlashi ham mumkin.

Juhon iqtisodiyotida mintaqaviy integratsiya alohida kompaniyalar va davlatlararo darajalarda ham ro'y berishi mumkin.

G'arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya eng yuqori darajada rivojlangan. G'arbiy Yevropaning iqtisodiy integratsiyasi obyektiv iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda V.Gyugo, I.Kant kabi Yevropaning siyosiy, jamoat arboblari va faylasuflari tomonidan olg'a surilgan yagona qarashlar konsepsiysi bilan ham keng sug'orilgandir.

Juhon iqtisodiyotida Yevropa Ittifoqining (YEI) tashkil topishi va rivojlanishining yangi tarixi 1951-yildan boshlandi. Shu yilning aprelida

6 davlat - Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg a'zo bo'lib kirgan Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (EKPB) haqidagi bitim imzolandi. Bu G'arbiy Yevropa integratsiyasining o'ziga xos kirish qismi bo'ldi. Uning tashkil topishi va rivojlanishining boshlanish vaqtı yuqorida sanab o'tilgan davlatlar tomonidan 1957-yilda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YEIH) va atom energiyasi bo'yicha Yevropa Hamjamiyati (Evroatom) haqidagi bitimlarni imzolangan paytidir. Hamjamiyat tarkibiga rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar kirdi. Bu esa keyingi 15 – 20 yillar mobaynida iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori darajada bo'lishiga sabab bo'ldi.

Jahon iqtisodiyotida G'arbiy Yevropa integratsiyasining hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanishi nihoyatda qarama-qarshiliklardan iboratdir. Shu bilan birga Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining tashkil topishida uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar hozirgi kunga qadar muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda.

G'arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishini to'rt bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

Birinchi bosqich (50-yillarning oxiri - 70-yillarning o'rtalari). Bu davr YEIH davlatlari hayotida "oltin asr" hisoblanadi. Unda bojxona ittifoqi belgilangan muddatidan oldin tashkil etildi, yagona agrar bozori yaratildi. YEIHga uchta yangi davlat - Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya a'zo bo'lib kirdi. YEIH yoki "Umumiy bozor"ni tashkil qilishning maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda asta-sekin barcha to'siqlarni olib tashlash;
- uchinchi davlatlar bilan savdoda bir xil boj tariflarini o'rnatish;
- "insonlar, ishchi kuchi, kapital va xizmatlar" ning erkin harakatlanishiga qo'yilgan to'siqlarni olib tashlash;
- transport va qishloq xo'jaligi sohasida umumiyligini siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish;
- valyuta ittifoqi tuzish;
- soliq tizimini unifikatsiya qilish;
- qonunchilikni yaqinlashtirish;
- iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish.

Bularni amalga oshirish maqsadida boshqaruva strukturasi majmui - YEIH Vazirlar Kengashi, Yevropa Hamjamiyati komissiyasi, Yevropa Kengashi, Yevropa Sudi, Yevropa parlamenti tashkil qilindi.

YEIHning birinchi galdeg'i vazifasi sifatida a'zo davlatlar o'rta-sida tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchining umumiyo bozorini tashkil qilish vazifasini qo'yildi. Buning uchun Bojxona ittifoqi tuzildi. Aynan Bojxona ittifoqi YEIHning asosi hisoblanadi. Bojxona ittifoqi doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

- ishtirokchi davlatlar o'rta-sidagi o'zaro savdoda to'siqlar olib tashlandi;
- uchinchi davlatlarga nisbatan bir xil bojxona tariflari o'rnatildi;
- kapital, kreditlar, pul ko'chirmalarining erkin harakatlanishiga sharoit yaratildi;
- ishchi kuchi migratsiyasi erkinligi va turar joy tanlash erkinligi ta'minlandi.

Bu choralar YEIHga a'zo davlatlari o'rta-sida sanoat integratsiyasi ning tezlashishiga imkon berdi. Ayni bir paytda a'zo davlatlarda kom-pensatsion yig'imlar va qishloq xo'jaligi fondi orqali moliyalashtirish yordamida, umumiyo proteksionizm siyosatini qo'llash yo'li bilan agrar sohaning integratsiyalashuvini amalga oshirishga harakat qilindi. YEI doirasidagi agrar siyosat YEIga a'zo davlatlarning asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun bir xil minimal narx o'rnatishni kafolatlaydigan yagona narxlar tizimiga asoslanadi. Umumiyo bozorming shakllanishi YEIH davlatlarining milliy monopoliyalarini transmilliy korporatsiyalariga aylanish jarayonini tezlashtirdi, hamkor davlatlar iqtisodiyotiga kirishga imkon yaratdi. YEIHning rivojlanishi Hamjamiyatga a'zo davlatlarning yopiq milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yuzlangan ochiq tipdagi iqtisodiyotga intensiv ravishda o'tishini anglatadi.

Ikkinci bosqich (70 va 80-yillarning o'rtalari). Bu davr YEI tarixiga asosan, turg'unlik davri sifatda kirdi. Bu davrda YEIga a'zo davlatlar Yevropa valyuta hamkorligi dasturi, tashqi siyosiy konsultatsiyalar mexanizmini qabul qilishga muvaffaq bo'lsalar-da, vujudga kelgan salbiy jihatlar G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining jiddiy inqiroziga olib keldi. Bu inqiroz "evroskleroz" nomini oldi. 70 va 80-yillarning boshida YEI davlatlari o'rta-sida rivojlanish darajasi bo'yicha farq o'sib bordi. 1981-yilda YEIga Gretsiyaning kirishi bilan bu farq yanada kuchaydi. Chunki ushbu davlat iqtisodiyoti hamjamiyatning boshqa ishtirokchi davlatlari iqtisodiyotiga nisbatan juda past darajada rivojlangan edi.

Uchinchi bosqich (80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshi). Bu davr Hamjamiyat tarkibining yanada kengayishi bilan xarakterlanadi.

1986-yilda Ispaniya va Portugaliyaning YEIHga qo'shilishi a'zo davlatlar o'rtasidagi farqning yanada kengayishiga olib keldi. YEIHga a'zo bo'lgan vaqtida Portugaliyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad YEIH dagi o'rtacha daromadning taxminan 45-50%ga, Ispaniyada esa 3/4 qismiga to'g'ri kelgan edi. Yangi ishtirokchi davlatlarda aholining taxminan 1/5 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan bo'lsa, YEIH da esa o'rtacha 1/13 qismi to'g'ri kelgan. Shu bilan bir qatorda, aynan shu davrda G'arbiy Yevropa integratsiyasi yanada rivojlandi. Bunga birinchi navbatda, Yagona Yevropa Akti (YaEA)ning qabul qilinishi ham sabab bo'ldi. Ushbu aktda YEIHga ishtirokchi-davlatlarining umumiy maqsadi - Yevropa Ittifoqining tashkil qilinishi yana bir bor tasdiqlandi. Yevropa Ittifoqi Hamjamiyati ham siyosiy, ham iqtisodiy ittifoq bo'lib, a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy, valyuta-moliya, gumanitar sohalardagi hamkorliklar bilan bir qatorda tashqi siyosat xavfsizlikni ta'minlash sohalarida ham chuqur hamkorlikni amalga oshirish ishlari nazarda tutilgan. YAEAning asosiy maqsadi shundaki, YEIHga a'zo-davlatlar o'rtasida yagona xo'jalikni tashkil qiladigan yagona iqtisodiy hududning yaratilishidir. YAEAning qabul qilinishi bilan Hamjamiyatga a'zo davlatlar o'rtasida mikro va makroiqtisodiyot, siyosat va huquq, fan va ekologiya, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi integratsion jarayonlar kuchaydi. 90-yillar boshida YEIga a'zo davlatlar yagona bozor asoslarini yaratishni amalda tugatishib, valyuta, iqtisodiy va siyosiy ittifoqlarni shakllantirishga bevosita yaqinlashdilar.

To'rtinch bosqich (1990-yillarning o'rtasi va XXI asr boshi). Bu yagona Yevropa aktiga muvofiq 1993-yilning 1-yanvaridan boshlab Hamjamiyat chegaralari doirasida ishlab chiqarish vositalarining erkin harakati yo'lga qo'yildi. Hamjamiyat doirasida yagona iqtisodiy hudud vujudga keldi. Bu YEI doirasidagi iqtisodiy integratsiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga kirganini anglatadi.

Maastricht Bitimiga (1992-yil fevral) muvofiq 1994-yilning 1-yanvaridan YEIH Yevropa Ittifoqiga aylandi va uning a'zolari 15 taga yetdi. YEI doirasida yagona ichki bozorning tuzilishi amalga oshirildi. Maastricht bitimida integratsion hamkorlikning keyingi bosqichlarining maqsadlari (Yagona valyuta - EVROni emissiya qilish huquqiga ega yagona Yevropa bankini tuzish, ichki chegaralarsiz yagona G'arbiy Yevropa hududini tashkil qilish va boshqalar) e'lon qilingan edi.

YEI integratsiyasida hozirgi kunda ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda qiyinchiliklar ham ro'y bermoqda. Yuqorida YEI ga yangi a'zo davlatlarning kirishi munosabati bilan yuzaga kelgan davlatlararo iqtisodiy rivojlanishdagi farqlar ko'rib chiqilgan edi. YEIga yangi davlatlarning a'zo bo'lib kirishi ham sezilarli muammolari keltirib chiqarishi mumkin. Eng katta muammolardan biri Yevropa valyuta tizimi (EVT)ni shakllantirish davomida namoyon bo'lmoqda. 1992-yildagi 7%ga Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasini devalvatsiyasi oqibatida ro'y bergen EVT inqirozi Buyuk Britaniya va Italiyani avtomatik tarzda EVT dan chiqarib tashladi. Valyuta ittifoqini shakllantirishda unga kirish uchun qo'yilgan bir qator talablar ham davlatlarga qiyinchiliklar tug'dirgan edi. O'sha davrda al mashuv kursi inflayasiyasining darajasiga, foiz stavkalari darajasiga, budjet defitsiti va davlat qarzi bo'yicha qo'yilgan talablarga faqat Lyuksemburg javob bergen edi. YEIga a'zo davlatlar orasida Ittifoqni kengaytirish, integratsiyani chuqurlashtirish yo'llari haqida kelishmovchiliklar mavjud edi.

Jahon iqtisodiyotida G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi faqat YEI chegaralari bilan cheklanmaydi. 1962-yilda Yevropa erkin savdo assotsiyasi (EESA) tashkil topdi. EESA YEI dan farqli ravishda davlatdan yuqori turuvchi funksiyalarga va davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga ega emas. 80-yillarda EEST a'zo davlatlar soni 7 ta bo'lib, 90-yillar o'rtaida yana 4ta davlat - Buyuk Britaniya, Islandiya, Lixtenshteyn, Shveysariya a'zo bo'lib kirgan edi. Ushbu a'zo davlatlar uchinchi davlatlar bilan u yoki bu savdo-iqtisodiy kelishuvlarga erkin qo'shilishlari va bu davlatlarga nisbatan xohlagan bojxona tariflarini o'matishlari mumkin edi. EESAg'a a'zo-davlatlar o'rtaidagi savdoda erkin, bojsiz savdo rejimi faqat sanoat tovarlariga nisbatan qo'llaniladi. Chunki EESA konvensiyasining faoliyati qishloq xo'jalik mahsulotlariga ta'sir o'tkazmaydi.

1972-yilda EESA ga a'zo bo'lgan har bir davlat YEIH-YEI bilan o'zaro kelishuvlarni imzoladi. Unga muvofiq sanoat tovarlariga boj va son jihatdan cheklashlar asta-sekin kamaytirildi. Bu davlatlar o'rtaidagi bojsiz savdo murakkab qoidalar tizimiga asoslanadi. Yagona bojxona tarifi yo'qligi sababli EESA ichida bojsiz savdo erkinligi faqat a'zo davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

EESAg'a kiruvchi davlatlarning va ular o'rtaidagi iqtisodiy aloqalarning yuqori darajada rivojlanganligiga qaramasdan, EESA

to‘laqonli integratsion guruhgaga aylanmadidi. Amalda u YEIH - YEI uchun “farmklub”, ya’ni yangi a’zolar yetkazib beruvchi tashkilot bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda EESAning ko‘pgina a’zolari uni sharqiylar va G‘arbiy Yevropa davlatlari o‘rtasidagi istiqbolli erkin savdo zonasini sifatida qaramoqdalar.

Ma’lumki, 2004-yilning mayida Yevropa Ittifoqiga Chexiya, Sloveniya, Slovakiya, Vengriya, Polsha, Litva, Latviya, Estoniya, Kipr, Malta a’zo bo‘lib kirdi. Bundan tashqari Bolgariya, Turkiya, Ruminiya, Xorvatiya davlatlari hozirda YEIga kirish uchun muzokaralar olib bormoqdalar. Bu YEIning yanada rivojlanishiga guvohlik beradi.

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyaning muvaffaqiyatli rivojlanishi jahonning boshqa rivojlanayotgan mintaqalarining ham e’tiborini o‘ziga jalb qildi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida o‘ttizdan ortiq erkin savdo zonalari, bojxona yoki iqtisodiy ittifoqlar yuzaga keldi. Ammo jahon iqtisodiyotida eng sezilarli, rivojlanayotgan integratsion jarayon shimoliy Amerika erkin savdo zonasini - NAFTAning tashkil topishi va faoliyat ko‘rsatishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. AQSH bilan Kanada o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan iqtisodiy integratsiya va ularning G‘arbiy Yevropadagi davlatlar bilan olib borayotgan hamkorligi AQSHni qoniqtirmay qo‘ydi. Natijada 1994-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan shimoliy Amerika erkin savdo zonasini (NAFTA) haqidagi shartnoma imzolandi. NAFTAgan AQSH va Kanadadan tashqari Meksika ham qo’shildi. Shunday qilib ushbu blok hududi 370 mln.dan ortiq aholiga, kuchli iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan hududni qamrab oldi. NAFTA davlatlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar taxminan 7 trln. AQSH dollarini tashkil qilib, ushbu davlatlar ulushiga jahon savdo umumiy hajmining 18-20%ni yaqini to‘g‘ri kelmoqda.

NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy holatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- AQSH, Kanada va Meksika davlatlari o‘zaro savdo qiladigan tovarlarga nisbatan bojlarni bekor qilish;
- Shimoliy Amerika bozorlarni Meksika orqali AQSHga kirib kelayotgan tovarlar uchun bojlarni to‘lamaslikka harakat qiluvchi Osiyo va Yevropa kompaniyalari ekspansiyasidan himoya qilish;
- Meksikada bank va sug‘urta kompaniyalarning ishida Amerika va Kanada kompaniyalari kapital qo‘yilmalari va raqobatlariga bo‘lgan taqiqqlarni olib tashlandi.

- Atrof-muhitni himoyalash bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun uch tomonlama guruqlar tashkil qilish va boshqalar.

Shartnomaga ko'ra 2000-yilgacha AQSH Meksikadan import qilinadigan mahsulotlar turining 2/3 qismi uchun import tariflarini bekor qilgan edi. Imzolangan kelishuvlardan eng ko'p foydani savdo bloki iste'molchilari olgan, chunki raqobatning kuchayishi va tariflarning pasayishi natijasida keng tovarlar doirasiga nisbatan narxlar ham pasaya boradi. Amerika sanoatchilari foyda olishadi, chunki arzon ishchi kuchi oqimi kuchayadi. Kafolatlangan daromadning o'sishi Amerika iqtisodiyotining elektronika va kompyuter ta'minotida, qurilish materiallarida, avtomobil ehtiyyot qismlarini ishlab chiqarish va boshqa sohalarida kuzatilmoqda. Ayni bir paytda, shakar, sitrus mevalari, qishki sabzavotlar yetishtiruvchi Amerika fermerlari katta zarar ko'radi. Meksika esa NAFTA davlatlari yordamida o'z iqtisodiy o'sishi sur'atlarini oshirib (taxminan YalMning yillik o'sish darajasi 1,6%-2,6% atrofida), iqtisodiyotini isloh qilish va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilish muddatini yarim asrdan 10-15 yilga qisqartirishi mumkin.

NAFTAdan eng kam foydani Kanada oladi. Uning iqtisodiyoti AQSHniki bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, Meksika iqtisodiyoti bilan aloqalari unchalik rivojlanmagan. Ammo NAFTA rivojlanib borishi bilan Kanada ham integratsion jarayonga yanada ko'proq tortiladi va kengayotgan bozordan dividendlar oladi.

Jahon iqtisodiyotida NAFTA faoliyatining dastlabki ikki yilida eksport hajmini oshirish hisobiga qo'shimcha ish o'rnlari hosil bo'lishiga bo'lган umid oqlanmadı. Bundan tashqari, AQSHning Meksika bilan savdodagi ijobjiy saldosи yo'qolib, 1995-yilda defitsit paydo bo'ldi. Xullas ,NAFTAni tashkil qiluvchilarining rejasiga ko'ra, to'laqonli Shimoliy Amerika bozori 2010-yillarda tashkil qilinishi mumkin ekan. Bundan tashqari, hozirgi kunda Amerika iqtisodchilari Alyaskadan Olovli ergacha cho'zilgan o'ziga xos panamerika savdo blokini tuzishni rejalashtirmoqda.

Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlar Janubiy Amerikada ham faollashib bormoqda. 60-yillarning boshida Janubiy Amerika "erkin savdo zonasи"ni yaratish, so'ngra Markaziy Amerika umumiy bozorini – (MAUB) tashkil qilish ishlari rejalashtirildi. Biroq, ushbu mintaqada siyosiy va iqtisodiy inqiroz bu rejalarни amalga oshirishga imkon bermagan edi.

90-yillarning o‘rtalarida integratsion jarayonlar 1991-yilda Argentina, Braziliya, Urugvay va Paragvay o‘rtasida tuzilgan va 1995-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan “MERKOSUR” savdo paktining tuzilishi orqali yanada faollashdi. Bu paktga a’zo bo‘lgan davlatlarning umumiy aholisi 200 mln. kishidan ko‘proq bo‘lib, yillik umumiy YaIMi 550 mlrd. doll.dan ortiqroqdir.

MERKOSUR savdo guruhining tuzilishi natijasida unga a’zo bo‘lgan to‘rt davlat o‘zaro savdosidagi (90% atrofida) tarifli to‘sirlardan ozod qilindi, uchinchi davlatlardan importga esa bir xil tarif strukturasi va bojxona qoidalari kiritildi.

O‘z mintaqalarida integratsion jarayonlarni rivojlantirishga Afrika davlatlari ham intilmoqdalar. 1989-yilda Afrika qit’asining shimoliy qismida Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash va Tunis ishtirokida Arab Mag‘ribi Ittifoqi davlatlari tashkil topdi. Ushbu ittifoqqa a’zo bo‘lgan davlatlarning shartnomasida mintaqaviy integratsiya darajasida iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirilish ishlari nazarda tutiladi.

XX – XXI asrlar bo‘sag‘asida sharqiy Osiyoda ham integratsion jarayonlar kuchayib bordi. Osiyo “ajdarholari”dan biri - Singapur, shuningdek, “YaID”lar deb nom olgan Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin kabi Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiat-siyasi (ASEAN) qariyb 30 yillar mobaynida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu guruh doirasida o‘zaro hamkorlikning muvaffaqiyati ushbu davlatlarning ko‘pchligining iqtisodiyoti gurkirab o‘sishi, rivojlanishining bir-biriga mosligi, yaxshi yo‘lga qo‘ylgan va uzoq tarix an‘analariga ega bo‘lgan o‘zaro savdo aloqalari, shuningdek, tartibga solib bo‘lingan hamkorlik shakli bilan chambarchas bog‘liqidir.

Shunday qilib, ASEAN rejalarida ishtirokchi davlatlar bojlarini 2000-yilgacha 38 ming turdag'i tovarlar bo‘yicha o‘rtacha 5% gacha qisqarish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, 2003-yilga kelib erkin savdo zonasini tashkil qilish haqida qaror qabul qilingan edi.

Jahon iqtisodiyotida Sharqiy Osiyoda iqtisodiy integratsion jarayonlarning rivojlanishi istiqbollarini ko‘p jihatdan Osiyo - Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (OTIH)ning tuzilishi bilan bog‘lashadi. Ushbu tashkilotga Osiyo, shuningdek, Shimoliy va Janubiy Amerikaning 18 davlati a’zo bo‘lib kirgan edi.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkilotining rejalariga muvofiq ushbu mintaqada 2020-yillarga borib jahonda eng yirik bojxona va ichki to‘sirlarsiz erkin savdo zonasini tashkil qilish nazarda tutilgan.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini baholagan ko'plab mutaxassislar uning rivojlanishi stixiyali ekanligi va o'ziga xosligini ta'kidlaydilar. Buning ustiga integratsion munosabatlar hozircha ushbu mintaqalarda unchalik rivojlangan emas. Masalan, ASEAN tizimidagi savdo zonasining iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichi, ya'ni tarif va tarifli to'siqlarsiz erkin savdo zonalariga kiritish mumkin. OTIHga nisbatan esa hozircha erkin savdo zonasasi deb emas, "erkin iqtisodiy assotsiatsiya" deb aytish mumkin. Ayni bir paytda, iqtisodiy siyosatni o'zaro muvofiqlashtirish natijasida mintaqaning ichki savdosi va kapital bozorlarining tez rivojlanishi Osiyo-Tinch okeani mintaqasining integratsiyasi erkin savdo zonasiga o'tishiga imkon beradi.

Jahon iqtisodiyotida integratsiyaga, ya'ni o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirishga bo'lgan intilish Fors ko'rfazidagi Arab davlatlari orasida ham kuzatilmogda. 1981-yildan buyon Saudiya Arabiston, Quvayt, Qatar, Baxrayn, Birlashgan Arab Amirliklari va Ummon kabi davlatlar o'z ichiga olgan "neft oltiligi" Hamkorlik Kengashi davlatlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1992-yilda Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT-EKO) tashkil qilinishi haqida fikrlar bildirildi. Uni tashkil qilish taklifi bilan eron, Pokiston va Turkiya davlatlari chiqishgan edi. Ta'sischilarning fikricha, IHT-EKO o'zida MDH mamlakatlari ham birlashtirgan bo'lajak Markaziy Osiyo umumiy bozorining timsoli bo'lmog'i lozim edi. Shunday qilib, rivojlanayotgan davlatlar hamkorligi, ularning integratsiyaga bo'lgan intilishlari haqida fikr bildirganda shuni nazarda tutish kerakki, real integratsion jarayonlar ushbu davlatlarda hali juda kuchsiz bo'lib, xarakteri va harakatlantiruvchi omillari bilan, rivojlanish sur'atlari bilan bir-biridan keskin farq qilib turadi. Rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy hamkorligi, ular e'lon qilgan integratsion jarayonlarga ko'rيلayotgan tayyorgarlik bosqichidir, xolos. Jahon iqtisodiyotida e'lon qilingan integratsion guruhlarning ko'pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yetuk emasligini, milliy xo'jaliklarning oddiy va strukturaviy differensiylasizligini, bozor va moliyaviy infrastrukturalarining rivojlanmaganligi bu tuzilmalarni yo harakatsiz qoldirmoqda yoki butunlay muvaffaqiyasizlikka uchratmoqda.

Mustaqil Respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi siyosati jahondagi juda ko'p mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarni kengaytirishda uz ifodasini topmoqda. Chet el davlatlari bilan o'zaro munosabatlarda respublika milliy manfaatlarini amalgalashishning

asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha ikki tomonlama hukumatlararo komissiyalar faoliyatini hisoblanadi. Hozirda bunday komissiyalar 30 dan ortiq mamlakatlarda asosiy sheriklarimiz bilan tashkil etilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston 140 dan ortiq mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni o‘rnatgan. Ularning orasida Janubiy Koreya, Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Turkiya, Fransiya, Yaponiya, Eron, Gollandiya, MDH mamlakatlaridan – Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Turkmaniston bilan savdo aloqalari keng yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonning asosiy tashqi savdo ko‘rsatkichlari 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari (million AQSH dollarri)¹

	2012	2013	2014	2015	2016
Tashqi savdo aylanmasi	21197,3	21209,6	22199,2	26365,9	26416,1
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	8659,5	8010,4	9369,2	11345,7	12731,8
Boshqa xorij mamlakatlari	12537,8	13199,2	12830,0	15020,2	13684,3
Eksport	11493,3	11771,3	13023,4	15021,3	13599,6
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	3926,6	3921,3	5647,7	6720,1	7703,4
Boshqa xorij mamlakatlari	7566,7	7850,0	7375,7	8301,2	5896,2
Import	9704,0	9438,3	9175,8	11344,6	12816,5
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	4732,9	4089,1	3721,6	4625,6	5028,4
Boshqa xorij mamlakatlari	4971,1	5349,2	5454,3	6719,0	7788,1
Eksport-import saldozi	1789,3	2333,0	3847,6	3676,7	783,1
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	-806,3	-167,8	1926,2	2064,5	2675,0
Boshqa xorij mamlakatlari	2595,6	2500,8	1921,4	1582,2	-1891,9

O‘zbekiston Respublikasi eksporti tuzilmasida xomashyo tovarlari asosiy o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston paxta tolasi eksporti bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlardan birida turadi. O‘zbekiston eksportining tovar tarkibida asosiy o‘rinni energiya manbalari va neft mahsulotlari (o‘rtacha 28 %), xizmatlar (o‘rtacha 12%), paxta tolasi (o‘rtacha 9,7%) va boshqalar (o‘rtacha 26%) egallaydi. Import tarkibida esa asosiy

¹ O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami 2017. T.: 2014 y. 313-b.

o‘rinni mashina va asbob-uskunalar (o‘rtacha 48,5%), kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar (o‘rtacha 12,5%), oziq-ovqat mahsulotlari (o‘rtacha 10,1%) va boshqalar (o‘rtacha 10,4%) egallaydi (2-jadval).

2-jadval

**O‘zbekiston eksport va importning tovar tarkibi¹
(foiz hisobida)**

	2012	2013	2014	2015	2016
Eksport	100	100	100	100	100
<i>Shu jumladan</i>					
Paxta tolasi	9,3	8,6	12,1	9,0	9,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	4,5	6,0	9,7	13,3	6,4
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	5,6	5,0	5,1	5,6	5,6
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	24,7	34,2	22,8	18,5	34,6
Qora va rangli metallar	7,0	5,0	6,9	7,4	7,8
Mashina va asbob-uskunalar	7,6	2,9	5,5	6,6	6,5
Xizmatlar	10,4	8,8	10,2	11,8	17,3
Boshqalar	30,9	29,5	27,7	27,8	12,5
Import	100	100	100	100	100
<i>Shu jumladan</i>					
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,3	9,0	10,5	11,5	10,9
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	11,6	11,1	13,8	12,5	13,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,6	3,5	7,1	8,5	6,6
Qora va rangli metallar	7,7	6,3	8,1	7,6	7,2
Mashina va asbob - uskunalar	52,4	56,5	44,0	44,0	45,9
Xizmatlar	4,4	4,4	5,3	5,0	5,8
Boshqalar	11,0	9,2	11,2	10,9	9,9

O‘zbekistonga 30 dan ortiq mahsulot turi chetdan keltiriladi. Jumladan, bug‘doy, go‘sht, sut va sut mahsulotlari, sariyog‘, shakar, moyli o‘simliklar urug‘i va mevalar, choy, qahva va shirinliklar, kartoshka, farmatsevtika mahsulotlari, kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari, charm va poyabzal mahsulotlari, avtomobillar, qora va

¹ O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami 2017. 324-b.

rangli metallar hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar, teleradioapparatura, mashina va ularning uskuna-jihozlari importning asosiy bandlarini tashkil etadi.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqining (YEI) Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo-iqtisodiy sherigi hisoblanadi. 1994-yilning oktabrida O'zbekiston bilan YEI o'rtaida diplomatik munosabatlar o'rnatildi va Bryusselda, YEI huzurida O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi ishlay boshladi. 1995-yilda YEI bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtaida sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi. Bu bitim YEIga a'zo mamlakatlar va O'zbekiston o'rtaida iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda.

7.4. Zamonaviy xalqaro migratsiya

Mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari miqdoriga ishchi kuchi migratsiyasi ham ta'sir qiladi. Ishchi kuchi migratsiyasi murakkab jarayon bo'lib, turli omillar ta'siri ostida (masalan, ish haqi darajasidagi o'zgarishlar, ishsizlik va h.k.) ishchi kuchining bir hududdan boshqa bir hududga ko'chib o'tishini bildiradi.

Migratsiya ikki darajada, ya'ni mamlakat ichida va xalqaro darajada ro'y berishi mumkin. Bir mamlakat ichida ro'y bergan migratsiya ichki migratsiya deb atalib, u quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

1) tugal migratsiya – aholining doimiy yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq migratsiya;

2) tebranuvchi migratsiya – ishchi kuchining bir hududdan boshqa hududga muntazam davriy ravishda qatnab ishlashi bilan bog'liq migratsiya;

3) mavsumiy migratsiya – mavsumiy ish faoliyati bilan bog'liq migratsiya;

4) tasodifiy migratsiya – ishchi kuchining ba'zi hollarda boshqa hududlarga borib kelishi bilan bog'liq migratsiya.

Ishchi kuchi migratsiyasi shunchaki ro'y bermay, uning negizida ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy sabablar yotadi. Ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy vazifasi sifatida mamlakat bo'ylab mehnat resurslarining samarali taqsimlanishini ta'minlash, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif nisbatini muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu

vazifaning amalga oshishi natijasida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi oshadi.¹

Aholining migratsion harakatlari ishchi kuchi resurslarining hududlar bo'yicha qayta taqsimlanishi va takror ishlab chiqarilishini yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston iqtisodiyotining bugungi holati uchun manfiy migratsion saldo xos bo'lib, u mamlakat mustaqilligidan so'ng avj oldi (3-jadval).

3-jadval

Respublikada aholining yillik migratsion harakatlari (ming kishi)²

Ko'rsatkichlar	2000y.	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2016 y.
Kelganlar soni	149,6	139,7	147,4	146,1	144,9
Sh.j. qishloq joylarda	64,9	49,7	60,3	60,5	59,3
Ketganlar soni	224,8	232,7	243,5	253,1	210,2
Sh.j. qishloq joylarda	85,3	87,0	105,1	111,8	97,4
Migratsion saldo	-75,2	-93,0	-96,0	-107,0	-65,3
Sh.j. qishloq joylarda	-20,4	-23,3	-44,8	-51,3	-38,1

Mamlakatimizda 2000-yil jami manfiy migratsion saldo 75,2 ming kishini tashkil etib, uning yuqori miqdori Toshkent, Samarkand, Andijon viloyatlari hamda Toshkent shahri ulushiga to'g'ri kelgan. Mazkur yillarda aholi ko'chish strukturasini tahlil qiladigan bo'lsak, yuqori migratsion saldo asosan, boshqa millat vakillarining mamlakatdan ko'chib ketishi hisobiga ro'y berganining guvohi bo'lamiz. Shu sababli turli millat vakillari istiqomat qiladigan yirik shahar va hududlarda aholining jo'nab ketish koeffitsienti yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan.

Respublikada keyingi yillardagi aholining migratsion harakatlari ularning nisbatan sanoatlashgan shaharlarga va yaqin xorijiy mamlakatlarga ish izlab borishlari bilan asoslanadi. Chunki bu vaqtga kelib ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan hududlardagi aholi o'zlariga munosib ish topish va yuqori mehnat daromadini qo'lga

¹ Sh.Shodmonov, U.G'afurov Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: Fan va texnologiyalar. 2010 y. 368-b.

² <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-demografik-korsatkichlari-tahlili>

kiritish maqsadida o‘z yashash joylarini tark eta boshladilar. Mazkur ko‘rsatkich 2005-yildan boshlab oshib borib (93,0 ming kishi), 2015-yilda o‘zining eng yuqori nuqasiga yetib, 107,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yil yakuniga ko‘ra esa 65,3 ming kishidan iborat bo‘lgan. Jami migratsion saldo miqdorida Qoraqlapog‘iston Respublikasining ulushi katta bo‘lib, mazkur vaziyat noqulay ekologik muhit natijasida aholi sog‘lig‘ining yomonlashuvni, o‘limlar miqdorining oshishi, turmush darajasining pasayishi va ishsizlikning yuqori ko‘rsatkichi kabi holatlar oqibatida kelib chiqqan. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo va Surxondaryo^{*} viloyatlarida ham aholining migratsion harakatlantish sur’ati yuqori bo‘lib, ushbu hududlardagi demografik jarayonlarning murakkab ko‘rinishga egaligi va unga bog‘liq ravishda mehnat bozorining katta bosimli holati oqibatida yuz bermoqda.

YAIM hajmining ko‘payishiga mamlakatdagi ishchi kuchi resurslari juda katta ta’sir qilar ekan, demak, o’sha resurslardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga ko‘plab omillar ta’sir qilib, uning natijasida ishchi kuchi bozori holati va tarkibi, ishchi kuchi taklifi, unga bo‘lgan talab miqdor va sifat jihatdan o‘zgarib turadi. Shu sababli, ishchi kuchi resurslari mamlakat iqtisodiyotiga va uning tarmoqlariga safarbar qilinishi holatini tahlil qilishda omilli yondashuv talab etiladi. Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishda ularni geografik va tabiiy-iqlimiylar, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar kabi guruhlarga bo‘lib o‘rganamiz.

Ishchi kuchi bandligini ta’minalashga geografik va tabiiy omillar sezilarli darajada ta’sir qiladi. Chunki respublikamiz mintaqalari turli tabiiy va geografik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu holat hududiy mehnat bozorlarining tabiiy sharoitga yuqori ta’sirchanligini anglatadi. Masalan, Orolbo‘yi mintaqasidagi ishsizlikning yuqori darajasi ekologik vaziyat bilan asoslanadi. Bundan tashqari, iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining yuqori ulushi respublikada ish bilan bandlikning mavsum va iqlim omillariga yuqori darajada bog‘liqligini keltirib chiqaradi. Noqulay kelgan ob-havo sharoiti qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatib, hosilning keskin kamayishiga sabab bo‘ladi. Ushbu holat esa sanoat, jumladan, qayta ishslash, oziq-ovqat va yengil sanaot tarmoqlari korxonalarining to‘la

quvvatda ishlamasligi, ishchilarning bo'sh qolishi va qisqartirilishiga olib keladi. Shuningdek, ushbu omillar norasmiy sektorda ish bilan bandlar sonining o'sishi va ishsizlikning ko'payishiga ham sababchi bo'ladi. Respublikamizning qishloq joylarida mavjud yuqori darajadagi mavsumiy ishsizlik holati ham aynan mavsum va ob-havo sharoiti bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlar mavsumdan tashqari vaqtida ishsiz qolmoqda yoki nomuayyan, vaqtinchalik va bir martalik ishlar bilan shug'ullanishga majbur bo'lmoqda.

Hududlarda ishchi kuchi bandligi mintaqada mavjud tabiiy resurslariga ham bog'liqdir. Tabiiy resurslar hududiy iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi. Masalan, tabiiy xom ashyo resurslariga boy bo'lgan Navoiy, Toshkent, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, ushbu mintaqalar ishchi kuchining salmoqli qismi mazkur tarmoqlarda banddir.

Ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga demografik omillar ta'siri kattadir. Bunda, demografik omillar ishchi kuchining tabiiy harakati va ish bilan bandlik tarkibidagi tabiiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Aholi, jumladan, ishchi kuchining o'lim ko'rsatkichi ish bilan bandlikka sezilarsiz bo'lsa-da, ta'sir qiladi. Agar ushbu ko'rsatkich yuqori darajada ro'y bersa, u holda mamlakat ishchi kuchi tarkibining sifat va miqdor jihatdan qisqarishiga olib keladi. Shu bilan birga kasalliklarning ko'payishi, ayniqsa, kasb kasalligi va jarohatlari natijasida ham ish bilan band fuqarolar o'z ish joylarini yo'qotib qo'yishlari va ishchi kuchi safidan chiqib ketishlari mumkin.

Shuningdek, demografik jarayonlar ichida tug'ilish ko'rsatkichi ish bilan bandlikka katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki farzand dunyoga kelishi natijasida ayollar vaqtinchalik ishchi kuchi safidan chiqadi va iqtisodiy nofaol aholi tarkibiga qo'shiladi. O'zbekistonda ayollar farzandi 2 yoki 3 yoshga yetguncha tug'ruq ta'tilda bo'ladi. Demak, bu holatda ayollar kamida 2 yildan so'nggina yana iqtisodiy faol aholi tarkibiga qaytishi mumkin bo'ladi. Shu sababli mamlakatda tug'ilishning yuqori ko'rsatkichi ayollar ish bilan bandligiga ta'sir qiluvchi bosh omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda respublikada yiliga o'rtacha 550 ming nafar chaqaloq tug'iladi, bu esa, o'z

navbatida, shuncha miqdordagi ayollarning mehnat bozoridagi faolligiga ma'lum muddat bo'lsa-da chek qo'yadi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, gender omili ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanish va ularni safarbar etishga ta'sir qiluvchi demografik omillar ichida alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda ayollarning iqtisodiyotga jalb qilinishi va jamiyatning faol aholisi tarkibiga qo'shilishi o'ziga xos xususiyatga egadir.

Respublikamizda so'nggi yillarda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va tub o'zgarishlar ayollarning bandlik muammolari hamda ularning ishchi kuchi bozoridagi o'rnini belgilab berdi. Jumladan, ayollar sog'lig'iga alohida e'tibor berilishi natijasida ularning faollik darajasi sezilarli oshdi.

Mamlakat ishchi kuchi resurslari o'zgarishiga ta'sir qiladigan yana bir eng asosiy omillardan biri bu ishchi kuchi migratsiyasi, ayniqsa, tashqi migratsiyadir. Mamlakatimiz aholi sonining yildan-yilga ortib borishi va ishchi kuchining yetarlicha ish o'rnlari bilan ta'minlanma-ganligi oqibatida respublikamizda emigrantlar soni hamon yuqoriligidcha qolmoqda. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, norasmiy tarzda xorijga ishlash uchun ketayotganlarning asosiy qismi (85,0%) avval hech qayerda ishlagagan yoki doimiy ish joyiga ega bo'lmagan aholi tashkil etmoqda. Shuningdek, ularning 70,0% ga yaqini faqatgina o'rtalumotga ega aholi bo'lsa, o'rtalumotli 20,0% ni tashkil etmoqda. Bunday holat o'rtalumotga ega bo'lgan ishsizlar mahalliy mehnat bozorida raqobatbardosh emasligi sababli o'zlariga munosib ish topishga qiyinalishlaridan dalolat beradi.

Demak, ta'lim tizimi ham ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu omilining ishchi kuchi bozoriga, ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishga ko'rsatadigan ta'sirini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- aholi, jumladan, yoshlar savodxonlik darajasining yuqori ko'rsatkichi malakali ishchi kuchi bozorini vujudga keltiradi;
- ishchi kuchi bozorida raqobat kurashining paydo bo'lishiga olib keladi;
- ishchi kuchi taklifining sifat tarkibini takomillashtiradi;

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan yoshlar sonining ko'payishi ishchi kuchi resurslari tarikibida iqtisodiy nofaol aholi ulushining ortishiga sabab bo'ladi;

- iqtisodiyot tarmoqlarining tegishli yo'naliishlardagi malakali kadrlarga bo'lgan talabini optimal qondirishni ta'minlaydi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq respublikazda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit va milliy urf-odatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishning milliy modeli ishlab chiqildi. Chunki islohotlardan oldingi kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimi respublikada amalga oshirilayotgan demokratik va bozor o'zgarishlari talabiga javob bermay qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi ishlab chiqilgan mamlakatda iqtisodiy taraqqiyotga erishish milliy modeli kadrlar tayyorlash bo'yicha yangi tizimning asosi, yadrosi hisoblanadi. Bunda kadrlar tayyorlash milliy modelining mazmuni va o'ziga xos xususiyati tizimning butunligi, unga asosiy tashkil etuvchilar sifatida davlat, jamiyat, shaxs, uzlusiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi komponentlarni kiritishdan iborat.

Mamlakat ishchi kuchi resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning eng birinchi yo'li bo'lib qonunchilik bazasini mustahkmalash, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularni amaliy hayotga tadbiq etish hisoblanadi. Chunki bugungi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan ba'zi bir me'yoriy hujjatlar qayta ko'rib chiqish, tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishni talab qildi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda YaIM hajmini ko'paytirish, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga erishish, aholi turmush darajasini ko'tarish va xalq farovonligini oshirishda ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishning quyidagi yo'naliishlarida chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, mehnatga layoqatlilik yosh chegarasini o'zgartirish kerak. Ya'ni mehnatga layoqatlilik yoshini 16 yosh emas, balki 18 yosh qilib belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'limga oid milliy qonunchilikka ko'ra, yoshlar o'rta maktabni (9-sinfni) 16 yoshda (eng kamida 15 yoshda) bitirib chiqqanlaridan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida o'qishni davom ettiradilar va 19 yoshda (eng kamida esa 18 yoshda) mazkur dargohni tamomlaydilar. Demak, yoshlar kamida 18 yoshda (asosan 19 yoshda) mehnat bozorida ilk

bora ishchi kuchi sifatida namoyan bo'lishlari mumkin. Bu holat esa jamiyatda iqtisodiy nofaollik darajasining tabiiy (majburiy) tarzda oshib borishini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, fuqarolarga to'la huquqiy layoqatlilik ham, harbiy xizmat majburiyati ham 18 yoshga to'lgandagina beriladi.

Ikkinchidan, ta'lim islohotlarining amalga oshirilishi natijasida aholining ishchi kuchi bozoriga chiqishi kamida 3 yilga kechikishini inobatga olib, mamlakatimizda turmush darajasining yaxshilanishi natijasida aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi oshib, borayotganligi va bugungi kunda bu ko'rsatkich 72,1 ni tashkil etayotganligini e'tiborga olib, respublikada aholi mehnatga qobiliyatli yoshning yuqori chegarasini o'zgartirish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni bunda mazkur chegarani ayollar uchun 59 yosh qilib, erkaklar uchun esa 64 yosh qilib belgilash lozim. Buning natijasida ba'zi tarmoq va lavozimlarda nafaqa yoshidagilar mehnati diskriminatsiyasining oldi olinadi, shu bilan birga, pensiya yoshi chegarasida bo'lgan aholining daromadlari oshadi, ularning jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlariga to'lovlar hajmi ko'payadi. Bundan tashqari, davlat budgetiga tushumlar (daromad solig'i, ijtimoiy to'lovlar) ko'payib, uning xarajatlari (transfert to'lovlar) kamayadi. Shuningdek, budgetdan tashqari pensiya jamg'armasining kishi boshiga to'g'ri keladigan xarajatlar yuklamasi ham kamayishi ro'y beradi.

Uchinchidan, «Mehnat organlariga bo'sh ish o'rirlari va lavozimlar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish tartibi to'g'risida»gi Nizomni qayta ko'rib chiqish kerak. Chunki mazkur Nizomning amaliy tadbipi past ko'rsatkichga ega bo'lib, ish beruvchilarning mavjud bo'sh ish o'rirlari va lavozimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni mehnat bo'limlariga taqdim etish mexanizmiga samarasiz amal qilmoqda. Tahlillar ko'rsatishicha, yirik korxonalarining 50% dan kamroq'igina bo'sh ish o'rirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishsa, kichik korxona va firmalar esa bo'sh ish o'rirlari bankini shakllantirishda deyarli ishtirok etmaydilar. Shu bois mehnat organlarida ro'yxatga olingan vakansiyalar soni ularning haqiqiy miqdoridan bir necha barobar kamdir. Mazkur holatlar mehnat organlarining ish beruvchilar bilan o'zaro aloqasini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab etmoqda.

To'rtinchidan, ishsizlarni ishga joylashtirishda xususiy sektorning ishtirokini kuchaytirish va bu ishda xususiy kadr agentliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash lozim. Bugungi kunda respublikamizda xususiy kadr agentliklari faoliyati deyarli mavjud emas. Faqat ayrim internet saytlaridagina bo'sh ish o'rirlari va ish qidiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilmoqda. Ishga joylashtirish va ishchi kuchi yollash bo'yicha xususiy sektor xizmatidan foydalanish natijasida mehnat bozorida raqobat muhiti shakllanadi. Sog'lom raqobat esa talab va taklifning qondirilishini hamda ular o'rtasidagi o'zaro miqdoriy hamda tarkibiy nisbatning yaqinlashuvini ta'minlaydi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz YAIM hajmini ko'paytirishda eng asosiy omillardan biri ishchi kuchi resurslari hajmi, tarkibi va sifati juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun mamlakatda ishchi kuchi resuslaridan samarali foydalanishda yuqorida ko'rsatilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

XX asr oxiriga kelib ma'lum bo'ldiki, insoniyat o'z rivojlanish tarixida navbatdagagi energetik (va ekologik) bosqichga qadam qo'ydi. Buni bir qator belgilarni yordamida ifodalash mumkin.

Sayyoramiz aholi sonining tez (XX asrning ikkinchi yarmida 2,4 baravar) o'sishi va o'rtacha kishi boshiga energiya iste'molining sezilarli ortishi insoniyat tarixida misli ko'tilmagan darajada energiya iste'mol qilinishiga olib keldi. Bunda energiya iste'mol qilish mamlakatlar va qit'alar bo'yicha bir xil taqsimlanmadи: Juhon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2000-yilda dunyo bo'yicha o'rtacha kishi boshiga energiya iste'moli 1,62 t. bo'lib, nest ekvivalentida AQSHda 8,32 t., Kanadada 7,85 t., Finlyandiyada 6,41 t., Avstraliyada 5,74 t.dan Bangladeshda 0,14 t., Yamanda 0,2 t.gacha ko'rsatkichlar kuzatilgan¹. Energetika resurslarining asosiy iste'molchilari rivojlangan mamlakatlar bo'lib, bu mamlakatlarda yer shari aholisining atigi 15%ni yashaydi. Shu bilan bir paytda dunyodagi ko'plab mamlakatlarda energetika resurslari tanqisligi sezilib, aholining chorak qismi umuman elektr energiyasidan mahrum.

¹ R.G.Xodov Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomikoy. Uchebnik. M.: Ekonomist 2004. 310-312. str.

O'sib borayotgan aholining energetik ehtiyojlari tez sur'atlarda o'sishi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ikkita asosiy tabiiy to'siqqa, energetik bo'sag'aning ikkita tarkibiy qismiga duch kelmoqda. Dastlabki to'siq ekologik to'siqdir. Yoqilg'ini yoqish natijasida atmosferaga chiqariluvchi zaharli moddalarning keskin o'sishi «parmik effekti»ning paydo bo'lishi va tabiiy ofatlarga olib keladi. Xalqaro energetika agentligi bergen ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha atmosferaga chiqariluvchi SO₂ hajmi 1999-yilda kishi boshiga Qatarda 63,11 t., AQSHda 19,8 t., Avstraliyada 16,95 t., Kongoda 0,13 t., Mozambikda 0,06 t., Efiopiyada 0,06 t.ni tashkil qilgan¹.

Ikkinci to'siq bu resurslarning cheklanganligi bo'lib, ularning zaxirasi tugashi bilan yangi mineral xomashyo konlarini razvedka qilish, yoqilg'i resurslarini qazib olish va tashish xarajatlari oshib ketadi. Bu esa energetika sektorining iqtisodiyot uchun og'ir yukka aylanishiga olib keladi hamda boy va kambag'al mamlakatlar o'rtaсидаги farqning yanada chuqurlashuviga sabab bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, energetika sektorining inersion rivojlanishi boshi berk yo'nga olib keladi. Bunday yondashuvda insoniyat energetik bo'sag'adan o'ta olmaydi va uning oldida tiz cho'kishga majbur bo'ladi. Energetika sektorini o'zgartirishning prinsipial jihatdan yangi yo'llarini izlash, energetik bo'sag'ani jahon energetika sektorining barcha bo'g'inlarida innovatsion o'sish va uni tubdan tarkibiy qayta tuzish asosida bosib o'tish lozim.

Energetika sektori iqtisodiyot rivojlanishining asosidir. Aynan energiyadan foydalanish samaradorligi xo'jalik subyektlari va butun mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini belgilab beradi.

O'z energiya resurslari zaxiralalarining mavjudligi O'zbekistonga mustaqillik yillari davomida energetik mustaqillikni ta'minlashdan tashqari energetika resurslari eksportini oshirish hamda energiya resurslari narxining nisbatan arzonligi sababli energetika sektoriga taalluqli bo'Imagan korxonalarни qo'llab-quvvatlash, ko'plab ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishga imkon berdi. Tobora kuchayib borayotgan xalqaro raqobat sharoitlarida barqaror iqtisodiy

¹ Shu yerda 620. str.

o'sishning ehtiyojlari respublika yoqilg'i-energetika majmuining rivojlanishiga yangicha talablar qo'yadi.

Jahon bozoriga intergatsiyalashuvni boshlagach, O'zbekiston sobiq Ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlar kabi bu bozorda o'zining raqobatbardoshligi yetarli darajada bo'limgan mahsulotlariga talabning pasayishiga uchradi, bu esa aholi va korxonalar to'lov layoqatining keskin pasayishini asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, energetika siyosati, avvalo, ijtimoiy o'zgarishlarning vositalaridan biri sifatida ko'rib chiqildi, uning vazifalari energoresurslar narxini aholi va korxonalarining normal faoliyatini uchun maqbul darajada ushlab turishga aylandi. Bunday yondashuvga faqat energetika resurslari bilan yetarli darajada ta'minlangan, ya'ni energetika mustaqilligi sharoitlarda erishish mumkin edi.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalari juda murakkab vaziyat bilan tavsiflanadi – mamlakatda qayta ishlash korxonalarining taqchilligi sezilib turgan. Energiya resurslarini qazib olish sur'ati o'sib, mavjud Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining bu resurslarni to'liq qayta ishlashga quvvati etmaganligi sababli Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurish haqida qaror qabul qilindi. Loyihaning texnologik qismini Fransiyaning "Teknip" firmasi, Yaponianing "Marubeni" va "Djey-Dji-Si" kompaniyalari bajargan. Fransuzlar bilan shartnomaga 1995-yilda tuzilgan bo'lib, zavodning o'zi Ko'kdumaloq koni asosida 1997-yilda ishga tushirildi. Ushbu zavod ishga tushgandan buyon yiliga 2,5 mln. tonna gaz ishlab chiqara boshladи, mamlakat ichki bozorini nisbatan arzon bo'lgan yuqori oktanli benzin, aviakerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg'isi va boshqa ko'plab iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun zarur mahsulotlar bilan ta'minlay boshladи.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy shakllaridan biri – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Har bir mamlakatdagи savdo siyosatida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy, huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'langandir. Savdo siyosatining tub mohiyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy masalalar asosiy hisoblanadi.

Mamlakatlar o'z ichki bozorlarini himoya qilish, chet el bozorlariga ko'proq tovarlar chiqarish maqsadida tashqi iqtisodiy

faoliyatlarni savdo siyosatini mavjud vositalari yordamida tartibga soladilar. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalari xarakteriga ko‘ra ta’rif – ya’ni boj tarifini qo‘llashga assoslangan va notarif – boshqa barcha vositalarga bo‘linadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni, ayniqsa, tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda, mavjud usullardan qaysi biridan foydalanish muammosi vujudga keladi.

Bu chora-tadbirlar jahon xo‘jaligida ma’lum ustuvorliklarga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Dunyo tajribasi shauni ko‘rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish:

- bir tomonlama, ya’ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar davlat organlari tomonidan savdo bo‘yicha sherik davlatlar bilan kelishmaslikdan va ular bilan maslahatlashmagan holda qo‘llaniladi. Odatda, biror-bir davlat tomonidan amalgga oshirilayotgan bir tomonlama chora-tadbirlar, boshqa davlatlar tomonidan xuddi shunday tartibda qabul qilingan chora-tadbirlarni qarama-qarshi tarzda qo‘llashga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, savdo bo‘yicha sherik davlatlar o‘rtasida siyosiy ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga va keskinlashuviga olib keladi.

- ikki tomonlama, yani savdo siyosati choralar o‘zaro sherik bo‘lgan davlatlar o‘rtasida kelishilgan holda amalgga oshiriladi. Misol uchun, o‘zaro kelishilgan holda har bir tomonidan iqtisodiy manfaatlariga ziyon etkazmagan holda, konvension bojlar qo‘llanilishi, mamlakatlar tovarlarining qadoqlanishiga, belgisiga qo‘yilgan texnik sabablar, sifat sertifikatlarini o‘zaro tan olishi to‘g‘risida kelishib olishlari mumkin.

- ko‘p tomonlama, ya’ni savdo siyosati kelishilgan holda, ko‘p tomonlama shartnomalar asosida amalgga oshiriladi.

Davlatning xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko‘ra xalqaro savdo siyosati proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo‘linadi.

Erkin savdo – davlatning tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya’ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanishi.

Proteksionizm – tarif va notarif usullarini qo‘llash orqali ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoyasiga qaratilgan davlat siyosati.

Bularning qaysi biri qanday afzallikka ega yoki ega emasligi bir-biridan ustunligi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillar mavjud bo'lib kelgan tortishuvlarning asosidir. Tashqi savdo amaliyoti tarixida bir savdo siyosatidan ikkinchi savdo siyosatiga o'tish davrlarini kuzatish mumkin.

50-60-yillarda dunyo xo'jaligi iqtisodiyoti uchun proteksionistik siyosatidan erkin savdo siyosatiga o'tish xos bo'ldi.

70-yillarning boshlarida esa teskari tendensiya, ya'ni erkin savdo siyosatidan tariflar orqali, ayniqsa, notarif usullari yordamida ichki bozorni himoya qilish siyosatiga o'tish kuzatila boshladi.

Proteksionistik tendensiya taraqqiyoti proteksionizmni bir necha shakllarga ajratish imkonini beradi:

- selektiv protetsionizm - ayrim davlatlar, ayrim tovarlarga qarshi qaratilgan.

- soha proteksionizmi - xalq xo'jaligining ma'lum sohasini himoya qilishga (qishloq xo'jaligi) qaratilgan.

- kollektiv proteksionizm - ma'lum davlatlar guruxi tomonidan shu guruxga kirmagan davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan chora tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Erkin savdo siyosati yaxshimi yoki proteksionistik savdo siyosatimi?

Bu masala doimo iqtisodchilarni qiziqtirib kelgan.

Hozirgi kundagi iqtisodiyotni yanada globallashtirish sharoitida iqtisodiyotni ochiqlashtirishiga intilish qonuniydir.

Garvard universiteti ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, yopiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotgan davlatlarda (115 ta davlat) yalpi ichki mahsulot hajmining yillik o'sishi 0,7%ni tashkil qilgan bir paytda ochiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotganda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 marta yuqori bo'ldi.

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish usullari mohiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Bojxona tariflariga asoslangan tarif usullariga (iqtisodiy bilvosita) hamda notarif (ma'muriy bevosita) usullari.

Notarif usullari o'z navbatida, me'yoriy usullarga va ko'rinmas proteksionizm usullariga bo'linadi. Savdo siyosatining ba'zi bir usullari ko'pincha cheklashni eksportni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi.

Xalqaro savdoda davlatning asosiy vazifasi – o‘zлari ishlab chiqargan mahsulotlarini iloji boricha chetga olib chiqishlari uchun eksportchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning tovarlarini xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ichki bozorda chet el tovarlarini raqobatbardoshlik darajasini pasaytirish maqsadida importni chegaralashdir.

Shuning uchun davlat tomonidan tartibga solish usullaridan bir qismi ichki bozorni chel el raqobatidan himoya qilishga, ya’ni importni chegaralashga qaratilgan. Usullarning boshqa qismini asosiy maqsadi eksportni jadallashtirishga qaratilgandir.

Har bir davlat savdo siyosatini u yoki bu vositalarini qo‘llash bo‘yicha qaror qilish oldidan, qo‘llanilayotgan vositalarni davlat savdo siyosati xarakteriga ta’sirini va sherik davlatlar tomonidan javob chegaralarini qo‘llanilishi mumkinligini o‘rganib chiqish lozim.

Savdo siyosati choralarini baholash maqsadida iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti tomonidan 1985-yili indikativ savolnoma mamlakatlar hukumatlari amaliyotida keng qo‘llaniladi.

Savdo siyosatidagi iqtisodiy chora-tadbirlarni qo‘llashdan oldin javob berilishi lozim bo‘lgan savollar qo‘yidagilardan iboratdir:

– Bu choraning amalga oshirilishi natijasida tarmoq yoki firma uchun qanday iqtisodiy yutuq kutiladi va qancha ish joylari tashkil etiladi yoki saqlab qolinadi?

– Budjet daromadlari qanchaga oshadi yoki tadbirlarni amalga oshirish uchun qancha budjet xarajatlari talab etiladi?

– Ichki narxlar qanchaga oshadi va bu chora-tadbirlar natijasida iste’mol miqdori qanchaga kamayadi?

– Amalga oshirilmoqchi bo‘lgan chora-tadbirlarning bozor tuzilishiga va undagi raqobatga ta’siri qanday?

– Bu chora tadbirlarni qo‘llanilishiga savdo bo‘yicha sherik davlatlar qanday munosabat bildiradilar va uning ularga potensial ta’siri qanday?

– Qo‘llanilishi kutilayotgan chora-tadbirlar mavjud davlat ishtirot etayotgan ko‘p tomonlama yoki ikki tomonlama shartnomalar qoidalariiga to‘g‘ri keladimi yo‘qmi?

Mana shu savollar javoblarini o'rganib va tahlil qilingandan so'ng xalqaro savdoni tartibga solish vositalari u yoki bu turlaridan qo'llaniladi.

7.5. Umumjahon tovarlarini yetkazib berish mexanizmlari

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishda jahon amaliyotida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri tarif usulidir. Tarif usulining asosini boj tarifi, ya'ni bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalariga asosan, bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalari to'plami tashkil etadi.

Bojxona boji – tovarlarni import yoki eksport qilishda, bojxona organlari tomonidan undiriladigan va eksport yoki import sharoitini belgilovchi hamda to'lanishi lozim bo'lgan badaldir.

Bojxona bojlari mohiyatiga ko'ra, uchta asosiy vazifani bajaradilar:

- Fiskal vazifa – bu ham import, ham eksport bojlariga tegishlidir. Chunki bu bojlar davlat budgetini to'ldirish manbalaridan biridir.

- Proteksionistik vazifa – bu faqat import bojlariga taalluqlidir. Chunki ular yordamida davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qiladi.

- Balanslashtiruvchi, ya'ni mamlakat ichki bozoridagi narxi jahon bozoridagi narxlardan past bo'lgan tovarlarni mamlakat hududidan eksport qilinishining oldini olish vazifasi. Bu vazifa eksport bojlariga tegishlidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni, xususan, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda tarif usullari bilan bir qatorda notarif usullari ham qo'llaniladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda tarif usullariga nisbatan notarif usullarini qo'llashga ko'proq e'tibor beriladi. Chunki notarif usullar siyosiy tomondan qo'llashda qulay, iste'molchilar uchun soliq bo'yicha qo'shimcha og'irliliklar tug'dirmaydi. Bundan tashqari, notarif usullar ko'zlagan maqsadga erishishda ham qulaydir.

Misol, bug'doy importi miqdorini 2,5 mln.tonna qilib belgilashda notarif usullardan foydalanish qulaydir. Chunki shu tovar bo'yicha

import miqdorini, import tarifi orqali shunday qilib belgilash uchun kerak bo‘lgan tarif stavkasini hisoblash ko‘p mehnat talab qiladi.

Va nihoyat, notarif usullarni qo‘llash hech bir xalqaro tashkilot tomonidan tartibga solinmaydi va bu usulni o‘z savdo siyosatida qo‘llash orqali har bir davlat tarifni qo‘llashga nisbatan o‘zini erkinroq his etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda tarif usullaridan foydalanish, aniqrog‘I, tashqi savdoni ko‘zlagan miqdorda tartibga solish butun jahon savdo tashkiloti tomonidan tartibga solinadi.

Notarif usullari mazmun mohiyatiga ko‘ra, miqdoriy, ko‘zga tashlanmas va moliyaviy chegaralash turlariga bo‘linadi.

Miqdoriy chegaralash – eksport va importga ruxsat etilgan tovarlarining miqdori va nomenklaturasini belgilashda davlat tomonidan qo‘llaniladigan notarif usullarining ma’muriy shaklidir. Miqdoriy chegaralashlar biron-bir davlat xukumati qarori asosida yoki ma’lum tovar savdosini tashkil etuvchi xalqaro kelishuvlar asosida qo‘llanilishi mumkin.

Miqdoriy chegaralash usullaridan keng tarqalgan turi kvota yoki kontingentdir. Bu ikkala tushuncha bir xil ma’noga ega bo‘lib, kontingent so‘zi odatda, mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan kvotani belgilashda qo‘llaniladi.

Kvota – bu eksport yoki importni belgilangan miqdorda va summada ma’lum vaqt oralig‘ida chegaralash bilan bog‘liq bo‘lgan miqdoriy chegaralash chorasıdır.

Kvotalar ta’sir yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Eksport kvotalari – biron davlatning ma’lum tovar eksportini umumiyl miqdordagi ulushini belgilashda, xalqaro muvofiqlashtiruvchi kelishuvlar asosida kiritiladi. Bundan tashqari, bu kvotalar biror-bir davlat tomonidan alohida holda, ichki bozorda taqchil bo‘lgan tovarlarni olib chiqib ketilishining oldini olish maqsadida ham kiritiladi.

- Import kvotalari – mahalliy xukumat tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ximoya qilish, savdo balansini muvofiqlashtirish, ichki bozordagi talab va taklifni tartibga solish, shuningdek, boshqa davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan savdo bo‘yicha iqtisodiy tazyiqqa javob maqsadida kiritiladigan kvotalar.

Qamrab olish darajasi bo‘yicha esa kvotalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- Global kvotalar – qaysi davlatdan import qilinayotganidan, qaysi davlatga eksport qilinayotganidan qat’iy nazar, ma’lum tovar eksport va importi bo‘yicha ma’lum davrga belgilanadigan kvotalardir. Bu turdag'i kvotalar ichki iste'molni kerak bo‘lgan darajada ushlab turish uchun qo‘llaniladi.

- Individual kvotalar – eksport yoki import qilayotgan davlat tomonidan, global kvota doirasida, belgilanadigan kvotadir. Odatda, bunday kvotalar o‘zaro ikki tomonlama kelishuvlar asosida qo‘llaniladi. Bu kvotalar o‘zaro siyosiy, iqtisodiy va boshqa manfaatlarga ega bo‘lgan davlatlarga eksport va import bo‘yicha ma’lum afzalliklar beradi.

Ko‘p xollarda individual kvotalar mavsumiy bo‘ladi, ya’ni ichki bozorni ma’lum tovarlar bo‘yicha davlat himoyasiga muhtoj bo‘lganda, ma’lum vaqt oralig‘ida qo‘llaniladi.

Miqdoriy notarif usullarining yana bir turi – litsenziyalashdir.

Litsenziyalash – davlat organlari tomonidan eksport va importning belgilangan hajmi bo‘yicha ma’lum davrga beriladigan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi ruxsatnomadir.

Litseziyalash kvotalashning tarkibiy qismi bo‘lishi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning alohida olingan davlat quroli ham bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda belgilangan kvota doirasida tovarni olib kirish va olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjat bo‘lishi mumkin, ikkinchi holatda esa u bir qator aniq shaxslarga ega bo‘lishi mumkin:

– Bir marotaba beriladigan litsenziya – bir savdo kelishuvi asosida bir yil ichida tovarlar olib kirish va chiqish bo‘yicha davlat tomonidan beriladigan yozma ruxsatnoma.

– Bosh litsenziya – u yoki bu turdag'i tovarlarni chegaralanmagan miqdordagi savdo kelishuvlari asosida, bir yil davomida olib kirish va chiqish bo‘yicha beriladigan ruxsatnoma.

– Global litsenziya – ma’lum vaqt oralig‘ida, chegaralanmagan miqdordagi va qiymatdagi ma’lum bir tovarni ixtiyoriy davlatga olib kirish va chiqish bo‘yicha beriladigan ruxsatnoma.

– Avtomatik litsenziya – eksportchi va importchi tomonidan ma’lum savdo operatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha ruxsat so‘ralgan paytda davlat organlari tomonidan inkor qilinmaydigan ruxsatnoma.

Litsenziyalash dunyodagi juda ko‘p davlatlar tomonidan qo‘llaniladi. Jumladan, rivojlanayotgan davlatlar tomonidan litsenziyalash importni tartibga solishda, rivojlangan davlatlar esa belgilangan kvota doirasida importchi tomonidan ma’lum tovari olib kirish bo‘yicha ruxsatni tasdiqlovchi hujjat sifatida ishlatiladi.

Importni miqdoriy chegaralash nafaqat import qilayotgan davlat tomonidan import tarifi yoki import kvotalarini kiritilishi orqali amalga oshirilishi mumkin, balki eksport qiluvchi davlat tomonidan «eksportni erkin ravishda» doirasida ma’lum chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ham amalga oshirish mumkin.

«Eksportni ixtiyoriy ravishda» chegaralash odatda, katta importchi davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy tazyiq ostida amalga oshiriladi. Katta davlat eksport qiluvchi davlatga nisbatan bir tomonlama holda importni chegaralash orqali uni o‘z tomonidan «o‘z eksportni erkin ravishda» chegaralashga majbur qiladi.

«Eksportni erkin ravishda» chegaralash bu - savdo bo‘yicha sheriklar davlatlararo rasmiy kelishuv asosida yoki eksportga kvota o‘rnatish bo‘yicha norasmiy kelishuvlar asosida eksportni miqdoriy chegaralash yoxud juda bo‘limganda uning hajmini oshirmaslik to‘g‘risida majburiyat olishidir.

Savdo siyosati sifatida eksportni moliyalashtirish davlat byujetidan hamda davlat organlari tomonidan (banklar, jamg‘armalar va boshqalar) amalga oshiriladi. Savdo siyosati sifatida moliyalashtirish milliy ishlab chiqaruvchilar va eksportchilar manfaatlarini diskriminatsiya qilishga qaratilgan.

Savdo siyosatining keng tarqalgan usullari bo‘lib subsidiyalash, kreditlash va dempinglar hisoblanadi. Bu usularning har biriga alohida-alohida tavsifnomasi beramiz:

Subsidiyalar agarda davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilar eksportini qo‘llab-quvvatlashni lozim deb bilsa, u holda davlat ularga u yoki bu shaklda davlat budgetidan subsidiyalar berishi mumkin.

Kreditlash va eksport krediti – firmalar eksportini davlat tomonidan rag‘batlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, tashqi savdo siyosatining notarif moliya usulidir.

Demping – tovarning eksport narxini shu davlatda mavjud bo‘lgan narx darajasidan kamaytirish orqali uni tashqi bozorga harakatini ta’minlovchi tashqi savdo siyosatining moliyaviy usulidir.

Shunday qilib, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan notarif-moliya usullarini o'rganish shuni ko'rsatadi, bu usullarning barchasi milliy tovarlarning eksportini oshirishga, eksport jarayoniga ko'maklashishga qaratilgan ekan. Bu usullar mazmun-mohiyatidan ko'rinish turibdiki, u asosan, rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llaniladi.

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan mahsulotlar ham tarkiban, ham sifat jihatidan yaxshilanib bormokda. Buni eksport tarkibining yillar bo'yicha o'zgarishida ham kuzatish mumkin (4-jadval).

Jadvaldag'i ma'lumotlaridan ko'rinishdiki, 1990-2016-yillar davomida eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 59,7 foizdan, 9,6 foizgacha qisqardi. Natijada eksportning xom ashyoga bog'lanib qolish muammosi to'la barham topdi. Xizmatlar eksportining ulushi esa 13,5 marta, mashina va uskunalar - 4,1 marta, kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar - 2,5 marta, yoqilg'i va neft mahsulotlari - 2,2 marta, oziq-ovqat mahsulotlari eksportining ulushi 1,7 marta o'sganligi eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibida xomashyo bo'lмаган тайyor tovarlarning ulushining oshishiga hamda eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanishiga zamin yaratdi.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasining eksport tarkibining yillar bo'yicha dinamikasi, foizda¹

Eksport tarkibi	1990 yil	2000 yil	2015 yil	2016 yil
Paxta tolasi	59,7	27,5	9,0	9,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	13,2	6,7
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	2,3	2,9	5,6	5,8
Yoqilgi va neft mahsulotlari	17,1	10,3	18,5	37,4
Qora va rangli metallar	4,6	6,6	7,4	8,0
Mashina va uskunalar	1,7	3,4	6,7	7,0
Xizmatlar	1,3	13,7	11,8	17,6
Boshqalar	9,4	30,2	27,8	7,9

¹ www.stat.uz

Agar mamlakatimiz importi tarkibining yillar davomidagi dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, unda ham ma'lum sifat o'zgarishlarini ko'rish mumkin (5-jadval).

5-jadval

O'zbekiston Respublikasining import tarkibining yillar
bo'yicha dinamikasi, foizda¹

Import tarkibi	1990 yil	2000 yil	2015 yil	2016 yil
Mashina va uskunalar	12,1	35,4	41,3	45,4
Kimyoiy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	9,7	13,6	13,3	14,4
Yoqilg'i va neft mahsulotlari	3,1	3,8	8,1	7,3
Qora va rangli metallar	10,2	8,6	8,1	7,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	12,4	9,9
Xizmatlar	1,5	8,5	5,3	6,1
Boshqalar	14,5	17,8	11,5	9,1

Eng avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, import tarkibida mashina va ishlab chiqarish uskunalar ulushi 2016-yilda 45,4 foizni tashkil qilib, bu 1990-yildagi ko'rsatkichga nisbatan deyarli 4 baravar ko'proqdir. Mazkur holat respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta qurollantirish jarayonlarini amalga oshirishda zamonaviy va yuqori texnologiyalarga asoslangan mashina va ishlab chiqarish uskunalariga bo'lgan ehtiyoj orqali izohlanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 1990-yilda 48,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilga kelib 9,9 foizga qadar, ya'ni deyarli 5 baravar qisqardi. Bu esa mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish asoslarining tobora rivojlantirib va mustahkamlab borilayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu davorda xizmatlar importi ulushining 4 baravardan ko'proq o'sishi mamlakatimizda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojning tobora o'sib borayotganligidan darak beradi. 2016-yilda jahon bozoridagi kon'yunktura beqarorligiga qaramasdan, eksport hajimi 2015-yilga nisbatan 10,9 foizga o'sdi. Tashqi savdo faoliyatidagi ijobjiy saldo 1 milliard 300 million AQSH dollarini tashkil etdi. Eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib

¹www.stat.uz

bormoqda. 2016-yilda umumiy eksport hajmining 72 foizdan ortig‘i tayyor tovarlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bundan tashqari, kelgusida, O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy majmuani yanada takomillashtirish borasida quyidagi masalalarni hal etish maqsadga muvofiqdir:

- O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari manfaatlarini ham ichki, ham tashqi bozorlarda himoya qilish;
- milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini rag‘batlantirishga qaratilgan zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish tizimlarini yanada rivojlantirish;
- eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta’minalash;
- ishlab chiqaruvchilar va eksporterlar faoliyatini har taraflama qo‘llab-quvvatlovchi tizimlarni yanada takomillashtirish;
- iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqobatbardosh va ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish;
- xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni standartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikatsiya qilish sohasida hamkorlik qilish ko‘lamini yanada kengaytirish;
- xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazoratni joriy etish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro standartlarga javob beradigan hamda jahon bozorida raqobatdosh bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatning turli hududlarida qo’shma korxonalar yaratilishini ta’minalash;
- O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan savdo – iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarni yanada kuchaytirish;
- kichik va o‘rta biznes subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishiga hamkorlik qilish;
- xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarining transportda tashish xarajatlarini kamaytirish.

Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilib ketayotgan bunday masalalarning o'z vaqtida bartaraf etilishi O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtirot etishi imkonini beradi.

Globallashuv jarayonining hozirgi bosqichidagi muhim yo'nalishlardan biri – O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizning ko'plab mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosiga aylanishi e'tiborga molikdir. Hozirgi davrda Respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy strategiyasi import o'rnni bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan birga eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish va o'zining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish modelining asosiy tarkibiy qismlardan biri tashqi savdodir. Davlat eksport siyosati mustaqillik yillari davomida bиринчи navbatda, kerakli tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan edi. Bu pirovard natijada tashqi savdo aylanmasi tuzilmasidagi ijobji o'zgarishlarga:

- neft va uni qayta ishslash mahsulotlari hamda energiya tashuvchilari eksport bazasining kengaytirilishi;
- import tuzilmasidagi siljishlar – energiya tashuvchilari, bug'doy, g'alla ulushining kamaytirilishi hamda mashinasozlik mahsuloti importi hajmlarining ortishi;
- tashqi savdoning ekvivalentligi hamda o'zaro tovar yetkazib berish hajmlarining teng kuchliligi muammolarining susayishi;
- Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi iqtisodiy integratsiyaning kuchaytirilishiga olib keladi.

Eksportning xom ashyoga yo'naltirilganligi saqlanib kelaversa, milliy xo'jalikning zaifligi ortadi, chunki uning samaradorligi ko'proq jahon xom ashyo bozorlarining kon'yunkturasiga bog'liq bo'lib qoladi, bu bozorlarning ahvoli esa yetarli darajada barqaror emas va tez-tez jiddiy o'zgarishlarga uchrab turadi. Paxta, gaz, rangli metallar, oltin bozorlari kon'yunkturasining yomonlashishi mamlakat iqtisodiyotini halokat yoqasiga keltirib qo'yishi mumkin. Chunki respublikamizda eksportning 50%dan ko'prog'i ushbu resurslarga to'g'ri keladi. Jahon

bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O‘zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, neft mahsulotlari, mineral o‘g‘itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko‘rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarimizning o‘sish sur’atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta’sir etadi. Bunday sharoitlarda, fikrimizcha, quyidagilar O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining imtiyozli yo‘nalishlari bo‘lishi lozim:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni maqsadga yo‘naltirilgan holda liberallashtirish siyosatini o‘tkazish;
- eksport va import tuzilmasini, ularning ishlab chiqarish salohiyotini rivojlantirish yo‘li bilan takomillashtirish;
- respublikamizdagi eksportga mo‘ljallangan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash;
- xorijiy kapitalni, avvalo, moddiy eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiiqarishga jalg qilish;
- O‘zbekistonning jahon transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini rivojlantirish.
- yuqori texnikaviy saviyadagi tayyor mahsulot ulushining oshirilishi.

Yuqorida aytib o‘tilgan chora-tadbirlar ichida muhim o‘rin tutishi lozim, buning uchun esa quyidagilarni bajarish zarur:

- respublikamizdagi eksportchilarning mahsulotini sotish bozorini shakllantirishda muhim rol o‘ynovchi xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O‘zbekistondagi eksportchi korxonalar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko‘maklashish;
- chuqur qayta ishslash mahsulotlarini yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi buyumlar ishlab chiqariladigan eksportga mo‘ljallangan ishlab chiqarish sohasi va uning tarkibini takomillashtirish;
- eksportning intellektual mulk obyektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnika va tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar ko‘rsatish kabi turini rivojlantirish yo‘li bilan respublikamizda erishilgan fan-texnika yutuqlarining jahon xo‘jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish.

- ilmiy loyihalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy loyihalarga bozor yo'nalishini berish uchun sharoitlar yaratish maqsadida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

- innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijoriy qo'llab-quvvatlashning optimal uyg'unlashuviniing asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnikaviy loyihalarni tijorat ahamiyatiga ega bo'lgan natijalar darajasigacha yetkazish;

- o'zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldag'i yetakchi institutlar, tashkilot va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

- yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijoratlashtirish va texnologiyalar menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning kon'yunkturasi sig'imi, talabning mavjudligi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahviliy ma'lumotlarni o'rganish zarur bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda erkin iqtisodiy zonalar ham alohida o'rinn tutadi. Dunyo mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuvi, erkin iqtisodiy zonalarni shakllantirishni taqazo etadi. Ular xalqaro xo'jalik aloqalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Erkin iqtisodiy zonalar turli mamlakatlardagi xorijiy va milliy tadbirkorlar faoliyati uchun imtiyozli iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan hududlar bo'lib, ular iqtisodiy o'sishni ta'minlash, sotsial va ekologik muammolarni yechishta bartaraf etish maqsadida tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar o'zining faoliyat yo'nalishiga qarab turlicha bo'lishi mumkin:

1. Erkin savdo zonalarida boj bekor qilinadi yoki uning miqdori ancha past bo'ladi, eksport-import ustidan nazorat bo'lmaydi.

2. Eksportga mo'ljallangan sanoat zonalarida xorijiy kapitalga soliq imtiyozi beriladi, boj puli kamaytiriladi. Bunday imtiyoz milliy kapitalga ham beriladi. Bundan ko'zlangan bosh maqsad ma'lum joylarda chet el kapitali faoliyatini kuchaytirib, xorijiy texnologiyani joriy etish, eksportni ko'paytirib valyuta topish yoki import qilinadigan tovarlar o'mini bosuvchi boshqa bir tovarlarni ishlab chiqarishdan iborat bo'ladi.

3. Bank va sug‘urta zonalari ham erkin iqtisodiy zona turkumiga kiradi. Bunday zonalarda bank operatsiyalari va sug‘urta ishlari uchun imtiyoz bo‘ladi va kapitalning kirib kelishiga qulay sharoit yaratiladi.

4. Erkin iqtisodiy zonalarning maxsus turi bo‘lib texnologik zonalar hisoblanadi. Bu yerda yangi texnika va texnologiyalarni yaratish uchun imtiyozlar mavjud bo‘lib, ulardan nafaqat xorijiy, balki milliy korxonalar va har xil tashkilotlar ham foydalanadi.

5. Nihoyat, kompleks xarakterdagи alohida iqtisodiy zonalarda ham savdo, ham sanoat, ham texnologiya ishlari uchun qulayliklar yaratiladi. Bunday zonalar hamma uchun ochiq hududlar deb yuritiladi.

Erkin iqtisodiy zonalarning ko‘payishi jahon miqyosidagi resurslar doiraviy harakatini tezlashtirib, iqtisodiy samaradorlikni umumjahon miqyosida oshirishga hissa qo’shamdi. Globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish mamlakat iqtisodiy aloqlarining rivojlantirishning yo’llaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining hududida YEIZlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida tartibi (bojxona, valyuta, soliq va boshqalar) o‘rnatalishi mumkin bo‘lib, u erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi. O‘zbekistonda 1996-yil 25-aprelda «Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingan. Ularni tuzishdan maqsad u yoki bu davlat hududida chet el investorlarini jalb qilish, ularning faoliyat ko‘rsatishlari uchun qulay sharoit yaratish yo‘li bilan iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zona-aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zona-mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladi. Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik va jismoniy shaxslar moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Oxirgi yillarda dunyoning ko‘pchilik davlatlarida erkin iqtisodiy zona keng tarqalib borayapti. Hozirgi kunda jahonda 5000 ga yaqin har xil ochiq iqtisodiy zonalar mavjud. Rossiya da erkin iqtisodiy zona sezilarli darajada faoliyat ko‘rsatayotganiga qaramasdan MDH davlatlarida hozirgacha ham erkin iqtisodiy zona tuzish, ularning

faoliyatni prinsiplarining huquqiy masalalari aniqlangan emas. MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekistonda erkin industrial-iqtisodiy zona tuzishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi Farmoni bilan Navoiy viloyatida «Erkin industrial – iqtisodiy zona (YEIIZ)» tashkil etilishi e'lon qilindi. Uning faoliyat qilish muddati hozircha 30 yil qilib belgilangan, keyinchalik yana uzaytirilishi mumkin. Bu erkin industrial – iqtisodiy zonaning tashkil etilishi mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarning yanada ko'proq jalb etilishiga olib keladi. Mamlakatimizda Navoiy aeroporti bazasida erkin industrial – iqtisodiy zonani tashkil etish, shuningdek, Navoiy shahrida yangi barpo etilgan aerodromni xalqaro operator – Koreyaning «Korean eyr» kompaniyasi boshqaruviga berish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi tufayli respublikamizda katta istiqbollar ochiladi. Xalqaro intermodal logistika markazining tashkil etilishi undan nafaqat Janubi-Sharqiy Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan qit'alararo transport-ekspeditsiya uzeli sifatida foydalanish imkonini beradi. Ayni paytda u Navoiy viloyati va qo'shni hududlarda yangi, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratadi.

Yana bir masalani ta'kidlab o'tishni lozim topamiz. Turizm serdaromad soha sifatida jahon iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. BMT Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo iqtisodiyoti ko'rayotgan daromadning 9,4 foizi, ya'ni 5,5 trillion AQSH dollari miqdoridagi mablag' aynan ushbu soha hisobiga shakllanadi. O'z navbatida, turizmga daxldor infratuzilmalarda hozirgi kunda 220 milliondan ortiq kishining mehnat qilayotgani ham uning salohiyati nechog'li yuksak ekanini yana bir karra tasdiqlaydi. Ana shu yuqoridaq holatlardan kelib chiqqan holda, jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko'plab tarixiy arxitektura yodgorliklariga ega bo'lgan O'zbekistonning turli hududlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Jizzax viloyatlarida xalqaro turizm bo'yicha erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishni maqsadga muvofiq deb o'yaymiz.

Xalqaro turizm milliy iqtisodning daromadga va tashqi iqtisodiy aloqalarning muhim shakllaridan biridir. Dunyodagi ko'pchilik davlatlar turistik faoliyatini kengaytirib, juda katta foyda oladilar. Turizmdan keladigan foyda, ayrim davlatlarda neft va gaz tarmoqlari bilan, avtomobil ishlab chiqarish bilan bahslashadi. Ayrim davlatlarga

turizm faoliyatidan olinadigan daromadning ulushi yalpi milliy daromadning 15-35 foizini egallaydi. Gretsya, Italiya, AQSH, Fransiya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar shular qatoriga kiradi. Turizmning rivojlanishi bilan boshqa tarmoqlar va xizmat turlarining rivojlanishiga, muhim ijtimoiy vazifalarni hal qilinishiga va shuning bilan hozirgi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga olib keladi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan va savdo qiladigan korxonalar ochiladi, mehmonxonalar quriladi, kommunal xo'jaligi, transport, aloqa va infratuzilmaning boshqa sohalari rivoj topadi. Turizm rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatayaptiki, bir turistga xizmat ko'rsatish uchun iqtisodiyotning turli sohalarida 3-4 shartli ishchi joyini tashkil qilish zarur bo'ladi. Diversifikasiyalash tamoyillarini nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi siyosatda ham qo'llash mumkin va buning samarasi o'laroq ijobiy natijalarga erishish mumkin. Diversifikasiya jarayoni natijasida monopolistik birlashmalar murakkab ko'p tarmoqli komplekslar shaklini olib, ularning manfaatlari sohasiga ko'pincha dastlabki faoliyat turi bilan bog'liq bo'limgan turli korxonalar, kombinatlar, kompaniyalar kiradi.

Diversifikasiya – ilmiy-texnika revolyusiyasi tomonidan hamda kapitalistik xo'jalik ichki ziddiyatlarining kuchayishi orqali vujudga keltirilgan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlar iqtisodiyotida sifat jihatidan yangi hodisa. Diversifikasiya asosida, xususan, ba'zi tarmoqlarning jadal ravishda o'sishi va ba'zilarining pasayib ketishi orqali namoyon bo'luvchi iqtisodiyotning bir tekisda rivojlanmasligi sharoitida firmalarning yashab qolishga intilishi yotadi. Diversifikasiya eng ko'p darajada XX asrning 50-yillari o'rtalarida rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda sanoat, transport, qurilish tarmoqlarida ko'zga tashlandi va tez orada barcha kapitalistik davlatlar uchun xarakterli bo'lib qoldi. Birinchi navbatda, diversifikasiyaga ilmiy-texnika revolyusiyasining kengayishi, raqobat kurashining yangi shakllari, iqtisodiyotning harbiylashtirilishi, mazkur mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi. Ko'p tarmoqli yirik monopolistik birlashmalar birinchi navbatda, yangi, nisbatan foydali tarmoqlar – kimyo, elektronika, radiotexnika tarmoqlariga kiradi. Kompaniyalarga bir xildagi xom ashyodan turli tovarlarni ishlab chiqarish, surf-xarajatlarni pasaytirish, xususan,

ilmiy-tadqiqot faoliyatiga xarajatlarni qisqartirish imkonini beruvchi mahsulot nomenklaturasini kengaytirish, kombinatsiyalash yo‘lidan borish foydali hisoblanadi. Diversifikatsiya iqtisodiy inqirozlarining yirik kapitalistik birlashmalar uchun oqibatlarini yumshatib, ularning ta’sirini pasaytiradi, biroq, tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarishning oldini olish vositasi bo‘lib hisoblanmaydi. Diversifikatsiya ham kapitalning konsentratsiyalashuvi, ham kapitalning markazlashuvi asosida amalga oshiriladi. Birinchi holatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasining kengayishi, boshqa tarmoqlarga kirish o‘zining xususiy jamg‘armalari hisobiga amalga oshiriladi. Ikkinci holatda esa – mazkur jarayon boshqa tarmoq va ishlab chiqarish turlarida band bo‘lgan kapitallarning birlashuvi, «yutib yuborilishi» natijasida amalga oshiriladi. Diversifikatsiyalashning asosan quyidagi jihatlarini O‘zbekistonda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- xo‘jalik faoliyatining turli-tumanligini ta’minlash maqsadida eksport qilinayotgan mahsulot nomenklaturasini kengaytirish;
- biznesning diversifikasiyasini amalga oshirish – bu birinchi navbatda, iqtisodiy xavfsizlik tomon tutish;
- kompaniyalarning ichki xo‘jalik resurslarini kam daromad keltiruvchi sohalardan yuqori daromadli sohalarga o‘tkazish orqali yengillik bilan o‘zgartira olishi imkoniyatini yaratish;
- diversifikatsiyalash orqali biznesning ba’zi sohalarida olinmagan foya boshqa sohalardagi yuqori daromad bilan qoplash yo‘llarini ishlab chiqish;
- diversifikatsiyalashda ham me’yor chegaralariga amal qilish. Aks holda xo‘jalik resurslarining haddan tashqari «tarqatib yuborilishi», firmaning o‘z faoliyatini qandaydir bir yoki ikki magistral yo‘nalishlarda kuchli namoyish eta olmasligi vaqt o‘tishi bilan uning moliyaviy holatini izdan chiqarishi, hattoki bankrotlikka olib kelishi ham mumkin;
- jahon xo‘jaligining yangi sohalari va boshqa tarmoqlarga kirib borish orqali ishlab chiqarishning yangi turlarini tashkil etish.

Diversifikatsiyalashning ushbu jihatlaridan foydalinish orqali tashqi iqtisodiy aloqalardan samarali ijobjiy natijalarga erishish mumkin deb o‘ylaymiz. Hozirgi davr keng xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy

muammolarni hal qilishni ham taqozo etadi. Bular ishsizlikni, jahon mamlakatlarida tez-tez ro'y berib turadigan ocharchilikni, turli-tuman yuqumli kasalliklarni va shuningdek, iqtisodiy qoloqliknii yo'q qilishdir. Butun dunyo jamoatchiligi diqqat markazida turgan bunday muammolar, dunyo mamlakatlarining o'zaro hamkorlik qilishini talab etmoqda va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining taraqqiy ettirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Globallashuv sharoitida milliy xo'jaliklarning umumjahon mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi ularning muvaffaqiyatlari faoliyat ko'rsatishining muhim shartiga aylanib bormoqda. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishi, respublikamizning ham ichki, ham tashqi salohiyatini yanada yuksaltirmoqda. O'zbekistonning integratsiya tuzilmalaridagi ishtiroki tufayli uning ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro aloqalari kengayib borayotganligi, dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoxda. Shunday ekan, integratsiya – O'zbekistonning dunyo xo'jaligi tizimiga kirib borishi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli O'zbekistonning jahon xo'jaligiga qo'shilishi masalasi hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Faqat shu yo'l bilangina jahon fan-teknika va iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga erishish mumkindir.

Xulosa

Global iqtisodiyotning vujudga kelishini nafaqat tovarlar va xizmatlar eksportining ulkan ko'lamlari, balki kapitalni olib chiqish, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlari shaklidagi mulkchilik huquqlari savdosi namoyon etmoqda. Xalqaro fond va valyuta bozorlaridagi aylanmalar savdo aylanmalaridan o'nlab, ba'zan yuzlab marta ortiqdir. 1997-yilda jahon aksiyalar savdosi aylanmasi 40 trln. dollar, mamlakatlar o'rtasida valyutani xarid qilish va sotish hajmi 400 trln. dollar deb baholangan edi.

Bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga kapitallarning katta oqimi ularning iqtisodiy rivojlanishining o'zaro bog'liqligini paydo qiladi. TMKlar o'zlarining tashkiliy, ishlab chiqarish va marketing tizimlarini chet mamlakatlar hududlariga yoyib, shu yo'l bilan tovar, xizmat, kapital va texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etib, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga ta'sir etdi. Shuningdek,

jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayonlarida xalqaro tashkilotlar rolini alohida e'tirof etish zarur.

Globallashuv jarayonlari o'tish iqtisodiyotli mamlakatlarda tegishli iqtisodiy siyosatni olib borishni taqozo etadi. Bu vaqtda iqtisodiy siyosatning vazifasi nafaqat jahon xo'jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu vaziyatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni ham minimallashtirishdan iborat.

Jahon moliya bozorlarining o'sishi, ular raqobatdoshligining, oshishi va faoliyat doiralarining kengayishi daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishiga imkoniyat yaratadi. Lekin bir qator sabablar tufayli rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotida to'laqonli qatnashish imkoniyatlari hali mavjud emas.

XXI asr boshida rivojlanmay qolib ketgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini sezilarli darajada yaxshilash uchun samarali xalqaro tizim yaratilishi kerak. Zarur islohotlar sifatida ko'pincha quyidagilar ta'kidlanadi:

- bundan buyog'iga iqtisod qilishning qat'iy dasturlarini amalga oshirolmaydigan rivojlanayotgan davlatlarning qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha og'irlikni kamaytirish;

- BMT tomonidan rivojlanayotgan davlatlarga yordam berish ko'rsatkichiga – donor-davlatlar YaIMning 0,7% iga erishish uchun yordam hajmini ko'paytirish;

- rivojlanayotgan davlatlarga, ayniqsa, hududiy savdo bloklarini shakllantirayotganlarga nisbatan proteksionistik tadbirlarni bekor qilish orqali ularning jahon savdosidagi ulushini ko'paytirish;

- XVF va Jahon bankini isloq qilish.

Tayanch iboralar:

Kapital eksporti, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, qarz talablari va majburiyatlari, xalqaro fond va valyuta bozorlari, kredit resurslari, xalqaro tashkilotlar, Xalqaro valyuta fondi (XVF), moliyaviy islohot.

Nazorat uchun savollar:

1. Global moliya bozorlarining shakllanish xususiyatlari nimadan iborat?

2. Xalqaro moliya munosabatlarini tartibga solishda xalqaro moliya tashkilotlari qanday o'ringa ega?
3. Globallashuv sharoitida o'tish iqtisodiyotili mamlakatlarda davlat moliya siyosatini olib borish xususiyatlarini tushuntiring.
4. Xalqaro moliya munosabatlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning ishtirok etishi qanday xususiyatlarga ega?
5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nima uchun moliyaviy tizimlar islohotlarini o'tkazish zarur?
6. O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya munosabatlarda ishtirok etish tamoyillari nimalardan iborat?

8-MAVZU. IQTISODIY TARAQQIYOTNING MODELLARI

Reja:

1. Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy taraqqiyot;
2. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari;
3. Iqtisodiy o'sishning omillari;
4. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar

1. Vinod Thomas, Namrata Chindarkar. Economic Evaluation of Sustainable Development, 2019. <https://doi.org/10.1007/978-981-13-6389-4>;
2. Julia Fox-Rushby and John Cairns (editors), Economic evaluation, 2016;
3. B.Xodihev, Sh.Shodmonov "Iqtisodiyot nazariyasi". Darslik–Т.: "Barkamol fayz media", 2017.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.Oecd, United Nations: Economic Commission for Latin America and the Caribbean, Caf Development Bank of Latin America. Latin American Economic Outlook 2019 Development in Transition, Latin American Economic Outlook, 2019;
2. Абдулкасимов Х.П., Саидхамедова Н.И., Абдулкасимов М.Х. Экономическая безопасность предпринимателкой деятельности. Учебное пособие. –Т.: Ilmiy–texnika axboroti-press nashriyoti, 2016;
- 3.Jo'rayev T., Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi (2-qism) ko'rgazmali va tarqatma materiallar. -Т.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.

Axborot manbalari

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal;
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi;
3. www.tradingeconomics.com – Iqtisodiy ko'rsatkichlar.

8.1. Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy taraqqiyot

Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy taraqqiyotga erishishdir. Aholi farovonligining oshirib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariiga bog'liq. Shu sababli mazkur bobning tahlili iqtisodiy rivojlanishning mohiyati, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlarini bayon qilish bilan boshlanadi.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi juda serqirra jarayon bo'lib, u o'z ichiga iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotdagи tarkibiy o'zgarishlar, aholi hayotining sifati va shart-sharoitlarining takomillashuvini oladi. U hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagи miqdor va sifat o'zgarishlarni, ijobjiy va salbiy tomonlarni olib notejis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YaIM hajmining oshishi hamda aholi jon boshiga nisbatan ko'payishida topadi.

Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondoshilganda, u bir xil sur'atlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto qisqarish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari haqida gapirganda... uning mezonlariga va, eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni

yaxshilashga olib kelishi lozim»¹. Shunday ekan, iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalananadi.

Iqtisodiy o'sishni YaIM mutloq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga bog'liq bo'ladi. Odatda, biron-bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YaIM mutloq hajmining ortishi orqali o'lchash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YaIM miqdorining ortishi orqali o'lchash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflaydigan mazkur ko'rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular birinchidan, mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof-muhitga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Shunga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barcha tavsifi yillik o'sish sur'atlarining foizdagi o'lchovida to'liq o'z ifodasini topadi:

$$O'S = \frac{YaIM_{joriy} - YaIM_{bazis}}{YaIM_{bazis}} \times 100\%,$$

bu yerda:

O'S – iqtisodiy o'sish sur'ati, foizda;


YaIM_{bazis} davr – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

YaIM_{joriy} davr – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

Shuningdek, iqtisodiy o'sish mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayib borishini ham anglatadi. Milliy ishlab chiqarish natijalarining miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan takomillashib borishi pirovardida ishlab chiqarish imkoniyatlari egi chizig'ining o'ng tomonga qarab siljishiga olib keladi. Aytaylik, 2014-

¹ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. «Xalq so'zi», 2001-yil 17-fevral №37.

yildagi milliy ishlab chiqarish hajmi (Y_{2010}) 2010-yildagi (Y_{2014})ga nisbatan o'sdi. Bu o'sish o'z navbatida milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari egor chizig'ining ham kengayishiga olib keladi (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy o'sish natijasida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi

Chizmadan ko'rindiki, iqtisodiy o'sish natijasida ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot miqdori ortadi, bu esa aholi turmush farovonligining oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yanada to'larq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ahamiyati to'g'risida gapirilganda, uning darajasini ham e'tiborda tutish lozim. Iqtisodiy o'sish sur'atlarining ahamiyatlilik darajasi turli mamlakatlar real YalMning hajmidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Real YalM hajmi nisbatan kichik bo'lgan mamlakatlar uchun 8-10% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati me'yordagi holat sanalishi, real YalM hajmi juda katta bo'lgan mamlakatlar uchun 2-3% darajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati esa ahamiyatl ko'rsatkich hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi «70 qoidasi» yordamida ham ochib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YalM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 7,8% darajasida YalMni 2

baravar oshirish uchun 9 yil talab etiladi (70:7,8). Holbuki, iqtisodiy o'sishning 2000-yildagi 4,0% darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Tovar va xizmatlar hajmining o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarining quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi o'shanday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek, mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxona qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida naflilik (moddiy-ashyoviy) va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishning naflilik (moddiy-ashyoviy) ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyasiya ta'siriga berilmaydi), biroq ularni universal holda qo'llab bo'lmaydi (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). Qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo ularni har doim ham inflyasiya ta'siridan to'liq «tozalash» mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki o'zgarmas narxlarda hisoblanadi. Chunki bunda ijtimoiy naflilikning umumiy ko'rsatkichi bo'yicha o'sish darajasini aniqlash mumkin bo'ladi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

1) YaIM va milliy daromadning mutloq hajmi va uning o'sish sur'ati;

2) YaIM va milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati;

3) YaIM va milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha bo'ladi. Masalan, agar diqqat markazida iqtisodiy salohiyat muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alovida mamlakat va mintaqalardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiyлари ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darjasи, mehnat unumdarligining o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foya massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darjasи quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darjasи;
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darjasи;
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;

g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM (YaIM) ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston o'zining iqtisodiy rivojlanish modelini izchil amalga oshirishi natijasida, boshqa sobiq ittifoqi mamlakatlariga nisbatan eng qisqa muddatlarda, ya'ni 1996-yildayoq iqtisodiy tanazzulning oldini oldi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minladi va iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq asosiy iqtisodiy masalalarni amalga oshirishga kirishdi.

O'zbekiston iqtisodiyoti 1996-2003-yillar davomida o'rtacha yillik 4% o'sish darajasi bilan rivojlandi. Iqtisodiyotning turli xil tarmoqlari va sohalarini tarkibiy o'zgartirish, qulay ishblarmonlik muhitini yaratish, tarmoqlarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004-yildan boshlab yillik 7-9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi.

YaIM ni tarmoqlar bo'yicha tahlil qilib o'rganish - yahlit iqtisodiyotning tarkibiga kiruvchi alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o'rni va hissasini aniqlashga yordam beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda yaratilayotgan YaIMning tarkibida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, shu jumladan, aholiga pulli xizmat ko'rsatish kabi sohalarning o'rni va hissasi salmoqli o'rinni egallaydi.

Keyingi yillarda sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyatini yanada kengaytirilishi natijasida YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining (2000-yilda 34,4 foizdan 2016-yilda 17,6 foizga) bosqichma-bosqich kamayish tendensiyasi saqlanib qoldi. Shu bilan birga, YaIM tarkibida qishloq xo'jaligi ulushining kamayishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ijobjiy o'rtacha yillik o'sish sur'atlari fonida sodir bo'ldi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar taklif omillari deb ham atalib, iqtisodiyotning o'sish layoqatini belgilab beradi:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi milliy (ichki) mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu yerda:

Y – yalpi milliy (ichki) mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

7) mehnat unumdarligi (Y/L) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

8) mehnat sig'imi (L/Y) – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

9) kapital samaradorligi (Y/K) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

10) kapital sig'imi (K/Y) – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

11) tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan tabiiy resurslar xarajatlariga nisbati;

12) mahsulotning resurslar sig'imi (N/Y) – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L) – ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlardan tashqari yana keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdarligi ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o'zgarmagani holda, har bir

alohida omil sarfining qo'shimcha o'sishi ta'sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi hajmini belgilab beradi:

- 4) keyingi qo'shilgan mehnat unumdorligi ($\Delta Y/\Delta L$);
- 5) keyingi qo'shilgan kapital unumdorligi ($\Delta Y/\Delta K$);
- 6) keyingi qo'shilgan tabiiy resurslar unumdorligi ($\Delta Y/\Delta N$).

Bu ko'rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishida har bir omilning hissasini namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Y = (\Delta Y/\Delta L)L + (\Delta Y/\Delta K)K + (\Delta Y/\Delta N)N.$$

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi.

Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o'z o'mniga ega bo'lsa-da, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Fan-texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o'z ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda, fan-texnika taraqqiyoti deyilganda, pirovard mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliyotda texnika taraqqiyoti va kapital qo'yilmalar (investitsiyalar) mustahkam o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti ko'pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo'yilishga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo'yicha texnologiyani qo'llash uchun atom elektrostansiyalarini qurish zarur bo'ladi. Bir qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli ro'y berish tavsifiga ega bo'ladi. Gaz va

yoqilg'i dvigatellari, konveer va yig'ma liniyalar bizning hayotga o'tmishning eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi.

Real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytilishi mumkin:

- 1) resurslarning ko'proq hajmini jalb etilishi;
- 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan.

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining o'sishini aniqlab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqt ichida, kapitalning hajmi mutloq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o'ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta'lim va malakali tayyorgarlik mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo'yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiyotida band bo'lganlarning 30%ga yaqini oliv va o'rta maxsus ma'lumotga ega. Lekin oliv va yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lganlar, aniq sohalardagi bilimlari darajasi bo'yicha boshqa rivojlangan mamlakatlardagi ishchilardan ancha orqada va ko'pchiligi o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat turida band emas. Shu sababli keyingi yillarda respublikamizda maktab, oliv va o'rta maxsus bilim yurtlarida ta'lim berishning progressiv tiziimlari joriy qilinmoqda, kasb-hunar kollejlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ham ijobjiy natijalarga erishilmoxda.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda.

Amaliy hayotda iqtisodiy o'sishni susaytirib turuvchi omillar ham mavjud bo'ladiki, ular mehnat muhofazasi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi holatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda respublikamizda davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar

mehnat sharoitini yaxshilash va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sish sur’atiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar boshqa tomonga jalb qilinadi.

8.8. Iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari

Har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasini ifodalovchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu - yalpi ichki mahsulot (YaIM)dir. YaIM yahlit iqtisodiyotning rivojlanish yakunini yoritib beradigan ishlab chiqarishning pirovard ko‘rsatkichidir. Uning mazmuni iste’mol qiymati nuqtai-nazaridan qaraganda - yakuniy tovar va xizmatlarning jamini, qiymat jihatidan esa qayta yaratilgan qiymat hamda asosiy fondlar amortizatsiyasini ifodalaydi.

YaIM – bu iqtisodiy manfaatdorligi ma’lum bir hududga qaratilgan, mamlakat rezidentlari tomonidan muayyan davrda (oy, chorak, yil) pirovard iste’mol uchun ishlab chiqarilgan, ijtimoiy naflilik hamda ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan barcha tovar va xizmatlar hajmini ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

YaIMning to‘g‘ri va aniq hisoblanishi har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, uning jahon hamjamiyatiga kirib borish imkoniyati hamda jahon iqtisodiyotidagi tutgan o‘rnini belgilab beradi. Shu sababli har bir mamlakat o‘z hududida yaratilayotgan tovar va xizmatlar hajmini imkoni boricha to‘laroq hisoblashga harakat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, YaIM harakat shakllarini chuqrur o‘rganish, tahlil qilish va shu asosda hisobchilik tizimini takomillashtirishni obyektiv zaruriyatga aylantiradi.

YaIMning takror ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha harakati Ushbu ko‘rsatkichni hisoblashning uchta usulidan foydalanishni taqozo qiladi:

4. Qo‘silgan qiymatlar (ishlab chiqarish) usuli.
5. Xarajatlar (pirovard iste’mol) usuli.
6. Daromadlar (taqsimlash) usuli.

Bu uchala usulni qo‘llash YaIM harakatining barcha fazalarini (davrlarini) kompleks tadqiq qilishga, daromadlardan foydalanish

hamda ularni shakllantirish jarayonlarini o'rganishga yordam beradi.¹

Qo'shilgan qiymat usuli bo'yicha hisoblangan YaIM hajmi yahlit iqtisodiyotning tarkibiga kiruvchi alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o'rni va hissasini aniqlashga yordam beradi.

YaIM real hajmining o'sishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini umumlashtirgan holda aks ettiruvchi, aholining o'sib va o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini, turmush sifatini yaxshilash qobiliyatini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy o'sishni uning mezonlari bo'yicha turlarga ajratib o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sish mezonlarini aniqlash bo'yicha qator tadbirlar ishlab chiqilgan. Lekin ishlab chiqilgan mezonlar mamlakatimizning hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, obyektiv baholash va kelgusidagi strategik vazifalarni belgilashda bir qator noaniqliklarni keltirib chiqarmonqda. Masalan, iqtisodiy o'sish darajasi foizda ifodalanib, uning sur'atlari YAIMning hajmiga teskari bog'liqlikda bo'ladi. Mamlakatda YAIM real hajmining yildan-yilga oshib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, tabiiyki, joriy yildagi o'sish sur'atini keyingi yilda yoki uch yildan keyin ta'minlashning imkonи bo'lmaydi. Chunki YaIM hajmi qancha yuqori bo'lsa, uning foizdagi ifodasi shunchalik pasayib boraveradi. Shuning uchun ham respublikaning real ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni uning mezonlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

1. Sekinlashgan iqtisodiy o'sish (2% dan past);
2. Mo'tadil iqtisodiy o'sish (2%-3%);
3. O'rtacha iqtisodiy o'sish (3%-5%);
4. Barqaror iqtisodiy o'sish (5% dan yuqori).

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari sanoat tarmoqlarida diversifikatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Diversifikatsiya – yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovar va xizmatlar hajmi hamda ular assortimentining kengayish jarayonidir. Uning darajasini MHT

¹ K.K. Mambetjanov Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy hisoblar tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. Iqtisod fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2012 18-b.

tamoyillari asosida hisoblash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, respublikamizda diversifikasiya darajasini hisoblash ishlarini amaliyotga kiritish iqtisodiy hodisa va jarayonlarning o‘zgarish tendensiyalarini o‘rganishda, sanoatning tarmoq va sohalari o‘rtasidagi mutanosiblik hamda muvozanatlilikni tahlil qilishda, istiqboldagi vazifalarni belgilashda juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun diversifikasiya darajasini bir qator ko‘rsatkichlar tizimi orqali har tomonlama baholash maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi quyidagilardan iborat:

A) Yalpi ichki mahsulot tarkibida qo‘shilgan qiymat ulushini ifodalovchi ko‘rsatkich. Ushbu ko‘rsatkich yahlit iqtisodiyot va uning tarmoqlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotga nisbati orqali aniqlanadi:

$$Q.Q.u = (QQ/YAIM)*100 \quad (1)$$

Bu yerda: Q.Q.u – yalpi ichki mahsulot tarkibida qo‘shilgan qiymat ulushi;

QQ – qo‘shilgan qiymat;

YAIM – yalpi ichki mahsulot.

Iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida yaratilgan yalpi mahsulot tarkibida qo‘shilgan qiymatning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, modernizatsiya darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi yoki aksincha.

Sanoat tarmoqlaridagi diversifikasiyalashuv darajasining ma’lum mezonlar asosida baholanishi istiqboldagi vazifalarni belgilab olishda, muhim ahamiyatga ega. Uning darajasini quyidagi mezonlar asosida guruhlarga bo‘lish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- diversifikasiyaning past darajasi (20% dan past);
- diversifikasiyaning mo‘tadir darajasi (20% dan 50% gacha);
- diversifikasiyaning o‘rtacha darajasi (50% dan 60% gacha);
- diversifikasiyaning yuqori darajasi (60% dan yuqori).

B) Diversifikasiya darajasining keyingi ko‘rsatkichi bu - yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida yangi turdag'i tovar va xizmatlarning ulushidir. Yangi turdag'i tovar va xizmatlar - korxonalar tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, modernizatsiyalash natijasida yaratilgan mahsulotlardir.

Yalpi ichki mahsulot tarkibida yangi turdag'i tovar va xizmatlarning ulushi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\text{YATXU} = (\text{YATXQ}/\text{YAIM}) * 100 \quad (2)$$

Bu yerda: YATXU – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot tarkibida yangi turdag'i tovar va xizmatlarning ulushi; YATXQ – yangi turdag'i mahsulot qiymati; YAIM – yalpi ichki mahsulot.

YAIM tarkibida yangi turdag'i tovar va xizmatlarning ulushi ularning darajasi bo'yicha quyidagi mezonlar asosida guruhlanishi maqsadga muvofiqdir:

- past daraja (15% dan past);
- mo“tadil daraja (15% dan 20% gacha);
- o'rtacha daraja (20% dan 30% gacha);
- yuqori daraja (30% dan yuqori).

Korxonalarни texnik-texnologik jihatdan qayta qurollantirish va modernizatsiyalashga kiritilgan investitsiyalar darajasi quyidagi mezonlar asosida guruhlarga bo'linadi:

- past daraja (4% dan past);
- mo“tadil daraja (4% dan 10% gacha);
- o'rtacha daraja (10% dan 15% gacha);
- yuqori daraja (15% dan yuqori).

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday davlatda yaratilayotgan YAIM hajmining tarkibida iqtisodiyot subyektlari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar ulushi ahamiyatli o'rinnegallashi obyektiv jarayondir. Jumladan, mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohalariga katta e'tibor qaratilishi natijasida, ushbu sohaning tarkibi yildan-yilga shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi hisobiga O'zbekiston Respublikasida 2010-yildan 2016-yilgacha sohaning YAIMdagi hissasi ortib bordi. Xususan, 2010-yilda YAMda xizmatlar sohasining ulushi 46,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha (dastlabki ma'lumot) 49,5 foizga yetdi.

Aholi tomonidan har xil turdag'i xizmat ko'rsatish turlariga bo'lgan talabning doimiy o'sishi va davlat tomonidan ushbu sohaga aloqador infratuzilmalarni (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha ko'rilib yilgagan amaliy choralar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari jadal rivojlanib, ularning umumiyligi hajmi 4,6 martaga oshgan. Telekommunikatsiya tarmoqlari, kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish hhamdarekonstruksiya qilish milliy dasturlarining amalga oshirilishi, simsiz telefon aloqalarning o'sishiga, uyali aloqa abonentlari va Internet tarmog'iga jamoaviy ulanish joylari sonining ko'payishiga olib kelmoqda.

2016-yil yakunlari bo'yicha, aholining uyali aloqa bilan ta'minlanishi 100 kishi hisobiga 65,3 birlikni tashkil etdi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro kanallarning ma'lumotlarni uzatish qobiliyati 54980 Mbit/s (2010 yilda 2510 Mbit/s.)ni tashkil etgan.

Hozirgi kunda YaIMni qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayoni korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan rasmiy ma'lumot hamda turli xildagi majburiy hisobotlar asosida amalga oshirilmoqda. YaIMning bu usulini tanlash mavjud informatsion bazaning xususiyatlari va uning ishonchliligi bilan bog'langan. Biroq ilmiy kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, ushbu usul hisob-kitob ishlarida muayyan kamchiliklarga ega.

Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohalarining axborot ta'minoti yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Natijada bu sohaning ulushi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini to'liq topmayapti.

Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasini ifodalab beruvchi turli xil hisobot shakllari talab darajasida ishlab chiqilmagan, bu esa ularning faoliyatini to'laligicha o'rganish imkoniyatini bermayapti.

Bugungi kunda respublikamizda ayriboshlash jarayonida bevosita ishtirok etadigan va o'z tannarxini to'la qoplaydigan bozor xizmatlaridan farqli o'laroq nobozor xizmatlarining qiymati ishlab chiqarish xarajatlari va asosiy vositalarning eskirishi hajmida hisoblanadi. Buning natijasida esa nobozor xizmatlarini ko'rsatuvchi iqtisodiyot subyektlarining qo'shimcha mahsuloti sotilmagan bo'lib qoladi. Bir qator nobozor xizmatlarini ko'rsatuvchi sohalar ko'rsatgan xizmatlarining qiymati to'g'ri hisoblanmasligi evaziga mamlakatda yaratilayotgan YaIM hajmini buzib ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, YaIM hajmini qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayonida nobozor xizmatlarining hajmini xuddi

bozor xizmatlari hajmini hisoblagandek yondashishimiz zarur. Foyda miqdorini esa xuddi shu tur xizmatlar ko'rsatilayotgan sohalarda olinayotgan foyda bilan shartli ravishda teng deb olish kerak.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda norasmiy faoliyat (oilaviy biznes, magazinlar, yordamchi xo'jalik, yakka tartibdag'i mehnat faoliyati kabilar) sohasi ham sezilarli darajada kengaydi. Iqtisodiyotning norasmiy sektori tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish bo'yicha ochiq faoliyat yurituvchi sektor hisoblanadi, lekin ular muntazam ravishda tegishli statistik hisobtlarni topshirmasligi sababli Ushbu faoliyat natijalarini hisobga olish imkoniyati cheklangan. Bu esa YaIM hajmi va uning dinamikasini aniq baholash imkoniyatini bermaydi, buning oqibatida esa hufyona va norasmiy iqtisodiy faoliyat natijalari yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topmaydi.

Bizning fikrimizcha, norasmiy faoliyat yurituvchi iqtisodiyot subyektlarining ishlab chiqarish natijalarini tanlama uslubni yanada takomillashtirish orqali hisobga olish zarur.

YaIM hajmini qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayonida ko'pchilik iqtisodchilar ishlab chiqarish sohasiga uy bekalarining ko'rsatadigan uy yumush xizmatlarini ham kiritishni taklif qilishadi. Bular - kir yuvish, ovqat tayyorlash, uy-joy hamda uy jihozlarini toza holda tutish, bola tarbiyasi va shu kabi xizmatlardir. Ularning fikricha bunday xizmat turlarini shartli ravishda bozor baholarida hisobga olish kerak va ularning qiymatini ham YaIM tarkibiga kiritish zarurdir. Aks holda mamlakatda yaratilgan YaIM hajmi sun'iy ravishda kamaytirilib ko'rsatiladi.

Bizning fikrimizcha, uy bekalarining bunday xizmatlarini YaIM hajmini hisoblaganda e'tiborga olmaslik kerak. Chunki ular juda katta hajmda ko'rsatiladigan nobozor (pulsiz) xizmatlar bo'lib, shartli ravishda pulda o'lchanadigan bo'lsa, bozor iqtisodiyotining natijaviy ko'rsatkichlariga putur yetkazadi, ya'ni ularning tarkibida shartli ravishda pulda o'lchanadigan nobozor xizmatlar salmog'i haddan tashqari oshib ketadi. Bu esa YaIM hajmining sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishiga olib keladi.

YalMni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblaganda – uy xo'jaliklari, davlat va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat (ijtimoiy) tashkilotlarining pirovard iste'mol uchun qilgan barcha xarajatlari umumlashtiriladi. Bundan tashqari, yalpi jamg'arma, tovar va xizmatlarning eksport - importi qoldig'i ham hisobga olinadi, ya'ni:

$$YalM = PI + YaJ + EIQ \quad (1)$$

Bu yerda: PI – pirovard iste'mol; YaJ – yalpi jamg'arma; EIQ – tovar va xizmatlarning eksport - importi qoldig'i.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2011-yil 1-apreldagi qaroriga asosan, ishlab chiqilgan "Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"¹da ko'rsatilishi bo'yicha, yalpi jamg'arma asosiy kapital yalpi jamg'armasi va moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini o'z ichiga oladi. Asosiy kapital yalpi jamg'armasining o'sishi mamlakatda investitsion faollilikning rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Asosiy kapital yalpi jamg'armasi ulushining yuqori bo'lishi mamlakatda investitsion jarayonlarning jadallahayotganligini bildiradi. Lekin bu nisbat moddiy aylanma vositalari zaxiralarining kamayishi hisobiga emas, balki ularning umumiyligi summasining o'sishi hisobiga o'zgarishi ijobji holat hisoblanadi.

Asosiy kapital yalpi jamg'armasi hisobot davrida ishlab chiqaruvchi tomonidan qo'lga kiritilgan asosiy vositalar umumiyligi qiymati (chiqib ketganlarini ham hisobga olgan holda) va nomoddiy aktivlar qiymatini oshirish xizmatlariga sarflangan xarajatlarni umumlashtirish orqali aniqlanadi.

Fikrimizcha, asosiy kapital yalpi jamg'armasi qamrovini aniq belgilab olish zarur. Buning uchun, avvalo, asosiy kapital tarkibiga kiruvchi vositalar va yalpi jamg'arma hajmiga ta'sir qiluvchi nomoddiy aktivlar miqdorini ko'paytirishga xizmat qiladigan faoliyat turlarini aniqlab olish lozim.

Ishlab chiqarish, import yoki moddiy aktivlar realizatsiyasi natijasida mamlakatda turli xil tovar va xizmatlar yaratiladi. Ular iste'mol (oraliq va pirovard iste'mol), eksport yoki yalpi jamg'arma

¹ Abdullaev Yo. Makroiqtisodiy statistika: 100 savol va javob. –T.: "Mehnat", 1998. -145 bet.

unsuri sifatida ishlatilishi zarur. Iqtisodiyotda iste'mol uchun foydalanilgan hamda yalpi jamg'arma uchun mo'ljallangan tovar va xizmatlar o'tasida aniq chegara bo'lishi lozim. Ushbu chegara ishlab chiqarish jarayonida bir yildan ortiq foydalaniladigan tovar va xizmatlardan iborat bo'lgan asosiy vositalarni qamrab olishi zarur. Shu o'rinda, ta'kidlab o'tish joizki, ushbu chegara belgilanayotganda ikkita holatga istisno tariqasida yondashish kerak.

Birinchidan, uzoq muddat xizmat qiladigan iste'mol tovarlarining hammasi ham asosiy vosita sifatida qaralmaydi. Ulardan ishlab chiqarish jarayonida emas, balki uy xo'jaligi sohasida uzoq muddat foydalanishi mumkin. Masalan, kir yuvish mashinasi ishlab chiqarish sohasida emas, balki uy xo'jaligi sektorida uzoq muddat xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun uni asosiy vositalar yalpi jamg'armasining unsuri sifatida hisobga olish uslubiy jihatdan mumkin emas.

Ikkinchi istisno konseptual emas, balki ko'proq amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi. Bu mayda asbob-uskunalar bilan bog'liq. Ular bir necha yillar davomida ishlab chiqarish jarayonida tinimsiz ishlatilishi mumkin, masalan, bolta, tesha, ketmon, qaychi, pichoq, turli xil kalitlar va hakozolar. Agar ular uchun qilinadigan xarajatlar barqaror hususiyatga ega bo'lib, ularning qiymati nisbatan murakkab vazifalarni bajaruvchi texnika va texnologiyalarga qaraganda pastroq bo'lsa, u holda ularni oraliq iste'mol sifatida ishlatiladigan vositalar qatorida hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Lekin masalaning yana boshqa jihat shundaki, bunday yondashuvni dunyoning barcha mamlakatlarida qo'llab bo'lmaydi. Chunki jahonda shunday mamlakatlar ham borki, ayniqsa, qolqoq mamlakatlarda yuqoridagi kabi asbob-uskunalar (bolta, tesha, ketmon, belkurak, pichoq, turli xil kalitlar va h.k.) korxonalarining asosiy ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi. Bunday holatda ularni asosiy vositalar sifatida, ular bilan bog'liq operatsiyalarni esa, asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar mamlakatda YaIMni xarajatlar usuli bo'yicha ishlab

chiqilgan uslubiy nizomda1 yalpi jamg‘arma unsurlari to‘liq hisobga olinmaganligini ko‘rsatdi. Shuning uchun bizning fikrimizcha, yalpi jamg‘arma tarkibiga nizomda ko‘rsatilgan unsurlar bilan birgalikda sof harid qilingan qimmatbaho buyumlar qiymatini ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Ularga qimmatbaho tosh va metallar, antikvariatlar, asar va rasmlar, badiiy ishlanma kabilar kiradi. Lekin bu, ularning hammasini qimmatbaho buyumlar sifatida korxona balansida ko‘rsatish kerak, degani emas. Chunki ulardan daromad olishning imkonи bo‘lmay qoladigan vaziyatlar ham uchrab turadi. Shuning uchun ham ular turkumiga faqat daromad olishni mo‘ljallab, investitsiyalarga muqobil variant sifatida harid qilingan qimmatbaho buyumlarni kiritish zarur. Real xayotda investorlar bozorda moliyaviy aktivlar narxlari o‘zgaruvchan bo‘lib qolgan vaziyatlarda daromad olish maqsadida ularni emas, balki, oltin yoki boshqa qimmatbaho toshlarni harid qilishni ma’qul ko‘rishiadi. Nafaqat investorlar, balki, uy xo‘jaliklari ham qimmatbaho buyumlarni kelajakda daromad olish va eng asosiysi, naqd pul mablag‘lariga zarur bo‘lib qolgan paytda tezda almashtirish maqsadida harid qilishadi.

Qimmatbaho buyumlar qiymati ularning oldi-sotdisi ro‘y berayotgan paytda (auksion yoki baholovchi tashkilotlar tomonidan belgilangan narxlarda) shakllanadi va u nomoliyaviy aktivlar uchun xarajatlar sifatida hisobga olinadi. Ushbu xarajatlar esa, yalpi jamg‘arma tarkibiga kiradi va korxona balansida obyektlar qiymati sifatida aks ettiriladi.

Fikrimizcha, qimmatbaho buyumlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

- qimmatbaho metall va toshlar. Bular korxonaning sotish, oraliq mahsulot, oltin zaxira yoki moliyaviy aktiv sifatida foydalanish uchun mo‘ljallanmagan aktivlaridir.

- antikvariat va boshqa badiiy asarlar. Bularga kartina, skulptura, turli xil qadimiy qo‘lyozmalar, antikvariat va shu

1 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2011 yil 1 apreldagi qaroriga asosan ishlab chiqilgan “Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste’mol usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”.

kabilarning sotishga mo‘ljallanmagan qismi kiradi. Muzey eksponatlari ham shular jumlasidandir.

– boshqa qimmatbaho predmetlar. Bularga yuqoridagi punktga kirmaydigan, qimmat va bozor tan olgan qiyomatga ega bo‘lgan markalar kolleksiyasi, monetalar, chinni idishlar, turli xildagi asarlar, qimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoq va shu kabilar kiradi.

Asosiy fondlar yalpi jamg‘armasi mamlakatda yaratilayotgan YAIM hajmiga juda katta ta’sir qiladigan omillardan sanaladi. Ayniqsa, ilmiytadqiqotlar uchun xarajatlarni YAIM tarkibida yangicha talqin qilish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini namoyon qilishda, uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini xalqaro taqqoslashda hamda jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ilmiy-tadqiqot bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat – bu insoniyat va jamiyat rivojlanishida turli xildagi ixtirolarni yaratish hamda ularni hayotga tadbiq etish bilan bog‘liq bo‘lgan, muntazam ravishda bilim, ko‘nikma va malakani oshirib borishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyatdir. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining hajmi bozor va nobozor ishlab chiqaruvchilari tomonidan muayyan subyektlarning buyurtmalari yoki o‘z tashabbuslariga asosan olib boriladigan tadqiqot ishlarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz statistika amaliyotida, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan “Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste’mol usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” asosida1 YaIMni xarajatlar bo‘yicha hisoblaganda ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining hajmi, ya’ni shu sohaga qilingan xarajatlar asosiy kapitalning yalpi jamg‘armasi tarkibiga kiritilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, YAIM tarkibida ushbu xarajatlarning hisobga olinmasligiga sabab bo‘ladi. Natijada pirovard iste’mol bo‘yicha YaIM hajmi past darajada namoyon bo‘ladi. Vaholanki, ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari (bilim, ko‘nikma va malaka zaxiralari) kelgusidagi iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadi.

Bizning fikrimizcha, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini, ya’ni shu sohaga qilingan sarf-xarajatlarni mamlakatimiz milliy hisoblar tizimida aks ettirishga boshqacharoq yondashish zarur. Ushbu sohaga qilingan xarajatlarni huddi bino-inshoot, texnika-texnologiya, kompyuter

1 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2011 yil 1 apreldagi qaroriga asosan ishlab chiqilgan “Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste’mol usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”.

dasturlari va shu kabilarga qilingan sarflar singari asosiy kapitalning yalpi jamg‘armasi sifatida hisobga olish zarur. Chunki ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan ham ishlab chiqarish jarayonida uzoq yillar davomida bir necha bor foydalanish mumkin. Lekin ayrim yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar ham borki, ular o‘z egasi yoki butun bir jamiyatga ma’naviy tomondan nafli bo‘lsa-da, iqtisodiy foyda olib kelmaydi. Ular uchun qilinadigan xarajatlarni oraliq iste’mol sifatida hisobga olishni davom qildirish maqsadga muvoffiqdir.

Bundan tashqari, harbiy sohadagi qurol-aslaha va ularni yetkazib beruvchi vositalar uchun qilingan xarajatlarni kapital jamg‘arish sifatida emas, balki davlat boshqaruv organlarining oraliq iste’moli shaklida hisobga olinadi.

Bizning fikrimizcha, agarda harbiy sohadagi qurol-aslaha va ularni yetkazib beruvchi vositalar bir yildan ortiq muddat xizmat qilishga mo‘ljallangan bo‘lsa, u holda ularga qilingan xarajatlarni asosiy kapital yalpi jamg‘armasi sifatida hisobga olish maqsadga muvoffiqdir.

Ushbu taysiyalarning ahamiyati shundaki, pirovard iste’mol bo‘yicha yalpi ichki mahsulotni hisoblash jarayonida yalpi jamg‘arma hajmining oshishi hisobiga YalM miqdori ham sezilarli darajada o‘sadi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada yorqinroq namoyon etishga yordam beradi.

Turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar turli-tuman bo‘lib, turmush darajasi konsepsiysi bilan uzviy bog‘liq. Ayrim muhim ko‘rsatkichlar va uning indikatorlari 2-jadvalda keltirilgan.

Turmush darajasini baholash uchun jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar:

- darajaga oid ko‘rsatkichlar (mutloq qiymatlar);
- tarkibiy ko‘rsatkichlar (darajaga oid ko‘rsatkichlarning tarkibiy qismlari);
- dinamik (darajaga oid ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini taysiflaydigan, nisbiy) ko‘rsatkichlar sifatida hisoblab chiqilishi mumkin.

Nisbiy turmush darajasini quyidagi uchta jihat bo‘yicha:

- a) avvalgi yillardagi turmush darajasi bilan taqqoslash;
- b) bir mintaqadagi turmush darajasini boshqa mintaqalardagi (mamlakatlardagi) turmush darajasi bilan taqqoslash;
- v) amaldagi turmush darajasini odamlarning minimal va oqilona talablarini ifodalovchi ehtiyojlarning rivojlanganlik darajasi bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

2-jadval

Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari va indikatorlari

Turmush darajasi ko'rsatkichlari	Ko'rsatkichlar indikatorlari
I. Asosiy jismoniy ehtiyojlar qondirilishi	
1. Salomatlik	1.1. 1ming yoki 100 ming aholi hisobiga jami o'lim. 1.2. 1000 tug'ilgan bola hisobiga bir yoshgacha o'lgan bolalar soni. 1.3. Kutilayotgan umr uzoqligi. 1.4. Kasallik natijasida mehnat qobiliyatining yo'qotilishi.
2. Ovqatlanish	2.1. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va hokazolar.
3. Turar joy	3.1. Turar joylarda uylarning umumiy maydonini ishga tushirish. 3.2. Turar joylarning umumiy maydoni. 3.3. Turar joy jamg'armasini obodonlashtirish. 3.4. Kvartiralarning o'rtacha kattaligi.
4. Uylardagi mol-mulklar	4.1. Aholining moddiy-maishiy va xo'jalik buyumlari bilan ta'minlanganligi. 4.2. Aholiga madaniy-maishiy buyumlar sotish va hokazolar.
5. Pulli xizmatlar	5.1. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish hajmi. 5.2. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish tarkibi. 5.3. Maishiy xizmatlar hajmi va hokazolar.
II. Ma'nnaviy ehtiyojlarning qondirilishi	
6. Aholining madaniy darajasi	6.1. Aholining ma'lumot darajasi. 6.2. Nashr etilayotgan kitob va risololar hajmi. 6.3. Chiqarilayotgan jurnallar va boshqa davriy nashrlar hajmi. 6.4. Aholining televizorlar bilan ta'minlanganligi va hokazolar.
III. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish	
7. Mehnat sharoitlari	7.1. Sanoatda ish vaqtি nobudgarchiligi (o'rta hisobda bir ishchi hisobiga, kun). 7.2. Xodimlarning mehnat sharoitini o'zgartirish (og'ir jismoniy mehnat bilan band bo'lganlar va hokazo). 7.3. Ishlab chiqarishda shikastlanish (bir ish kuni va bundan ko'proq ish kuni hisobiga baxsiz hodisalarda shikastlangan va mehnat qobiliyatini yo'qotganlar hamda 1000 nafar ishlaydigan odam hisobiga shikastlanishi o'lim bilan tugallanganligi soni) va hokazolar.

2-jadvalning davomi.

8. Dam olish sharoitlari	8.1. Yozgi oromgohlarda dam olgan bolalar soni va hokazolar.
9. Ijtimoiy ta'minot	9.1. Pensiyalar va o'rtacha ish haqi va uning eng kam miqdorlari bo'yicha nisbat. 9.2. Bolalarga atalgan nafaqalarning o'rtacha miqdorlari va ularning yashashiga loyiq minimum nisbati. 9.3. Pensiyalar miqdori va tirikchilik minimumi nisbati va hokazolar.
10. Ijtimoiy-maishiy vaziyat	10.1. Ishsizlarning umumiyligi. 10.2. Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va shikastlanishlar, qotilliklar va hokazolar oqibatidagi o'lim. 10.3. Ish tashlashlar (ish vaqtini nobudagarchiligi kishi-kunlari miqdori, qatnashchilar soni). 10.4. Ro'yxatga olingan jinoyatlar soni. 10.5. Ifloslangan oqar suvlarning chiqarib tashlanish hajmi. 10.6. Havoga ifloslangan moddalar chiqarib tashlanishi va hokazolar.
11. Daromadlar va surf-xarajatlari	11.1. Aholining pul daromadlari, jumladan, ularning turlari bo'yicha. 11.2. Aholining pul surf-xarajatlari, jumladan, ularning turlari buyicha. 11.3. Ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi, jumladan, tarmoqlar, mintaqalar va kasblar bo'yicha uning tabaqalanishi. 11.4. Aholining omonatlardagi jamg'armalari va uning ko'payishi va hokazolar.

Yuqorida keltirilgan turmush darajasi konsepsiysi inson faoliyatining alohida qirralarini xarakterlaydi. Ta'kidlab o'tilganidek, barcha klassifikatsiyalar o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Ular bir-birini to'ldiradi, ammo kompleks baholash uchun integral ko'rsatkichlar tizimi zarur. Hozirda asosi turlicha bo'lgan turmush darajasi konsepsiylarini aholining turmush darajasini (sifatini) har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul yo'q, biroq olimlar shunday usullarni ishlab chiqish bo'yicha jiddiy ish olib bormoqdalar.

Sho'rolar davri amaliyotida integral o'lchov sifatida jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha haqiqiy daromad ko'rsatkichidan foydalanildi. Uni oshirishning asosiy shakllari quyidagilar: haqiqiy

ish haqining o'sishi (pul shaklidagi ish haqini to'g'ridan-to'g'ri oshirish, narxlarni tushirish, soliqlar, majburiy ajratmalarni kamaytirish), ijtimoiy iste'mol jamg'armalaridan to'lanadigan to'lovlarini (ijtimoiy transfertlarni) oshirish va boshqalar.

"Haqiqiy daromadlar" ko'rsatkichida pul daromadlaridan tashqari natural daromadlarning qiymati, muassasalarning ijtimoiy soha uchun moddiy xarajatlari ko'rinishidagi daromadlar, aholining qimmatbaho qog'ozlari, jamg'armalari ham hisobga olinadi. Aholining haqiqiy daromadlari indeksi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasini, moddiy ne'matlar, xizmatlar, tariflar baholarining, soliqlar va majburiy ajratmalarning o'zgarishini hisobga olgan holda ifodalayadi.

Keyingi yillarda yangi – «ixtiyordagi haqiqiy daromad» (soliqlar va majburiy ajratmalar chiqarib tashlanib, inflyasiya sur'atlarini hisobga olgan holdagi pul daromadlari) ishlatalmoqda.

Bu ikki ko'rsatkichning farqi haqiqiy ixtiyordagi daromad – miqdor ko'rsatkichi, jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha haqiqiy daromad esa aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning o'rtacha miqdori ekanidan tashqari, ularni hisoblash metodikasi ham turlichcha.

Aholining turmush darajasini ifodalash uchun jahondagi turli mamlakatlarda turlicha mezonlar qo'llaniladi. Ular orasida minimal iste'mol budjeti, kambag'allik, mutlaq va nisbiy kambag'allik ko'rsatkichlari keng foydalaniladi.

Minimal iste'mol budjeti – Shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar iste'molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati.

Kambag'allik ko'rsatkichi aholining turmush darajasini baholash uchun foydalaniqidigan mezonlardan biridir. Juhon amaliyotida kambag'allik darajasini ta'riflashga yondashishda uchta asosiy konsepsiya: mutlaq, nisbiy va subyektiv kambag'allik konsepsiyasidan foydalaniлади.

Mutlaq kambag'allik konsepsiysi shaxs yoki oqilona minimal hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan daromadni ta'riflashga asoslanadi. O'zbekistonda insonning minimal ehtiyojlarini ta'riflash uchun shunday tirikchilik minimumi belgilanganki, uni

hisoblab chiqishda kaloriyalar, oqsillar, yog‘lar va uglevodlar zaruriy iste’molining fiziologik me’yorlaridan foydalaniladi.

Nisbiy kambag‘allik konsepsiysi asosiy mezon sifatida insonning minimal ehtiyojlaridan emas, balki uning farovonligi ko‘rsatkichlarining u yoki bu mamlakatda ustunroq keluvchi moddiy ta’milanganlik darajasi bilan bo‘ladigan nisbatidan foydalanadi. Bunday yondashishda daromadlari mamlakat bo‘yicha o‘rtacha daromadning muayyan ulushidan oshmaydiganlar kambag‘al hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda chet eldag'i tadqiqotlarda nisbiy kambag‘allikni ta’riflashning boshqa uslubiyatidan ham keng foydalanilmoqda, u inz sonning boshdan kechirayotgan, umumqabul qilingan turmush tarzi olib borish imkonini bermaydigan yetishmovchiliklar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

Kambag‘allikning subyektiv konsepsiysi ijtimoiy maqbul turmush darajasi uchun zarur bo‘lgan resurslarni subyektiv ta’riflashga asoslangan.

Konsepsiyalardagi farqlardan tashqari, kambag‘allik miqyoslarini ta’riflashga uy xo‘jaliklari tavsifini tanlash ham ta’sir etadi, u kambag‘allikni baholash uchun foydalaniladigan ko‘rsatkich bilan taqqoslanadi. Amaliyotda uy xo‘jaliklarining quyidagi tavsiflaridan foydalaniladi:

- uy xo‘jaliklarining pul daromadlari;
- uy xo‘jaliklarining pul sarf-xarajatlari;
- uy xo‘jaliklari tasarrufidagi moddiy resurslar ko‘rsatkichlari.

O‘zbekistonda kambag‘allikni ta’riflash, kambag‘allik darajasini baholashda o‘rta hisobda bir oydag'i pul daromadlari ko‘rsatkichidan foydalaniladigan tarzda kambag‘allik chegarasini tirikchilik minimumi darajasida belgilaydigan mutlaq konsepsiya asoslanadi.

Tirikchilik minimumi inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta’minalash uchun zarur bo‘lgan moddiy ne’matlar va xizmatlar iste’molining minimal darajasi ko‘rsatkichidir.

Tirikchilik minimumi o‘rta hisobda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qiymat tarzida va umuman O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha, uning tarkibiga kiruvchi subyektlardagi asosiy ijtimoiy demografik guruhlar bo‘yicha, shu jumladan, alohida shaharlar va ma’muriy-hududiy birlashmalar bo‘yicha belgilanishi mumkin.

Tirikchilik minimumining qiymatini belgilash negizini ilmiy asosda ishlab chiqilgan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy turlari o‘lchamlari taskil etadi, ular aholi ayrim ijtimoiy-iqtisodiy guruhlari uchun minimal iste’mol me’yorlari bo‘yicha tabaqlashtirib berilgan hamda iste’mol qilinadigan moddalarning kaloriyaliligi va kimyoviy tarkibi bo‘yicha muvozanatlashtirilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli me’yorlarini asoslashda turli tabiiy-iqlimi sharoitlarni hisobga olish maqsadida respublika hududi amaldagi uslubiy tavsiyalarga muvofiq bir necha zonaga ajratilgan. Zonal taqsimotga muvofiq yiliga o‘rtta hisobda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari turlari ma’lum miqdorlar doirasida belgilab chiqilgan. Hududiy zonalar bo‘yicha oziq-ovqat turlarining quvvat bera olishi sutkasiga 2204 kkal.dan 2607 kkal.gachani tashkil etadi.

Tirikchilik minimumi budgetida iste’mol me’yorlari faqat oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan, tovarlar va barcha turdag'i xizmatlar qiymati 31,7 foiz miqdorida belgilangan. Tirikchilik minimumi budgeti strukturasi Mehnat va ijtimoiy rivojlanish vazirligining Uslubiyati asosida hisoblab chiqiladi.

Hozirgi vaqtida qonunchilikdagi tirikchilik minimumiga doir talablarga muvofiq umuman O‘zbekiston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasining tarkibiga kiruvchi subyektlardagi aholi asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun iste’mol savatini belgilash bo‘yicha yangi Uslubiy tavsiyalar loyihasi ishlab chiqilmoqda. Qonunchilik talablariga muvofiq uslubiy tavsiyalarga quyidagilar kirishi kerak:

1) umuman O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha va O‘zbekiston Respublikasining tarkibiga kiruvchi subyektlardagi asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun, inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlar minimal turlarini shakllantirish prinsiplari va tartibi;

2) O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi subyektlar tomonidan iste’mol savatini belgilashda issiq yoki sovuq tabiiy-iqlim sharoitlarini, aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlar iste’mol qilishidagi milliy an’analalar va mahalliy xususiyatlarni hisobga olishga asosiy yondashuvlar;

3) umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha va O'zbekiston Respublikasining tarkibiga kiruvchi subyektlardagi asosiy ijtimoiy-demografik guruhlar uchun, inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlarning namunaviy minimal turlari.

Belgilanishi uslubiy tavsiyalar asosida amalga oshiriladigan iste'mol savati qonunchilikka muvofiq kamida besh yilda bir marta belgilanadi.

Tirikchilik minimumini hisoblab chiqishga oid yangi Uslubiy tavsiyalar loyihasida ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha amaldagi tavsiyalarga nisbatan yuqoriroq iste'mol me'yorlari belgilangan. Bundan tashqari, nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlar bo'yicha iste'mol me'yorlari ham belgilangan.

Turmush darajasini ifodalash uchun mutlaq va nisbiy qashshoqlik ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. Mutlaq qashshoqlik – daromadlarning umuman yo'qligi yoki shaxsning (oilaning) minimal turmush ehtiyojlarini qondirish uchun zarur daromadning yo'qligidir. Mutlaq qashshoqlik ko'proq daydilar, boshpanasizlar va shu kabilar orasida uchraydi.

Nisbiy qashshoqliknki O'zbekiston sharoitida yashash minimumi budjetidan kam bo'lgan daromadlar miqdori bilan aniqlanadi. Jahan amaliyotida esa bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadlarning 40-60 foizidan kam bo'lgan daromadlarga nisbatan qo'llaniladi.

Jahan amaliyotida integral ko'rsatkich sifatida insonning rivojlanish indeksi (IRI) qo'llaniladi. «BMT taraqqiyot dasturlari» (BMTTD) mualliflari jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot, kutilayotgan umr ko'rish davri va aholining ma'lumot darajasi kabi kattaliklarning o'rtachasini hisoblab turmush darajasining umumlashtiruvchi indikatorini ishlab chiqdilar.

IRI integral ko'rsatkich bo'lib, u:

1) kutilayotgan umr uzoqligini;

2) aholining savodliligi foizi hamda 25 va undan Yuqori yoshdagilarning o'qiganlik yillari o'rtacha miqdori bo'yicha aniqlanadigan aholining ma'lumot darajasini;

3) muayyan yilda birjadagi kurs emas, balki tegishli mamlakatlar valyutalarining xarid qobiliyati bo'yicha AQSH dollarida hisoblab chiqiladigan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni o'z ichiga oladi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 117-sonli «Iqtisodiy siyosatning asosiylar maqsadlari va me'yordi to'g'risida»gi Konvensiyasiga muvofiq maqbul turmush darajasini saqlab borish maqsadida davlatlar oziq-ovqat bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, salomatlik, uy-joy qurish, mehnat sharoitlari, yollanma xodimlar va mustaqil ishlab chiqaruvchilarni taqdirlash, ijtimoiy ta'minot kabi sohalarda taraqqiyotga ko'maklashish uchun iloji boricha chora-tadbirlar ko'rishlari lozim.*¹

Aholining quyidagi to'rtta turmush darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

- to'q turmush darajasi – insonning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydigan ne'matlardan foydalanish;
- normal daraja – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oqilona iste'mol qilish;
- kambag'allik – mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyichegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish;
- qashshoqlik – iste'mol qilinishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish.

Iste'mol budgetlari turmush darajasi indeksi va dinamikasini me'yoriy tahliliy baholash, bashoratlash va tartibga solish hamda daromadlar sohasida asoslangan siyosat ishlab chiqishning muhim vositasidir.

Turmush darajasi indeksini hisoblash uchun turmush darajasining quyidagi komponentlari jon boshiga to'g'ri keladigan indeksi aniqlanadi: ovqatlanish (to'yimliligi va oqsillarga boyligi bo'yicha), uy mulklari jamg'armasi (solishtirma narxlarda), uy-joy (qulayliklarni

¹ Конвенции и рекомендации принятые Международной конференцией труда. 1919-1966 /Международное бюро труда. -Женева, 1983. -1321-с.

qo'shgandagi maydoni), salomatlik va sog'liqni saqlash (umr ko'rish davri dinamikasi, o'lim darajasi, sog'liqni saqlash uchun xarajatlar bo'yicha), ta'lif va madaniyat (ma'lumot olish o'rnulari, ta'lif va madaniyat uchun ajratiladigan xarajatlar bo'yicha), aholiga xizmat ko'rsatish (solishtirma narxlarda) va hokazo. So'ng oila budgetlari statistikasi bo'yicha ehtiyojlarning elastiklik koeffitsienti aniqlanadi. Elastiklikka teskari kattalik turmush darajasining berilgan komponenti bo'yicha ehtiyojlar nisbiy qat'iyligining o'chovi sifatida qabul qilinadi. Shundan keyin har bir komponent uchun ehtiyojlar umumiyligi salmog'ida berilgan ehtiyojning ulushini ko'rsatuvchi koeffitsient topiladi. Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, O'zbekistonda turmush darajasi asta-sekinlik bilan o'sib bormoqda, ammo uning ayrim ko'r-satkichlari rivojlangan davlatlar bilan taqqoslaganda hali ancha past.

Turmush darajasini yaxshilashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri umr ko'rish davridir. Bu ko'rsatkich so'nggi yillarda taxminan 3,5 yilga qisqardi. Ta'kidlash joizki, barcha ko'rsatkichlar va ularning klassifikatsiyalari o'rtasida mustahkam aloqa mavjud. Turmush darajasining o'zgarishi turli xil omillar ta'sirida yuz beradi, ularni oqilona boshqarish aholining turmush darajasini tartibga solib borish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, turmush darajasi - turli xil sabablarga bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Har bir insonning turmush darajasi havo va suv muhiti, uy-joy, maishiy va ishlab chiqarish sharoitlari, iste'mol tovarlarining sifati va hajmidan boshlab, to umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyat, shuningdek, siyosiy institatlarning ahvoligacha bo'lgan qator tabiiy va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Ularning eng diqqatga sazovorlari - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy soha va fan-texnik taraqqiyot, shuningdek, ekologiyaga (atrof-muhitga) ta'sir etuvchi omillardir.

Omillarning ta'siri tabiiy-iqlimiyligi sharoit va zaxiralarning (inson, mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, axborot, ma'naviy zaxiralar) mavjudligiga (yo'qligiga) qarab kuchayishi (susayishi) mumkin. Ammo bunda to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud emas. Masalan, Yaponiya, shveysariya kabi davatlarda tabiiy zaxiralarning kam bo'lishiga qaramay ular eng boy davatlardan sanaladilar. Farovonlikning yuqori darajasi aholisi ko'p bo'lgan davlatlar (AQSH, Germaniya, Yaponiya) bilan bir qatorda kam aholili davatlarda ham

(Lyuksemburg, Finlyandiya, Shveysariya) kuzatiladi. Pokiston, Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston kabi davlatlarning iqlimi deyarli bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ulardagi aholining turmush darajasi tubdan farq qiladi.

Aholining ma'lumot darajasi, kasbiy darajasi yuqoriligi, iqtisodiy faolligi, tadbirkorligi, ijtimoiy munosabatlarni mamlakatda turmush darajasi yuqori bo'lishini ta'minlovchi sabablar sifatida ta'kidlanadi. Masalan, Yaponiya erishgan iqtisodiy taraqqiyotni bиринчи navbatda, та'lim tizimi, millatning mehnatsevarligi, faolligi, korxonalarda mehnatning oqilona tashkil etilishi bilan bog'lanadi.

8.3. Iqtisodiy o'sishning omillari

Bugungi modernizatsiya qilish jarayonini, iqtisodiyotni diversifikasiyalashni, korxona va tashkilotlarning texnik va texnologik imkoniyatlarini yuksaltirishni investitsion mablag'larsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining aniqligi va uni samarali amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan strategiyaning to'g'rilingiga bog'liqdir.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bиринчи bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarini keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo'ldi. Xorijiy investitsiyalarini jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

-tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;

-respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlaydigan huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

-respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yurgizish;

-mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'rmini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

Shuningdek, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalg etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- investitsiya loyihalarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;

- qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdag'i tadbirdorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalg etishda quyidagi ustuvor yo'naliishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;

- mineral xom ashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;

- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilm talab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmnинг zamонави инфратузилмасини юратишга erishish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 22-martdag'i farmoniga muvofiq quyidagi mezonlarga javob beruvchi chet el, sho'ba va qo'shma korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari qatoriga kirishi belgilab qo'yildi: ustav jamg'armasi miqdori 150 ming AQSH dollaridan kam bo'limgan korxonalar; korxona ishtirokchilaridan biri, albatta, chet el yuridik shaxsi hisoblangan; korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar servis xizmat hissasiga xo'jalik faoliyatidan tushumlar umumiy hajmining 60% dan ko'proq'i to'g'ri keladigan korxonalar.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalar ichida qo'shma korxonalar yetakchi o'rinda turadi. To'liq xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar kam. Ko'pchilik davlatlarda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish har xil. Ba'zi davlatlarda bu vazifani Moliya vazirligi bajarsa, boshqalarida Adliya vazirligi bajaradi. O'zbekistonda bu

vazifani Adliya vazirligi amalga oshiradi. O'zbekistonidagi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar respublika hududida o'zining filiallari yoki vakil korxonalarini tashkil etishlari mumkin. Bundan tashqari, ular boshqa davlatlarda ham o'z filiallarini ochishlari mumkin.

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik assotsiat-siyalari, konsernlar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasi ta'minlangan. Bu himoya har bir korxonada bo'lgani kabi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar uchun ham taalluqli. Milliy iqtisodiyotning ustuvor sohalari va hududlariga investitsiya kiritgan xorijiy investorlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan qo'shimcha imtiyozlar berilishi mumkin. Shu bilan birga qonunda xorijiy investorlarning faoliyat turlari ham belgilangan. Xorijiy investorlar yoki xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar mavjud qonunchilikka muvofiq, o'z maqsadlari va nizomlaridan kelib chiqib, barcha turdag'i faoliyatlarni olib borishlari mumkin.

Xorijiy investorlar investitsiya hajmini, turlarini, yo'llarini belgilaydilar va ularni xohlagan korxonaga mustaqil ravishda kiritishlari mumkin. Investor o'zi kiritgan investitsiya obyektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega. Shu bilan birga reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini O'zbekiston hududida milliy qonunchilik asosida, undan tashqarida esa xalqaro qonunlar asosida amalga oshirish huquqlariga ega. Investor egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini qonun bo'yicha boshqa huquqiy va jismoniy shaxsga berishi mumkin. Tomonlarning o'zaro huquqlarini bir-biriga o'tkazish vaqtidagi aloqalarni faqat ular o'rtasida tuzilgan hujjat-shartnomalar hal qila oladi. Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko'rsatilgan holatlarda yer uchastkalarini sotib olishlari mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etishi zarur:

-O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilishi;

-O'zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to'lash va boshqa to'lovlarini amalga oshirishi;

-Investitsiya loyihasining sanitariya-gigiyenik ekologiya

talablariga amal qilish bo‘limidagi ekspertiza xulosalarini olishi.

O‘zbekiston Respublikasi Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil, AQSH va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investitsiyalarni rag’batlantirish va o‘zaro himoyalash to‘g’risida bitimlar tuzdi.

“Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta’minlash va tadbirdorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Prezident Farmoniga binoan xalq iste’mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo’shma korxonalar ro‘yxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to‘lashdan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilishi ko‘zda tutilgan. Xorijiy investitsiya jalb etilgan korxonalarga quyidagi imtiyoz va rag’batlantirish omillari berilgan:

- tovarlar eksporti ishlab chiqarish hajmining kamida 30 foizini tashkil etadigan korxonalarga, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, foyda solig’ini amaldagi stavkalardan ikki barobar kamroq to‘lash huquqi;

- xorijiy investitsiyali korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik;

- respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo‘yicha soliqlar to‘lashdan yetti yil muddatga ozod etish;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning 25% i bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, korxona ishga tushgandan boshlab soliqlar to‘lashdan besh yil muddatga ozod etish. Keyingi yillarda bu korxonalarning foydasidan olinadigan soliq amaldagiga qaraganda ikki marta pasaytirilgan stavkalarda undiriladi;

- ustav kapitalning 50% va undan ko‘proq qismi xorijiy sherikka tegishli bo‘lib, ishlab chiqarish eksportga yo‘naltirilgan yoki import o‘rnini bosishga mo‘ljallangan bo‘lsa, soliqlar to‘lashdan ikki yil muddatga ozod etish;

- foydadan to‘lanadigan soliq-18%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko‘proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 500000 AQSH dollaridan

- 1 000 000 AQSH dollarigacha bo‘lsa, foydadan to‘lanadigan soliq-15%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko‘proq qismi xorijiy

sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 1000 000 AQSH dollaridan va undan ko‘p bo‘lsa, foydadan to‘lanadigan soliq-16%;

- agar ustav kapital hajmi kamida 500 000 AQSH dollarini tashkil etsa, mol-mulk solig’idan ozod qilish;

- yer solig’idan ikki yilga ozod qilish;

- o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz chetga sotish;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish;

- jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatning mulkini xususiy lash-tirishda bemalol ishtirok etishlari mumkin.

Hozirgi kunda iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar investitsiya faoliyatiga yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Bunday yondashuv quyidagi qoidalardan kelib chiqmoqda:

- investitsiya talabini faollashtirish, investitsiya resurslarini iqtisodiy taraqqiyotning ustun sohalariga to‘plash;

- investitsion jarayonlarga korxonalar, tashkilotlar, aholi jamg’armalarini to‘laroq jalb etish va undan respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda foydalanish;

- chet el kapitalining kirib kelishi uchun qulay iqtisodiy muhit hozirlash.

Xorijiy korxonalar 2005-yilning 1-iyulidan boshlab, asosiy faoliyati bo‘yicha daromad (foyda) solig’i, mulk solig’i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig’i, ekologiya solig’i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lashdan, shuningdek, Respublika yo‘l jamg’armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod qilinadilar. Bu imtiyozlar xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo‘lganda beriladi:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha - 3 yil muddatga;

- 3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha - 5 yil muddatga;

- 10 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lganda - 7 yil muddatga.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli Farmoni bilan xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSH dollaridan kam bo‘lmasan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat

ro‘yxatidan o‘tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i, qo’shilgan qiymat solig’i, mol-mulk solig’i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i, yagona ijtimoiy to‘lov, yagona soliq to‘lovi, shuningdek, Respublika yo‘l hamda Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg’armalariga majburiy ajratmalar to‘lashning mazkur korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tish sanasida amal qilgan me’yorlari va qoidalarini qo’llashga haqli ekanliklari belgilab berildi.

Umuman olganda, chet el investitsiyalarini jalb qilish bo‘yicha respublikamiz mintaqalarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga eng qulay investitsion muhit va yuqori darajadagi tadbirdorlikka ega, eksport faoliyatida qo’shma korxonalar mavqeい nisbatan yuqori bo‘lgan Toshkent shahri, Andijon, Farg’ona Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari kiradi.

Ikkinchi guruhga investitsion faoliik darajasi nisbatan o‘rtacha bo‘lgan Buxoro, Namangan va Samarqand viloyatlarini kiritish mumkin.

Uchinchi guruhdan esa, investitsion faoliik darajasi o‘ta sust, eksport faoliyatida qo’shma korxonalar mavqeい deyarli sezilmaydigan mintaqalar Xorazm, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari o‘rin olgan.

1994-2016-yillarda respublikamiz iqtisodiyotida o‘zlashtirilgan jami xorijiy sarmoyalarning 67,0%ni birinchi guruh mintaqalari hissasiga to‘g’ri kelgan. Toshkent Shahri (41,5%), Qashqadaryo (9,9%), Andijon (9,8%), va Farg’ona (5,8%) viloyatlari eng yuqori salmoqqa ega bo‘ldi.

Ayrim viloyatlarga jalb qilinayotgan sarmoya miqdori juda ham sustdir, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillarda xorijiy sarmoyalarning asosiy qismi Toshkent, Farg’ona, Andijon, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlariga to‘g’ri keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi Farmoni bilan Navoiy viloyatida «Erkin industrial – iqtisodiy zona (EIIZ)» tashkil etilishi e’lon qilindi. Uning faoliyat qilish muddati hozircha 30 yil qilib belgilangan, keyinchalik yana uzaytirilishi mumkin. Bu erkin industrial – iqtisodiy zonaning tashkil etilishi

mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni yanada ko‘proq jalb etilishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakkalaridagi tashkilotlarning 2016-yilda 49770,6 mlrd.so‘m (16782,3 mln. AQsh dollari dollar ekvivalentida) yoki 2015-yilga nisbatan 107,7 foiz asosiy kapitalga investitsiyalaridan foydalanildi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1991-yilga nisbatan 4,2 martta, 2000-yilga nisbatan 5,4 martta, 2005-yilga nisbatan 4,3 martta va 2010-yilga nisbatan 170,1 foizga ko‘paydi.

2016-yil uchun investitsiya dasturi doirasida quvvati 450 Mvt bo‘lgan ikki bug‘gaz uskunalarini qurish bilan Tolimarjon IeSni kengaytirish, Angren leS da quvvati 130-150 Mvt bo‘lgan energobloq qurilishi, sharqiy Berdax va shimoliy Berdax konini o‘zlashtirish va obodonlashtirish, Jizzax viloyatida sement zavodini kengaytirish, Mis erituvchi zavodda yangi erituvchi qozon qurilishi, “OTMK” AJga tegishli Kalmaqir konida yaroqsiz rudalarni qayta ishlash, “Jiem O‘zbekiston” AJda “T-250” modelidagi yengil avtomobilarni qatorli ishlab chiqarishni tashkil etish, Angren-Pop elektralashgan temiryo‘l liniyasi qurilishi, “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK havo kemalari parkini birlashtirish va yangilash (ikki “Boing-787” samalyotini sotib olish), “Indorama Kokand Tekstil” MCHJ shaklidagi HKda yigiruv ishlab chiqarishini tashkil etish, Andijon viloyati, Buloqboshi tumanida “Fanteks” MChJda yigiruv ishlab chiqarishini tashkil etish, “Meylisoy” bulog‘i qurilishi, TMZ-3da texnik suvlар uchun quvur va chuchuklantiruvchi qurilmalar qurilishi, “Jizzax plastmassa” AJda polietilen plenka va quvur ishlab chiqarishni tashkil etish, Jizzax EIZda shishatoladan issiqqlik izolyatsiyasi mahsulotlarini ishlab chiqarish, keng assortimentdagi elektroqurilmalar, elektrotexnik mahsulotlar ishlab chiqarishni tashktl etish va boshqa ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnika, texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni oshirish orqali iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalashni davom ettirish davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Aholi turmush darjasи faqat uning daromadlarining oshishi, sifatlаристе' mol tovarlari bilan etarli ta'minlanishi asosida o'lchanib qolmaydi. Balki, ma'naviyat va ma'rifat, madaniy ehtiyoj, turli shakllarda sifatlар xizmat ko'rsatish, bo'sh vaqtidan mazmunli foydalanish jismoniy va aqliy yetuklik kabi ko'pgina sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladiki, zero ularsiz yuksak turmush farovonligiga erishib bo'lmaydi.

Iqtisodiyoti rivojlangan Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasi aholining yuksak turmush darajasiga erishishi nafaqat moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi orqali, shu bilan birga, ijtimoiy soha, ya'ni xizmat ko'rsatish sohalarining ham keng miqyosda o'sishga bog'liqligini ko'rsatib turibdi.

Xizmatlar bozori subyektlari - tibbiyat, maorif, madaniyat, kommunal xo'jaligi, sug'urta, bank, maishiy, chakana savdo, aloqa va boshqa muassasalarning rivojlanishi mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga ijtimoiy yo'nalish berilganligidan dalolat beradi. Chunki bu sohalar faoliyati aholining kundalik turmushi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning jamiyatdagi burchlarini bajarishlarida hamda ish o'rinalarda yuqori mehnat unumдорligiga erishishlarida asosiy omildir.

Ijtimoiy sohaning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi salmog'ini hisobga olsak, milliy iqtisodiyotning bu tarmog'i iqtisodini o'rganish va to'g'ri yo'lga qo'yib bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirayotgan respublikamiz uchun dolzarb masala ekanligini ko'rish mumkin.

Ijtimoiy soha xizmati, birinchidan, o'ziga xos iqtisodiy qonuniyatga ega: ularning qiymati bo'lmaydi, chunki qiymat yaratish uchun moddiy ne'matlar barpo etilmaydi, aksincha, xizmat ko'rsatiladi.

Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohalari mehnati moddiy ishlab chiqarish sohalari mehnatidan alohida tomonlari bilan farq qiladi. Bu sohalar xodimlari alohida odamlar bilan muloqotda bo'ladilar, har xil toifadagi va har xil diddag'i odamlarning so'rovlariga javob beradilar. Bu esa xodimlardan yuksak sifatlар kasb mahoratini talab qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy sohani joylashtirishda tabiat omili moddiy ishlab chiqarish sohalarini joylashtirishdagi kabi ahamiyatga ega emas.

Xizmat ko'rsatish sohalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari moddiy ishlab chiqarish mehnat vositalariga tashqi ko'rinishdan o'xhashi mumkin. Iqtisodiy mohiyati esa bir-biriga o'xshamaydigan, chunki moddiy ishlab chiqarishda mehnat vositalari o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekin o'tkaza borib amortizatsiya ajratmasi sifatida o'z qiymatini tiklasa, ijtimoiy sohada iste'mol natijasida mehnat vositalari o'z qiymatini yo'qotadi va moddiy ishlab chiqarish sohalari tomonidan yaratilgan milliy daromad hisobiga ular qayta tiklanadi.

To'rtinchidan, xizmat ko'rsatish sohalari mehnatining faqat oz miqdori mexanizatsiyalashtiriladi va avtomatlashtiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy soha moddiy ishlab chiqarish sohalaridan mehnat sig'imini ngko'pligi bilan farq qiladi. Ijtimoiy sohada mehnat hajmini kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish asosan, mehnat resurslarini sonini ko'paytirish mehnat hamda boshqarishni tashkil qilishning taraqqiylashgan usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Beshinchidan, xizmat iste'mol predmeti hisoblanadi. Mamlakatimda xizmat ko'rsatish sohalarining xizmati asosan, bepul ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida respublikamizda ijtimoiy sohada ma'lum xizmat turlari pulli ko'rinishda amalga oshirilmoqda, lekin bunday xizmat ko'rsatishda ham ma'lum doiradagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifadagi odamlarga ma'lum engiliklar berilmоqda.

Bepul xizmat bu ijtimoiy sohaning ijtimoiy madaniy (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va h.k.) sohalari xizmatidir. Bu xizmat turlarining rivojlanishi umumiyl iste'mol jamg'armalari hisobidan olib boriladi.

Pulli xizmat turlariga uy-joy, kommunal xo'jaligi korxonalari, maishiy xizmat, aloqa, transport, sayohat va turizm, sport, dam olish sohalari, huquq tashkilotlari va qisman tibbiyot hamda ta'lim tizimlaridagi xizmatlar kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat sohalarida ham o'z xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida bir qator xizmat turlari pulli xizmat ko'rinishida olib borilmoxda. Aholiga pulli xizmat ko'rsatishni kengaytirish tovar massasi bilan pul resurslarini muvofiqlashtirishda asosiy rol o'ynaydi, chunki u aholi daromadlarini maqsadli yo'naltirish tarmoqlarini kengaytiradi.

Ijtimoiy sohada pulli xizmatlarni joriy qilish va ularni tijorat borasidagi faoliyatlarini rivojlantirish budget taqchilligining oldini olish imkoniyatini beradi.

Oltinchidan, ijtimoiy soha xizmatiga keng xalq ommasi murojaat qilishini, xizmat turlarining xilma-xilligini ko'ramiz. Shuning uchun ham ba'zi hududlarda bu sohalarning xizmat "ko'chma" ravishda, ya'ni o'zlar qatnab xizmat ko'rsatishga moslashtirilgan. Ijtimoiy sohaning xizmati bevosita inson omili bilan bog'liq. Shu sababli bu xizmat sohalariga tegishli muassasalarning hududlararo joylashishi ko'p jihatdan demografik omillarga va ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog'liq.

Yettinchidan, ijtimoiy sohaning faoliyat yuritishi ikki xil usulda moliyalashtariladi.

A) budget asosida;

B) xo'jalik hisobidan.

Sakkizinchidan, xizmat ko'rsatish sohalari xodimlariga ish haqini to'lashni tashkil qilish o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xodimlarning ish haqi manbalari bu sohadan tashqari shakllanadi: moddiy ishlab chiqarish xodimlari yaratgan milliy daromad hisobiga ijtimoiy soha xodimlarining ish haqlari milliy daromadning turli qismlarida tashkil topadi, demakdir.

Xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari mehnatiga son jihatidan baho berish qiyindir, shuning uchun ham bu soha xodimlariga ish haqi belgilashda mehnat faoliyati samarasiga, vazifa turiga, korxona tabaqasiga, ma'lumot darajasiga va mehnat stajining davomiyligiga e'tibor beriladi. Shuningdek, bu sohalar xodimlariga ish haqi to'lashda yagona haq to'lash jadvalidan foydalilaniladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilish bo'g'inlarini umumlashtiruvchi yagona xalq xo'jaligi kompleksi

ikkita yirik tarmoqdan: moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridan iborat. Shuning uchun ham xalq xo‘jaligi ikki soha ko‘rinishi bilan chegaralanadi. Moddiy ishlab chiqarishga tarixan va mantiqan qaraydigan bo‘lsak, moddiy ne’matlar yaratish insoniyat taraqqiyotida asosiy omil hisoblanadi. Alovida noishlab chiqarish turlari faoliyatining ajralib chiqishi esa ishlab chiqarish kuchlari darajasining rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining boshlang‘ich shaklidir.

Moddiy ishlab chiqarishning bosh belgisi - ishlab chiqarish sohasidagi ishchilar mehnatini, tabiat resurslarini inson ehtiyojiga moslashtirish hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohalari xodimlari mehnatining ajralib turadigan belgisi - bu, shu soha xizmatini faqat inson uchun, uning kamol topishiga, ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishiga va qolgan barcha faoliyatining amalga oshirilishiga yo‘naltirilganligidir.

Xizmat ko‘rsatish sohalari xalq xo‘jaligida bajaradigan vazifasiga qarab uch turga bo‘linadi.

Birinchi guruhga ishlab chiqarishdan bevosita tashqarida moddiy va nomoddiy farovonlikni qayta ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi tarmoqlar kiradi.

Ikkinci guruhga taalluqli tarmoqning faoliyati bevosita inson qobiliyatini oshirishga, salomatligini saqlashga, ma’naviy va madaniy ehtiyojini shakkantirishga va qondirishga, shuningdek, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga qaratilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohalarining uchinchi tarmoq guruhiga bevosita jamiyatning umum davlat tizimi bilan bog‘liq sohalar kiradi va ular aholining boshqarishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojini, davlat xavfsizligini, ijtimoiy mulkni mustahkamlash va uni qo‘riqlashga bo‘lgan talabni qondiradi.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘tib borar ekan, hukumatimiz asosiy e’tiborni ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratmoqda, chunki bu sohani taraqqiy ettirmay turib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o‘tib bo‘lmaydi.

Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta’lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning

barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki budjet tashkilotlarda ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish maqsadga muvofiq.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham budjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish ham ustuvor vazifa qilib qo'yilgan.

Budjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida muntazam oshirilib boriladi. Xususan, Prezidentning «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi Farmoniga asosan, 2017-yilning 1-dekabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida eng kam:

1. Ish haqi – oyiga 172240 so'm;
2. Yoshga doir pensiyalar – oyiga 336880 so'm;
3. Bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa – oyiga 336880 so'm;
4. Zarur ish stajiga ega bo'limgan keksa yoshdag'i va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa – oyiga 206720 so'm qilib belgilandi.

Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash tizimini tubdan takomillashtirish, pensionerlar, talabalar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini so'zsiz ta'minlash, ularning O'zbekiston Respublikasining barcha hududida xarid qiladigan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarini to'siqlarsiz amalga oshirishi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldag'i “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-2753-sonli qarori¹ qabul qilindi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldag'i “Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-2753-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 73-modda.

Mazkur qarorga asosan 2017-yilning fevral oyidan boshlab:

– barcha turdag'i pensiyalar butun mamlakat hududida hech qanday cheklovlarisiz to'liq hajmda naqd shaklda beriladi;

– 58 ta tog'li va olis tumanlardagi budget tashkilotlari xodimlariga ish haqi to'lash, ijtimoiy to'lovlar hech qanday cheklovlarisiz to'liq hajmda naqd shaklda amalga oshiriladi;

– oliy o'quv yurtlari talabalariga stipendiyalarning kamida 50 foizi naqd shaklda beriladi.

Bundan tashqari, hududlarda shakllangan ish haqini naqd shaklda hamda plastik kartalarga o'tkazish yo'li bilan to'lashda odamlar o'z ish haqidan foydalanishda muammolarga duch kelmasligi va o'zlariga kerakli tovar va xizmatlarni erkin xarid qilishlari uchun mavjud to'lov terminallari infratuzilmasi hisobga olinadi.

Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri, xalq turmush darajasi va sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida belgilangan.

Binobarin, yurtimizda har yili milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, hududiy kesimlarda mehnat resurslaridan yanada to'liq va oqilona foydalanish, aholining ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga qaratilgan tegishli dasturlar qabul qilinyapti.

Milliy mehnat bozorining e'tiborli o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: aholining asosiy qismini yoshlar tashkil etishi (har yili yarim milliondan ortiq bitiruvchilar ishga joylashish bo'yicha ko'makka muhtoj); 700 mingdan ortiq ishsizlarning, shuningdek, ishchi kuchining talab va taklifi bo'yicha nomutanosiblikning mavjudligi; ayrim tumanlarda ishsizlikning va norasmiy sektorda ish bilan bandlikning yuqoriqoq darajasi kuzatiladi.

Yuritimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo'lsa-da, o'tgan yili Bandlikka ko'maklashish markazlari atigi 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirgan. Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog'liq¹.

1 Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - bar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Makhkamasining kenayg'irilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 15.01.2017

Bunday holat bandlikka ko'maklashishning faol siyosat choralarini amalga oshirish, ya'ni ish o'rinalarini yaratish, avvalo, yoshlarni va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalarini ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish chorasini ko'rishga zaruriyatni keltirib chiqaradi.


Mehnat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilda Bandlikka ko'maklashish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlarning 93,2 foizi ishga joylashtirilgan (3-jadval).

3-jadval
Respublika bo'yicha mehnat bozori va aholi bandligi to'g'risida
ma'lumot (2016 yil)

	Hududlar nomi	Bandlikka ko'maklashish markazlariga ish so'rab murojaat qilganlar	Shundan ishga joylash-tirilgan	%	Xaq to'laniadijan jamoat ishlarda qatnashgan	Kasbea tayyorlashga yuborilgan	Kvota o'rinalariga ishga joylashtirilgan
	O'zbekiston	133693	124558	93,2	4918	3462	36825
1.	Qoraqalpog'siston. Res. viloyatlar:	10142	9840	97,0	642	182	1286
2.	Andijon	12482	11921	95,5	309	244	1898
3.	Buxoro	9848	9412	95,6	95	89	2994
4.	Jizzax	5624	5044	89,7	200	111	506
5.	Qashqadaryo	9107	8205	90,1	283	141	1170
6.	Navoiy	5519	4738	85,8	102	77	1937
7.	Namangan	13304	12499	93,9	1244	250	2493
8.	Samarqand	17580	17044	97,0	521	306	3614
9.	Surxondaryo	5507	4948	89,8	133	144	1501
10.	Sirdaryo	3023	2562	84,8	75	67	792
11.	Toshkent	9832	9225	93,8	260	205	4895
12.	Farg'ona	19777	18931	95,7	551	565	6011
13.	Xorazm	7771	7090	91,2	499	245	1175
14.	Toshkent sh.	4177	3099	74,2	4	836	6553

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi ma'lumotlari
//www.mehnat.uz.

O‘zbekistonda fuqarolarning mehnat va tadbirdorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ish bilan ta‘minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta‘minlash kabi aholini ish bilan ta‘minlash borasida izchil davlat siyosati amalga oshirib kelinmoqda. Yuqoridaqgi vazifalarni hayotga samarali joriy qilish maqsadida har yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Aholi bandligini ta‘minlash dasturi ishlab chiqiladi. Unga ko‘ra, 2017 yilda respublika bo‘yicha 789,5 mingta ish o‘rinnari yaratish ko‘zda tutilgan (2-rasm).




2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan ish o‘rinnari sonining o‘zgarishi, birlik¹

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2010-2016-yillar davomida respublika bo‘yicha tashkil etilgan ish o‘rinnari soni 3,9 foizga ortgan. 2017-yil davomida esa dasturga muvofiq sanoatni (5440 ta loyiha 131 mingta ish o‘rni bilan), qishloq xo‘jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o‘rni bilan) va xizmat ko‘rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o‘rni bilan) rivojlantirish bo‘yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyati kuchaytiriladi. 25 mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 256,4 mingdan ortiq ish o‘rinnari tashkil etilishiga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 20-apreldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent Shahrida ishbilarmonlik muhitining holati va ijtimoiy-iqtisodiy

¹ <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-demografik-korsatkichlari-tahlili>

rivojlantirish darjasini indikatorlarini har chorakda baholash tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 117-sonli qaroriga ilovada ishsiz darajasini baholash mezoni keltirilgan. Unga ko‘ra, respublikada ishsizlik darjasini (5,2%) mo‘tadil hisoblanadi. Ammo respublikada ishsizlik darjasini birmuncha yuqori bo‘lgan, tog‘li, chegara oldi hududlarida joylashgan, ishlab chiqarish va ijtimoiy soha yetarli darajada rivojlanmagan 34 ta tuman mavjud. Mazkur tumانlarda ish o‘rnini tashkil etishga aholi bandligini ta‘minlash dasturlarini alohida e’tibor qaratilgan va 2017- yilda aynan shu tumанlarda 46,8 mingta ish o‘rnini tashkil etish rejalashtirilgan (3-rasm).



3-rasm. Ishsizlik darjasini yuqori va mehnat bozorida vaziyat murakkab bo‘lgan 34 ta tumanda yaratiladigan ish o‘rinlari tarkibi (2017-yil)¹

Yangi ish o‘rinlarini tashkil etishda erkin iqtisodiy zonalarning ham o‘rnini katta. Xususan, respublikada “Navoiy” “Angren” va “Jizzax” erkin iqtisodiy zonalari tashkil etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi 4931-sonli farmoni bilan «Urgut», «G‘ijduvon», «Qo‘qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalari tashkil etildi². Bu iqtisodiy zonalarda meva-sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash, saqlash va qadoqlash, to‘qimachilik, gilam to‘qish,

¹ <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-demografik-ko'rsatkichlari-tahlili>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi «Urgut», «G‘ijduvon», «Qo‘qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 4931-sonti farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 3-son, 40-modda.

poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo‘nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga zamin yaratadi.

Aytish joizki, 2017-yilda kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalarining 508,8 ming nafar bitiruvchisini ishga joylashtirish mo‘ljallangan.

Yaqin kelajakda kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta’minalash sohasidagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- bitiruvchilarini biriktirish ishlarini puxta tashkil etish;
- bitiruvchilar bandligini ta’minalashda yangi samarali shakllar va uslublarni davom ettirish;
- bitiruvchilar bandligini ta’minalashda belgilangan imtiyozlardan kengroq foydalanish;
- bitiruvchilarga o‘z binesini tashkil etishlari uchun mikrokreditlar ajratish amaliyotini davom ettirish.

Mehnat va Iqtisodiyot vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosida mehnat bozorida vaziyat murakkab bo‘lgan tuman va shaharlar ro‘yxati aniqlanadi, unga muvofiq aholi bandligi dasturlarining manzilli ro‘yxatlari, kichik sanoat zonalari, xizmatlar sohasini rivojlantirish, chorvachilik, parrandachilik va issiqxona xo‘jaliklarini barpo etish, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilarini uchun «start-ap» loyihalarini amalga oshirishga mikrokreditlar va lizing asosida ishlab chiqarish vositalarini ajratish ishlari amalga oshiriladi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mehnat bozori talablariga asosan, professional kadrlarni qayta tayyorlash yuzasidan qisqa muddatli trening va o‘quv kurslarini o‘tkazish bo‘yicha nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini rag‘batlantirish, nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash tartibini soddalashtirish, davlat akkreditatsiyasiga ega bo‘lgan nodavlat ta’lim muassasalari uchun davlat namunasidagi hujjatlarni berish bo‘yicha mavjud cheklovlarni bartaraf etish nazarda tutilgan.

Shuningdek, Harakatlar strategiyasida o‘rtा maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida kerakli talabdan ortiq hajmda tayyorlanayotgan gumanitar ta’lim yo‘nalishlarini qisqartirishni va mos ravishda agrar sektor, qurilish va ishlab chiqarish sohasi, uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasi mutaxassislari tayyorlashni kengaytirishni ko‘zda tutuvchi o‘rtа maxsus va kasb-hunar ta’lim mutaxassislik yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish rejalashtirilgan. Joriy va istiqboldagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda mutaxassislarni tayyorlash, agrar sektor, qurilish va ishlab chiqarish sohasi, uy-joy kommunal xo‘jaligini malakali mutaxassislar bilan hamda bitiruvchilarni kafolatlangan ish bilan ta’minalash imkonini beradi.

Hududlarda aholi bandligini ta’minalash hamda qo’shimcha daromad manbaini yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan mikrokreditlar ajratish hajmini yanada oshirish quyidagi sohalarda nazarda tutilgan:

- fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish
- qoramol, qo‘y, echki, quyon boqish va go‘sht etishtirish
- parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish
- ixcham issiqxonalar tashkil etish
- urug‘ va ko‘chatlar etishtirish

Buning natijasida aholi tomorqasidan foydalanish samaradorligi oshadi, ishlab chiqariladigan sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi ko‘payadi.

Harakatlar strategiyasida olis va tog‘li hududlarda turizm va ekoturizmni tashkillashtirish, dorivor o‘simliklarni etishtirish, yig‘ish va qadoqlash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Bunda, tog‘ oldi hududlaridagi qishloqlarda 10-15 ta xonadonlarda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish uylari tashkil etilib, ya’ni uyning bitta yoki ikkita xonasi devorlari so‘zana, adres bilan bezatilib, ko‘rpacha to’shalib, xontaxta qo‘yilib, tualet va oshxonaning sanitар holatlari tartibga keltirilib, chet ellik sayyohlarga tabiiy manzaralarini ko‘rsatish bilan birga non yopish, milliy taomlarni tayyorlash, milliy urf-odatlar bilan tanishtirish kabi xizmatlar ko‘rsatilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakati-mizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari

va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida ayollarning jamiyatdagi mavqeい va ular bandligi masalalariga to‘xtalib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar: “Uchinchı vazifa – ayollarni ularga munosib mehnat bilan bandligini ta’minlash masalasidir. Ayollar uchun doimiy ish joylari yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo‘jaligini keng rivojlantirish ishlari ham oqsamoqda”¹.

Harakatlar strategiyasida xotin-qizlarning va kollej bitiruvchilarining bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish, tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida:

- «Mahallaning eng namunali tadbirkor ayoli» tanloving mahallalararo va tuman (Shahar) bosqichlarini o‘tkazish;
- «Tadbirkor qizning eng yaxshi loyihasi – 2017» respublika tanlovi o‘tkazish;
- Qo‘rg‘ontepa, Olot, Paxtakor, Dehqonobod, Koson, Nurota, Uzun va Qo’shko‘pir tumanlarida ayollarni kasbga o‘qitish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish;
- pedagogik ma’lumotga ega bo‘lgan, biroq bola parvarishlash munosabati bilan vaqtincha ishlamayotgan ayollarga oilaviy maktabgacha ta’lim tarbiyachisi sifatida kasanachilik faoliyati tashkil etish.

Bu tadbirlarning amalga oshirilishi xotin-qizlarda va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchi qizlarida tadbirkorlik ko‘nikmalari shakllantiradi, ularning huquqiy va iqtisodiy bilimlarini oshiradi.

2017-yil respublikada aholi bandligi masalalariga oid quyidagi Qonunlar va qonun osti hujjatlari ishlab chiqilishi rejalashtirilgan:

1. “Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Aytish joizki, mazkur qonun mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirishning mexanizm va shakllari, mehnat migrantlari bilan ishlash sohasidagi diplomatik vakolatxonalarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari, chet elda

¹ Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak // Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar’, №11 (6705)

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsiy xavfsizligini ta’minlash va ularning ijtimoiy himoyasi masalalarini qamrab oladi.

O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi masalalari Birinchi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan 5 tamoyil (ish joyi va mehnat Sharoti, ish vaqt, turar joy bilan ta’minlash, malakali tibbiy xizmat, xavfsizligi ta’minlanganligi) asosida amalga oshirilmoqda.

Mehnat vazirligining Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha agentligi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

– hududlarda fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish bo‘yicha xo‘jalik hisobidagi Byuro, shuningdek, ishga joylashtirilayotgan fuqarolarga o‘zini tutish etikasi, borayotgan mamlakatning madaniyati va tili, qonunchiligi asoslariga o‘rgatishni yuklagan holda chet ellarga ketayotgan fuqarolarni oldindan ko‘niktirish va o‘qitish markazining hududiy tuzilmalarini tashkil etish;

– fuqarolarga chet elda ishga joylashish uchun ruxsatnomalarni bekor qilish va xorijiy mamlakatlarga chiquvchi fuqarolarni hisobga olishning xabardor qilish tartibini joriy qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijiy mamlakatlarga (AQSH, Kanada, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va Fors ko‘rfazi mamlakatlariga) ishga yuborish hajmi va yo‘nalishini kengaytirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari bilan muzokaralar o‘tkazish.

2. «Aholi bandligiga ko‘maklashish nodavlat tashkilotlari (rekrutting agentliklari) to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish. Loyiha mehnat bozori infratuzilmasini oshirish, aholi bandligini ta’minlash imkoniyatlarini, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

3. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqiladi. Qonun quyidagilarni nazarda tutadi:

– xususiy sektorda ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi mehnat shartnomasi tuzish jarayonini soddalashtirish, muddatli mehnat shartnomasi tuzish asoslarini kengaytirish;

– ishga olishning yangi shakllarini (bir martalik, soatbay), shuningdek, soatbay ish haqi to‘lash tartibini joriy etish;

– xodimlar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmagani, mehnatni muhofaza qilish qoidalari, xodimni ijtimoiy sug‘urta qilish bo‘yicha talablarni buzgani uchun ish beruvchining javobgarligini kuchaytirish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mehnat stajini hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta to‘lovlari davriyiligini ro‘yxatga olish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori loyihasi ishlab chiqiladi va kiritiladi. Mazkur qaror mehnat stajini elektron tarzda ro‘yxatga olish hamda davlat ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslarning yagona reestrini yuritishning imkonini yaratadi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nisbatan sust rivojlangan tumanlarning ishsiz yoshlarini Toshkent va Samarqand shaharlaridagi (Koreya Respublikasi hukumatining grant mablag‘lari hisobiga tashkil etilgan) kasb-hunarga o‘qitish markazlarida mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga qayta o‘qitish orqali ularning bandligi ta‘minlanishi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 13-sentyabrdagi “Toshkent Shahridagi kasb-hunarga o‘qitish markazi faoliyatini ta‘minlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 270-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan Toshkent shahridagi kasb-hunarga o‘qitish markazida bugungi kunga qadar 2 ming nafardan ortiq band bo‘lmagan fuqarolar quyidagi yo‘nalishlarda kasb-hunarga qayta o‘qitilgan va to‘liq ishga joylashtirilgan:

– “Mashinasozlik ishlab chiqarish texnologiyalari” (tokarlar, frezerchilar, payvandchilar, metallga ishlov berish mutaxassislari);

– “Elektronika va elektrotehnika” (elektron qurilmalar, maishiy elektron texnika, radio va teleapparatlarni ta‘mirlash va servis xizmati ko‘rsatish mutaxassislari);

– “Avtomobilarni ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish” (avtochilangarlar, motorchilar, avtotransport vositalarini diagnostika qilish, ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish);

– “Axborot texnologiyalari va tizimlari” (kompyuterlarni dasturlash, kompyuter va boshqa orgtexnikaga xizmat ko’rsatish va ta’mirlash).

Biz o’tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, “Kecha kim edigu bugun kim bo’ldik?” degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o’zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtida “Ertaga kim bo’lishimiz, qanday yangi, yuksak marralarni egallashimiz kerak?” degan savol ustida o’ylashimiz, nafaqat o’ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim.¹

8.5. Cobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi

Iqtisodiy tahlilda va ekonometrikada ishlab chiqarish omillari va ishlabchiqarilgan mahsulot o’rtasidagi bog’liqlikni tahlil qilishda Cobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi juda keng miqyosda qo’llaniladi. Ushbu funksiya ilk bor Knut Uiksell tomonidan taklif qilingan va 1928-yildan Charlz Cobb va Pol Duglaslar tomonidan empirik ma’lumotlar bilan tekshirib ko’rilgan. 1928-yilda Cobb va Duglaslar 1899-1922-yillardagi Amerikadagi iqtisodiy o’sish model haqidagi tadqiqotni chop etishdi. Ular bu tadqiqotda iqtisodiyotning sodda modelini taklif qilishgan edi. Bunda, iqtisodiy faoliyatga juda ko’plab omillar ta’sir qilishiga qaramay, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi faqatgina ishlab chiqarishda qatnashgan ishchi kuchi hamda investitsiya qilingan kapital tomonidan aniqlanishi aks etgan edi. Lekin shunga qaramay, ularning bu modellari iqtisodiy voqelikni ancha aniqlikda aks ettirgan.

Ular ishlatgan model quyidagicha belgilangan:

$$Q(K, L) = AK \alpha L \beta \quad (1)$$

Bu yerda:

¹ 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirdorlikka keng yo’l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O’zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish yakunlari va 2015 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma’ruzasi. Xalq so’zi. 18.01.2015-y.

Q = Umumiy ishlab chiqarish hajmi (bir yilda ishlab chiqarilgan jami mahsulotning monetar qiymati)

L = Sarflangan ishchi kuchi;

K = Sarflangan kapital;

A = Omillarning umumiy samaradorligi;

α va β

lar kapital va ishchi kuchining mos ravishdagi mahsulot elastiklaridir.

Mahsulot elastikligi bu ishlab chiqarilgan mahsulotning ishlab chiqarishga sarflangan kapital yoki ishchi kuchidagi o'zgarishlarga ta'sirchanligidir. Masalan, $\alpha = 0,15$ bo'lsa, unda kapital hajmining 1% ga oshishi umumiy shlab chiqarish hajmining 0,15 % ga oshishini bildiradi. Bundan tashqari agar $\alpha + \beta = 1$ bo'lsa, unda ishlab chiqarish funksiyasi doimiy nisbiy qaytarishga ega deb aytildi.

